

O'ZBEKISTON RESPUBLIKAS
MUSTAQILLIGINING
15 YILLIGIGA BAG'ISHLANAD

DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI

DARSIJK


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI

**Oliy o`quv yurtlarining huquqshunoslik
mutaxassisligi bo`yicha ta'lim olayotgan
talabalar uchun**

DARSLIK



Toshkent - 2006

Mualliflar jamoasi

Davlat Hokimiyati vakillik organlari.
Darslik./Mas'ul muharrir: yuridik fanlar doktori,
professor A.T.Tulaganov. -T.: TDYI nashryoti,
2006, -337 bet.

Sarlavhada: O'zbekiston Respublikasi
adliya vazirligi; TDYI.

Mualliflar jamoasi:

yu.f.d., professor, A.T.To'laganov – Kirish, I, II, III, IV, V, VI – boblar.

yu.f.n., dotsent, S.M.Xidirov – VIII, X - boblar.

yu.f.n., A.B.Cho'liyev –XIV, XV, XVI, XVII - boblar.

o`qit. SH.X. Zulfiqorov -VII - bob.

o`qit. I.R.Bekov - XI-bob.

o`qit. O.T.Turg'unov- XII - bob

o`qit. SH.G`.Asadov - IX-bob.

o`qit. U.SH.Husainov - XIII-bob.

Taqrizchi: yuridik fanlar doktori, professor O.T. Xusanov

Mazkur davlat hokimiyati vakillik organlari fanining manbai, uni o'rganish uslublari kabi masalalar yoritilgan. Darslik talabalarga, magistrant, aspirant va yuridik oliy o'quv yurtlari o'qituvchilariga, mutaxassislarga, shuningdek, davlat huquqi va boshqaruvi masalalariga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallanadi.

10088

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**
Ahborot-resurs markazi

© Mualliflar jamoasi.

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2006-yil.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va davlat qurilishi sohalarida amalga oshirilgan islohotlar qatorida davlat hokimiyati vakillik organlari tizimini isloh qilish ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi munosabati bilan yanada faollashdi, chunki Respublika Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi... Asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi... Bir so'z bilan aytganda, Konsiyamiz tom ma'noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir»¹.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining vujudga kelishi, uning birinchi Konstitutsiyasi, davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi respublika qonunlarining qabul qilinishi «Davlat hokimiyatining vakillik organlarining» fani bo'yicha yangi dastur va darslik yaratish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu dastur asosida tayyorlangan darslikda fanning manbai, uni o'rganish uslublari, fanning tizimi va manbalari masalalari, O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan va faoliyat olib borayotgan davlat hokimiyatining Oliy va mahalliy vakillik organlari ta'riflangan. Bulardan tashqari davlat hokimiyatining vakillik organlari faoliyatini tashkil etish prinsiplari, funksiyalari, ular faoliyatining tashkiliy shakllari va uslublari, Oliy Majlis palatalari va mahalliy xalq deputatlari Kengashlari, ularning organlari, hokimlar va ularning mahkamasi ishini tashkil etish, bevosita demokratiya institutlari, fuqarolar, jamoa uyushmalarining davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatidagi o'rni, davlat hokimiyatining vakillik va o'zini boshqarish organlarini tashkil etish masalalari ham bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 8 sessiyasida qonunlar yig'indisi yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonun qabul qilinishi davlat hokimiyatining vakillik organlarini huquqiy holatiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Davlat hokimiyatining vakillik organi bo'lgan Oliy Majlisning ikki palatali tizimga o'tdi. Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari vakolatlariga ta'sir o'tkazdi, hududlardagi xalq deputatlari Kengashlari Oliy Majlisning yuqori palatasi - Senatni tuzishda ishtirok etishadi. Mazkur holat davlat hokimiyatining vakillik organlari to'g'risidagi qator Yangi qonunlar qabul qilindi. Shuning uchun ham davlat hokimiyatini vakillik organlari to'g'risidagi qonunchilikning rivojlanishini muntazam ravishda tahlil qilib, o'rganib borish lozim bo'ladi.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston, 1999. 185-bet.

I BOB. "DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI" FANING TUSHUNCHASI, PREDMETI, TIZIMI VA O'RGANISH USHLARI

1-§. "Davlat hokimiyati vakillik organlari" fanining tushunchasi va predmeti

Demokratiya rivojlangan fuqarolik jamiyatlarida hokimiyatning bo'linish tamoyiliga asoslangan huquqiy davlat qurishga o'tilgan. Hokimiyat nisbatan mustaqillik asosida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilib qo'yiladi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi, deb belgilandi. Respublikadagi vakillik organlarining tizimi ana shu uchta hokimiyatdan biriga qo'shildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq vakillik organlarining eng yuqori bosqichi - Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Respublikada hokimiyatning bo'linish prinsipini izchil amalga oshira borib, davlat hokimiyati tizimida chuqur islohotlar qilindi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish bo'lsa, ikkinchi muhim vazifa respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yangi mustaqillik sharoitlariga mos keladigan tizimini yaratish edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning, yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmag, degan ko'rsatmalariga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Respublikada milliy davlatchilik an'analari tiklashni ko'zda tutib, hokimlik instituti kiritildi. Hokimlar qonunga muvofiq ham mahalliy vakillik organlariga, ham ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladilar. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati vakillik organlari-

ning quyi bosqichlari ovul, qishloq, shaharcha, tumanga bo'ysunuvchi shahar va shaharlardagi tumanlarda xalq deputatlari sovetlari tugatilib, ularning o'rniga o'zini o'zi boshqarish organlari joriy etildi. Fuqarolik jamiyati qurishning ma'nosi davlatchilik rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida yozadi: «Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar va tumanlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi»¹.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyatining vakillik organlari tizimida o'tkazilgan islohotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida bir og'iz so'z bilan shunday belgilanadi: «Insonga xizmat qilmagan birorta davlat tizimi mavjud bo'lishga haqli emas».

Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Ana shu maqsadni amalga oshirishda davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari alohida o'rin egallaydilar.

Davlat hokimiyatining vakillik organlari fanining mazmuni nimadan iborat? Bu fan O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari vujudga kelishi va rivojlanishini, shu organlar faoliyatini tashkil etishni o'rganadi.

Davlat hokimiyatining vakillik organlari fanining mazmuni quyidagilarni o'zida ifodalaydi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish, faoliyatini tashkil etish, qonunchilik jarayoni bosqichlarini, Qonunchilik palatasi va Senatining o'zaro munosabati hamda boshqa davlat organlari bilan munosabati.

2. Xalq deputatlari Kengashlarining tizimi - ularni tashkil etish prinsiplari, Kengashlarining turlari, ularning o'zaro va boshqa davlat organlari bilan hamda jamoat birlashmalari bilan munosabati.

3. Kengashlarning funksiyalari, ya'ni ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1995, 5-bet.

ularning davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarligi.

4. Xalq deputatlari Kengashlarining ichki tashkiliy tuzilishi, ijroiya organlarining tuzilishi va ichki tashkiliy qismlarining o'zaro munosabati.

5. Xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatini uyushtirish, ya'ni ular faoliyatining tashkiliy uslub va shakllari.

2-§. "Davlat hokimiyati vakillik organlari" fanining manbalari va boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati

"Davlat hokimiyati vakillik organlari" fanining manbalari masalasiga kelganda, shuni ta'kidlash lozimki, mazkur fanning asosiy manbai O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridir. Chunki respublikaning mustaqilligi sharoitida davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyotiga asos bo'ladigan muammolar ilk marotaba ana shu asarlarda nazariy jihatdan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq qilinib kelinmoqda.

Fanning manbalariga O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga va siyosiy suverenitetiga erishgandan keyin qabul qilingan qonunlar va huquqiy hujjatlar kiradi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Oliy davlat hokimiyati organlarining shu davr ichida qabul qilgan qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining ish tajribasidan olingan hujjatlar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlari fanining manbalari tasnifi quyidagilardan iborat:

1. "Davlat hokimiyati vakillik organlari" fanining bosh manbai bo'lib uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi.

3. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini o'zida aks ettirgan qonunlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunlar).

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z vakolatlari doirasida umumiy qoidalarni o'z ichiga olgan, o'sha hududda kuchga ega bo'lgan hujjatlari.

Nihoyat, O'zbekiston huquqshunos olimlarining ilmiy asarlari ham davlat hokimiyati vakillik organlari fanining manbalaridan hisoblanadi. Fan muammolariga bag'ishlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va

boshqa ilmiy asarlar ham shular jumlasiga kiradi.

Vakillik va o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etishdagi O`zbekiston demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va ikki palatali Parlament tashkil etish borasida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining II chaqiriq Oliy Majlis VIII sessiyasida bildirgan fikrlari va 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to`g`risida»gi konstitutsiyaviy qonunda ko`rsatilgan yangi qoidalar ham fanning manbalari sifatida o`z ifodasini topgan. Fan manbalarining asosiylari mazkur darslikka ilova tariqasida berilgan.

“Davlat hokimiyati vakillik organlari” fani davlat va huquq nazariyasi, davlat huquqi (konstitutsiyaviy huquq), ma'muriy huquq kabi huquqiy fanlar, iqtisodiy va ijtimoiy fanlar, ruhshunoslik fanlari bilan bog`langan.

Davlat va huquq nazariyasining davlat to`g`risidagi, xususan, davlat hokimiyati vakillik organlari to`g`risidagi chiqargan xulosalariga tayanadi.

Boshqaruv to`g`risidagi fan davlat va jamiyat ishlarini boshqarishning umumiy g`oyalarini o`rganadi. Davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish fani uchun boshqarish hujjatlarini qabul qilish, ijro va nazoratni tashkil etish, boshqarishdagi rejalashtirish va prognozlashtirishning umumiy masalalari to`g`risidagi xulosalari muhimdir.

Davlat huquqi va ma'muriy huquq fanlari xalq deputatlari Kengashlari to`g`risidagi, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari to`g`risidagi huquqiy hujjatlarni tahlil qilar ekan, shu organlar faoliyatini to`g`ri tashkil etishga yordam beradi.

“Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining iqtisodiy fanlar bilan aloqasi ikki yo`nalishda ko`rinadi: *birinchidan*, iqtisod fani xalq deputatlari Kengashlari xalq xo`jaligiga rahbarligi samaradorligining me'yorlarini ishlab chiqadi, *ikkinchidan*, xalq deputatlari Kengashlarining iqtisodiyot sohasidagi funktsiya va kompetensiyalarini belgilab berishga yordam beradi. Ijtimoiy ruhiyat boshqaruv mehnatini to`g`ri tashkil etish, aholining vakillik organlari faoliyatida bevosita ishtirok etishini, deputatlarning, hokimlik apparati xodimlari, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining psixologik tomonlarini ishlab chiqadi, sessiyalarda, doimiy komissiyalar faoliyatida, deputatlar bilan ijroiya apparat xodimlari o`rtasida, deputatlar bilan aholi o`rtasida ijtimoiy - ruhiy muhitni vujudga keltirish muammolarini ishlab chiqadi.

3-§. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining tizimi va oʻrganish uslublari

Bu fanda ijtimoiy munosabatlarni oʻrganishning qator maxsus uslublari mavjud. Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillik sharoitida respublikadagi iqtisodiyot, sotsial-siyosiy va mafkuraviy sharoitlarni hisobga olgan holda xalq deputatlari Kengashlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari xususiyatlarini tahlil qilish ana shu uslublarning muhim talablaridan biridir. Bu uslublar quyidagilardan iborat:

1. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanida tadrijiy yondashish uslubi keng qoʻllaniladi. Bu uslubda, birinchidan, vakillik organlarini oʻzaro aloqada boʻluvchi maxsus ijtimoiy tizim sifatida oʻrganadi. Xalq deputatlari Kengashlarining funksiyalari barcha vakillik organlari faoliyati uchun yagona boʻlgan tashkiliy shakllari sistemali yondashish yordamida oʻrganilishi lozim. Ikkinchidan, har bir alohida olingan xalq deputatlari Kengashining ichki tuzilishi sistemali yondashish yordamida oʻrganiladi.

2. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi sharoitida respublikada tashkil topgan xalq deputatlari Kengashlariga tarixiy yondashish uslubi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu respublikada xalq deputatlari Kengashlarining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini koʻrsatib beradi.

3. Xalq deputatlari Kengashlari toʻgʻrisidagi bilim uchun asosiy manbalardan biri huquqiy-meʼyoriy hujjatlar boʻlganligi sababli bu fanda meʼyoriy-mantiqiy, uslubiy yondashish katta ahamiyat kasb etadi. Bu huquqiy meʼyorlarni xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga taʼsir natijalarini belgilash hamda xalq deputatlari Kengashlari toʻgʻrisidagi qonunchilikni takomillashtirish uchun zarur uslub.

4. Muayyan sotsiologik tadqiqotlar uslubi yordamida xalq deputatlari Kengashlari faoliyati toʻgʻrisidagi haqiqiy, toʻgʻri maʼlumotlar toʻplash imkoniyati yaratiladi. Bu maʼlumotlarni olish uchun savolnoma, soʻrovnoma (anketa) tarzida javob olinadi, har xil statistik maʼlumotlarni elektron hisoblash mashinalari yordamida yigʻiladi va qayta ishlaniladi.

5. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanida taqqoslash uslubidan keng foydalaniladi. Birinchidan, Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatib turgan xalq deputatlari Kengashlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari boshqa vakillik va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari bilan taqqoslansa, ikkinchidan, Oʻzbekiston Respublikasidagi oliy va mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkil etishdagi farqlar va bir-biriga oʻxshashliklar taqqoslanadi.

6. Oʻzbekiston Respublikasidagi mavjud vakillik organlari va fuqaro-

larning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda, ish faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltirish va rivojlantirishda modellashtirish uslubi muhim o`rin tutadi. Yangi organ yoki yangi organ qismi uchun, Kengashlar va hokimliklar faoliyatiga taalluqli huquqiy hujjatlar modellari yaratiladi.

7. O`zbekiston Respublikasidagi mavjud xalq deputatlari Kengashlari tizimida ularning huquqiy holatida birma-bir o`zgartirishlar qilish kerakmi yoki yo`qligini, ular faoliyatiga boshqaruvni va boshqaruv mehnati unsurlarini tatbiq qilish kerakmi yoki yo`qligini aniqlash maqsadida eksperiment o`tkaziladi. Masalan, O`zbekistonda xalq deputatlari Kengashlari rayosatini tuzish, ularning raislarini saylash, Toshkent shahar hokimining Toshkent shahar aholisi tomonidan saylanishi eksperiment tariqasida o`tkazilgan edi.

“Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining tizimi shunday tuzilgan: kursning vazifalari, boshqa yuridik fanlar qatorida tutgan o`rni, shu fan o`rganadigan institutlarning mazmuni haqidagi asosiy savollar tashkil etadi va ular quyidagilardir:

1. Ilmiy fan sifatida “davlat hokimiyatining vakillik organlari” fanining nazariy masalalari.

2. O`zbekiston Respublikasi Oliy vakillik davlat hokimiyati organining tashkiliy faoliyati.

3. Hokimlar boshchilik qiladigan mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining ichki tashkiliy va ommaviy-tashkiliy faoliyati.

4. Xalq deputatlari Kengashlari va jamoat uyushmalarining birgalikdagi faoliyati shakllari.

5. Xalq deputatlari Kengashlariga o`tkaziladigan saylovlarga tayyorlik ko`rish jarayonidagi ichki tashkiliy va ommaviy - tashkiliy faoliyati.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy asoslari

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratilishi ular faoliyatining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston mustaqillikka erishgach davlat hokimiyati vakillik organlari tizimidagi organlar va ular faoliyatini huquqiy asoslari yaratildi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati bir qator huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy Qonuni, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa hujjatlar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan, ularning ichki tarkibiy qismlari esa ular haqidagi alohida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat hokimiyati vakillik organlarining, ularning funktsiya va vakolatlarini amalga oshirishdagi deputatlarining, fuqarolarning tutgan o'rni va roli tartibga solinsa, boshqa huquqiy hujjatlar bilan xalq deputatlari faoliyatining asosiy tashkiliy shakl va uslublari ham tartibga solinadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari faoliyatini huquqiy tartibga solish murakkab jarayonni tashkil etadi. Hozirgi davrda huquqiy normalar bilan bir qatorda boshqa ijtimoiy normalardan ham foydalanish ko'rsatilmoqda.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari juda katta vakolatlarga ega. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 5-bandidagi qoidaga muvofiq Oliy Majlis palatalari O`zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilaydi.

O`zbekiston mustaqillik yillari davomida unuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo`g`rilgan o`ziga xos rivojlanish yo`lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo`linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimi shakllantirildi.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining turlari va tizimi

O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan, ularning ichki tarkibiy qismlari esa ular haqidagi alohida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasida vakillik organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo`lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. 2005-yil yanvar oyidan boshlab mamlakatimizda ikki palatali parlament faoliyat olib bormoqda.

- *Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi* – Qoraqalpog`iston Respublikasidagidagi butun davlat apparatining yagona va doimiy asosi bo`lib, u davlatni boshqa organlarini saylaydi yoki tuzishda ishtirok etadi, ular faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Shuningdek, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi davlat hokimiyatining oliy organi sifatida Qoraqalpog`iston ixtiyoriga berilgan barcha masalalarni hal etish huquqiga ega. Jo`qorg`i Kenges vakolat doirasiga respublika Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o`zgartishlar, qo`shimchalar kiritish; qonunlar qabul qilish, unga qo`shimchalar, o`zgartishlar kiritish; ma`muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo`li


bilan tartibga solish; iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik dasturlarini qabul qilish; davlat hokimiyati organlariga saylovlarni tashkil etish; davlat mukofotlarini belgilash va Asosiy qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

- *Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari* - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini jamoaviy asosda amalga oshiradi.

3-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari tizimida vakolatlarning taqsimlanishi

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasida qonun chiqaruvchi hokimiyat alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlarining tuzilishi



4-§. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senat

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo`lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati - besh yil.

O`zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ bitta, u ham bo`lsa Oliy Majlis palatalaridir. Viloyat, tuman va shahar Kengashlari qonun chiqarish huquqiga ega emaslar. Bu organlar O`zbekistondagi yagona davlat hokimiyati vakillik organlari tizimini tashkil etadilar. Demak, viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini Oliy

Majlis palatalari belgilaydi. Konstitutsiyamizda kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat territorial subyektlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6-tadan hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

Prezident I.A.Karimovning sessiyada so'zlagan nutqida ko'rsatilganidek, «yuqori palata a'zolari joylardagi vaziyatdan yaxshi xabardor, ...ularni saylangan kengashlar bilan uzviy aloqa bog'lab turuvchi», ko'proq mahalliy manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan deputatlaridan iborat bo'ladi. «Senat qo'yi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim», balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma'qullashi yoki rad qilish orqali, ham o'z mintaqasi manfaatlarini hisobga olgan holda, hamda butun mamlakatimiz - O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasida oqilona muvozanat ana shunday konstitutsiyaviy-huquqiy nazariy, hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan «Ochiq demokratik jamiyat» qurishning birinchi konstitutsiyaviy huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002-yil 12-dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy xuquqiy asoslarini yaratish jarayoni muxim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi»¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitutsiyaviy Qonuni. Xalq so'zi, 2002, 27-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'korg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida saylanishini muhim konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas deb ko'rsatilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Yosh senzining bunday belgilanishi shu bilan izohlanadiki, deputat ozni-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha xorijiy mamlakatlarning Konstitutsiyalari va qonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSH Konstitutsiyasida 25 yoshga to'lmagan shaxs Kongressning Vakillar palatasining a'zosi bo'lishi mumkin emas. Yaponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lmagan, maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Shuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzleri ma'lum.

5-§. Xalq deputatlari viloyat Kengashlari, shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman xalq deputatlari Kengashlari va ularning o`zaro munosabatlari

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi mahalliy davlat hokimiyati asoslariga bag`ishlangan bo`lib, mazkur bobda O`zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning tutgan o`rni va roli ko`rsatilgan, bu organlarning davlat hokimiyatini amalga oshirish bo`yicha vakolatlari va boshqa davlat organlari bilan bo`lgan o`zaro munosabatlarining asoslari belgilab berilgan. Mazkur bobda hokimlar boshchilik qiladigan mahalliy xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish (O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99 va 102-moddalari) berilgan. Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlarining, 105-moddasida o`zini o`zi boshqarish organlarining vakolatlari berilgan. Konstitutsiyaning 103, 104-moddalarida viloyat, tuman va shahar hokimlarini tayinlash va ularning vakolatni amalga oshirish tartibi belgilangan. Konstitutsiyaning 101-moddasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddatlari berilgan.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi vakolatli va bevosita demokratiya shakllarining uzviy bog`langanligini o`zida ifodalaydi. Konstitutsiyaning 58-moddasida davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta`minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi belgilangan. Konstitutsiyaning 60-moddasida siyosiy partiyalar o`zlarining demokratik yo`l bilan saylab qo`yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etishlari belgilangan. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga muvofiq O`zbekiston Respublikasining fuqarolariga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqi beriladi va bunday ishtirok etish o`zini o`zi boshqarish, referendumlar o`tkazish orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari to`g`risida umumlash-tirilgan yagona qonun qabul qilindi.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari, hokimliklar va o`zini o`zi boshqarish organlarining o`z faoliyatlarini tartibga solish to`g`risidagi huquqiy hujjatlari. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qabul qiladigan normativ hujjatlarga nizomlar, ish tartiblari yo`riqnomalari, qarorlar, farmoyishlar va hokazolar kiradi.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman,

shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi-ning «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun-ning 24-moddasiga muvofiq o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlar qabul qiladilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini tartibga solishda Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan ish tartiblari muhim ahamiyatga ega. Qonunning 18-moddasiga ko'ra Kengashlar tomonidan qabul qilinadi-gan ish tartiblari xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, unda qarorlar qabul qilish va sessiyada hal qilish, berilgan bosh-qa vakolatlar xalq deputatlari Kengashi ish tartibiga muvofiq belgilanadi.

Sanab o'tilgan huquqiy hujjatlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, hokimliklar va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan, ular yordamida shu organlarning vakolatlari amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat hokimiyati vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlar-ni qabul qiladilar: xalq deputatlari Kengashining hokimlik apparatining ish tartibi (reglamenti), xalq deputatlari Kengashlarining yordamchi va ijro etuvchi organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlar (ularga deputatlik guruh-lari to'g'risidagi Nizomlar, hokimiyat apparatining bo'limlari, boshqarmalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizomlar) kiradi.

Hokimlik apparati tuzilmaviy qismlari to'g'risidagi huquqiy hujjat-larga mansub yo'riqnomalari, bo'lim va boshqarmalarning komissiyalari to'g'risidagi, qabulxonalar to'g'risidagi nizomlar, apparatdagi mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar (yo'riqnomalar) kiradi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining ayrim yo'nalishlari bo'y-icha qabul qilinadigan hujjatlarga apparatda ish yuritish bo'yicha yo'riq-nomani ko'rsatish mumkin va, nihoyat, davlat hokimiyatining vakillik organi va hokimlik apparatida jamoatchilikning tashabbuskor organlarini, fuqarolarni ishtirok ettirishga xizmat qiladigan huquqiy hujjatlar ham qabul qilinadi. Ularga xalq drujinachilari, o'rtoqlik sudlari ishlari bo'yicha tuziladigan jamoatchilik asosida ishlovchi fuqarolarning huquqiy holatini belgilab beruvchi nizomlar kiradi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining turli xil tomonlari O'zbekiston Respublikasidagi mavjud huquqiy tarmoqlar bilan tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risidagi qonunining 22-moddasida mulkning subyektlari belgilanadi, mulkchilik



huquqini xalq nomidan O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi va O`zbekiston Respublikasi xalq deputatlari mahalliy Kengashlari amalga oshiradilar. Mazkur qonuning 24-moddasi 2-bandida O`zbekiston Respublikasi nomidan yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, o`simlik va hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy boyliklarga egalik qilish huquqini barcha darajadagi xalq deputatlari Kengashlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

6-§. Davlat organlari tizimida davlat hokimiyati vakillik organlarining tutgan o`rni

Davlat organlari tizimida vakillik organlari muhim o`rin tutadi. Chunki vakillik organlari bevosita xalq nomidan ish yurituvchi organ hisoblanib, hech qaysi hokimiyat tarmog`iga kirmaydi.

Dastlabki davrda insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli sifatida, hamda vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so`zining lug`aviy ma'nosi fransuz tilidan olingan bo`lib, "gapirmoq" ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o`tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o`tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi-parlamentlar bor.

Umuman vakillik organlari tizimida birinchi o`rinda turuvchi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq juda katta vakolatlariga ega. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 5-bandidagi qoidaga muvofiq Oliy Majlis palatalari O`zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari hamda Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi vakillik organlari tizimida qonun chiqaruvchi organlar hisoblanishadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari esa qonun chiqarish huquqiga ega emaslar. Bu organlar O`zbekistondagi yagona davlat hokimiyati vakillik organlari tizimini tashkil etadilar. Demak, viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini Oliy Majlis palatalari belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat O`zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat, tuman, shahar hokimlaridir, bu organlarning vakolatlarini ham Oliy Majlisi palatalari belgilaydi.

Bundan ko`rinib turibdiki, vakillik organlari davlat organlari tizimida asosiy o`rinlardan birini egallagan.

Shu bois O`zbekiston Respublikasida mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo`g`rilgan o`ziga xos rivojlanish yo`lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo`linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

III BOB. BEVOSITA DEMOKRATIYA SHAKLLARI

1-§. Bevosita demokratiya tushunchasi va turlari

Demokratiya soʻzi "demos" ("demos") xalq va "kratos" ("kratos") hokimiyat soʻzlarining birikmasidan tuzilib, "xalq hokimiyatchiligi" deganidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov demokratiya tushunchasi haqida shunday deb yozadi: "Umumiy tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yoʻlida koʻpchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilganda esa demokratiya – xalqning oʻz erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini oʻzboshimchalik bilan cheklashlar va shu yoʻlundagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish shakli ham ekanligi ayon boʻladi"¹.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlangan ikkinchi bobi davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va Oʻzbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. "Xalq hokimiyatchiligi" prinsipi har qanday demokratik davlat konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

Oʻzbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini koʻzlab va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini oʻzlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini toʻxtatib qoʻyish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tartiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos boʻladi" deb belgilangan.

Demokratiyaning jahon konstitutsiyaviy rivojlanishi tajribasida ishlab chiqilgan quyidagi ikkita shakli mavjud:

1. Toʻgʻridan-toʻgʻri, yaʼni bevosita demokratiya – fuqaroning davlat ishlarini hal qilishda toʻgʻridan-toʻgʻri ishtirok etishi.

¹ Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻnagʻasida: xavfsizlikka tahdid, harqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari –T.: Oʻzbekiston. 1997. 180-bet.

2. Vakillik demokratiyasi, ya'ni bilvosita demokratiya – fuqaroning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 32-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri – referendum hisoblanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasida "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb belgilangan.

Referendum so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa" deganidir, ya'ni davlatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va uning ovoz berishi orqali hal etiladi. Referendum respublikamizda demokratiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

O'zbekistonda referendum o'tkazish tartibi 2001-yil 30-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston fuqarolari referendumda ixtiyoriy ravishda qatnashadilar. Referendumga qo'yiladigan masalalar xalq, jamiyat, davlat manfaatlaridan kelib chiqqanligi uchun unda fuqarolarning aksariyati doimo faol ishtirok etadi. Masalan, 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masalaga doir referendum o'tkazilib, unda O'zbekiston xalqi Oliy Kengash e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qulladi. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendumda esa ikki palatali parlament va Prezident vakolati muddatini uzaytirish masalasi qo'yilib, referendumda ovoz beruvchilar ro'yhatiga kiritilgan 13.266.602 nafar fuqarolarning 12.113.070 nafari ishtirok etdi. Referendumda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aholining 92% dan ortig'i bu masalani yoqlab ovoz berdi.

Referendum haqida so'z ketar ekan, shu narsani unutmaslik kerakki, referendumga davlat va jamiyat hayotiga taalluqli barcha masalalar qo'yilavermaydi. Masalan, respublika hududiy butunligini o'zgartirish to'g'risi-

dagı, soliqlar, byudjet, amnistiya (umumiy afv etish), jamoat tartibini, aholining sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan favqulodda va shoshilinch choralar ko'rish to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish haqidagi, mansabdor shaxslarni tayinlash va ishdan bo'shatish bilan bog'liq masalalar umumxalq ovozi-referendumga qo'yilmaydi. Bu masalalar Konstitutsiyaga binoan tegishli davlat hokimiyat organlari, xususan Oliy Majlis va Prezident tomonidan ko'rib hal qilinadi. Zero, Oliy Majlis ham, Prezident ham bevosita xalq tomonidan saylab qo'yiladi. Bu borada ham Konstitutsiyaning demokratik tomoni ko'zga yaqqol tashlanadi, umumxalq ovozi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda saylov tizimining adolatli tashkil qilinganligi bevosita demokratiyaning yana bir muhim ko'rinishlaridandir. Konstitutsiyaning 117-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar.

Deputatlarning saylovchilar oldida hisobot berishlari va ular bilan uchrashuvlar o'tkazishlari bevosita demokratiyaning ko'rinishlaridan biridir. 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida deputatning va Senat a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida deputat vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida bir marta, saylovchilarga o'z faoliyati haqida axborot beradi.

Xalqning muayyan jamoat birlashmalari, xususan, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar orqali davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashishini ham bevosita demokratiyaning ko'rinishlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Masalan, siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlarida o'z nomzodlarini ko'rsatishi va saylashi, Oliy Majlis ishida partiya funksiyalarining ishtirok etib, qonun chiqarishda o'z siyosatlarini o'tkazishga harakat qilishlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasiga binoan, siyosiy partiyalar qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning muhim siyosiy huquqlaridan biri – bu yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar o'tkazish huquqidir. Ushbu huquqning konstitutsiyaviy kafolatlanishini O'zbekistonda bevosita demokratiyaning ko'rinishlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Chunonchi, Konstitutsiyaning 33-moddasiga asosan fuqarolar o'z ijtimoiy

faolliklarini O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig`ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o`tkazilishini to`xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

O`zbekistonda fuqarolarning barcha darajadagi hokimiyat tuzilmalariga yakka tartibda va jamoa bo`lib murojaat qilishlari huquqi ta'minlangan. Bu ham bevosita demokratiyaning, xususan, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining shakllaridan biridir. Masalan, Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan, har bir shaxs bevosita o`zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko`rib chiqilishi shart.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to`g`risida"gi (O`zR 13.12.2002-y. 447-II) Qonunida "O`zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ishtirok eta borib, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida o`zlariga berilgan huquqlar va erkinliklarni ro`yobga chiqara borib; o`zlarining qonuniy huquqlari va mafaatlarini himoyalab murojaat qilishga; davlat va jamoat birlashmalarining vakolatli organlari buzilgan huquqlarini tiklashiga haqlidirlar" deyiladi (1-modda).

O`zbekiston Konstitutsiyasining muhim demokratik jihatlaridan biri shundaki, uning 10-moddasida butun hokimiyat xalq qo`lida ekanligi qonuniy rasmiylashtirilibgina qolmay, O`zbekiston xalqining ushbu hokimiyatni qanday tartibda amalga oshirishi ham aniq ko`rsatib qo`yilgan: "O`zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O`zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas."

O`zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning ikkinchi shakli-vakillik demokratiyasi bo`lib, bu fuqaroning davlat ishlarini hal etishda o`zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishidir.

Vakillik demokratiyasi quyidagi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi:

birinchidan, hokimiyatni davlat tuzilmalari orqali, ya'ni vakillik organlari va ijro organlari orqali amalga oshirish;

ikkinchidan, hokimiyatni fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari orqali amalga oshirish.

Vakillik demokratiyasining namoyon bo'lishi ayniqsa O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi faoliyatida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Oliy Majlis haqida shuni aytish mumkinki, u O'zbekiston Respublikasining oliy vakillik muassasasi, qonun chiqaruvchi organi, ya'ni parlamentidir.

O'zbekiston Oliy Majlisi bevosita xalq tomonidan tashkil etilib, uning vakillik organi hisoblanadi. Unga deputatlar xalq tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Demak, O'zbekiston xalqi o'z ichidan munosib nomzodlar tanlab, ularni Oliy Majlisga vakil sifatida saylaydi. Ularga vakolat berib qo'yadi va xuddi shu tariqa hokimiyatga egalik qiladi. Biroq faqat shugina emas. Xalqning hokimiyatga egalik qilishi boshqa vositalar orqali ham amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tashkil etilishi, vazifalari, tuzilishi va faoliyati haqida Konstitutsiyaning XVIII bobi, 78-88-moddalarida batafsil ko'rsatib berilgan.

Konstitutsiyaning 10-moddasida O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borish huquqi Oliy Majlis bilan bir qatorda Prezidentga ham tegishli ekanligi e'tirof etilgan. Shu bois Prezident degan iboraning mohiyatini, uning tegishli davlatda tutgan mavqeini aniqlab olish zarur. Prezident iborasi lotincha "oldinda", "yuqorida o'tiruvchi kishi" degan ma'noni anglatadi. Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bevosita xalq tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Prezident ham xuddi shu yo'l bilan xalqdan vakolat oladi va uning nomidan ish ko'radi. Prezident xalq manfaatlarini himoya qilib, uning xohish-irodasini ifoda etib faoliyat yuritadi va farmonlar chiqaradi. U tomonidan chiqariladigan farmonlar Konstitutsiyaga asoslanib, qonuniy kuchga ega. Demak, Prezident farmonlarini bajarmaslik, uni qasddan buzishlik xalqqa xiyonat qilishdan boshqa narsa emas.

O'zbekistonda Prezidentlik hokimiyatining tashkil etilishi, vazifalari va vakolatlari haqida Konstitutsiyaning XIX bobi, 89-97-moddalarida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Ana shunday jamoat birlashmalari, shuningdek ma'lum guruhlar, tashkilotlar rahbarlari, alohida shaxslar O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas. Chunki Konstitutsiya Oliy Majlis va

Prezidentdan tashqari hech kimga bunday huquqni bermaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik habardorligidir. Hukumat qarorlari qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir"¹.

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligining amalga oshirish shakllari Konstitutsiya va qonunlarda, xalqaro huquq me'yorlarida mustahkamlab berilgan. Saylovlar, referendum, fuqarolarning murojaatlari, O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasi asosida, referendum to'g'risidagi qonuning hayotga tadbiiq etilishi O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolarini referendumda o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish huquqlarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqiriq, yettinchi sessiyasida, "O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida"gi Oliy Majlis Qarori, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan bir ovozdan maqullandi. O'zbekiston xalqining xohishini hayotga tadbiiq etish tadbirlarini belgilab olish maqsadida Oliy Majlisning 2002-yil 5-aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasida tarixiy hujjat: «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning birinchi moddasida mazkur qonunning asosiy vazifalari belgilangan: "Ushbu qonun "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonunga muvofiq 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan hamda ikki palatali parlament tuzish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi ikki muhim masala bo'yicha qaror qabul qilgan, shuningdek demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish yo'lini tasdiqlagan umumxalq ovoz berishi natijalaridan kelib chiqadigan asosiy yangi qoidalarni va amaldagi qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlarni belgilaydi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish uchun asos hisoblanadi."

Bu vazifalar «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risidagi Qonunga muvofiq holda 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan referendum natijasida respublikamizning ikki palatali parlamentini tuzish va

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taahhid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.-181-bet.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o`zgartirish to`g`risidagi ikki eng muhim masala bo`yicha qabul qilingan qarori, O`zbekiston Respublikasining davlat va jamiyati hayotida, demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish yo`lini umumxalq ovoz yakkilik bilan tasdiqladi.

Shularga asoslangan xolda ushbu Konstitutsiyaviy qonunning vazifalari ikki palatali parlament tuzish va shunga tegishli O`zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini belgilashdan iboratdir. Qonunning yana bir asosiy vazifalari shundan iboratki, u davlat va jamiyatdagi huquqiy tartibga solish kerak bo`lgan barcha munosabatlarning ruhini aniqlashdan va ularni konstitutsiyaviy qonunda belgilab qo`yilgan prinsiplarda aks ettirishdan iboratdir.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari vazifalarini amalga oshirilishida jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlar

Davlat hokimiyati vakillik organlari vazifalarini amalga oshirilishida jamoat birlashmalari muhim o`rin tutadi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladigan masalalar kafolatlangan. Davlat fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta`minlaydi va ularga jamiyat hayotida ishtirok etishlari uchun teng sharoitlar yaratib beradi. Ya`ni jamoat birlashmalari fuqarolarga Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida ishtirok etish imkonini beradi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish hamda ommaviy harakatlarda ishtirok etishlari mumkin.

Hech kim siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari va erkinliklari hamda qadr-qimmatini kamsitishi mumkin emas.

Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish huquqi ommaning ma`lum bir maqsadlarni amalga oshirish va siyosiy faoliyatni rivojlantirishni ko`zlaydi. Fuqarolar siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashib, davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

Davlat qonun orqali siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining faoliyati, ularni moliyalashtirish, ro`yxatdan o`tkazish, boshqa davlat organlari bilan bo`ladigan munosabatlarini tartibga soladi. Jamoat birlashmalari o`z ichki tuzilishi va faoliyatini shakllantirish masalalarini mustaqil hal qiladilar.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga birlashish huquqini Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmagan holatlarda amalga oshirishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Tinch muxolifatning mavjudligi barcha demokratik jamiyatlar uchun me'yoriy holat hisoblanadi. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, ko`ppartiyaviylik asosida jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirish, siyosiy tizimga bo`lgan e'tibor xalqaro umume'tirof etilgan talablar darajasida shakllanmoqda.

O`zbekistonda fuqarolarning siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga oid konstitutsiyaviy qoida bir qator joriy qonunlarda rivojlantirilgan. Bunday qonunlar jumlasiga "Siyosiy partiyalar to`g`risida"gi (1996-yil), "Jamoat birlashmalari to`g`risida"gi (1991-yil), "Nodavlat notijorat tashkilotlar to`g`risida"gi (1999-yil) qonunlarni va boshqa bir qator qonuniy hujjatlarni kiritish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida "O`zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega" deb qat'iy belgilab qo`yilgan.

Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas", deyiladi.

1996-yilning 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq siyosiy partiya fikrlarning umumligidan, maqsad va manfaatlaridan tashkil topgan, o`z oldilariga jamiyat a'zolarining ma'lum bir qismining siyosiy erkini amalga oshirishni maqsad qilib olgan va o`zlarining vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etadigan O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining ixtiyoriy jamoasidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida tashkil topadi va faoliyat ko`rsatadi, ularda fikr erkinligi, so`z va e'tiqod huquqi asosiy o`rinlarni tutadi (qonunning 3-bandida ko`rsatilgan).

Shuni ta'kidlash lozimki, Vakillik organlari tizimida jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlar muhim ahamiyatga ega.

3-§. Vakillik organlari tomonidan jamoatchilik fikrini o`rganish shakllari

Vakillik organlari tomonidan jamoatchilik fikrini o`rganish deyilganda, Vakillik organlarining o`z faoliyatiga keng ommaning munosabati-ni aniqlashga qaratilgan vositalar yig`indisi tushuniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan jamoatchilik fikrini o`rganilishi ular faoliyatini takomillashtirish, kamchilik va yutuqlarni aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Jamoatchilik fikrini o`rganish demokratik davlatlarga hos bo`lgan hususiyat bo`lib, vakillik organlari faoliyatidan xalqni xabardorligini ta'minlaydi.

Shu bois doimiy ravishda muayyan sotsiologik tadqiqotlar yordamida davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati to`g`risidagi haqiqiy, to`g`ri ma'lumotlar to`plash imkoniyati yaratiladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan jamoatchilik fikrini o`rganilishi quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- *Bu ma'lumotlarni olish uchun savolnoma, so`rovnoma (anketa) tarzida javob olish;*

- *har xil statistik ma'lumotlarni elektron hisoblash mashinalari yordamida yig`iladi va qayta ishlaniladi.*

IV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1-§. Totalitar tuzum davrida davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati

O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasi qabul qilinishiga qadar, ya'ni sobiq SSSR mavjud bo'lgan davrda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining har bir bosqichi uchun alohida qonun qabul qilingan edi. O'zbekiston Respublikasida viloyat, shahar, tuman, qishloq va posyolka xalq deputatlari Sovetlari to'g'risidagi qonunlar mavjud edi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining 1980-yil 14-martda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari posyolka Sovetlari to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Vedomostlari, 1980-yil, 9-son), 1980-yil 14-martda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari qishloq Soveti to'g'risida»gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Vedomostlari, 1980-yil, 9-son), O'zbekiston Respublikasi shaharlari, posyolkalari va qishloqlaridagi mahalla (kvar-tal) qo'mitalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Rayosatining 1983-yil 4-iyuldagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1983-yil, 20-son), O'zbekiston Respublikasi grajdanlarining istiqomat joylardagi umumiy yig'ilishlari, yig'inlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Rayosatining 1988-yil 30-noyabrdagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1988, 34-son) bekor qilindi.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari rivojlanishida dastlabki bosqich (1991-1995-yillar)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Respublika Oliy Majlisining qonun qabul qilish faoliyatiga shunday baho beradi: «Respublika parlamenti qonun yaratuvchilik faoliyati bilan faol shug'ullanmoqdaki, u yosh mustaqil davlatning shakllanishini huquqiy jihatdan har tomonlama ta'minlashga qaratilgandir»¹. Haqiqatan, O'zbekiston mustaqillikka erishmasidan oldin ham Respublika Oliy Soveti qonun qabul qilish

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat. mafkura.T-1. –T.: O'zbekiston, 1993-yil. 36-bet.

faoliyati bilan shug'ullangan, lekin uni hozirgi Oliy Majlisning qonun qabul qilish faoliyati bilan taqqoslasak, juda katta farqni ko'ramiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq o'n uchinchi sessiyasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida», «Davlat statistikasi to'g'risida», «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida», «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» va boshqa qonunlarni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq o'n uchinchi sessiyasining kun tartibida o'ttizta masala bor edi¹. Umuman, Oliy Kengash o'z vakolati davrida ikki yuzdan ortiq qonun va besh yuzdan ortiq qarorlar qabul qildi. Bu holat Oliy Kengash faoliyatining ham ma'lum darajada samarali bo'lganini ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlariga bo'linish prinsipiga asoslanishi belgilangan. Amalda ham O'zbekistonda «qonun chiqaruvchi», «ijro etuvchi» va «sud hokimiyati» vakolatlarini taqsimlash prinsipi hayotga tatbiq etilmoqda. «O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining chinakam egasi bo'lib qoldi hamda uni bevosita, shuningdek, vakillari - noiblar orqali ham amalga oshirmoqda»².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'zida ifodalaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organidir.

O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan vakillik organlari jumlasiga viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari ham kirsada, lekin bu organlar qonun qabul qilish faoliyati bilan shug'ullanmaydilar.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi qabul qilgan huquqiy hujjatlar va, birinchi navbatda, qonunlar oliy yuridik kuchga ega. Ular boshqa davlat organlari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, vazirliklar, konsernlar, birlashmalar va hokimlarning huquqiy hujjatlar ijod qilish faoliyati uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi boshqa davlat organlarining tashkil etilishi asoslarini, ularning huquq va majburiyatlarini, faoliyat olib borish doiralarini ham belgilab beradi, bu holat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, T., 1993, 9-son. 318-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston. 1993-yil. 36-bet.

ning mamlakatda mavjud bo'lgan davlat organlari tizimida alohida o'rin egallashini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi organ bo'lishi bilan birgalikda, u vakillik organi ham deb hisoblanadi, bu esa Oliy Majlisni shakllantirish tartibida ko'rinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tarkibi hududiy bir mandatli saylov okruglaridan saylanadigan 250 nafar deputatdan iboratdir. Oliy Majlis deputatlari yashirin ovoz berish orqali umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida saylanadilar. Deputatlarning ma'lumot darajasi juda yuqori, ularning deyarli hammasi oliy ma'lumotli yuristlar, iqtisodchilar, olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligining malakali mutaxassislari, tadbirkorlar, ijtimoiy soha vakillari, adabiyot va san'at xodimlaridir. Har yetti deputatning biri ilmiy darajaga ega, ulardan 18 nafari akademik va fan doktorlaridir. Oliy Majlisga 15 millat vakillari saylangan bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi davlatchiligiga asos qilib olingan umumiy teng huquqlilik prinsipini yaqqol tasdiqlaydi¹.

Saylash kunigacha 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari saylash huquqiga, saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari Oliy Majlisga saylanish huquqiga egadirlar.

3-§. Bir palatali parlament tizimida davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati (1995-2004-yillar)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlis to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonuni (1994-yil) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining muvaqqat ish tartibi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII bobi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutloq vakolatlari belgilab qo'yilgan. Bu degani ushbu moddada ko'rsatilgan vakolatlar respublikamizda faqatgina Oliy Majlis tomonidan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni Oliy Majlis sessiyalarining kun tartibi shu masalalarga taalluqli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida ko'zda tutilgan Oliy Majlisning mutloq vakolatlarini quyidagi sohalariga ajratish mumkin:

¹ Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari. -T.: O'zbekiston, 1995-yil, 7-8 betlar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat qurilishi sohasidagi vakolatlari:

-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish;

-O`zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan qator davlat organlarini tuzish va tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish;

-O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qator davlat organlarini tuzish va tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash va lavozimlaridan ozod qilish to`g`risidagi farmonlarini tasdiqlash;

-O`zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimi va vakolatlarini belgilash;

-O`zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O`zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

-O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash;

-Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

-Vakolat muddati tugashi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash;

-O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining raisi va uning o`rinbosarlarini saylash;

-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

-O`zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

-O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudini saylash;

-O`zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e`lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to`xtatish to`g`risidagi farmonlarini tasdiqlash;

-Davlat mukofotlari va unvonlarini ta`sis etish;

-Ma`muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo`li bilan tartibga solish, O`zbekiston Respublikasining chegaralarini o`zgartirish;

-Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, nomini o`zgartirish va ularning chegaralarini o`zgartirish;

-Xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya (barvaqt to`xtatish) qilish.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining iqtisodiy va sotsial-madaniy qurilish sohasidagi vakolatlari:

-O`zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

-Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasining byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni joriy etish;

-Boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo`li bilan tartibga solish.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun qabul qilish sohasidagi vakolatlari:

- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish;

-O`zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qilish hamda ularga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish.

O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi davlat qurilishi, iqtisodiy va sotsial-madaniy qurilish va qonun qabul qilish sohalarida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko`zda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o`z vakolatlarini ma'lum turdagi huquqiy hujjatlar qabul qilish bilan amalga oshiradi.

Yuqorida zikr etilganidek, Oliy Majlis qabul qiladigan huquqiy hujjatlar orasida Konstitutsiya alohida o`rin egallaydi, chunki Konstitutsiya boshqa qonunlar va davlat organlari qabul qiladigan huquqiy hujjatlar uchun yuridik asos bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilishi mumkin bo`lgan huquqiy hujjatlarning turlari batafsil ko`rsatib berilgan. Ular qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlar deb atalgan. Shu moddada huquqiy hujjatlar qabul qilishning asosiy shartlari ham ko`rsatilgan. Masalan, qonunni qabul qilish uchun Oliy Majlis deputatlarining ko`pchilik ovozi talab etiladi.

Oliy Majlis qabul qiladigan huquqiy hujjatlar orasida qonunlar oliy yuridik kuchga ega. Davlat organlari qabul qiladigan hamma hujjatlar Oliy Majlis qonunlariga mos bo`lishi shart. Oliy Majlis qabul qiladigan qonunlar O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Oliy Majlis qabul qilishi mumkin bo`lgan huquqiy hujjatlarning yana bir turi qarorlardir. Qarorlar davlat organlarini tuzish bo`yicha, Oliy Majlis struktura qismlarini tuzish bo`yicha, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini tasdiqlash bo`yicha ham qabul qilinishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat, iqtisodiy va sotsial-madaniy qurilish masalalarini muhokama qilgan taqdirda ham qarorlar qabul qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyati O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»gi konstitutsiyaviy qonun, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining muvaqqat ish tartibi va boshqa huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini tashkil etish va uning yig`ilishlarini olib borish O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»gi konstitutsiyaviy qonun va Oliy Majlisning vaqtinchalik ish tartibiga muvofiq Oliy Majlis raisi va uning o`rinbosarlariga yuklatiladi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining raisi va uning o`rinbosarlari Oliy Majlis deputatlari orasidan Oliy Majlis vakolati muddatiga yashirin ovoz berish yo`li bilan saylanadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining raisi va uning o`rinbosarlari O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili hisobot berib turadilar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining raisi Oliy Majlis deputatlarining uchdan ikki qismidan iborat ko`pchiligining yashirin ovoz berishi orqali muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining raisi Oliy Majlis muhokamasiga qo`yiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi, Oliy Majlis yig`ilishlarini chaqiradi, Oliy Majlis kun tartibiga kiritiladigan takliflarni qo`mitalar va komissiyalar raislari bilan birgalikda tayyorlaydi, Oliy Majlis yig`ilishlariga raislik qiladi, Oliy Majlis qo`mita va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi, qonunlarning va Oliy Majlis qarorlarining ijrosini nazorat qilishni tashkil etadi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlarini imzolaydi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini tashkil etishda Oliy Majlis Kengashi muhim o`rin tutadi. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»gi konstitutsiyaviy qonunga muvofiq Oliy Majlis ishini tashkil etish hamda ushbu qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish uchun birinchi sessiyada O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kengashi tuziladi. Kengash tarkibiga Oliy Majlis raisi, uning o`rinbosarlari, doimiy qo`mita va komissiyalarning raislari va Oliy Majlisdagi rasmiy fraksiyalarning vakillari kiradi.

«O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»gi konstitutsiyaviy qonunda Oliy Majlis Kengashining vakolatlari belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining a'zosi hisoblanadi. Bu xalqaro tashkilotning huquqiy holati, Mustaqil Davlatlar

Hamdo`stligiga kiruvchi mamlakatlarning davlat boshliqlari tomonidan 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining Ustavi bilan belgilab berilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Armaniston, Belorussiya, Qozog`iston, Qirg`iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston davlat rahbarlari bilan ana shu Ustavni imzolagan.¹

Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining to`laqonli faoliyat olib borishini ta`minlash maqsadida davlatlararo organlar tuzilgan, bularning asosiylaridan biri Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligiga a`zo davlatlar hukumatlarining boshliqlari Kengashidir. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavida shu tashkilotga a`zo davlatlar parlamentlarining o`zaro hamkorligi masalalari ham belgilab qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligiga kiruvchi davlatlar parlamentlari bilan bevosita doimiy aloqalar o`rnatgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavining 36-moddasiga muvofiq a`zo davlatlarning parlamentlari o`zaro hamkorliklarini Parlamentlararo Assambleya orqali amalga oshiradilar². Parlamentlararo Assambleya parlamentlar o`rtasida konsultatsiyalar o`tkazadi, Hamdo`stlik doirasida o`zaro hamkorlik masalalarini ishlab chiqadi, milliy parlamentlar faoliyati doirasiga tegishli takliflarni ishlab chiqishni tashkil etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavining 37-moddasiga muvofiq Parlamentlararo Assambleya shu davlatlar parlamentlarining delegatsiyalaridan iborat³.

Parlamentlararo Assambleya faoliyati Palamentlararo Assambleyaning Kengashi tomonidan tashkil etiladi.

Parlamentlararo Assambleya faoliyati tashkil etilishining tashkiliy tomonlari Assambleyaning Reglamenti - ish tartibi bilan amalga oshiriladi.

Parlamentlararo Assambleyaning doimiy o`tadigan joyi Sankt-Peterburg shahridir. Hozirgi kunga qadar Parlamentlararo Assambleya ishida O`zbekiston Respublikasining parlamenti faol ishtirok etib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Rayosati boshqa davlatlarning parlamentlari bilan doimiy o`zaro aloqalarni ta`minlash maqsadida 1993-yil 11-martdagi qarori bilan O`zbekiston Respublikasi Milliy parlament guruhining qoidalari tasdiqlandi hamda uning ijroiya qo`mitasi tashkil qilindi. Oliy Majlis huzurida Milliy parlament guruhining huquqiy holati belgilangan qoidalar qabul qilingan⁴. Unga ko`ra:

¹ Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavining 36-moddasi.

² Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavining 36-moddasi.

³ Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi Ustavining 37-moddasi.

⁴ qarang: O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, №3. 162-modda.

O'zbekiston Respublikasining Milliy parlament guruhi parlamentning barcha a'zolaridan iborat bo'lib, u Oliy Kengashning qarori bilan tuziladi.

Milliy parlament guruhi o'z faoliyatida Parlamentlararo Ittifoqning, o'zi a'zo bo'lgan boshqa parlamentlararo tashkilotlarning tartib-qoidalariga amal qiladi, ularning ustavlari va qoidalariga rioya etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Raisi Milliy parlament guruhining rahbari hisoblanadi.

Milliy parlament guruhi a'zolarining umumiy yig'ilishi Milliy parlament guruhining rahbar idorasi hisoblanadi, bu yig'ilish zaruratga qarab o'tkaziladi. Milliy parlament guruhining yig'ilishi, basharti, unda parlament jami a'zolarining uchdan ikki qismidan ko'pi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Umumiy yig'ilish Milliy parlament guruhining ijroiya qo'mitasini saylaydi, ijroiya qo'mitasi ishiga doir hisobotlarni tinglaydi, O'zbekiston Respublikasi Milliy parlament guruhining faoliyati bilan bog'liq eng muhim masalalarni qarab chiqadi.

Umumiy yig'ilishni Milliy parlament guruhining rahbari yoki ijroiya qo'mitasi chaqiradi.

Umumiy yig'ilish qaror va murojaatnomalar qabul qiladi, noma va maktublar yo'llaydi.

Basharti, yig'ilishda ishtirok etayotgan parlament a'zolarining yarmidan ko'pi yoqlab ovoz bersa, yig'ilish qarori qabul qilingan hisoblanadi.

Milliy parlament guruhining ijroiya qo'mitasi tarkibi rais, kotib va qo'mita a'zolaridan iborat bo'ladi.

Milliy parlament guruhining ijroiya qo'mitasi:

- ish rejasi tayyorlaydi va uni tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- ijroiya qo'mitaning har bir a'zosiga aniq ish jabhasini biriktirib qo'yadi;

- O'zbekiston Respublikasi Milliy parlament guruhi a'zo bo'lgan parlamentlararo tashkilotlarning qarorlarini amalda ro'yobga chiqarish uchun chora-tadbirlar ko'radi;

- parlamentlararo tashkilotlar faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun ma'muriy va moliyaviy masalalarga doir zarur chora-tadbirlar ko'radi hamda bu tashkilotlarning kotibiyatlari bilan muntazam aloqa bog'laydi;

- Parlamentlararo Ittifoq va boshqa parlamentlararo tashkilotlarning tadbirlarida qatnashish uchun Milliy parlament guruhi a'zolari yuborilishini ta'minlaydi, delegatlarning vazifalarini belgilab beradi, ishlarida ko'maklashadi hamda tadbir o'tkazilayotgan mamlakatda bo'lislari bilan

bog`liq barcha zarur choralarni ko`radi;

- qabul qilingan qarorlar yuzasidan Milliy parlament guruhining tutadigan mavqeini belgilaydi, ana shu mavzular bo`yicha materiallar (bayonnoma, rezolyutsiya loyihasi, qo`shimchalar, tuzatishlar) taqdim etadi, hukumat tasarrufidagi va hukumat tasarrufida bo`lmagan tegishli tashkilotlar bilan maslahatlashish zarurligi to`g`risida qarorlar qabul qiladi;

- kundalik faoliyatga doir masalalarni o`rganadi va parlamentlararo tashkilotlarning faoliyatiga, ustavi, tuzilishi va byudjetiga o`zgartirishlar kiritishga, ular o`tkazadigan tadbirlarning kun tartibiga qo`shimcha bandlar kiritishga doir takliflarni ilgari suradi;

- parlamentlararo uchrashuv o`tkaziladigan mamlakat parlamenti rahbariyati va delegatsiyasi bilan ikki tomonlama aloqalar o`rnatadi.

Parlamentlararo tashkilotlarning qarorlaridan Milliy parlament guruhi, shuningdek, zaruratga ko`ra, O`zbekiston Respublikasining Prezidenti va hukumati ham xabardor etiladi.

O`zbekiston Respublikasi Milliy parlament guruhining parlamentlararo tadbirlarida ishtirok etayotgan delegatsiyasi yozma ravishda hisobotlar tayyorlaydi va ijroiya qo`mitasining majlislarida, zaruratga ko`ra parlament guruhining umumiy yig`ilishlarida axborot beradi.

O`zbekiston Respublikasining parlamentiga navbatdagi saylov o`tkazilganidan keyin Milliy parlament guruhining yangi tarkibi tuzilib, uning umumiy yig`ilishida ijroiya qo`mitasining yangi a'zolari saylangun-ga qadar avvalgi tarkibdagi ijroiya qo`mitasi o`z ishini davom ettiradi.

Ushbu qoidalarga doir har qanday tuzatish umumiy yig`ilishda ovoz berish yo`li bilan qabul qilinishi lozim.

Parlament guruhining barcha a'zolari kiritiladigan tuzatishlar bilan ular yig`ilishda muhokama qilinishidan oldin tanishib chiqishlari lozim.

4-§. Parlament islohotlarining ijtimoiy zaruriyati. Ikki palatali parlament tizimining o`ziga hos hususiyatlari

So`nggi yillarda O`zbekiston huquq tizimida bir qator demokratik o`zgarishlar ro`y bermoqda. Xususan, *2002-yil 27-yanvar* kuni bo`lib o`tgan referendumda O`zbekiston parlamentini ikki palatali parlamentga aylantirish to`g`risidagi masala umumxalk ixtiyoriga xavola etildi. Ushbu referendum natijalariga binoan O`zbekistonda bir palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o`tilmoqda. Ikki palatali parlamentning vujudga kelishi vakillik demokratiyasining yanada yuqori pog`onaga ko`tarilishiga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni kuchaytirish orqali davlat hokimiyati

faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda respublikamizda parlamentarizmning to'la shakllanishiga mamlakatimizda qonun ustivorligi ta'minlanishi uchun asos yaratilishiga xizmat qiladi.

Ikki palatali parlament deyilganda, tashkil etish va faoliyat kursatish tartibi jixatidan bir-biridan farq qiluvchi mustaqil ikki aloxida vakillik tuzilmasidan iborat yagona organ tushuniladi. Ikki palatali tizim (bikameralizm¹) parlamentlarning tuzilishi bulib, bunda parlament odatda har xil tarzda shakllanadigan va turli vakolatga ega bo'lgan ikki palatadan iborat bo'ladi.

2004yil 26 dekabr kunida bo'lib o'tadigan saylovlarda qonunchilik palatasi deputatlari bevosita saylovchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iborat bo'ladi. Senat a'zolari esa qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. 100 nafar Senat a'zosidan 84 nafari saylanib, qolgan 16 tasi esa fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

5-§. Parlament islohotlari jarayonida I.A.Karimovning jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish g'oyalarning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimi va faoliyatining doimo takomillashtirib borishi, davlatimiz siyosatining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir. 2000-yil 25-may kuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq, ikkinchi sessiyasida; "Bizning jamiyatimiz tez sur'atlar bilan o'zgarayapti. Odamlar ma'naviy ulg'ayishi yo'lida ildam qa-

¹ bikameralizm – umummilliy vakillik muassasalarining – parlamentlarning tuzilishi bo'lib, bunda parlamentda odatda har xil tarzda shakllanadigan va turli vakolatga ega bo'lgan ikki palatadan iborat bo'ladi. «Yuridik Ensiklopediya», –T.: Sharq, 2001-y, 179 bet.

dam tashlayapti. Bu uzoqni ko`zlagan siyosatimiz, ezgu maqsad yo`lidagi intilishlarimiz natijasidir. Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o`zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va manaviy ongi ulg`ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o`zgarishlar bo`lishi tabiiydir.

Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o`tish taklifini kiritmoqchiman ya'ni, biz 2004-yilda bo`ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib, tashkil etishimiz lozim. Bunda quyi palata – Oliy Majlis partiyalar vakillari va mustaqil deputatlardan saylanadi. Siyosiy partiyalar va aholi yig`ilishlari unga o`z vakillarini o`tkazadi, ular parlamentda doimiy ravishda ishlaydi. Yuqori palata tarkibini viloyat, shahar va tumanlardan mahalliy kengashlarga saylangan deputatlarning vakillari tashkil etadi. Misol uchun Qashqadaryo viloyat kengashiga saylangan deputatlar shahar va tumanlarda saylangan noiblar hisobidan viloyat miqyosidagi yig`ilishlarda ana shu kengashlarning olti-yetti nafar eng ishonchli vakili mamlakat parlamentining yuqori palatasiga saylanadi. Ular yuqori palatada shu viloyatning manfaatlarini himoya qiladi, ...palataga saylangan deputatlarning har bir viloyatdan bir xil miqdorda bo`lishini ta'kidlab; yuqori palataga saylangan vakillarning asosiy vazifasi quyi palata tayyorlangan qonunlarni ko`rib chiqish va shunga mos ravishda o`zlarining qarorlarini qabul qilishdan iborat bo`ladi deb so`zlarining davomida, yuqori palata mamlakatimizning barcha hududlariga teng ko`z bilan qarab, ana shu hududlarning vakillari orqali xalqimiz manfaatlarini bir xilda himoya qilishi kerak"¹ degan takliflari va Oliy Majlis palatalarining qay tartibda faoliyat yuritishi to`g`risidagi asoslari deputatlarning muhokamasiga kiritildi. Shundan so`ng bu taklif yuzasidan, deputatlarning fikr va mulohazalari o`rganib chiqilib, 2001-yil 6 dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasida deputatlar bir ovozdan O`zbekiston xalqining fikrini aniqlash maqsadida referendum o`tkazish to`g`risida qaror qabul qildi, 2002-yil 27-yanvar kunini umumxalq referendumini kuni deb e'lon qilindi. Referendumda ovoz berish bulletiniga quyidagi mazmundagi savollar kiritildi;²

1. Siz kelgusi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Parlamentini ikki palatali qilib, saylanishiga rozimisiz?

2 Siz O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib, o`zgartirishga rozimisiz?

¹ Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz". –T.: O`zbekiston, 2000-y. 484-bet.

² "Xalq so`zi" ro`znomasining 2001-yil 7 dekabr soni

O'zbekiston xalqi, Oliy Majlis va Prezident faoliyatini takomillashtirishni bir ovozdan tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdagi sakkizinchi sessiyasida bu masalaning hal etilishini dastlabki, muhokamasi bo'lib: O'zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi asosida, davlat organlari tizimi va ularning tashkil etilish tamoyillari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi Palatalari vakolatlari majburiyatlari, vazifalarini va buning barobarida boshqa davlat organlari tizimidagi faoliyat yo'nalishlarini o'zida belgilab bergan alohida konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi va undan keyin Konstitutsiya va tegishli qonunlarni qabul qilish yoki o'zgartirish, tuzatishlar kiritish masalalarini hal etish tartibining belgilanganligi, Oliy Majlis oldida turgan maqsadni reja asosida mukammalligini ta'minlangan holda, amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Shunday qilib, Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda tuzatishlar kiritish zaruriyatining paydo bo'lishi davlat va jamiyatning rivojlanishida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasidagi huquqiy islohotlarning amaliy natijasi bo'lib hisoblanadi.

V BOB. DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining prinsiplari tushunchasi va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq respublika-
da yagona vakillik organlarining tizimi mavjud. Bu tizimning eng yuqo-
risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi turadi. O'zbekiston Respubli-
kasi Oliy Majlisi mamlakatda konstitutsiyaga muvofiq qonun chiqaruvchi
hokimiyatni amalga oshiradi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari yagona tizimga birlashgan holda
o'z faoliyatlarini ma'lum bir yo'nalish va mazmunda amalga oshirishlari
uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan qator asoslarga tayanadilar.
Barcha bug'indagi davlat hokimiyati vakillik organlarini faoliyati va uni
tashkil etishni o'ziga xosligi shundaki, ham oliy vakillik organlari, ham
mahalliy vakillik organlari funksional jihatdan bir xil prinsiplarga tayana-
di. Faqat oliy vakillik organlari faoliyatida ayrim o'ziga xos ko'rinishlar
mavjud bo'lishi mumkin.

Oliy va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashkil
etilishi va faoliyatidagi demokratik prinsiplar yordamida mamlakatimiz-
ning fuqarolari davlat boshqaruviga jalb qilinadi, jamiyatda ro'y beradigan
muhim masalalarni hal etish va ularni hayotga tatbiq qilishda faol ishtirok
etadilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyat prinsiplari deganda
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari viloyat, tuman
va shahar Kengashlarni tashkil etish hamda faoliyatining hal qiluvchi shakl
va uslublarini belgilab beruvchi asosiy g'oyalar, qarashlar tushuniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining demokratik prin-
siplari barcha bug'indagi vakillik organlarini tashkil etilishi va faoliyat
yo'nalishini belgilab beradi. Bu prinsiplar, albatta, iqtisodiy munosabat-
larni, jamiyat rivojlanishining siyosiy shart-sharoitlarini ham aks ettiradi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining prinsiplarini amal-
da tatbiq etish vakillik organlarini tashkil etilishi va faoliyati ta'sirining
samaradorligiga, ularning ilmiy yetukligi va asoslantirilganligiga, jamiyat-
ning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati prinsiplari mazmuniga
ko'ra ahamiyatiga ko'ra asosiy (umumiy) va xususiy (maxsus) turlarga
ajraladi. Barcha prinsiplar bir-birlari bilan o'zaro mustahkam bog'langan,

bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Masalan, respublika fuqarolarini vakillik organlari ishiga keng jalb qilish demokratizm prinsipini amalda namoyon bo'lishi bilan birgalikda oshkoralikni ta'minlayotganligi, ya'ni oshkoralik prinsipiga aloqadorligini ham yaqqol ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov risolalarida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risidagi, Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunlarda ishlab chiqilgan va vakillik organlarining bevosita amaliy faoliyatida rivojlantirilgan. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining demokratik prinsiplarini, omma tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda to'plangan tajriba, O'zbekiston Respublikasi oldida turgan yangi vazifalarni o'zlarida ifodalab rivojlandi va yangi mazmun bilan boyib bormoqda.

Hozirgi jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VIII sessiyasida bildirgan fikrlariga asoslangan holda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning 2-moddasida «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy prinsiplari» belgilangan.

Davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatining demokratik prinsiplari tashkiliy-siyosiy munosabatlarning huquqiy va tashkiliy shakllarini mufassal qamrab oladi. Misol uchun, ba'zi prinsiplar Kengashlar tizimi tuzilishini belgilaydi. Kengashlar hududlarga ko'ra tuziladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatining demokratik prinsiplarini har xil asoslarga ko'ra turkumlash mumkin. Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining eng umumiy ahamiyatga ega bo'lgan prinsiplari, davlat hokimiyati vakillik organlari to'g'risidagi nazariya o'zagini tashkil etadi. Ular: Kengashlar faoliyatiga aholini doimiy va tobora ko'proq doiralarda jalb etish, xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining demokratlashtirish, Kengashlar faoliyatida oshkoralik, kollegiallik, qonunchilik, Kengashlar va hokimning ijro etuvchi apparati faoliyatida boshqarish, mehnatni ilmiy tashkil etish (NOUT), millatlarning tengligi prinsipi. Prinsiplar vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatining boshqa maxsus asoslari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining asosiy prinsiplari tavsifi

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida fuqarolar va jamoat birlashmalarining ishtiroki prinsipi. Davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari huquqiy va tashkiliy vositalar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Ularning ta'minlanishi bevosita huquqiy mezonlarda mustahkamlanishi bilan belgilanadi. Jumladan, bu prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida belgilangan. Mazkur Qonunning 1-moddasida «Xalq deputatlari Kengashi va hokim aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi», deyilgan. Bu fuqarolarni kengash va uning organlari faoliyatiga jalb etish prinsipidir.

Davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplarini ustuvorligini ta'minlash, ularga doimiy ravishda amal qilish, ularning ijro qilinishi qonunchilik talablaridan biri ekanligini bildiradi.

Tashkiliy tomondan xalq deputatlari Kengashlari ishini uyushtirishning asosiy demokratik prinsiplari tashkiliy shakl va uslublar tizimi bilan ta'minlanadi. Ular, birinchidan, shu prinsiplarning talablariga javob beradi, ikkinchidan, ularni amalda tatbiq etish uchun muayyan usul bo'lib xizmat qiladi.

Demokratiyaning muhimi prinsipi - davlat hayotida ishtirok qilishga, o'z davlatini boshqarishga, davlat xizmatini o'tashga tobora ko'proq fuqarolarni muntazam jalb qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillarini belgilab berar ekan, yaqin kelajakda fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarishda qatnashuvini ta'minlaydigan huquqiy asoslarni takomillash-tirishga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidladi.

Bizning mamlakatimizda ommani davlat ishlarini boshqarishga jalb qilishda xalq deputatlari Kengashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholini xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga jalb etish xalq ommasining Kengashlarning ko'p qirrali faoliyatida hal qiluvchi ishtirokini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati organlari-ga saylash va saylanish huquqi ularga faqat saylovlarda ishtirok etish

imkonini berib qolmasdan, deputatlikka saylangandan so'ng davlat hokimiyatini bevosita amalga oshirish imkonini ham beradi.

Xalq deputatlari Kengashlari aholining yordamisiz ularning tarkibi ko'p sonli bo'lishga qaramasdan, faqat o'z deputatlarining kuchiga suyangan holda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish bo'yicha oldilarida turgan juda katta, ko'p qirrali vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olmas edilar. Bu boshqaruv apparati faoliyatini tinmay takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Fuqarolarning kengashlar ishidagi ishtirokini, har xil asoslarga ko'ra ajratib ko'rsatish mumkin. Bu ishtirok individual va jamoaviy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Birinchisiga xalq deputatlari Kengashlariga saylash va saylanish huquqini amalga oshirish, kengashlarga va ularning organlariga ariza, shikoyat va takliflar bilan murojaat qilishlari, doimiy komissiyalarda faollar sifatidagi ishlari, hokimlar mahkamasi bo'lim va boshqarmalarida jamoatchilik asosida inspektor bo'lib ishlashlari va hokazolar kiradi.

Aholining kengashlarning faoliyatida jamoa bo'lib ishlash shakllari uch turga ajraladi. *Birinchi* turiga davlat hokimiyati organlarida xalq ommasining jamoatchilik tashkilotlari orqali ishtiroki, *ikkinchi* turiga jamoatchilik tashabbuskor tashkilotlarining Kengash faoliyatida ishtiroki va uchinchi turiga mehnatkashlar ommasining ishlab chiqarishdagi va turar joylardagi majlislari kiradi. Ana shunday majlislarda kengash va uning organlari vakolatlariga kiruvchi masalalarni dastlabki tarzda muhokama qilish o'tkaziladi.

Xalq ommasini vakillik organlari ishiga jalb qilish uchun har xil tashkiliy huquqiy shakllar qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida kengashlarning sessiyalarini tayyorlash va o'tkazishga faqatgina deputatlarnigina emas, balki keng jamoatchilikni ham jalb qilish uchun qator usullar ishlab chiqilgan.

Fuqarolarni hokim ijroiya apparatida jamoatchilik asosida ishlashga jalb etish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

a) hokim ijroiya apparatida shtatsiz birlashmalar, har xil komissiyalar, shtatsiz instruktorlar sifatida faoliyat olib borish;

b) mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida mustaqil zvenolar sifatida tashkil etiladigan shtatsiz birlashmalar;

v) bo'limlar qoshida tuziladigan jamoatchilik kengashlarida bo'lim boshliqlari, inspektor va instruktorlarning shtatsiz o'rinbosarlari sifatida faoliyat ko'rsatish.

Vakillik organlari faoliyatida aholining ishtirokining vositalari ichida qonun va qarorlarning loyihalarini oldindan muhokama qilish ko'zga

ko`rinarli ahamiyatga ega. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi ikki marotaba umumxalq muhokamasiga qo`yildi. Loyiha muhokamasi vaqtida ko`rsatilgan taklif va mulohazalar umumlashtirilib, yangidan tuzilgan loyiha yana muhokamaga qo`yildi, shundan so`nggina u Oliy vakillik organi tomonidan qabul qilindi.

Huquqiy hujjatlar loyihalarini oldindan muhokama qilish ular qanchalik xalq erkini ifodalashini bilish uchun, undagi yo`l qo`yilgan kamchiliklarni aniqlab olish uchun olingan taklif, mulohaza va qo`shimchalar asosida mukammal huquqiy hujjat ishlab chiqish uchun zarurdir.

Jamoatchilik vakillari maslahat ovozi bilan kengashlarning sessiyalarida, hokim qoshidagi maslahat kengashi majlisida va doimiy komissiyalar majlislarida ishtirok etadilar. Ular tomonidan bildirilgan mulohazalar u yoki bu masalani to`g`ri tushunishga, ular bo`yicha asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Eng yaxshi qaror ham, agarda uning ijrosi tashkil etilmasa, uning ijro etilishiga keng xalq ommasini jalb etilmasa, qog`ozda qolib ketaveradi. Shuning uchun ham qarorlarni ijro etish bosqichida keng ommani jalb etish kengashlarning va hokimlarning birinchi navbatdagi vazifasiga kiradi.

O`zbekiston Respublikasi mahalliy kengashlari ish tajribasida xalq ommasi xalq deputatlari Kengashlarini va ularning organlari faoliyatini nazorat qilishga ham keng jalb qilinadi. Mana shu nazoratga keng mehnatkashlar ommasini jalb qilish vositasi deputatlar, hokimiyat, ularning bo`lim va boshqarmalarini saylovchilar, jamoatchilik tashkilotlari va mehnat jamoalari oldidagi hisobotlaridir.

Xalq hokimiyatchilligi (demokratizm) prinsipi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta`kidlashicha, huquqiy davlat qurishning hozirgi bosqichida deputatlarning o`z saylovchilari oldida hisobot berishlari vakillik organlari faoliyatida muhim o`rin tutishi lozim. Hatto, ma`lum bir loyiha, muayyan qonun muhokama etilayotgan paytda saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham mumkin. Bu qonunchilik faoliyati sifatini oshiradi, qonunning ta`sirchanligini ta`minlaydi, xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini beradi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O`zbekiston xalqining demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqligi e`lon qilinadi. Demokratiyaga izchil rioya qilish davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga singib ketgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O`zbekiston mustaqil demokratik huquqiy davlat ekanligini ta`kidlaydi. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e`tiqodlaridan qat`i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta`minlab

beradigan davlatdir¹. Xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatini demokratik yagona davlat rahbarligi, joylarning ijodiy faolligi va tashabbusi bilan bog'lash imkoniyatini beradi. Bunda har bir organ va mansabdor shaxs konkret vakolat bilan uni ijro qilishda ma'lum mustaqillik va topshirilgan ish uchun mas'uliyat bilan ta'minlanadi.

Davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning hamma sohalaridagi xalq deputatlari Kengashlari tashkil etilishi va faoliyati demokratikligining mohiyati shundan iborat. Xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatining demokratikligi, eng avvalo, Kengashlarning tashkil etilishi va faoliyatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis birinchi sessiyasida ko'rsatib o'tganidek, Oliy Majlisga, shuningdek, mahalliy hokimiyatlar vakillik organlariga keyingi saylovlarni tashkil qilishning dastlabki damlaridayoq sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi. Vakillik organlariga saylov turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobilik asosida saylandi.

Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining demokratikligi asosida hamma Kengashlarni yagona bir tizimga birlashtirish amalga oshiriladi. Bu bilan har bir bug'in Kengashlari faoliyatida yakdillik va kelishuvchilikka erishiladi. Bu oddiygina yuqori turuvchi va quyi turuvchi Kengashlarning o'zaro munosabati bo'lmay, vakolatli davlat hokimiyati organlarining o'zaro munosabat prinsipidir.

Xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatining demokratikligi quyidagilarda ko'rinadi:

1. Quyidan tortib yuqorigacha barcha vakillik organlari saylab qo'yiladi. Saylov tizimining asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (XXIII bob) mustahkamlangan.

2. Respublikadagi vakillik va ijroiya hokimiyati tizimidagi hisobdorlik.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq viloyat, tuman va shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda, tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1992-yil, 43-bet.

Kengashlarning tashkil etilishi va faoliyatining demokratikligi prinsipini ta'minlashning bir qator tashkiliy kafolatlari mavjud. Ularning eng muhimlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunlarida, O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunda va boshqa normativ hujjatlarda mustahkamlangan. Xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatining demokratikligi prinsipini ta'minlashning moddiy kafolati shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asoslari belgilangan. Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari berilgan va mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy resurslari, mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham ko'rsatilgan. Xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatining demokratikligi siyosiy, tashkiliy va moddiy kafolatlari bu tamoyilning doimo rivojlanib borishini ko'rsatadi.

Kollegiallik prinsipi. Kollegiallikning mohiyati shundaki, Kengashlar, hokimliklar, ularning organlari, deputatlari o'z faoliyatlarida faqatgina o'zlarining bilim va tajribalarigagina suyanib qolmaydilar. Asoslangan qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlashi uchun mutaxassislarining, jamoatchilikning tashabbusi, tajribasi keng va doimo ishlatiladi. Kollegial tarzda ish ko'rish - to'g'ri va kerakli vaqtda zarur qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi.

Kollektiv bo'lib ish ko'rish faqatgina Kengashlarning va ularning organlari faoliyatida qo'llanilib qolmasdan, balki deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatida ham keng qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni asosida o'zbek xalqining milliy an'analari mos hokimlik institutining kiritilishi kollektivchilik yakkaboshchilik bilan qo'shib olib borish imkonini berdi.

Kollektivchilik muayyan guruh deputatlarning birgalikdagi faoliyatini bildiradi. Uch-to'rt deputat biror ishni birgalikda ko'rib hal qilsa, bu ham kollektiv bo'lib ish ko'rish bo'ladi, lekin bir necha o'nlab deputatlarga ega bo'lgan Kengashning nomidan ish ko'rolmaydi. Kollektivchilikning eng yuqori shakli bu kollegialchilikdir. Davlat hokimiyati vakillik organlari ma'lum son deputatlardan iborat. Kollegialchilik Kengash vakolatiga kiradigan masalalarni hal etishda qonun talabi bo'yicha ishtirok etishi shart bo'lgan deputatlarning sonidir. Agarda shuncha son deputatlar

ishtirok etsalargina Kengash majlisi ochilishi va u qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu holat *kvorum* deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchiligiga ko'ra *kvorum* ikki turga bo'linadi:

a) majlisni ochish va uni o'tkazish uchun;

b) qonunlarni va qarorlarni qabul qilish uchun.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senati va O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlislari senator va deputatlarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, ochilishi va o'tkazilishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunga ko'ra Kengashlarning sessiyalari, agarda shu Kengash deputatlarining uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, ochilishi va ish boshlashi mumkin deb belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish deputatlarining uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin, boshqa qonunlar oddiy ko'pchilik bilan qabul qilinadi.

Oliy Majlis palatalarida qonunlar va qarorlar qabul qilish hamda tasdiqlash uchun, shuningdek, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari qarorlarini qabul qilish uchun shu kollegial organlar deputatlarining (senatorlarning) oddiy ko'pchiligi ovozi kifoyadir.

Qonuniylik prinsipi barcha davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining eng muhim tashkiliy siyosiy va huquqiy prinsiplaridan biridir. Shuning uchun ham bu prinsipning asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» - deyiladi. Qonuniylikning mohiyati hamma davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga bir xilda rioya qilishlarini bildiradi. Qonuniylik prinsipi davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati, eng avvalo, mazkur organlarning tizimi va ularning tashkil etilish tartibi asosiy qonunda - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Xalq deputatlari Kengashlarining har bir bo'g'ini qonunlarda belgilangan vakolatlarni o'zlariga berilgan huquqlar doirasida amalga oshiradilar.

Qonuniylikni ta'minlashda davlat hokimiyatini vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslarini rivojlantirish bilan bir qatorda, qonunlarni va ular asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni bajarish ustidan o'rnatilgan nazorat ham katta ahamiyatga ega.

Vakillik organlari faoliyatida qonuniylik prinsipini ta'minlash qator talablarga javob berishni ko'zda tutadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

birinchidan, Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarga rioya qilish. Har bir Kengash qonunlar bilan belgilangan masalalarnigina hal qilishi mumkin;

ikkinchidan, masalalarni hal qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish;

uchinchidan, qabul qilinayotgan qarorlarni qonunchilik talablariga rioya qilgan holda qabul qilishi mumkin. Vakillik organlari qarori o'zining mazmuniga ko'ra qonunlarga va yuqori organlarning aktlariga mos bo'lishi shart. Qaror va qonunlar ko'zda tutilgan tartibda va shaklda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari berilgan. Shu qonunning 26-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Hokimlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, hukumat hujjatlariga zid keladigan me'yoriy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan qonunning 28-moddasiga muvofiq hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Oshkoralik prinsipi. Oshkoralik davlat hokimiyati vakillik organlarini yanada rivojlantirishdagi muhim yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, mahalliy vakillik organlari bo'lgan viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari saylovlar asosida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunda hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidagi qonunda oshkoralik haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokim faoliyati, qarorlar qabul qilishdan tortib ularning ijrosini ta'minlashgacha bo'lgan jarayon **omma-**

ning ko'z o'ngida amalga oshiriladi.

Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi ish tartibi, palata majlislarining o'tkaziladigan joyi va vaqti hamda yalpi majlisda ko'rib chiqish uchun qo'yilgan masalalar haqida faqatgina deputatlar va senatorlar emas, balki barcha hamma aholi qatlamini oldindan xabardor qilishni kerak. Bu holat mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida ham o'z aksini topadi. Vakillik organlarining majlislarida vakillik organi bo'lmagan shaxslarning, masalan, mutaxassislarning qatnasha olishlari qonunlarda ko'zda tutilgan, ayrim hollarda bu majlislariga tegishli shaxslarni vakillik organlarining o'zlari taklif etadilar. Majlislar, sessiyalarning borishi ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi, radio va televideniye orqali ma'lum qilinadi.

Oshkoralikni yanada yoyish maqsadida faqat vakillik organlari emas ularning tarkibiy strukturalari Oliy Majlis palatalari qo' mita va komissiyalari, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalar va boshqa organlar faoliyati ham oshkoralik asosida tashkil etiladi.

Oshkoralikning yana bir ko'rinishi senator va deputatlarning hisot otlaridir. Qonunchilik senator va deputatlarning o'z faoliyatlari haqida saylovchilar oldida, mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari oldida muntazam axborotlar berib turishini mustahkamlaydi.

Vakillik organlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash usullari juda ham turli-tuman, lekin ular bir-biridan ajralib qolgan emas, ularning demokratik asosi va maqsadi birdir. Bu usullarning alohida olingan bittasi Kengashlar faoliyatining oshkoraligini ta'minlay olmaydi, albatta. Lekin ularning hammasi Kengashlarning omma oldida va ularning ishtirokida ish olib borishiga muhim omil bo'ladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida ilmiylik prinsiplining ahamiyati. Boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari faoliyatiga ham, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ham tatbiq qilinadi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati samaradorligining muhim omillaridan biri boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish talablariga javob berishdir. Boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish boshqarish va rahbarlikda hozirgi zamon texnikasi va fani yutuqlarini qo'llagan holda yuqori mehnat unumdorligiga erishishdir. Vakillik organlari faoliyatiga boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish talablarini joriy etish davlat boshqaruvini doimiy takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish vakillik organlarini tashkil etish jarayonida ham, ularning rahbarlik qilish faoliyati jarayonida ham qo`llaniladi. Bu talablar faqat vakillik organlari faoliyatiga tatbiq qilinib qolmasdan, balki ijroiya hokimiyati, uning organlari va barcha deputatlarning faoliyatiga ham tatbiq qilinadi. Chunki deputat va senatorlarning majlislardagi, sessiyalardagi, komissiyalardagi va saylov okruglaridagi faoliyati boshqarish sohasidagi davlat faoliyatining bir ko`rinishidir.

Vakillik organlari, ijroiya hokimiyati va deputatlar faoliyatining samaradorligini aniqlashda eng muhim ko`rsatkichlardan biri shu organlar o`zaro hamkorligining yaxshi yo`lga qo`yilganligidir.

Ko`rilayotgan prinsip talablarining vakillik organlari faoliyatiga joriy etilishida quyidagi asosiy yo`nalishlar mavjud: *birinchidan*, vakillik organlari va mahalliy ijro organlarining har xil qismlari, apparat xodimlari o`rtasida vazifalarning, huquq va funksiyalarning oqilona taqsimlanishi; *ikkinchidan*, har bir organ va har bir xodimning vazifa va vakolatlariga mos ravishda funksiyalarni aniq belgilash; *uchinchidan*, xodimlarning aniq bo`ysunishligi va hisob berishligini aniqlab berish; *to`rtinchidan*, xodimlarni ularning ishni bilishlari, tajribalari, tashkiliy qobiliyatlarini hisobga olgan holda joy-joyiga qo`yish; *beshinchidan*, kadrlar malakasini oshirish, o`qishning doimiy tizimini yaratish; *oltinchidan*, boshqarish mehnatining samaradorligini oshirish, moddiy va ma'naviy me'yorlarning o`zaro to`g`ri nisbatlarini belgilab berish; *yettinchidan*, vakillik organlari va mahalliy ijro organlarining barcha qismlarini, deputatlar va shtatli xodimlarning ishlarini to`g`ri baholash va to`g`ri zarur qarorlar qabul qilish uchun yetarli bo`lgan ma'lumotlar bilan muntazam ravishda ta'minlab turish va, nihoyat, *sakkizinchidan*, vakillik organlari va mahalliy ijro organlarining ishiga hozirgi zamon hisoblash va tashkiliy texnika vositalarini tatbiq qilish.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyat faoliyatida boshqarishni va boshqarish mehnatini ilmiy tashkil etish talablarini joriy etish, kadrlar tanlash va joy-joyiga qo`yishda ularning bilimlari, tajriba va imkoniyatlarini hisobga olish ko`zda tutiladi. Bu talabga javob berish kengashlar va hokimiyatlar tomonidan har xil ijro etuvchi organlar va komissiyalar tuzishda, apparat qismlari, rahbarlari va xodimlarini, instruktorlar, inspektorlar, referentlarni tanlashda amalga oshiriladi. Mustaqil O`zbekiston sharoitida kengashlar va hokimiyat apparati xodimlarining malakasini oshirish, deputatlarni o`qitishning rivojlangan tizimini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Chunki bu holat O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-

ning birinchi sessiyasidagi «Jamiyat tubdan yangilanayotgan bir paytda bizga malakali, har tomonlama tajribaga ega bo`lgan, o`zgarishlarni hayotga tatbiq etishga qodir boshqaruv apparati kerak», degan ko`rsatmalaridan kelib chiqadi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati apparati faoliyatining mehnat unumdorligi oshishining muhim tashkiliy-texnikaviy asosi ular faoliyatiga hozirgi zamon tashkiliy texnikasini va hisoblash vositalarini tatbiq qilishdir. Tashkiliy texnikani-diktofonlarni, ko`chiruvchi va ko`paytiruvchi apparatlarni, mikrofilmlarni, arxiv uskunalarining har xil turlarini qo`llash hamda ish joylarini va binolarini shularga moslashtirish katta ahamiyatga ega.

Axborotlarni topish va ularni saqlash, qarorlarning maqsadga muvofiq turlarini ishlab chiqishni oldindan aytib berishning eng samarali hozirgi zamon vositasi - elektron hisoblash vositalari (kompyuterlar), hisoblash markazlarini tuzishdir. Masalan, hozirgi zamon hisoblash texnikasi viloyat hokimliklarida moddiy-texnikaviy ta'minotni va savdo oborotining samarador tizimini topish uchun, shahar transportining to`g`ri ishlashini ta'minlash uchun, qurilishni rejalashtirish uchun birinchi navbatda zarur. Boshqarishni va boshqarish mehnatini ilmiy tashkil etish O`zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar qoshida hisoblash va tashkiliy texnikani qo`llash bilan shug`ullanuvchi maxsus xizmat (bu guruh yoki sektor bo`lishi mumkin) tashkil etishni taqozo etadi. Ayrim kengashlarda bunday xizmat mavjud. Masalan, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashida hisoblash markazi bor. Bu ishni butun respublikada yaxshi yo`lga qo`yishda yagona hukumat dasturi bo`lishi ko`rinib turibdi.

Boshqarishni va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklarda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo`yish va ularni muntazam attestatsiyadan o`tkazib turishni ham qamrab oladi. Bu sohada ham asosiy qo`yilayotgan talablar I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma`ruzasida ko`rsatib berilgan. Boshqaruv sohasidagi kadrlarni tayyorlash darajasi ularning bugungi o`zgarishlarni amalga oshirish istagi va layoqatiga bog`liq. Shu bois ham davlat xizmatchilarining maqomi to`g`risida qonun qabul qilish zarurati sezilmoqda. Bu qonunda va uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda davlat xizmatchilarini tanlab olish tizimi, ularning huquq va burchlari, mas'uliyati, unib-o`sisini, ijtimoiy himoyasi, imtiyozlari belgilab berilgan bo`lar edi. Mazkur munosabatlarni qonun yo`li bilan tartibga solish kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo`yishdagi o`zboshimchilik, shaxsiy sadoqat, qarindosh - urug`chilik kabi illatlarning payini qirqadi. Qonun kuchli rag`batlantirish mexanizmini vujudga keltirishi kerak.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardagi kadrlarga nisbatan yuqorida aytilganlardan shuni ko'rish mumkinki, bu kadrlarning ish uslublari tubdan o'zgartirilishi lozim. Bu esa insonlarga bo'lgan hurmat, ularning fikrlarini hisobga olish va haqiqatan ham xalqqa yaqin bo'lish bilan belgilanadi. Bu sohada saylab qo'yish, konkurs asosida tanlash, attestatsiya va tayinlash o'rtasida eng yaxshi mutanosiblik ta'minlanishi lozim. Bu sohada kadrlar zahirasini ham ochiq tuzish, hokimlik apparati kadrlarining malakasini oshirish, ularning nomzodlarini Kengashlar sessiyalarida har tomonlama muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Boshqarish va boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etishning yana bir yo'nalishi xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlar faoliyatida davlat huquqiy tavsiyanomalarini tatbiq etishdir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida yuristlar, iqtisodchilar, faylasuflar, sotsiologlar o'z ilmiy tadqiqotlarida xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlar faoliyatining har xil yo'nalishlarini o'rganganlar va shu faoliyatni yaxshilashga, uni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, tavsiyanomalar berishgan. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlarning huquqiy maqomini takomillashtirishga qaratilgan eng maqbul takliflar va tavsiyanomalar kengash va hokimiyat faoliyatiga tatbiq qilinishi kerak.

Millatlarning tengligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida O'zbekiston xalqi millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etishi belgilangan. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, xalq deputatlari Kengashlariga turli millat vakillari saylangan. O'zbekiston Respublikasidagi hamma vakillik organlari o'zlari-ning tabiatiga ko'ra hamma millat vakillarini O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlashga, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga jipslashtiradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonuniga muvofiq hamma millat vakillari shu organlarga saylanib qolmasdan, ular tizimidagi organlarga ham saylanmoqdalar va shu organlar faoliyatida faol ishtirok etmoqdalar.

VI BOB. DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING FUNKSIYALARI

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari tushunchasi

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini tashkil etish masalalarini tahlil qilganda, eng avvalo, ular faoliyatining mazmuni nimadan iborat ekanligini aniqlab olish lozim. Davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati mazmunini tavsiflash uchun davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid adabiyotlarda va normativ hujjatlarda shu organlarning ish tajribasida «vazifalar», «vakolatlar» degan iboralar qoʻllaniladi. Lekin bu iboralar tushunchasini oʻzi davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati mazmunining eng muhim xususiyatlarini ifodalab bera olmaydi. Bu masalani davlat hokimiyati vakillik organlari funksiyalarini koʻrib chiqish davomida toʻliq oʻrganish mumkin.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari deyilganda ularning ijtimoiy-tarixiy taʼminlanishining asosiy tomonlari, Oʻzbekiston Respublikasida xalqqa tegishli boʻlgan davlat hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning asosiy tomonlari tushuniladi. Funksiyalar yigʻindisi davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatining mazmuni qanday ekanligini belgilab beradi.

Barcha bugʻindagi davlat hokimiyati vakillik organlari uchun yagona boʻlgan asosiy funksiyalar quyidagilardan iborat:

1. Tegishli hudud aholisini birlashtirish, barcha fuqarolarning manfaatlarini ifodalash, ularni davlat, jamoat ishlarini boshqarishga keng jalb etish.

2. Tegishli hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kompleksligini taʼminlash.

3. Davlat xoʻjalik va ijtimoiy-madaniy qurilish boʻyicha respublika va mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan boshqa masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

4. Oʻzbekiston Respublikasining qonunlarini, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, mahalliy hokimiyat organlari qarorlari va boshqa davlat hokimiyati organlari hujjatlarini hayotga tatbiq qilish.

5. Tegishli hududda quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish, jamoatchilik faoliyatini birlashtirish va yoʻnaltirish.

6. Qonunchilikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini taʼminlash.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari

Davlat hokimiyati vakillik organlarining xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish sohasidagi funksiyalari. Davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni analga oshirganda e'tibor bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishini hisobga olgan holda hududlarda davlat tasarrufidagi korxonalaridan tashqari xususiy mulkchilikka asoslangan korxonalar vujudga kelmoqda va rivojlanmoqda. Davlat hokimiyati vakillik organlarining birinchi navbatdagi vazifalari shu hududda yashayotgan barcha fuqarolarni ularning ayrim guruhlari manfaatlari bilan uyg'unlashtirib olib borishdir, tegishli hududda muhofaza qilinishini ta'minlaydilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni reja asosida amalga oshiradilar. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari bu sohada istiqbolga mo'ljallangan dasturlarni qabul qiladi. Shuningdek, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tegishli hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini qabul qiladilar (O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasi).

Davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni muvofiqlashtirish va farmoyish berish, yo'naltirib turish faoliyatlari orqali ham amalga oshiradilar. Bulardan birinchisi ko'proq xalq deputatlari Kengashlariga xos bo'lsa, ikkinchisi hokimlarga taalluqlidir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar xo'jalik qurilishi sohasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa vositalarini, turar joy qurilishi, kommunal qurilish, hududlarni obodonlashtirish, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarni hal qiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ijtimoiy-madaniy qurilish sohasida xalq maorifi, madaniy-ma'rifiy ishlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport, mehnat va ish haqi masalalarini hal qiladilar. Mazkur sohada sanab o'tilgan vakolatlarining o'zigina xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning shu sohadagi funksiyalarining murakkab va turli-tuman mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining davlat qurilishi sohasidagi funksiyalari.

O'zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi munosabati bilan ho-

kimlar boshchilik qiladigan vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari davlat qurilishi sohasida eng muhim masalalarni hal etadilar. Bu masalalarga quyidagilar kiradi:

1. Milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish, tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, nomini o'zgartirish va ularning chegaralari masalalarini hal etadi.

2. O'zbekiston Respublikasidagi davlat organlari tizimini, ularning huquqiy holatini belgilash va ular faoliyatiga rahbarlik qilish kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq respublikada tuziladigan davlat organlarining barcha tizimi Respublika Oliy Majlisi tomonidan saylanadi, tuziladi yoki tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi vakolatlariga xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash kiradi.

3. Tegishli hududlarda qonunlarga rioya etilishini, davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlash. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq davlat qurilishi sohasidagi shu vakolat bevosita viloyat, tuman, shahar hokimiga yuklatiladi. Unga ko'ra hokim tegishli hududda qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hal etadi.

4. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida mana shu sohada xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari va hokimlarning vakolatlari alohida-alohida berilgan. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga doir masalalarni hal etadi, deyilgan. Shu qonunning 25-moddasida esa "viloyat, tuman va shahar hokimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal etadi" deyilgan.

5. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning davlat qurilishi sohasidagi funksiyalarining navbatdagisi bu viloyat, tuman va shahar hududida bevosita demokratiya shakllarining ishlashini va taraqqiy etishini ta'minlashdan iboratdir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy etilishi bu funksiyaning dolzarb-

ligini yanada oshiradi. Bu sohada Kengashlar va hokimlar shu hududlarda o'tkazilishi lozim bo'lgan saylovlarini tashkil etishlari, deputatlarga, nomzodlarga saylovoldi uchrashuvlarida berilgan topshiriqlarni ko'rib chiqishlari, ularni bajarish tadbirlarini ishlab chiqishlari, ijro to'g'risida axborotlar berishlari lozim.

Davlat hokimiyati vakillik organlari a'zolarining funksiyalari. Ma'lumki, vakillik organlari faoliyat ko'lamiga ko'ra ham ularning a'zolari har xil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati har bir ma'muriy-hududiy birliklardan saylanadigan oltita va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan 16 ta senatoridan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan iborat. Viloyat xalq deputatlari Kengashlari, Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi 60 deputatdan, tuman xalq deputatlari Kengashlari 30 deputatdan iborat. Xalq deputatlari Kengashlari funksiyalaridan kelib chiqqan holda har bir alohida olingan senator yoki deputatlarning ham funksiyasi mavjuddir.

Davlat hokimiyati vakillik organlari a'zolarining funksiyalari deyilganda senator va deputatlar faoliyatining asosiy tomonlari tushuniladi. Davlat hokimiyati vakillik organlari a'zolarining funksiyalari davlat hokimiyat organlarining funksiyalaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy vakillik organi Oliy Majlis senatori va deputatining hamda quyi turuvchi vakillik organlari deputatlarining huquqiy holati alohida qonun bilan tartibga solingan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda xalq deputatlarining funksiyalari haqida gapirilmaydi. Demak, hozirgi kunda O'zbekistonda Senator va deputatlarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solingan. Ushbu qonunga binoan deputat va senatorning faoliyat mazmuni bir biridan farq qiladi. Qonunning 6-moddasiga ko'ra Deputat Qonunchilik palatasida doimiy asosda ishlashi lozim hamda o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi **mumkin emas.**

Senator qonun hujjatlariga muvofiq Senatda doimiy asosda ishlashi mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senator o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan **shug'ullanishi mumkin emas.**

O'zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga ko'ra deputat o'z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka

nomzod qilib ko`rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog`lab turadi, Qonunchilik palatasida ularning manfaatlarini ifoda etadi. Deputat o`ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko`rib chiqadi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko`radi, fuqarolarni qabul qiladi. Deputat vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida bir marta, saylovchilarga o`z faoliyati haqida axborot beradi. Deputatga saylovchilar bilan olib boriladigan ishlar uchun Qonunchilik palatasining Reglamentida belgilanadigan tartibda muayyan kunlar ajratiladi.

Ushbu qonunning 10-moddasiga binoan deputat, senator davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o`z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so`rovi yuborishga haqlidir.

Deputat va senatorlar palata doimiy qo`mitasi va komissiyalari va boshqa idoralari tarkibiga kirsa, mazkur idoralarning ko`rib chiqishi uchun har qanday masala va taklifni kiritishga, bu masala va takliflarni ko`rib chiqish uchun tayyorlashda, ularni muhokama qilish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga, shuningdek, palata kengashi hamda uning idoralari qarorlarini ro`yobga chiqarishni tashkil etishda va bu qarorlarning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga haqlidir.

Deputat va senatorlarning yuqorida ko`rsatilgan funksiyalarini amalga oshirishlari uchun siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni va deputatlik daxlsizligini belgilaydi. Masalan, deputatga tegishli organlar hisobotlarni va saylovchilar bilan uchrashuvlarni o`tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni ta`minlaydi. Uning iltimosiga binoan hokimliklar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma`muriyati va jamoat tashkilotlari bino ajratib, deputatning hisoboti, uning saylovchilar bilan uchrashuvlari o`tkaziladigan, deputatning fuqarolarni qabul qiladigan vaqti va joyini fuqarolarga ma`lum qiladilar, qabul va uchrashuvlarda qatnashish uchun deputatning taklifiga binoan o`zlarining mas`ul vakillarini yuboradilar, shuningdek, deputatning joylardagi ishiga ko`maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlarni ko`radilar.

O`zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to`g`risida"gi qonunning 9-moddasiga ko`ra Deputat, senator o`zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo`ladi. Tegishli palataning roziligisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma`muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek uning uy-joyi, xiz-

mat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transporti vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek unga tegishli hujjatlarni ko`zdan kechirishga yo`l qo`yilmaydi. Deputat, senator tegishli palatada ovoz berish chog`ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o`z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog`liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Deputat, senator O`zbekiston Respublikasi hududida havo, temir yo`l, avtomobil yo`lovchilar transportida (taksi va shahar yo`lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish huquqidan foydalanadi. Deputat, senator aeroportlar va aerovokzallar, temir yo`l vokzallari hamda stansiyalarining rasmiy shaxslar va delegatsiyalar uchun mo`ljallangan zallaridan tekin foydalanish huquqiga ega.

O`zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to`g`risida"gi qonun deputat va senatorlarni o`z funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga qaratilgan yana qator kafolatlarni ko`zda tutgan.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to`g`risida"gi qonun esa quyi turuvchi vakillik organlari deputatlarini faoliyatini tartibga soladi. Ushbu qonun mazmunidan kelib chiqib biz mazkur Kengashlar deputatlarining funksiyalarini bilib olishimiz mumkin. Ushbu qonunning 7-moddasiga ko`ra tegishli xalq deputatlari Kengashining deputati o`z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko`rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organi bilan aloqa bog`lab turadi, tegishli xalq deputatlari Kengashida ularning manfaatlarini ifoda etadi.

Deputat o`ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko`rib chiqadi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko`radi, fuqarolarni qabul qiladi. Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida ikki marta saylovchilarga o`z faoliyati to`g`risida axborot beradi. Deputatga saylovchilar bilan olib boriladigan ishlar uchun tegishli xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilanadigan tartibda muayyan kunlar ajratiladi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar o`tkazish uchun deputatga zarur shart-sharoit ta'minlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari uning iltimosiga ko`ra bino ajratilishini tashkil etadilar, deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari o`tkaziladigan, deputat tomonidan fuqarolar qabul qilinadigan vaqt va joy haqida fuqarolarga xabar beradilar, qabul va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o`zlarining mas'ul vakillarini yuboradilar, shuningdek, deputatning joylardagi ishiga ko`mak-

lashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar ko`radilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining qolgan funksiyalari O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatinikiga o`xshaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga imkon yaratadigan sharoit va vositalarning yig`indisi deputatlik faoliyatining kafolatlarini deyiladi.

3-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalarini ta'minlash vositalari

Davlat hokimiyati vakillik organlarining yuqorida sanab o`tilgan funksiyalari qanday qilib amalga oshiriladi? O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari davlat, xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning hamma sohalariga bevosita yoki o`zlari tuzadigan organlar orqali rahbarlik qiladilar. Rahbarlik, birinchidan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, shuningdek, bevosita xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida masalalarni ko`rib chiqish va hal qilish orqali amalga oshiriladi, ikkinchidan, davlat hokimiyati vakillik organlari o`z funksiyalarini amalga oshirishlari uchun qarorlar qabul qiladilar, ularning ijrosini ta'minlaydilar va ijrosini nazorat qiladilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlari o`z funksiyalarini amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalanadilar:

1. **Tartibga solish.** O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakolatiga kiradi. O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi, O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi, qonunlarining 8-moddalarida O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish; O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarini hamda qonunlarini qabul qilish, ularga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish faoliyati bilan shug`ullanishi mustahkamlangan.

2. **Farmoyish berish, yo`naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi faoliyat.** Davlat hokimiyati vakillik organlari davlat organlari, o`z hududlarida joylashgan va o`zlariga bo`ysungan korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatiga rahbarlik qiladilar, o`zlariga qarashli hududlarda joylashgan, lekin yuqori kengashlarga bo`ysunadigan korxonalar, tashkilot va muassa-

salar faoliyatini muvofiqlashtirib turadilar. O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o`zga tartib belgilanmagan bo`lsa.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim o`z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

3. Nazorat faoliyati. O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi va mahalliy Kengashlar o`zlariga hisobot berib turuvchi organlar faoliyatini nazorat qiladilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o`z vakolatlari doirasida ko`rib chiqish huquqi berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir masalalarni hal etadi. O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuniga muvofiq tegishli hududlarning hokimlari mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalarini hal etadi.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 1-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari o`rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta`minlaydi.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlar O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Hokimlarning O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va

qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi.

Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradilar. Yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari quyi turuvchi xalq deputatlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirar ekanlar, ularning faoliyatini ham nazorat qiladilar. Xalq deputatlari Kengashlari o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan ham nazorat o'rnatadilar va ular faoliyatini yo'naltirib turadilar.

4. Tashkilotchilik va tarbiyalash faoliyati. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq qonunlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi hamda jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda ham tashkiliy ishlarni o'z zimmasiga oladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-moliyaviy bazasi. Davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri ularda moddiy-moliyaviy bazaning mavjudligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi, deb yozib qo'yilgan. Jamiyat iqtisodiy negizlari shu tartibda belgilangan ekan, keng ma'noda shu mulkning o'zi davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining moddiy-moliyaviy bazasi deb qaralishi lozim. Shu bilan birga Konstitutsiya asosida qabul qilingan joriy qonunlarda mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-moliyaviy bazasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari belgilangan. Unga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning

davlat mulki (jamoat mulki) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi ham ko'rsatilgan. Ushbu qonunning 2-moddasida viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari belgilangan. Unga ko'ra viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika (viloyatlar, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Qonunga muvofiq mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham bo'lishi mumkin. Qonunning 14-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi fuqarolarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan, o'zga mablag'lardan tarkib topadigan, byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topadi.

VII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini shakllantirishdagi umumiy prinsiplar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat".

Demokratik va huquqiy davlat sharoitlaridagina parlament faoliyatining asosiy prinsiplari real samara beradi. Shuning uchun ham parlament faoliyatining asosiy prinsiplari ko'p jihatdan demokratik va huquqiy davlat umumiy prinsiplaridan kelib chiqadi.

Qonunchilik palatasini tashkil etish va uning faoliyati zamidagi quyidagi asosiy prinsiplar yotadi:

1. Xalqning manfaatlari va xohish-irodasini ifodalash prinsipi. Parlament – umumdavlat vakillik organi. Parlamentning vakillik xususiyati, avvalambor, parlament hokimiyatini, uning vakolatlarini qonuniylashtirishi, shuningdek parlamentda jamiyatning asosiy ijtimoiy-siyosiy kuchlari, aholining turli ijtimoiy tabaqalari vakilligini kafolatlashi lozim bo'lgan saylov bilan ta'minlanadi.

Har qanday davlat organi, birinchi navbatda parlament faoliyatining zamidagi xalqning xohish-irodasi yotishi lozim. Xalqning xohish-irodasi vaqti-vaqti bilan bo'ladigan va soxtalashtirilmagan saylovda o'z ifodasini topadi. Mazkur saylov, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) ga muvofiq, yalpi va teng saylov huquqiga ko'ra, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa tengma-teng shakllar vositasida o'tkazilishi kerak» (21-moddada, 3-qism). Bunda saylovni xalq suverenitetining parlamentga o'tkazilishi deb idrok etmaslik lozim. «Birorta ham organ, xoh parlament bo'lsin, xoh xalq tomonidan saylangan prezident, xalq suverenitetining tashuvchisi deb hisoblanishi mumkin emas. U faqat o'zi saylangan muddat mobaynida o'z konstitutsiyaviy vakolatini amalga oshirishga vakil qilingan, xolos»¹, degan fikrga qo'shilish lozim.

¹ Конституционное (государственное) право зарубежных стран. В 4-х т. Тома 1-2. Часть общая. Учебник / Отв. ред. Б.А. Стралун. – 3-е издание. – М., 1999, С. 357.

Muayyan (majoritar, proporsional, aralash) saylov tizimini tanlash parlamentning vakillik xususiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tanlash juda ko'p (tarixiy, milliy, siyosiy va boshqa) omillardan kelib chiqib amalga oshirilishi va jamiyatning asosiy ijtimoiy tabaqa va guruhlari manfaatlarini ifoda etuvchi parlamentning vakillik xususiyatini ta'minlashga ko'maklashishi lozim. Ilg'or demokratiyalarda bunga, avvalambor, parlament saylovining asosiy subyektlari – siyosiy partiyalar yordamida erishiladi. Siyosiy partiyalar jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy kuchlarning jamoatchilik fikrini shakllantiradilar va ifoda etadilar.

Siyosiy partiyalar – zamonaviy demokratiya tizimining ajralmas qismi, saylov kompaniyalarining asosiy ishtirokchilaridan biri. Eski demokratik an'analarga ega mamlakatlarda siyosiy partiyalar jamoatchilik fikri, xalqning siyosiy irodasini demokratik shakllantirish va uni saylovda ifoda etish jarayonida yetakchi marralarni egallaydilar. Ko'p partiyali barqaror tizim jamiyat va davlatni rivojlantirishning o'ta muhim masalalariga doir muqobillar, ortiqcha qarashlar, fikr-mulohazalarni qisqartirish, saylovchilarga mazkur masalalarni hal qilishga nisbatan bir nechta asosiy yondashuvlarni taklif qilish va shu tariqa muayyan siyosiy partiya, uning nomzodlari va ularning dasturlariga o'z ovozlari berayotgan saylovchilar eng samarali siyosiy qarorlar qabul qilishlariga ko'maklashish imkonini beradi.

Shu bilan birga, saylov kompaniyalarida, xalqning siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etishda partiyalarning roli doim ham bir xilda baholanavermaydi. Ko'p partiyalilik prinsipi partiya ro'yxatlari (fraksiyalari) bo'yicha saylangan deputatlar jumlasidan siyosiy uyushmalar tashkil etishda o'z aksini topadi.

Mazkur uyushmalar aholi turli tabaqalarining parlamentdagi siyosiy vakilligini ta'minlabgina qolmasdan, balki butun parlament ishining tashkil etilishini yaxshilashga ham ko'maklashadi. Bunda, tabiiyki, jamiyatning bir nechta kichik siyosiy partiya va guruhlarga parchalanishi va parlamentda ularning ancha to'liq vakilligi parlament ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi: qarama-qarshiliklar natijasida (agar parlamentda barqaror ko'pchilik bo'lmasa) parlamentning vakolatlari jumlasiga kiritilgan muayyan masalani hal qilishning iloji bo'lmasligi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim. Muayyan saylov tizimini tanlashda yuqorida zikr etilgan holatni e'tiborga olish kerak: ko'pgina (proporsional saylov tizimi amal qiluvchi) mamlakatlarda, masalan, parlament saylovida «to'siqlar» joriy etilishi, ular parlamentda asosiy siyosiy kuchlarning vakilligini ta'minlash bilan birga, «o'ng» va «so'l» kichik partiyalarni chetga chiqarishi bejiz emas. Bu

barqaror ko'pchilikka ega bo'lgan ishga layoqatli parlamentni tashkil etishga ko'maklashadi.

Ko'p partiyalilik prinsipi. O'zbekiston Respublikasidagi saylov kampaniyalari amaliyotini ham tavsiflaydi. Respublika o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin hokimiyatning vakillik organi ko'p partiyalilik asosida shakllantirila boshlandi. Muqobil saylov rivojlandi. Agar 1994-yilgi saylovda 11 248 000 saylovchidan 10 526 654 tasi yoki 93,6% ishtirok etgan bo'lsa, 1999-yilning dekabridagi saylovda 12 692 202 saylovchidan 12 061 266 tasi (ro'yxatga olingan barcha saylovchilarning 95,03%) ishtirok etdi. Birinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida atigi ikki partiya (Xalq demokratik partiyasi»dan 69 deputat va «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 deputat) hamda hokimiyatning vakillik organlaridan bir blok (167 deputat) ishtirok etgan bo'lsa, 1999-yilgi parlament saylovida partiyalar soni beshtaga yetdi. Mazkur partiyalar ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda to'rt fraksiya tarkibida ishtirok etdilar: «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining fraksiyasi – 11 deputat, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining fraksiyasi – 10 deputat, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining fraksiyasi – 49 deputat, «Fidokorlar» Milliy-demokratik partiyasining fraksiyasi (ikki partiya – «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» partiyalarining birlashishi negizida tashkil etilgan) – 54 deputat, shuningdek ikkita blok: hokimiyatning vakillik organlari bloki – 107 deputat, saylovchilarning tashabbuskor guruhlarini bloki – 16 kishi¹.

Mana mamlakatimizda 2004-yilning 26-dekabrda saylovlar o'tkazildi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga xamda xalq deputatlari Kengashlariga saylov natijalariga ko'ra quyi palataga va viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar demokratiya talablariga muvofiq muqobil asosda kurash olib borishdi. Nomzodlarning nisbatiga nazar tashlasak, har bir okrugga to'rt — beshtadan, ayrimlarida esa oltitagacha nomzod to'g'ri keldi.

2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylandi va ro'yxatga olindi. Saylovda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan siyosiy partiyalardan 435 va saylovchilarning tashabbuskor guruhlardan mustaqil nomzodlar 56 kishi ishtirok etdi. 2004-yil 26-dekabrda asosiy saylovda 12197159 (85,1%) saylovchi, joriy yil 9-yanvarda esa 5400000 dan ortik, kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish xuquqiga ega saylovchilarning qariyb 80% qatnashdi.

¹ Markaziy saylov komissiyasining axborotnomasi. 1995-yil; 2000-yil.

Saylovlar natijasida O`zbekiston Liberal — demokratik partiyasi saylovchilarning eng ko`p ovozi oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,3% saylandi, O`zbekiston Xalq demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3% saylandi. Shuningdek, Fidokorlar partiyasining 11 a'zosi, "Adolat" partiyasining 10 a'zosi saylandi.

Qonunchilik palatasiga nomzod qo`yilgan xotin-qizlar jami 159 kishi kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizmni namoyish etdi, siyosiy yetuklik, aql zakovat raqiblaridan qolishmadi. Natijada Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18%ni xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999-yilda Oliy Majlisga bo`lgan saylovlardagidan ikki yarim baravar ko`pdir.

Tashabbuskor guruhlardan ko`rsatilgan 56 nomzoddan 14 kishi deputatlikka saylandi, Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasidan ular 11,6%ni tashkil etdi.

Saylangan deputatlar orasida 18,3% —yuristlar, 21,7% —iqtisodchilar. Deputatlarning 10% sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi vakillari, 7,5% qishloq xo`jaligi vakillari, 12,5% tadbirkorlar, 20% ta'lim, fan, madaniyat va sog`liqni saqlash xodimlari, 16% nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari.

Avvalgi qonunlarimizda Oliy Majlis 250 nafar deputatdan iborat bo`lgan yagona palata asosida vakillik organi faoliyatini olib borgan bo`lsa, zamonaviy parlamentarizmning asosi sifatida hozirda ikki palatali 220 nafar deputatdan iborat tarkibda faoliyat olib boradigan Parlament joriy etildi. Bu o`z navbatida professionalizmni yuzaga keltiradi. Bunday takomillashuv jarayoni davrlarning o`ziga xos talabidan kelib chiqadi.

Parlament instituti zamon taraqqiyotiga mutanosib ravishda o`sb rivojlanib bormoqda, o`z navbatida deputatlarning xam oldidagi vazifa va asosiy ma'suliyati oshib bormoqda. Vaholanki, ular parlamentda xalq nomidan ishonchli tarzda faoliyati olib borishi, ularning xohish istaklari bilan yaqin bo`lib, jamiyatda doimiy o`z o`rnilariga ega bo`lib borishi lozimligini hayotning o`zi taqozo etmoqda.

Oliy Majlisning Qonunchilik (quyi) palatasi butun respublika aholisining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, uning vakilligini ta'minlaydi. Zero, mazkur palataning deputatlari saylov okruglari bo`yicha ko`p partiyalilik asosida saylanadi. Bu juda muhim holatdir. Zero, yuqorida qayd etib o`tilganidek, ilg`or parlamentlar, mohiyat e'tibori bilan, jamiyat va davlatga o`z ta'sirini ko`rsatish uchun kurashning parlament usullaridan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni himoya qilishga qodir siyosiy partiyalarning ishtirokisiz faoliyat ko`rsatishi mumkin emas.

Bunda deputatlar faoliyati doimiy professional asosda tashkil etiladiki, bu palataning funksiya va vakolatlarini amalga oshirishning samaradorligini, qonunlarning sifati yaxshilanishini, ularda aholi barcha ijtimoiy tabaqalarinig manfaatlari e'tiborga olinishini ta'minlashi lozim.

2. Hokimiyatni taqsimlash prinsipidan kelib chiqib, parlament funksiyalari va vakolatlarini amalga oshirish. Qonun chiqarish, byudjet va nazorat funksiyalari asosiy funksiyalari jumlasiga kiruvchi parlament o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Hokimiyatni taqsimlash prinsipiga asosan parlament davlat hokimiyatining boshqa bo'g'inlari faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas. Hokimiyatni taqsimlash prinsipi turli mamlakatlarda har xil amalga oshiriladi.

Prezident respublikalarida mazkur prinsip ayniqsa qat'iy va izchil amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda hokimiyatni taqsimlash prinsipi hukumatni shakllantirishda parlamentning ishtirokini cheklaydi va, mohiyat e'tibori bilan, uning parlament oldidagi javobgarligini yo'qqa chiqaradi. Ammo, shu bilan birga, parlamentning prezident tomonidan tarqatib yuborilishi, shuningdek hokimiyatning turli bo'g'inlarida lavozimlarning o'rindoshligiga ham (deputat vazir bo'lishi mumkin emas va h.k.) yo'l qo'yilmaydi.

Parlament respublikalarida hokimiyatni taqsimlash prinsipi Prezident respublikalaridagiga solishtirganda nisbatan «yumshoq» amalga oshiriladi. Parlament respublikalarida hukumatning parlament oldida javobgarligi e'tirof etiladi. Mohiyat e'tibori bilan, parlament hukumatni shakllantiradi (hukumatni, qoida tariqasida, parlament saylovida g'olib chiqqan partiya rahbari boshqaradi; toki parlament qo'llab-quvvatlar ekan, hukumat hokimiyat tepasida qoladi), deputat vazir lavozimini egallashiga yo'l qo'yiladi. Ammo mazkur mamlakatlarda (masalan, hukumatga ishonchsizlik bildirilganida, hukumat inqirozi sodir bo'lganida va h.k.) parlamentning muddatidan ilgari tarqatib yuborilishiga yo'l qo'yiladi.

«O'zaro bir-birini tiyib turish» doirasida hokimiyatni taqsimlash prinsipi nafaqat hukumat, balki boshqa davlat organlarini shakllantirishda ham parlament ishtirok etishi mumkinligini nazarda tutadi: parlament mamlakat prezidenti ishtirokida sudyalalar, Bosh prokuror, inson huquqlari bo'yicha vakil va boshqalarni tayinlashi mumkin.

hokimiyatni taqsimlash prinsipi parlamentga keng moliyaviy-nazorat vakolatlarining berilishini nazarda tutadi. Parlament davlat byudjetini va uning ijro etilishi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, u

hisob palatasini yoki byudjet mablag`larining sarflanishi ustidan boshqa moliyaviy nazorat organini tashkil etishga haqlidir.

Hokimiyatni taqsimlash prinsipining amalga oshirilishi darajasi boshqaruv shaklining xususiyatlariga, davlat hokimiyati bo`g`inlari o`zaro aloqa mexanizmining konstitutsiyaviy belgilanishi va mazkur prinsipni amalga oshirish amaliyotiga ko`p jihatdan bog`liq. Bularning barchasi parlament va hukumat, parlament va prezident, parlament va sud organlarining o`zaro aloqa qilish prinsipiga, shuningdek deputatlik faoliyatiga (deputat o`z vakolatlari davrida boshqa davlat faoliyati bilan shug`ullanishi mumkin emasligi prinsipi) ta`sir ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishida prezident respublikasining jihatlari ko`zga tashlanadi. Prezident davlat rahbari va ijro etuvchi hokimiyat rahbari hisoblanadi, u aholi tomonidan to`g`ridan-to`g`ri saylanadi, ijro etuvchi hokimiyat sohasida, sud hokimiyatini tashkil etish sohasida katta konstitutsiyaviy vakolatlarga ega bo`ladi.

Prezident veto qo`yish huquqiga ega (qonunga o`z e`tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo`yish uchun parlamentga qaytarishga haqli), u O`zbekiston Respublikasining butun hududida amal qilishi majburiy bo`lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Ammo, shu bilan birga, respublikada davlat hokimiyatining tashkil etilishi bu yerda parlament respublikasiga xos tendensiyaning rivojlanayotganligidan dalolat beradi: Bosh vazir lavozimi joriy etilgan; parlament Konstitutsiyada nazarda tutilgan holatlarda va tartibda Prezident tomonidan tarqatib yuborilishi mumkin.

3. Parlament deputatlari (a'zolari) faoliyatini ta'minlash prinsiplari. Deputat – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo`lmasin, avvalo xalq oldida javob beradi. Shuning uchun ana shu xalq manfaatlarini yo`lida parlamentdagi g`oyalar, yondashuv va qarashlar xilma-xil bo`lgani yaxshi. Hokimiyatni taqsimlash prinsipi, deputat faoliyatining professionaligi, shaxsiy manfaatlarida o`z mavqeini suiiste'mol qilishining taqiqlanishi deputat o`z vakolatlari davrida ma'lum faoliyat bilan shug`ullanishi mumkin emasligi prinsipini asoslashni taqozo etadi.

Mazkur prinsip turli davlatlarda o`z xususiyatlariga ega: bir mamlakatlar (masalan, Italiya) deputat o`z vakolatlari davrida boshqa faoliyat bilan shug`ullanishi mumkin emasligi to`g`risida maxsus qonunlar qabul qilish yo`lini tanlaganlar, boshqa mamlakatlar (masalan, Avstriya)da parlamentlar deputat o`z vakolatlari davrida boshqa faoliyat bilan shug`ullanishi mumkin emasligi masalalari bilan shug`ullanuvchi maxsus qo`mitalar

tashkil etadilar, uchinchi mamlakatlar (masalan, Buyuk Britaniya)da esa deputatga parlament tomonidan qabul qilinuvchi hujjatlardan o'zining har qanday moddiy manfaatdorligi haqida ma'lumot berish majburiyati yuklanadi.

4. So'z erkinligi prinsipi (indemnitet). Deputatlarga parlament faoliyatining barcha masalalari yuzasidan ochiq va tanqidiy fikr bildirish imkoniyatini ta'minlaydi. Parlamentdagi o'z chiqishlari uchun deputat javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Jumladan, AQSHda Kongress a'zolari qonunchilik organida bildirgan fikrlari uchun ijro etuvchi hokimiyat tomonidan jazoga tortilishi yoki sud organi oldida javobgar bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, Kongress o'z a'zolarini noloyiq xulq-atvori uchun jazolash yoki o'z safidan chiqarish huquqiga ega¹.

Ammo, shuni ham qayd etib o'tish kerakki, parlament deputati so'z erkinligining yuridik kafolatlari, mazkur erkinlikni suiiste'mol qilganlik uchun javobgarlik shakllari va usullari turli mamlakatlarda har xil belgilanadi. Masalan, Finlyandiya parlament deputati so'z erkinligi huquqini suiiste'mol qilganligi uchun so'z olish huquqidan mahrum qilinishi, yig'ilishlar zalidan chiqarib yuborilishi, Rossiyada esa – faqat so'z olish huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

Ba'zi bir parlamentlar tomonidan deputatlik axloqi masalalari bo'yicha parlament komissiyalarining tashkil etilishi, parlament yig'ilishlarida deputatlar xulq-atvori qoidalarining tasdiqlanishi va nafaqat deputatning so'z erkinligini himoya qilish, balki deputatning munosib xulq-atvorini ta'minlashga ham yo'naltirilgan boshqa chora-tadbirlarning amalga oshirishini asosli deb o'ylaymiz.

5. Deputatning daxlsizligi (parlament immuniteti) prinsipi . Deputat o'z huquq va majburiyatlarini erkin va mustaqil amalga oshirishini ta'minlovchi kafolatlardan biridir. Parlament immuniteti deputatlarni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida, ularga soxta ayblar qo'yilishidan himoya qilishi lozim. Bu deputat umuman jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi. Deputat jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin, ammo bu alohida tartibda, parlamentning deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga roziligi bilan amalga oshiriladi. Deputat faoliyatining mazkur kafolati barqaror demokratik siyosiy tuzum sharoitlarida parlament faoliyati an'analari mavjud bo'lmagan mamlakatlarda maqsadga muvofiq va zarurdir.

¹ Qarang: Леттер Д. Принцип разделения властей и система сдержек и противовесов в Конституции Соединенных Штатов // Верховенство права. Сборник. – М., 1992, с. 114.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunda deputat faoliyatining prinsiplarini belgilovchi muhim qoidalar mavjud:

a) deputat faoliyatining professionalligi, ya'ni deputatlar doimiy asosda ish olib borishlari lozim;

b) deputat o'z vakolatlari davrida ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanishi taqiqlanadi: deputat ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas;

v) deputatning daxlsizligi, ya'ni deputatni jinoiy javobgarlikka tortishning alohida tartibi belgilanadi. Mazkur tartib deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish uchun palataning rozilik berishini talab etadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Saylovlar parlament tarkibini shakllantirishning muhim vositasidir. Butun parlament ishi samaradorligi Senatni shakllantirish qanday tamoyillar va normalardan foydalanilgan holda kechganligiga bog'liq. Binobarin yuqori palatani tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament islohotini yanada jadallashtirish. 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida Prezidentimiz tomonidan: "Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish" kerak degan fikrlarida ham aynan Senat faoliyatining muhim vazifalariga to'xtalib o'tdi.

O'z navbatida palatani shakllantirish tamoyillari va normalari Senat zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadi. Ushbu o'zaro shartlilik va o'zaro bog'liqlilik senatorlar korpusini shakllantirish va palata faoliyatini tashkil etishining boshqa masalalari - palata ishini konstitutsiyaviy tarzda belgilangan maqsad va vazifalar doirasida samarali tashkil etishning yagona normativ-huquqiy tizimidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Garchi ushbu tizim umum e'tirof etgan oshkoralik va nomzodlarning bellashuvi prinsiplari asosida, yuksak demokratik mezonlar zahirida barpo etilsada, birinchi navbatda mamlakat siyosiy tizimining xususiyatlarini ifodalaydi va shu tarzda tashkiliy mazmuniga ko'ra betakroridir. Jahonda yuqori palatalarni shakllantirishning usul va tartiblari orasida xilma-xillik

kuzatlayotganligi tasodifiy hol emas. Har bir milliy tajriba tegishli siyosiy tizim va davlat mexanizmining tarixan rivojlanishi tendensiyalarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat rahbari va Konstitutsiya-ning kafolati ekanligini, binobarin tegishlicha hokimiyat barcha tarmoqlari mutanosib faoliyat ko'rsatishini ta'minlanishini hisobga olib, palataning muayyan miqdordagi a'zolari uning tomonidan tayinlanishi Senatni shakllantirish tartibining uzviy qismiga aylantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan) 77-moddasi uchinchi qismida Senatga saylanadigan shaxslarning tanlab olinish mezonini o'z ifodasini topgan. Ular fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida xamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan - eng obro'li odamlar orasidan tanlanadilar.

Senatorlar korpusining ushbu qismi zimmasiga umummilliy manfaatlar ifodachilarining nufuzli o'zagini shakllantirish vazifasi yuklatiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan senatorlar shunday axloqiy obro'-e'tiborga ega bo'lakilarki, Senat a'zolari masalalarni ishchanlik va asos bo'larli muhokamalar chog'ida ko'rib chiqar va hal qilar ekanlar, ularga albatta murojaat qiladilar¹.

Biroq e'tirof etish kerakki, tanlanish chog'ida «tajriba» bosh mezon sifatida maydonga chiqadi. Tajriba esa albatta o'z-o'zidan emas, muayyan yoshga kirgandan so'ng orttiriladi. Shuning uchun ham qator mamlakatlarda parlamentlarni shakllantirish chog'ida nomzodning yoshiga nisbatan qo'yiladigan talab palata ishi uchun barqaror eski tarkibni shakllantirishni ta'minlashda o'lchov sifatida foydalaniladi.

Ammo baribir Senatni shakllantirish tartibining asosida nafaqat min-taqaviy vakillikni, balki ushbu organning qonuniyligini ta'minlovchi qo'shimcha saylovlar tamoyili yotadi. Ushbu talablar xalq hokimiyatchiligining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan asosiy prinsiplariga asoslanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylab qo'yiladigan organdir (O'zbekiston Respublikasinnng Konstitutsiyasi. 10-modda).

Ushbu tartibni mohiyatiga ko'ra pog'onama-pog'ona deya ta'riflash mumkin: «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va O'zbekiston Res-

¹ Qarang: O.Мухамеджонов. Новый этап развития парламентаризма в Узбекистане. Хозяйство и право №9.2003. С.61.

publikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq avval Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shaxar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar o'tkaziladi. Faqat shundan keyingina deputatlar tarkibidan Senatning asosiy guruhi majmui saylanadi.

Senatga saylovlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi. (O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni, 52-modda). Yuqori palatani shakllantirishdagi yoshga nisbatan qo'yiladigan talab juda sezilarsiz va palatani konservatorlar (esqilikka yopishib olganlar) deya nomlanuvchilarning eng kam miqdori bilan shakllantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyat, tuman, shahar davlat hokimiyati vakillik organlarining saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan deputati Senat a'zozligiga saylanish uchun nomzod bo'lishi mumkin.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 55-moddasiga binoan davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlislarini chaqirish, Senat a'zozligiga nomzod ko'rsatish, shuningdek ovoz berishni o'tkazish Senat a'zozlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaxarlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida saylash tartibi to'g'risidagi qonun hujjatlarida, ya'ni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan nizom shaklida ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan huquqiy hujjatda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qo'shma majlislarining vakolatligi unda davlat hokimiyati vakillik organlari barcha deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda ta'minlanadi. Ovoz berish natijalariga ko'ra boshqa nomzodga nisbatan ko'proq ovoz olgan Senat a'zozligiga nomzodlar agar ular uchun davlat hokimiyat vakillik organlarining majlisda ishtirok etayotgan deputatlari ellik foizidan ko'prog'i ovoz bergan taqdirda saylangan hisoblanadilar. Agar ovoz berish natijasida Senatning belgilangan miqdordagi a'zozlari saylanmasa, tegishli bo'sh o'rinlarga davlat hokimiyati vakillik organlarining mana shu qo'shma majlisida zarur miqdordagi ovozlarni to'play olmagan nomzodlari bo'yicha takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Agar saylovlar davomida, ovozlarni sanab chikish chog`ida, yashirin ovoz berish natijalarini aniqlashda 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida»gi Qonun talablari saylov natijalariga ta'sir qilgan tarzda buzilishiga yo`l qo`yilgan taqdirda, Markaziy saylov komissiyasi Senat a'zolarining saylovini haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Qonunda, shuningdek saylov haqiqiy deb topilgan hollarda va agar takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo`lsa, Senat a'zolarining takroriy saylovini o`tkazish ehtimolini xam nazarda tutilgan. Takroriy ovoz berish natijasida belgilangan miqdorda senatorlar saylanmagan hollarda keyingi takroriy saylovlar Senat a'zolarining saylanmay qolgan miqdori bo`yicha o`tkaziladi. Senat a'zolarining takroriy saylovi Senatga o`tkazilgan asosiy saylovdan keyin ko`pi bilan o`n besh kunlik muddat ichida o`tkaziladi. Saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligiga nomzodlar ko`rsatish va takroriy saylovlar o`tkazish ushbu qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Senat vakolat muddatining tugashiga olti oydan kam vaqt qolganda Senat a'zosining o`rni bo`shab qolsa, bo`shab qolgan o`ringa Senatning yangi a'zosi saylovi o`tkazilmasligi mumkin.

Yevropa mamlakatlari parlamentlarining ikkinchi palatasini shakllantirishda eng ko`p qo`llaniladigan usul bilvosita (to`g`ridan-to`g`ri emas - vakillar orkali) saylovlar ekanini ta'kidlab o`tish lozim. Italiyada «amaldagi prezident besh nafardan munosib fuqarolarni senator etib umrbodlikka tayinlash huquqiga egaligini belgilovchi konstitutsiyaviy norma amalda bo`lib turipti. Xorvatiyada ham xuddi shunday - yuqori palataning besh a'zosi davlat rahbari tomonidan tayinlanadi. Belarus respublikasida ham yuqori palata a'zolarini tayinlash instituti amal qiladi. Belarus prezidenti yukori palata -Respublika Kengashining sakkiz a'zosini (palata uchdan bir kismini) o`zi tayinlaydi. Bu miqdor (sakkiz kishi) xar bir viloyatdan va Minsk shahridan tayinlanadigan a'zolar soniga tengdir. Qozog`iston Prezidenti yetti nafar senatorni tayinlasa, Hindistonda esa ularning o`n ikki nafarini tayinlaydilar.

Senat a'zoligi uchun yoshga nisbatan ko`yiladigan talab ham turlicha. Qator Yevropa mamlakatlarida senatorlikka 18 yoshda saylanish mumkin bo`lsa (Ispaniya, Niderlandiya, Bosniya-Gersegovina), Buyuk Britaniya va Irlandiyada bu yosh 21 qilib belgilangan. Polsha yuqori palatasi a'zoligi uchun nisbatan «ulug`» - 30 yosh belgilangan bo`lsa, Italiya va Chexiyada eng yuqori - 40 yosh talab qilinadi. Yuqori palata a'zolarining vakolati Bosniya va Gersegovinadagi 2 yillik muddatan Fransiyada 9 yilgacha va

Buyuk Britaniyada umrbod a'zolikka ega bo'lgan vaqt ichida tebranib turadi. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida uning muddati 4-5 yilni tashkil etadi¹.

O'zbekistonda ham Senatni tuzishning asosiga hududiylik prinsipi joylashtirilgan. Amalga oshirilayotgan parlament islohotlarning sababi ham ayni vaqtda ushbu prinsipdir. O'zbekiston yuqori palatani shakllantirish masalasidagi xalqaro tajribadan faqatgina o'zining an'anaviy demokratik mamlakatlarda amaliy yashovchanligini ko'rsatgan. Ammo respublikamizning o'ziga xos shart-sharoitlariga mos hamda milliy davlatchilik taraqqiyotining strategik vazifalaridan kelib chiqib qo'llash mumkin bo'lgan holatlarnigina qabul qilib oldi. Chet el davlatlarining tajribasidan foydalanishdagi bosh masala -senatorning ulardagi singari saylanishi va tayinlanish elementlari bilan birgalikda, senatorlikka nomzodlarni qobiliyatiga qarab tanlab olishni ham o'zida mujassamlashtirgan mexanizmni shakllantirishdan iboratdir.

Senatning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tarkibiy qismi sifatidagi o'rni va roli nafaqat uning konstitutsiyaviy vakolatlari bilan, balki palataning imkoniyatlari va uning a'zolari resurs bazasi bilan ham keng ma'noda bog'liqdir. Palataning sifat tarkibi Senat ishining xususiyati va uslubi, tegishli vakolatlarni amalga oshirish samaradorligining hal qiluvchi omili bo'lib qoladi. Hududiy vakillik palata va senatorlar uchun tashqi belgi hisoblanadi. Senatorlarni qarorlar qabul qilishga ruhlantiruvchi asosiy masalalar esa asosan umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu manfaatlarning uyg'unlashtiruvchi ommaviy ifodachisidir.

3-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi jarayonini tashkil etish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylov jarayonini tashkil etish va o'tkazish uchun quyidagi asosiy prinsiplardan foydalaniladi:

Birinchisi: umumiy saylov huquqi prinsipi. Bu prinsip shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi

¹ Qarang: П.А.Федосов. Порядок формирования и полномочия вторых палат парламентов в странах зарубежной Европы. Аналитический вестник. №20. 2001. 8-9-betlar.

biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O'zbekistonning 25 yoshga to'lgan fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovda qatnashish uchun yosh senzidan boshqa cheklovchi senzlarning yo'qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini ko'rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhim prinsiplariga - xalq suverenitetiga, O'zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi. Aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan shaxslarning mustasno qilinganligi tamomila tabiiy va qonuniyatli bir holdir. Buning boisi shuki, bunday shaxslar o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'zlariga hisob berolmaydilar va saylovda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. O'zbekistonda saylovda qatnashish uchun yosh darajasi oqilona kamaytirilib, 18 yosh qilib belgilangan. Shaxs ay nan shu yoshda siyosiy va fuqarolik yetukligicha erishadi.

Ikkinchisi: teng saylov prinsipi. Saylov tizimining demokratik mohiyati saylovning umumiy bo'lishida, ya'ni barcha fuqarolarning saylovda ishtirok etishidagina emas, shuningdek saylovning teng bo'lishida hamdir. Umumiy va teng saylov prinsiplari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Umumiy saylov bo'lmasa, teng saylov ham bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 117-moddasida hamda Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi Qonunida "Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadirlar", deb belgilangan.

Saylov huquqining tengligi, saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi va ovoz berishi bilan ta'minlanadi.

Uchinchisi: to'g'ridan-to'g'ri saylov prinsipi. O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy va teng bo'libgina qolmay, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri hamdir, ya'ni vakillik organlarga deputatlar to'g'ridan-to'g'ri saylanadi, xalq deputatlarining barcha vakillik organlarga fuqarolar bevosita saylaydilar. To'g'ridan-to'g'ri saylov to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagani saylovdan shu bilan farq qiladiki, birinchi holda deputat saylovchilar tomonidan bevosita xohish-irodalarini erkin ifoda etishlari yo'li bilan saylanadi.

To`g`ridan-to`g`ri saylovlarning joriy etilishi saylovchilarning deputat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi. To`g`ridan-to`g`ri saylov ko`p bosqichli saylovdan shu bilan farq qiladiki, bunda saylovchilar o`z deputatini yaqin biladilar, undan hisob berib turishini talab qila oladilar.

To`rtinchisi: yashirin ovoz berish prinsipi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida O`zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar yashirin ovoz berish yo`li bilan o`tkaziladi.

Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Zero, bunday ovoz berishda huquqlar o`z xohish-istaklarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Konstitutsiyada saylov huquqining prinsiplarini mustahkamlanishi O`zbekiston Respublikasida saylovchilar uchun barcha imkoniyatlarning yaratilganligi, ularning saylovlarda qatnashish huquqlari hech qanday senzlar bilan cheklanmaganligi va fuqarolarning davlatni idora etishda aktivligi oshganligining yaqqol namunasidir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq, O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo`lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi vakolat muddati - besh yil qilib belgilanagan.

"O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo`yicha ko`ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko`rsatishiga asoslanadi»¹.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o`tkazuvchi saylov okruglari O`zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida Saylov kuni yigirma besh yoshga to`lgan hamda kamida besh yil O`zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O`zbekiston Respublikasi fuqarosi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati

¹ O`zbekiston Respublikasining «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to`g`risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni. -Xalq so`zi. 2002-yil. 27 dekabr.

a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas deb ko'rsatilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovni o'tkazuvchi saylov okruglari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. Saylov okruglari, qoida bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida saylov okruglarining ro'yxatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatilgan holda saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan o'n besh kun ichida e'lon qiladi. Saylov okrugi – saylov o'tkazish uchun Konstitutsiya va saylov to'g'risidagi qonunlar asosida belgilab qo'yilgan hududiy saylov birligidir. Deputat qaysi okrugdan saylangan bo'lsa, u shu okrug aholisining vakili deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunga asosan, Oliy Majlisga saylov o'tkazish uchun bir yuz yigirmata saylov okrugi tuziladi.

Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi. O'zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilish hududiy prinsipga asoslanadi, shuning uchun saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. Harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o'ttiz kundan kechikmay tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchilardan iborat tuziladi. O'zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o'tkazish uchun quyidagicha saylov komissiyalari tashkil etildi:

1. Markaziy saylov komissiyasi;
2. Okrug saylov komissiyasi;

3. Uchastka saylov komissiyasi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarini, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o`tkazish uchun tuziladi hamda u o`z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Saylov to`g`risidagi qonunlarga, referendum to`g`risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilib ish olib boradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis palatalari tomonidan o`n besh nafar a`zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a`zolari Qoraqolpog`iston Respublikasi Juqorg`i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasi bo`yicha Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlanadilar. Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a`zolari orasidan Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o`rinbosari va komissiya kotibi komissiya a`zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to`g`risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir xilda qo`llanishini ta`minlaydi.

Okrug saylov komissiyasi saylov e`lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yigirma kundan kechikmay rais, rais o`rinbosari, kotib va yana kamida 6 nafar a`zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyalarining vakolatlari O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risidagi qonunda to`liq ko`rsatilgan. Saylov okrugi saylov to`g`risidagi qonunning ijrosini nazorat qiladi, saylov uchastkalarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi, deputatlikka nomzodlarga saylov kompaniyasida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratilishini ta`minlaydi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro`yxatga olingan deputatlikka nomzodlar to`g`risidagi ma`lumotlarni e`lon qiladi va bu nomzodlarga tegishli guvohnomalar beradi, saylov okrugi bo`yicha saylov natijalarini aniqlaydi va Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi va qonunda ko`rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan kechikmay 5-19 nafar a`zodan, shu jumladan rais, rais o`rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O`zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini hududida uchastka saylov komissiyasi raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi vakillik organlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish, ovoz berishni tashkil qilish va berilgan ovozlarni sanab chiqish uchun saylov uchastkalariga bo'linadi. Uchastka saylov komissiyasi aholini saylov kuni va ovoz berish joyi to'g'risida xabardor qiladi. Ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayyorlab qo'yilishini ta'minlaydi. Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari to'liq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar orasida deputatlikka nomzodlar ko'rsatish eng muhim va ma'suliyatli tadbirlar hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish saylovga qirq besh kun qolganida to'xtatiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan hamda fuqarolar guruhi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida uch yuz nafar saylovchisidan iborat tashabbuskor guruh tuzishi mumkin va deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya saylov e'lon qilgan kundan kamida olti oy oldin Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan bo'lsa deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega.

Siyosiy partiyalar, saylovchilar tashabbuskor guruhlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 120 ta nomzod ko'rsatish huquqiga egadirlar. Deputatlikka ko'rsatilgan nomzod faqat bitta okrugdan o'tishi mumkin. Deputatlikka nomzod tanlashni siyosiy partiyalar, hokimiyatning vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining o'zlari hal etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida to'xtab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Deputat bo'lishni istagan odam, avvalo, halol-pokligi, ma'naviy yetukligi, teran bilimi, qobiliyati, el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yish kabi xususiyatlari bilangina saylovchilarning ishonchiga sazovor bo'lishi mumkin".¹

Siyosiy partiyalar faqat o'z partiyasi a'zolarigina emas, balki partiyasizlarni ham deputatlikka nomzod etib ko'rsatishlari mumkin. Quyidagilar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar:

1.Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan fuqarolar, shuningdek sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farvon hayot-pirovard maqsadimiz. T.R. -T.: O'zbekiston, 2000. 63-bet.

yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

2. Saylov tayinlangan kunga qadar besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamagan fuqarolar.

3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari.

4. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari.

5. Hukumat a'zolari, sudyalalar, bosh prokuror va prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirliklar, idoralar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, hokimiyat ijroiya organlarining mansabdor shaxslari (viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlaridan tashqari) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shsh to'g'risida ariza berganlari taqdirdagina Oliy Majlis deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinadilar.

Deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganda to'xtatiladi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olganidan keyin besh kun ichida deputatlikka nomzod to'g'risidagi ma'lumot okrug saylov komissiyasi tomonidan mahalliy matbuotda e'lon qilinadi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, nomzodni keng muhokama qilish saylov oldi muhim bosqichi hisoblanadi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab saylov oldi tashviqotlar boshlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod beshtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Mahalliy vakillik organlariga deputatlikka nomzodlar uchtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot ishlari olib boradilar. Ishonchli vakillarni deputatlikka nomzodlarning o'zi tanlaydi va ularni ro'yxatga olish uchun tegishli okrug saylov komissiyasiga taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyat vakillik organlariga saylovchilar ro'yxatini uchastka saylov komissiyalari tuzadilar va uni har bir uchastkada tegishli uchastka saylov komissiyasining raisi va kotibi imzolaydi.

Saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi saylovchilar ro'yxatlarini tuzish ishiga jamoatchilik vakillarini jalb qilish asosida ish olib boradilar. Saylov kuni-gacha yoki saylov o'tkazilayotgan kunda 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolar saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida huzurida, sanatoriylar, kasalxonalarda, invalidlar uylarida, dam olish uylarida va boshqa davolash muassasalarida tuzilgan saylov uchastkalari bo'yicha saylovchilarning ro'yxatlari mazkur muassasalar rahbarlarining taqdim etilgan ma'lumotlari asosida tuziladi.

Harbiy qismlarda saylovchilar ro'yxatlari harbiy qismlarning komandirlari taqdim etgan ma'lumotlar asosida tuziladi. Saylovchilar ro'yxatida har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi tug'ilgan yili va turar joyi ko'rsatiladi. Saylovchilar ro'yxati saylovga 15 kun qolganda saylov uchastka hududida hamma tanishishi uchun taqdim qilinadi. Saylovchilar ro'yxatidan tushib qoldirilgan saylovchilar uchastka saylov komissiyasiga arz qilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida uni ko'rib chiqib saylovchilar ro'yxatiga kiritadi. Uchastka saylov komissiyalari ro'yxatlar bilan tanishiladigan joyni va vaqtini saylovchilarga xabar qiladi. Agar saylov komissiyasi noto'g'ri qaror qabul qilsa, bu holda saylovchi saylov komissiyasi qarori ustidan qonunda ko'rsatilgan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Saylov bulletinlari saylovga kamida uch kun qolganda yetkazib beriladi. Saylov bulletinlari uchastka saylov komissiyalariga qat'iy hisob bilan beriladi. Saylov bulletinlari davlat tilida, shuningdek okrug saylov komissiyasining qaroriga binoan saylov okrugi aholisining ko'pchiligi muomala qiladigan tillarda nashr etiladi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarga binoan saylov kuni ovoz berish ertalab soat 6.00 dan kechqurun 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish odatda maxsus ajratilgan binoda o'tkaziladi. Shuning uchun ovoz berish joylari jihozlab qo'yiladi, saylov bulletinlari beriladigan joy belgilanadi va saylov qutilari o'rnatiladi.

Saylov qutilari shunday o'rnatiladiki, ovoz beruvchilar uning oldiga borish uchun yashirin ovoz beradigan kabina yoki xonalar orqali o'tadilar. Ovoz berish kabinalari yoki xonalarining nechta bo'lishi saylov uchastkalaridagi saylovchilarning soniga qarab belgilanadi. Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov bulleteni beriladi. Agarda saylovchi bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yxatiga familiyasi kirmay qolgan bo'lsa uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan saylovchilar ro'yxati ilovasiga kiritiladi. Ovoz berish vaqtida saylovchi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning saylov bulletinidagi familiyalarini o'chiradi.

Saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolari-ning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgandagina ochiladi. Uchastka saylov komissiyasi saylov kunidan oldin saylov kunini o'tkazish uchun tashkiliy vazifalarni ko'rib chiqadi va har bir saylov komissiyasi a'zosi qanday ishlarni bajarishi kerak, ariza va shikoyatlarni qabul qilish tartibi, tegishli ma'lumotlarni kim tayyorlaydi kabi vazifalar oldindan belgilab olinadi va javobgar a'zolar aniqlanadi. Uchastka saylov komissiyasining raisi soat 20.⁰⁰-da ovoz berish tamom bo'lganligini e'lon qiladi. Ovoz berish tugagach, saylov qutilarini ochishdan oldin uchastka saylov komissiyasining a'zolari ishtirokida saylov varaqalari solingan yopiq konvertlar qutilarga tashlanadi, foydalanilmagan barcha saylov bulletinlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan sanab chiqiladi va bekor qilinadi. Uchastka saylov komissiyasi shu uchastkada ovozga qo'yilgan barcha saylov uchastkasi bo'yicha saylov natijalarini alohida-alohida bayonnomasiga yozadi. Okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyalari yuborgan saylov bayonotiga asosan okrug bo'yicha berilgan ovozlarni hisoblab chiqadi. Deputatlikka nomzod okrugdagi barcha saylovchilar ovozlarning yarmidan ko'prog'ini olgan taqdirdagina saylangan deb hisoblanadi.

Okrug saylov komissiyasi hokimiyat vakillik organi deputati qilib saylanganlik to'g'risidagi guvohnomani beradi. Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonlar asosida va saylov to'g'risidagi qonunlar asosida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Respublika bo'yicha saylovchilarning umumiy sonini;
2. Saylov bulletinlari va varaqalari olgan saylovchilarning sonini;
3. Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini;
4. Har bir deputatlikka nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlarning sonini;
5. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatilgan har bir siyosiy partiyani yoqlab berilgan ovozlarning umumiy sonini;
6. Haqiqiy emas deb topilgan saylov bulletinlari va varaqalari sonini aniqlaydi.

Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylangan deb hisoblanadi. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi.

Agar saylov okrugi bo'yicha ikkitadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham ko'pchilik ovozni ololmasa, ya'ni deputat bo'lib saylanmay qolsa, okrug saylov komissiya eng ko'p ovoz

olgan ikki nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida ikki hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Saylov okrugida deputatlikka ko'pi bilan ikkita nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham belgilangan miqdorda ovoz ololmay saylanmagan bo'lsa yoki saylov okrugi bo'yicha ovoz berishga umumiy saylovchilarning yarmidan ozi qatnashganligi uchun shu okrugda saylov bo'lmagan deb hisoblansa yohud saylov haqiqiy emas deb topilsa, Markaziy saylov komissiyasi tegishli okrug saylov komissiyasiga shu okrugda takroriy saylov o'tkazishni topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hokimiyat vakillik organiga saylangan ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, saylovchilar tomonidan deputat chaqirib olinganda va boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda tegishli saylov okruglarida yangi saylov o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi deputati o'rni bo'shab qolganda, uning o'rniga saylov Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov kunidan kamida bir oy oldin belgilanadi va saylov to'g'risida qonunlar talablari asosida saylov o'tkaziladi. Okrug saylov komissiyasi bo'shab qolgan deputatlar o'rniga saylov o'tkazishda okrug saylov komissiyalari saylov kuniga yigirma besh kun qolganida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari Kengashlarining vakolat muddati bir xil - besh yil bo'lganligi uchun deputatlik o'rni vakillik organining vakolat muddati tugashiga olti oydan kam vaqt qolganda bo'shab qolsa, yangi deputat saylovi o'tkazilmasligi mumkin. Okrug saylov komissiyalari saylov bo'lib o'tgandan keyin deputat bo'lib saylangan deputat to'g'risida Markaziy saylov komissiyasiga bayonot beradi. Markaziy saylov komissiyasi bayonotni olgandan keyin saylangan deputatlarni ro'yxatga oladi, bu haqda deputatni xabardor qiladi va Markaziy saylov komissiyasi o'n kun ichida saylangan deputatlar to'g'risida e'lon qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida ikki marotaba vakillik organlariga saylovlar o'tkazildi, har qanday davlat o'z erkini, huquqini qo'lga kiritar ekan, unda davlat hokimiyatini amalga oshirilishi vaqt o'tgan sari rivojlanib takomillashib boradi hamda yangi islohotlarga talab va ehtiyojlar ortadi.

4-§. Senatning tashkiliy tuzilmasi va uning rahbar organlari hamda mansabdor shaxslarini shakllantirish tartibi

Senatning tuzilmaviy-funksional tizimi asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga asosan tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasi Senat Raisi va uning o'rinbosarlari misolida palata raxbariyatini shakllantirish tartibini, Raisning vakolatlarini belgilab beradi. Senatning muhokamaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylashini (shakllantirishni) tartibga soladi. Senat zarur hollarda muayyan vazifalarni bajarish uchun senatorlar orasidan komissiyalar ham tuzishi mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni bu tuzilmaga yana bir - Kengash kabi organni ilova qiladi va Senat qo'mitalarining vakolatlarini yanada aniqlashtiradi.

Senatning Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, Konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Reglamenti to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan bazaviy tuzilmasi o'z tarkibida Senat Raisi, uning o'rinbosarlari, Kengash, qo'mita va komissiyalarni qamrab oladi.

Senat o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishdan iborat mutlaq vakolatidan foydalanadi. Palataning qarorlarini qabul qilish singari yo'llardan foydalanishdan iborat qilib belgilab qo'yilgan. Agar «tashkil etish» iborasi ostida palatalarning tuzilishi ham tushuniladigan bo'lsa palatalarning bazaviy tuzilishi Reglament yoki Senatning o'zga qarori orqali to'ldirilishi mumkin. Bunday qarorlarni palata «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi Qonun asosida qabul qilib, ushbu Qonunning 1-moddasi birinchi qismida, mazkur Qonun Senat tomonidan o'z faoliyatini tashkil etish hamda palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun asos ekanligi belgilab qo'yilgan. Senatning Konstitutsiyaviy bazaviy tuzilmasiga mumkin bo'lgan qo'shimchalar kiritish Senatning ishi davomida

yuzaga keladigan tashkiliy ehtiyojlarga bog`liq bo`ladi.

Yuqori palatalar faoliyatining jahon tajribasi palatalar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida tuzilgan asosiy va qo`shimcha organlarning turli ko`rinishlarini namoyish etadi. Ushbu munosabat bilan ayrim rossiyalik olimlarning parlamentlar oldida turgan vazifalar ularni o`z funksiyalarini amalga oshirishga doimiy ko`maklashuvchi maxsus hay'atiy organlar va muassasalarni tuzishga, shuningdek, palatalar a'zolari orasidan maxsus mansabdor shaxslarni tayinlashga (saylashga) majbur etishi haqidagi fikrlari mavjud. Ushbu organlar va muassasalar o`zlarining vazifalari, vakolatlari, shakllantirilishi va faoliyat tartibi, javobgarlik prinsiplariga ko`ra nihoyatda xilma-xildir.

Parlamentning ta'riflangan barcha tuzilmalari va lavozimlar ko`p yillik amaliyot davrida tobora murakkab ijtimoiy munosabatlar maydonga chiqayotganligi va parlamentlar ularni qonunchilik, siyosiy (Vakillik), nazorat yo`llari orqali va faoliyatning boshqa turlari bilan tartibga solishga da'vat etilganligi natijasida o`sha murakkabliklarga nisbatan tashkiliy javob tariqasida yuzaga keldi. Shu ma'noda Senat ishi davomida yana qandaydir organlarni tashkil etishga ehtiyoj tug`ilishi ham mumkin.

Senatda deputatlik birlashmalari mavjud bo`lmaydi va ular rahbar hamda ishchi organlarining ishiga ta'sir ko`rsata olmaydi. Senat ishining xususiyati va borishi senatorlarning, shuningdek, yuqori palata Raisi, uning o`rinbosarlari, Kengashi, qo`mitalari va komissiyalari harakati va irodasiga bog`liq bo`lib, ular tamomila mamlakat manfaatlaridan kelib chiqadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida deputatlik birlashmalarining mavjud bo`lmasligi uning tuzilmaviy-funksional tizimidagi alohida xususiyatdir.

Senatorlar hududlar manfaatlarini milliy manfaatlarning mintaqaviylaridan ustuvor ekanligini hisobga olgan holda ifoda etuvchi bog`lovchi zanjir bo`lishi lozim. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Senati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunining 2-moddasi beshinchi qismi me'yorlari mazkur ustuvorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Unga binoan Senatda hududiy mansublikka ko`ra hamda na siyosiy va na boshqa asosda guruhlar tuzishga yo`l qo`yilmaydi. Ko`rsatilgan norma prinsipi palataning nafaqat tuzilmasi tabiatida, balkim uning organlarini shakllantirish tartibida ham o`z aksini topgan.

«O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga binoan Senatning O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining

Raisi o'chadigan va Senat Raisi saylangunga qadar unga raislik qiladigan birinchi majlisida muvaqqat kotibiyat va sanoq komissiyasi saylanadi. Keyin elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat qilish guruhi saylanadi va Senat Raisi hamda uning o'rinbosarlarini saylash marosimiga kirishiladi.

Xorij tajribalariga qaraydigan bo'lsak, Britaniya parlamentida yuqori palatani lord-kansler boshqaradi. Uning palatadagi maqomi va roli quyi palataning spikeri egallab turgan mavqedan ancha farq qiladi. Lord-kansler - mahkama a'zosi va u shaxsan Bosh vazir tomonidan tayinlanadi. U Lordlar palatasidagi munozaralar va ovoz berishda ishtirok etadi. Lord-kansler bir vaqtda mamlakat sud tizimining boshlig'i hamdir. Lordlar palatasining majlislari parlament tartibi qoidalari bilan chegaralab qo'yilmagan va lord-kansler munozaralar yuritilishi tartibiga ko'p ham aralashishga majbur emas. U tartib-qoida bo'yicha qarorlar chiqarmaydi, tegishli savollar tug'ilganda esa palata unga emas, palata yetakchisiga murojaat etadi.

Italiyada Senat Raisi deputatlar tomonidan palata raisi singari deputatlar ovozlarining uchdan ikki qismi ko'pchiligi bilan saylanadi (uchinchi bor ovoz berishdan boshlab oddiy ko'pchilik ovozlar yetarli). Qozog'iston Konstitutsiyasining 58-moddasiga muvofiq Senatga Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali umumiy ko'pchilik ovoz bilan saylanadigan davlat tilida erkin gaplasha oladigan rais boshchilik qiladi. Senat raisi lavozimiga nomzod Prezident tomonidan taqdim qilinadi.

Yuqori palataning raisini saylash tartibini har bir davlat o'zining tegishli davlat tuzilishi turi, siyosiy tizimi, parlament an'analari va yuqori palataga, umuman parlamentarizmga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda o'zi belgilashi yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonda yuqori palataning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda unda Senat va Prezidentning o'zaro hamkorligi masalasi katta rol o'ynaydi. Har ikkala huquqiy shaxs umummilliy manfaatlarning ifodachisi sifatida maydonga chiqadilar, har biri o'z sohasidagi davlat mexanizmi hisoblanadilar, biroq Senat o'z mutlaq vakolatlarini amalga oshirish doirasida qabul qiladigan qator qarorlar borib, qo'sh tuzilmaga (binar strukturasi) egadir.

Bunga Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha Parlament va Prezidentning qabul qilingan qarorlar uchun yagona konstitutsiyaviy javobgarligini belgilovchi vakolatlarni amalga oshirishni qo'shish lozim. Xususan, bu yerda so'z, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi

farmonlarini tasdiqlash (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 13-bandi); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash (15-bandi): O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonni tasdiqlash (18-bandi): O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash (19-bandi) haqida bormoqda. Bunday toifadagi qarorlar jumlasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Asosiy Qonunning 93-moddasi 4-bandiga muvofiq imzolanadigan halkaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilishni ham kiritish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini tuzish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tizimidagi palataning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. O'z faoliyatini tashkil etish va ichki tartib qoidalariga bog'liq masalalar yuzasidan yuqori palata mutlaq vakolatlarga ega ekanligi, shuningdek, ularning reglament shaklida tasdiqlanishi munosabati bilan ushbu tuzilma nihoyatda ixcham tarkib topadi.

VIII BOB. XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN VA SHAHAR KENGASHLARINI SHAKLLANTIRISH

1-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining huquqiy maqomi

“O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq 1992-yil yanvardan boshlab viloyat, tuman va shaharlarda joylardagi vakillik hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik lavozimi joriy etildi. Hokimliklar mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni umumdavlat nuqtai nazaridan va hududda yashayotgan fuqarolarning manfaatlariga asoslangan holda hal qilishlari belgilab qo‘yildi.

Mahalliy davlat hokimiyatiga oid vazifalarni bajarish uchun hokimlar huzurida ijroiya apparati tuzildi. Bu apparat ilgari xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya qo‘mitalari bajarib kelgan vazifalarni o‘z zimmasiga oldi. Shu bilan birga respublika va mahalliy darajada boshqaruv organlarining vazifalari aniq chegaralab qo‘yildi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning XXI bobida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarni lavozimga qo‘yilishi, javobgarligiga oid normalar ifodasini topdi.

Mahalliy davlat hokimiyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatiga ehtiyoj tug‘ilganligi bois, 1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonun VII bob, 29-moddadan iborat bo‘lib, o‘z vaqtida mahalliy davlat hokimiyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga oid bo‘lgan normalar 50 dan ziyod qonunlarda va boshqa normativ hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, davlat qurilishi va boshqaruvi borasidagi ishlarni izchil amalga oshirish borasida yangi talablarni qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda so`nggi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar, xususan, ikki palatali parlamentning tashkil etilishi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash jarayonlari O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunini yanada takomillashtirishga sabab bo`lmoqda. Ayniqsa, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" modelining ilgari surilayotganligi, ushbu Qonunni hozirgi zamon talablariga qanchalik javob bera olishini o`rganish, shu bilan birga qonunda belgilangan normalarni qo`llanish darajasini, holatini aniqlash, baholash, salbiy jarayonlarni prognoz qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida uning monitoringini o`tkazish zaruratini vujudga keltirdi.

Bizga ma'lumki, Oliy Majlis sessiyalari respublika miqyosida juda katta ahamiyatga ega bo`lib, sessiyaning o`tishi, unga kiritilgan masalalar va ularning hal etilishi, qonunlarning qabul qilinishi yoki ularga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilishi kabi muhim masalalar o`zining dolzarbligi nuqtai nazaridan aholining diqqat markazida turadi. Jumladan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlari sessiyalari ham aynan yuqoridagi e`tirof etilgan fikrning yaqqol isbotidir. Xalq deputatlari Kengashlari hal etadigan masalalar doirasi juda keng qamrovli bo`lib, tegishli hudud aholisi uchun juda muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini jonlantirish, ularning sessiyalari samaradorligini oshirish, Kengash ishlariga aholini kengroq jalb etish, sessiyaga kiritilgan masalalar to`g`risida aholi fikrini o`rganishni yanada kengroq tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini jonlantirish va samaradorligini oshirish uchun ular tarkibida faoliyat yuritayotgan deputatlarning faolligini ta'minlashni taqozo etiladi. O`zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashi deputatlari o`z vakolatlaridan to`liq va samarali foydalanishlari uchun yetarli darajada demokratik talablarga javob beradigan huquqiy hujjatlar mavjud.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy sohalaridagi islohotlar boy tarixiy davlatchilik tajribalarimizga tayangan holda shakllantirilib kelinmoqda.

O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligini qo`lga kiritgach, davlat organlarini qayta tashkil etishni faqatgina markaziy bo`lim organlarida isloh qilib boshqaruvni amalga oshirmasdan, balki, ma'muriy-hududiy birliklardagi davlat organlari tizimida ham umumiy tartibda demokratik prinsiplar asosida davlat hokimiyati o`rnatildi. Bu esa: O`zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 4-yanvarda qabul qilin-

gan, "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi va 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunlarda belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida asosiy e'tiborni davlat organlarini qayta tashkil etishga qaratilganligi bejiz emas, chunki, davlatimiz hayotida demokratik islohotlar qanchalik amalga oshirilmasin, davlat organlari unga mos ravishda demokratik shaklda tashkil qilingan bo'lmasa, Konstitutsiya va qonunlarning ijrosi amalda bajarilmasdan qolib ketishi muqarrardir. Qolaversa, davlat organlarini qayta tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, O'zbekiston Respublikasining suveren demokratik respublika ekanligini, davlat organlarini jamiyat va fuqarolar oldida ma'sulligini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tizimida mahalliy vakillik organlari alohida ahamiyatga egadir. Chunki, ma'muriy-hududiy birliklarda tuziladigan xalq deputatlari Kengashlari aholiga eng yaqin bo'lgan davlat organlaridir.

Mahalliy vakillik organlari tizimida viloyat xalq deputatlari Kengashlari alohida mavqega egadir. Mahalliy vakillik organlarining boshqa tizimlarida bo'lganidek, Xalq deputatlari viloyat Kengashlarining ham faoliyatiga - tegishli viloyat hokimi boshchilik qiladi. Hokimlar mahalliy vakillik organlariga boshchilik qilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99 va 102-moddalarida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida mustahkamlangan tartibda amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari o'z faoliyatlarini sessiyalarda, doimiy komissiyalar va saylov okruglarida va boshqa qonunlarda belgilangan shakllar asosida amalga oshiradilar.

Xalq deputatlari Kengashlari kollegial organ hisoblanib, asosiy vakolatlariga tegishli bo'lgan masalalarni umumiy majlislar va sessiyalarda hal etadilar. Sessiya-deputatlarning umumiy majlisi bo'libgina qolmasdan, balki faoliyatining asosiy tashkiliy shakli ham hisoblanadi.

Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chiqariladi. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida, sessiya Kengash deputatlarining uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chiqarilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlari saylovchilari va aholi soni hisobidan ayrim davlatlardan

ustun turadi. Bu esa, Respublikamizning ma'muriy-hududiy birliklarida alohida o'ziga xos ravishda ya'ni yakkaboshchilik asosida boshqaruvni tashkil etilganligidir.

2-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi shakllanishi tartibi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati vakillik organlari tegishli tartibda shakllantiriladi.

Saylovlar to'g'risidagi qonunlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlarni saylash bir mandatli saylov okruglar bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida o'tkaziladi. Mazkur Kengashlarga deputatlar besh yil muddatga saylanadilar. Bu esa o'z navbatida saylovda ko'plab siyosiy partiyalarning, turli davlat tizimlarining va fuqarolarning tashabbuskor guruhlari ishtirok etishi, ular ichidan muqobillik asosida eng yaxshilarini saylash imkoniyatini yaratadi. Saylovlarni bunday tashkil qilish hozirgi demokratiya talablariga to'la mos kelishi bilan birga eng munosib nomzodlarni, saylovchilar manfaatlarini sidqidildan himoya qila oladigan kishilarni saylash uchun keng imkoniyatlar tug'diradi.

Xalq deputatlari Kengashiga saylovlar bir necha muhim prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, Umumiy saylov huquqi deyilganda, quyidagi qoidalarni anglamoq joiz: saylov huquqiga saylov kuniga qadar 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari haqli dir'lar, saylanish huquqiga esa, saylov kuniga qadar vakillik organlariga tegishlicha 21 yoshga to'lgan fuqarolar egadirlar. Ayni paytda qonunda sud tomonidan faoliyati taqiqlangan yoki ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolar saylovda ishtirok etish huquqiga ega emasligi alohida ta'kidlab ko'rsatilgan. Ushbu moddadan yana bir shunday xulosa kelib chiqadiki, unga ko'ra sud hukmi kuchga kirmagan bo'lsa, agar fuqaroning ishi sud muhokamasida bo'lsa ham, uning saylovchilik huquqi saqlanib qoladi. Masalaning bu tarzda qo'yilishi aybsizlik prezumpsiyasiga ham, xalqaro huquqning insonparvar an'alariga ham mutlaqo mos keladi.

Teng saylov huquqi deyilganda, O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining bir ovoz berish huquqiga egaligi tushuniladi. Bunda fuqarolarning kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqiy va milliy

mansubligidan, jinsidan, ma'lumotidan, dinga munosabatidan, mashg'ulotlarining turi va mazmunidan qat'i nazar hech bir cheklashlarga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanadi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi deyilganda, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining Respublika fuqarolari tomonidan bevosita saylanishi tushuniladi.

Joylardagi hokimiyat organlariga deputatlar saylash erkin va yopiq tarzda o'tkazilib, unda saylovchilarning o'z xohish-irodalariga chetdan ta'sir ko'rsatish yoki ularni nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunida tashkiliy masalalarni hal etish bo'yicha qator muhim yo'l-yo'riqlar ko'rsatib berilgan. Mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o'tkazish va ularga tayyorgarlik ko'rish uchun oshkora va ochiq-oydin tarzda faoliyat ko'rsatuvchi maxsus saylov komissiyalari tashkil etiladi. Ularning zimmasiga fuqarolarni o'z ishlarining borishi to'g'risida xabardor qilib turish, ya'ni fuqarolarni saylov uchastkasi tashkil etilganligi, saylov komissiyasi tarkibi, saylovchilar ro'yxati bilan tanishtirish, deputatlikka nomzodlar haqidagi ma'lumotlar bilan, ovoz berish, saylov natijalari bilan tanishtirib borish vazifasi yuklanadi.

Mazkur Qonunning 7-moddasi saylov okruglarini tashkil qilish jarayonini har tomonlama belgilab beradi: viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazish uchun 60 tagacha saylov okruglari tashkil etiladi, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazish uchun esa 30 tagacha saylov okruglari tashkil etiladi. Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashiga bitta deputat saylanadi. Mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlar sonining qisqartirilishi ularning sifati oshishini ta'minlashi zarur, ya'ni saylanajak deputatlar xalq orasida eng katta obro'ga, mehnat jamoalarida ma'lum nufuzga, davlat qurilishi masalalarini hal etish borasida muayyan tajribaga ega kishilar bo'lmog'i lozim.

Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlarini saylash uchun tuzilajak saylov okruglarining miqdori mazkur xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilanadi. Ushbu masalani hal etishda Kengashlar aholisi soni va, ayni paytda, saylovchilar miqdori, hududning katta-kichikligi va boshqa mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqadilar.

Saylov okruglari saylovchilarning hammasini, ayni paytda, viloyat, tuman va shaharlarning ma'muriy bo'linishi bo'yicha hamma hududlarni qamrab olishi, o'n besh kun ichida muayyan viloyat, tuman va shahar

saylov komissiyasi tomonidan mazkur viloyat, tuman va shahar saylov okruglarining ro'yxati ular orqali ommaga yetkazilishi kerak.

Ushbu Qonunning 8-moddasida saylov uchastkalarini tashkil etishning tartib va qoidalari belgilab berilgan. Xususan, unda saylov uchastkalari tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan tuman va shahar hokimlarining tavsiyasiga ko'ra, harbiy qismlarda esa harbiy qism yoki qo'shin birlashmalari qo'mondonlarining tavsiyasiga ko'ra tashkil etilishi qayd etilgan. Saylov uchastkalari saylov belgilangan kundan boshlab o'ttiz kun ichida tashkil etilishi kerak.

Harbiy qismlarda, shuningdek, yetib borish qiyin bo'lgan joylarda ham saylov uchastkalari ana shu muddat ichida, juda kechikib ketgan taqdirda (istisno tariqasida) esa saylov boshlanishidan 5 kun ilgari tashkil qilinishi belgilab qo'yilgan. Saylov uchastkalari saylovchilar uchun juda qulay shart-sharoitlarni yaratib berish maqsadida tashkil qilinadi. Shuning uchun ham ular ayrim hollarda harbiy qismlarda, sanatoriyalarda, shifoxonalarda va boshqa doimiy davolash muassasalari va boshqa tashkilotlarda tashkil etiladi.

Saylov uchastkalari qoida tariqasida kamida 20 nafar va ko'pi bilan uch ming nafar saylovchidan iborat tartibda tuziladi. Saylovchilar qonunda ko'zda tutilgan barcha haq-huquqlaridan foydalana olishi uchun qonunchilik idoralari tuman va shahar hokimiyatlariga har bir saylov uchastkasi uchun alohida ovoz berish binosi ajratishini topshiradi va, ayni paytda, tuman va shahar saylov uchastkasidagi komissiya zimmasiga saylovchilarga mazkur saylov uchastkasining ovoz berish binosi qayerda ekanligini ma'lum qilish vazifasi yuklangan.

Qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan ushbu tadbirlarni amalga oshirish tufayli har bir saylovchi nafaqat o'z huquqiga ega bo'ladi, balki, ayni paytda, u o'zining bevosita fuqarolik burchini ado etib, viloyat, tuman va shahar kabi joylardagi davlat hokimiyati organlari saylovida ishtirok etadi.

Yuqorida tilga olingan qonunning 9-moddasida saylov komissiyalari qanday tartibda tuzilishi aniq qilib belgilab berilgan. Xususan, unga muvofiq saylov komissiyalari quyidagicha tuziladi:

a) xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi;

b) xalq deputatlari tuman Kengashiga saylov o'tkazuvchi tuman saylov komissiyasi;

v) xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi shahar saylov komissiyasi;

- g) okrug saylov komissiyasi;
- d) uchastka saylov komissiyasi.

Saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha mas'ul komissiyalarni belgilash bilan birga qonun chiqaruvchi organlar ularning tashkil etilishi borasida qoidalarni, ularning vakolatlari va majburiyatlarini ham qat'i belgilab bergan. Masalan, qonunning 10-moddasida viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi mazkur viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylovga kamida sakson kun qolganida tashkil etilishi va uning tarkibida rais va 6-14 nafar komissiya a'zolari bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, bu yerda saylov komissiyasi raisining o'rinbosari va kotibi uning birinchi majlisidayoq mazkur komissiya a'zolarining orasidan saylanishi qayd etilgan.

Qonunning 11-moddasida viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining vakolatlari belgilab berilgan bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat:

birinchidan, mavjud qonunning o'zi ko'zda tutilgan hududda rioya etilishini ta'minlash, hamma joyda unga bir xilda amal qilinishini, saylovni tashkil etish masalalarini oydinlashtirish bo'yicha faoliyat yuritish;

ikkinchidan, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga deputatlar saylashga muvofiq ravishda saylov okruglarini tashkil qilish;

uchinchidan, tegishli xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarini tuzish va ularning joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish;

to'rtinchidan, tegishli saylov komissiyalarining ishini yo'naltirish, ular tarkibiga o'zgartirish kiritish tartibini belgilash, ularga mustaqil ravishda yoki viloyat, tuman, shahar prokurori tavsiyasiga binoan huquq berish, agar ushbu qonunga xilof ravishda qabul qilingan bo'lsa, okrug yoki uchastka saylov komissiyalarining qarorlarini bekor qilish;

beshinchidan, deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, hokimiyatning vakillik organlaridan zarur hujjatlarni qabul qilishni yo'lga qo'yish;

oltinchidan, tegishli xalq deputatlari Kengashlariga nomzodlarni ro'yxatga olish va ular haqidagi ma'lumotlarni chop etish;

yettinchidan, deputatlikka nomzodlar uchun saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun bir xilda shart-sharoit yaratib berish;

sakkizinchidan, tegishli saylov komissiyalariga pul-mablag'larini taqsimlash, saylov komissiyalarining binolar, transport vositalari va aloqa vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish, saylovning moddiy - texnika masalalarini ko'rib chiqish;

to'qqizinchidan, tegishli xalq deputatlari Kengashiga saylov bo'yicha saylov bulletinlarining shaklini tasdiqlash va ularning tayyorlanishini ta'minlash, saylovchilar ro'yxatini, saylov komissiyalarining protokollarini, saylov qog'ozlarini va boshqa saylov hujjatlarini tayyorlash;

o'ninchi, siyosiy partiyalarining, mahalliy davlat organlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining va jamoat birlashmalari vakillarining saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish borasidagi axborotlarini tinglash;

o'n birinchi, tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi saylov yakunlarini chiqarish, saylangan deputatlarni ro'yxatga olish, saylov yakunlari va saylangan deputatlar ro'yxatini matbuotda e'lon qilish, saylov komissiyalarining majlislarida, shuningdek, saylov o'tkazilgan kunda saylovchilarning ovozlari sanalayotgan paytda saylov o'tkazilgan binoda hozir bo'lish, ayni paytda, o'sha yerda hozir bo'lgan deputatlikka nomzod ko'rsatgan har bir siyosiy partiyadan, davlatning vakillik organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, tashabbuskor guruhlardan, matbuot xodimlaridan, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalaridan kelgan vakillarning ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish;

o'n ikkinchi, deputatlarning vakolatlarini tekshirish uchun zarur hujjatlarni tegishli xalq deputatlari Kengashining mandat komissiyasiga taqdim qilish;

o'n uchinchi, takroriy saylov o'tkazish bilan aloqador masalalarni hal etish;

o'n to'rtinchi, tegishli saylov komissiyalarining qarorlari va faoliyatlari xususidagi ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish va ularni hal etish borasida zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

o'n beshinchi, ushbu qonunning jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladigan tarzda buzilganligiga doir materiallarni prokuratura organlariga oshirish;

o'n oltinchi, saylovlarni o'tkazish va ularni tashkil qilish bilan bog'liq barcha hujjatlarni arxivlarga topshirishni ta'minlash;

o'n yettinchidan, saylovlar to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq keluvchi vakolatlarni amalga oshirish.

Xalq deputatlari Kengashlariga saylovlarni o'tkazishda okrug saylov uchashtakalari zimmasiga asosiy vazifalar yuklatiladi. Mazkur Qonunning 12-moddasiga binoan okrug saylov komissiyalari tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan saylov kuni belgilanganidan

keyin kechi bilan yigirma kun ichida tashkil etilib, uning tarkibiga komissiya raisi, uning muovini va 6-8 nafar boshqa komissiya a'zolari kiritiladi.

Mazkur Qonunning 13-moddasida okrug saylov komissiyasi vakolatlari har tomonlama aniq va ravshan belgilab berilgan. Xususan, uning zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

birinchidan, saylov okrugi hududida ushbu qonunga amal qilinishini nazorat qilish;

ikkinchidan, saylovchilarni saylov uchastkasi qayerda joylashganligidan xabardor qilish;

uchinchidan, deputatlikka nomzodlarning saylovda ishtirok etishlari uchun bir xilda shart-sharoitlar yaratib berish;

to'rtinchidan, deputatlikka nomzodlarga guvohnoma berish, tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan ularni ro'yxatga olish;

beshinchidan, deputatlikka nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish;

oltinchidan, deputatlikka nomzodlarning ishonchli (vakolatli) vakillarini ro'yxatga olish va ularga maxsus guvohnoma berish;

vettinchidan, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining saylovlarga tayyorgarlik va uni o'tkazish borasidagi axborotlarini eshitish;

sakkizinchidan, saylovchilar ro'yxatini tuzish ishlarini nazorat qilish va ularni keng jamoatchilikka ma'lum qilish;

to'qqizinchidan, saylov okrugi bo'yicha saylov bulleteni matnini tasdiqlash va uchastka saylov komissiyalarini saylov bulletinlari bilan ta'minlash;

o'ninchidan, saylov okrugi saylov natijalarini aniqlash va uni tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalariga topshirish;

o'n birinchidan, takroriy ovoz berish va takroriy saylovni tashkil qilish, shuningdek, vakolati tugagan deputat o'niga deputat saylovi o'tkazishni tashkil qilish;

o'n ikkinchidan, uchastka saylov komissiyalarining faoliyati yuzasidan tushgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan choratadbirlar ko'rish;

o'n uchinchidan, mazkur qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga muvofiq ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Saylov kampaniyasida asosiy o`rinda uchastka saylov komissiyasi turadi. Binobarin, u tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan saylov kuni belgilangandan keyin 50 kun ichida 5-19 kishi tarkibida tashkil qilinib, uning o`z raisi, rais muovini va kotibi bo`ladi. Qonunda muayyan shart-sharoitlarga ko`ra komissiya a`zolarining soni oshirilishi yoki kamaytirilishi ham ko`zda tutilgan. Agar komissiya a`zolarining soni 7 kishidan oshmasa, ular orasidan faqat rais va kotib saylanadi.

Qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiritilgan: saylov uchastkasi bo`yicha saylovchilar ro`yxatini tayyorlash; saylovchilarni ular bilan tanishtirish, ro`yxatdagi kamchiliklar va xatoliklar bo`yicha arizalarni ko`rib chiqish, ro`yxatga arizalarga muvofiq o`zgartirishlar kiritish masalasini hal etish; saylov kunida o`z istiqomat joylarida bo`lmasliklari yoki boshqa sabablarga ko`ra saylovda bevosita ishtirok qila olmaydigan saylovchilardan saylov konvertlarini qabul qilib olish; aholini saylov kuni va uning o`tkazilish joyidan xabardor etish; saylov o`tkaziladigan binoni tayyorlash, unga saylov qutilarini va boshqa saylovga zarur asbob-uskunalarni o`rnatish; saylov kunida saylov uchastkasida ovoz berishni tashkil qilish; saylov uchastkasida berilgan ovozlarni hisoblab chiqish; saylov o`tkazish va ovoz berishni tashkil qilish borasida tushgan arizalarni qabul qilish va ular yuzasidan muayyan chora-tadbirlarni ko`rish; mazkur qonunga va O`zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tarzda boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Qonunda saylov komissiyalari vakolatlarining har tomonlama va aniq qayd etilishi, O`zbekistonda huquqiy davlat qurish ishi izchil ravishda olib borilayotganligini yaqqol ifoda etib, mamlakatimizda joylardagi mahalliy vakillik organlarini shakllantirishdek muhim tartibda boshboshdoqlik va voluntarizmga yo`l qo`yilmasligini, bu boradagi har qanday masala bevosita huquqiy normalar nazorati ostida ekanligini va davlatimizning sha`ni va obro`sini belgilashini anglatadi.

Saylov komissiyasining o`z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari muayyan davlat tizimlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, harbiy qismlar, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning rahbarlari tomonidan amalga oshirilishi majburiydir.

Shuningdek, qonunda saylov komissiyalarining faoliyat yuritish muddatlari ham qat`iy belgilab qo`yilgan. Masalan, okrug va uchastka saylov komissiyalari o`z faoliyatlarini mazkur Kengashlar tomonidan muayyan okruglar bo`yicha deputatlarning vakolatlari tan olingandan keyin to`xtatadilar. Viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari esa

muayyan Kengashlarga saylov o'tkazish bo'yicha barcha saylov okruglarida deputatlar saylab bo'lingach, o'z faoliyatini to'xtatadilar.

Saylov komissiyalarining qarorlari yuzasidan deputatlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalarning organlari, hokimiyatning vakillik organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, deputatlikka nomzodlar, kuzatuvchilar va saylovchilar tomonidan yuqori saylov komissiyalariga yoki sudga qaror qabul qilingandan keyingi o'n kun ichida ariza yoki norozilik bildirishi mumkin. Qonunda kelib tushgan ariza uch kun ichida ko'rib chiqilishi lozimligi, agar saylovga olti kundan kamroq vaqt qolgan bo'lsa, zudlik bilan ko'rib chiqilishi lozimligi alohida qayd etilganidir.

Mahalliy hokimiyat organlariga saylov o'tkazish borasidagi qonunda saylovlarni tayinlash, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ko'rsatish va ro'yxatga olishning huquqiy tomonlari ham har jihatdan batafsil tahlil etilganidir.

Mahalliy Kengashlarga saylovlar barcha darajada, odatda, bir vaqtda o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasining oliy hokimiyat organi Oliy Majlis tomonidan deputatlarning vakolatlari tugashidan uch oy ilgari belgilanadi. Hozirgi kunda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni tayinlash bo'yicha yangi qoidalar kiritildi. Ular O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunining 3-moddasida belgilangan va shunga asosan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar ularning konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Mazkur konstitutsiyaviy qonunga asosan bu yangiliklar amaldagi saylov to'g'risidagi qonunimizga kiritildi. Ushbu kun belgilangandan keyingi uch kun ichida saylov kuni haqida barcha matbuot organlari va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi. Aholiga saylovlar to'g'risida bu tarzda ma'lumot berish davlat hokimiyati organlari ushbu viloyat, tuman va shahar deputatlari Kengashiga o'tkaziladigan saylov tadbiriga nihoyatda katta ahamiyat berishidan dalolat beradi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashlariga deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari egadirlar, tuman va shahar deputatlari Kengashiga nomzod ko'rsatish huquqiga esa siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari egadir. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bu tarzda nomzodlar ko'rsatish tartibi saylovlarni muqobilik asosida o'tkazishga, ularda turli davlat va jamoat tashkilotlarining ishtirok etishida

populistik va safsatabozlikka yo'l qo'ymaslikka, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida mehnat jamoalarining barchasi ishtirok etayotganligi haqidagi xalqchillikning xuddi sovet davridagi kabi soxta demokratiyaga yo'l qo'ymaslikka keng imkoniyatlar yaratadi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka nomzod ko'rsatishi uchun saylov kuni belgilangandan keyingi yigirma kun ichida viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasiga saylovda ishtirok etish haqida ariza topshirishlari lozim. Ushbu arizada siyosiy partiya yuqori organi rahbarining imzosi bo'lishi, shuningdek, siyosiy partiyaning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatga olinganligi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi kerak. Zero, siyosiy partiya saylov kuni belgilanishidan kamida olti oy oldin ro'yxatga olingan bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarni taqdim etgandan so'ng tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi siyosiy partiyaning vakiliga maxsus ma'lumotnoma beradi. Ana shu hujjatlar asosida saylov komissiyasi besh kun ichida mazkur siyosiy partiyaning saylovda ishtirok etishi haqida zarur qarorni chiqaradi.

Viloyat, tuman va shahar deputatlari Kengashiga nomzodlar ko'rsatish saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanib, saylov boshlanishiga qirq besh kun qolganda to'xtatiladi. Bunday muddatning belgilanishi saylovchilarning nomzodlikka tavsiya qilingan shaxslarni har tomonlama o'rganishlari, ular borasida o'zlarining qat'iy fikrlariga ega bo'lishi va u yoki bu nomzod borasida yanglish xulosalar chiqarmasligiga imkon tug'diradi.

Qonunda shu narsa belgilab qo'yilganki, deputatlikka nomzod kishilar, albatta, tegishli viloyat, tuman yoki shahar hududida ishlovchi yoki yashovchi fuqarolardan iborat bo'lishi kerak. Ayni paytda, biron shaxs tegishli viloyat, tuman, shahar deputatlari Kengashiga deputatlikka saylov o'tkazilishida faqat bir saylov okrugidan o'z nomzodini ko'rsatishi mumkin. Siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari deputatlarning mahalliy kengashlariga nomzodlarni mustaqil ravishda ko'rsatish huquqiga egadirlar. Qonunda bu yerda ham ayrim cheklashlar nazarda tutiladi. Xususan, biror-bir siyosiy partiya deputatlikka nomzod ko'rsatish chog'ida faqat o'z partiyasiga mansub kishinigina nomzod sifatida taqdim etishi mumkin, siyosiy partiya boshqa partiya a'zosini yoki partiyasiz kishining nomzodini ko'rsatish huquqiga ega emas. Tuman, shahar vakillik hokimiyat organlari esa qanday partiya mansub ekanligidan qat'i nazar har qanday kishining nomzodini saylovda ko'rsatishlari mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlariga deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish masalasiga ham qonun ma'lum huquqiy shakl bag'ishlagan. Xususan, unga muvofiq siyosiy partiyaning tegishli organ bo'yicha rahbari, xalq deputatlarining tuman, shahar Kengashi deputatlari rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli saylov komissiyaga o'zlarining deputatlikka nomzodlarini ro'yxatga olishni so'rab murojaat qiladilar. Ayni paytda, ariza bilan birgalikda mazkur saylov komissiyasiga siyosiy partiya organining, tuman, shahar deputatlari Kengashining, fuqarolar yig'ini (vakillar majlisi)ning yoki o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari yig'ilishining ma'lum bir kishini deputatlikka nomzod qilib ko'rsatganligi haqidagi qarori, mazkur nomzodning saylov okrugida xalq deputatlari Kengashiga saylovda nomzod sifatida ishtirok etishga roziligi ham taqdim etiladi.

Ayni paytda shuni ham e'tiborga olish kerakki, sudyalar yoki prokuraturaning mansabdor shaxslari nomzod sifatida faqat o'z lavozimlaridan bo'sh shahar haqida ariza yozganlaridan keyin ularni xalq deputatlari Kengashlariga deputat qilib saylanganlaridagina ro'yxatga olinishi mumkin. Bu boradagi zaruriy tartib - qoidalarga qat'iy amal qilinishi uchun viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari yetti kunlik muddat ichida mazkur qonunda ko'zda tutilgan hujjatlarning taqdim etilishi haqidagi ma'lumotlar to'g'risidagi o'z xulosalarini bildirishlari kerak. Agar qonun talablari bajarilmagan bo'lsa yoki unga xilof yo'l tutilgan bo'lsa, saylov komissiyalari mutasaddi davlat va jamoat tizimlariga yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida ma'lum qilishlari va bu kamchiliklarga tez muddatlarda barham berishlari lozim. Zero, bunday tartib - qoidalar faqat huquqiy davlatlarga xos xususiyatdir.

Mazkur Qonunning 23-moddasida, qanday fuqarolar xalq deputatlari Kengashlariga deputat sifatida ro'yxatga olinishi mumkin emasligi ochiq-oydin belgilab qo'yilgan. Bular, birinchidan, sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan fuqarolar; ikkinchidan, saylov belgilangan kunga nisbatan keyingi besh yil ichida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilmagan shaxslar; uchinchidan, O'zbekiston harbiy kuchlarining xizmatchilari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, ichki ishlar va boshqa harbiy bo'linmalar xodimlari; to'rtinchidan, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilaridan iborat. Zero, bu cheklashlar shuning uchun ham haqqoniy va adolatli sanaladigan qonunchilik hokimiyatining vakillik organlari - muassasalar qiyofasida, obyektiv xarakterdagi huquqiy normalarga asosan, qonunga qat'iy rioya qilgan holda, saylov tadbirlariga kuch yoki ruhiy tazyiq

bo'lmashligining tarafdoridir.

Deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish saylovlarga besh kun qolganda nihoyasiga yetkaziladi. Siyosiy partiyalar, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hujjat topshirishdagi shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik uchun saylov komissiyalari nomzodlarni ro'yhatga olish tugatilishidan yetti kun ilgari ko'rib chiqadi. Bunday tadbirlarning amalga oshirilishi ham saylov kampaniyasida o'zboshimchilikka yo'l qo'ymaslik, soxtagar-chilikning oldini olish, turli nayrang va munofqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining nomzodlarini ro'yxatga olish tugagandan so'ng besh kun ichida ularning ro'yxati va anketa ma'lumotlarini mahalliy matbuotda e'lon qilishi ham ana shu qonuniy tartibni amalga oshirishga yordam beradi.

Albatta, muqobillik asosidagi saylov o'tkazish sharoitida saylovoldi targ'ibot - tashviqotlarisiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Qonunga muvofiq saylov oldi targ'ibot va tashviqot ishlari nomzodlar viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olingandan so'nggina boshlanadi. Deputatlikka nomzodlarning har biri uchun teng tarzda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, o'z saylovchilari bilan majlislarda va saylovchilarga ma'qul boshqa usullar orqali muloqotda bo'lish imkoniyati berilishining qonunda qayd qilinganligi ham nihoyatda muhim huquqiy ma'no kasb etadi.

Qonun, shuningdek, saylov komissiyalari zimmasiga saylovchilar bilan bo'ladigan majlislarni tuman yoki shahar hokimiyatlari bilan hamkorlikda o'tkazish vazifasini ham yuklaydi. Saylov komissiyalari va hokimiyat vakillari deputatlikka nomzodlarning o'z saylovchilari bilan uchrashuvlarini o'tkazish uchun binolar va zarur jihozlar bilan ta'minlaydilar. Majlislarda ko'proq kishilarning ishtirok etishini ta'minlash maqsadida qonunda uchrashuvlarning ishdan bo'sh vaqtlarda o'tkazilishi va bu uchrashuv haqida saylovchilarga oldindan xabar berilishi ham ko'zda tutiladi. Davlat va jamoat tashkilotlarining deputatlikka nomzodlarga zarur ma'lumotlarni olishlariga ko'maklashishlari to'g'risidagi qoidalar ham, albatta, saylov muvaffaqiyati uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu qoidalarning barchasi saylovlarni his-hayajonlarga berilmasdan, ishchanlik ruhida, muvaffaqiyatli o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

Qonunda alohida band sifatida siyosiy partiyalarning o'z dasturlarini bayon qilish huquqi bayon qilingan. Ayni paytda, fuqarolarning osoyish-taligi va tinch-totuvligiga rahna soluvchi xatti-harakatlarning oldini olish

maqsadida Qonunning 25-moddasida siyosiy partiyalarning va deputatlikka nomzod shaxslarning dasturlari respublikaning suverenitetiga, yaxlitligiga, xavfsizligiga qarshi yo`naltirilmasligi, xalqning salomatligiga va ma`naviyatiga rahna solmasligi, urushga, milliy nizolarga sabab bo`lmasligi, diniy dushmanlik va konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik ishlatib o`zgartirishga undamasligi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini poymol qilmasligi zarurligiga alohida ahamiyat berilgan.

Qonunda saylov kunida targ`ibot-tashviqot yurgizish ishlariga yo`l qo`yilmasligining ko`rsatib o`tilishi ham saylovlarni demokratik uslubda o`tkazish qoidalariga mutlaqo mos tushadi.

Deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillarining ham huquqiy normalari qonunda har tomonlama ko`rib chiqilgan. Viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod uch nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo`lishi mumkin. Ular zimmasiga nomzodni deputatlikka saylash uchun uni targ`ib qilish, ularning davlat va ijtimoiy tizimlar, saylovchilar bilan bo`ladigan o`zaro muloqotlarida nomzod manfaatlarini yoqlash, shuningdek, saylov komissiyalarida ularni qo`llab-quvvatlash majburiyatlari yuklatilgan.

Deputatlikka nomzod kishilar o`zlarining ishonchli vakillarini o`zlari tayinlash huquqiga egadirlar, shundan so`ng ular o`z ishonchli vakillari haqida okrug saylov komissiyalariga ma`lumot beradilar. O`z navbatida, okrug saylov komissiyalari nomzodlarning ishonchli vakillari (vakolatli kishilari)ni ro`yxatga oladilar va ularga maxsus guvohnoma beradilar. Ayni paytda deputatlikka nomzod o`z ishonchli vakilining vakolatlarini bekor qilishi, uni almashtirishi mumkin, faqat u bu haqda saylov okrugini ogohlantirishi kerak bo`ladi. Nomzodning ishonchli vakili o`zi istagan paytda, ixtiyoriga ko`ra o`z vakolatlaridan voz kechishi mumkin. Vakolatli shaxsning faoliyati holis bo`lishini ta`minlash uchun uning saylov komissiyasiga a`zo bo`lishi mumkin emasligining alohida qayd etilishi qonunning yana bir ijobiy jihatini belgilashi shubhasizdir.

Saylov to`g`risidagi qonunda, shuningdek, deputatlikka nomzodning saylovda o`z nomzodini ko`rsatishdan voz kechishi mumkinligi yoki o`z nomzodini butunlay qaytarib olishi mumkinligi masalasi ham ko`rib chiqilgan. Qonunning 28-moddasida siyosiy partiyalar, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari istagan paytda u yoki bu deputatlikka nomzod haqidagi qarorni o`zgartirishi mumkinligi ko`zda tutilgan. Bu qarorga muvofiq viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari muayyan saylov komissiyasiga yangi nomzodni ro`yxatga olish uchun ariza beradilar. Nomzodlikka ro`yxatga

olingan shaxslar ularning nomzodini ko'rsatgan siyosiy partiyalari o'z faoliyatini tugatgan hollarda ham o'z maqomidan mahrum etiladilar. Bundan tashqari, deputatlikka nomzod saylovga qadar istalgan paytda o'z nomzodini qaytarib olishi mumkin, buning uchun u saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat qilishi kerak bo'ladi. Bularning barchasi O'zbekistonda joylardagi hokimiyatning vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlar izchil demokratik asoslarda o'tkazilishidan dalolat beradi.

Saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayonida saylovchilar ro'yxatini tuzish ishiga muhim o'rin beriladi. Zero, amaldagi teng ovoz berish huquqi ana shu tadbirning nechog'li to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham saylovchilarga ana shunday sharoitni yaratish nihoyatda muhimdir, toki har bir saylovchi bir saylov ro'yxatidagina qayd etilsin. Saylovchilarning ro'yxati jamoatchilik e'tiboriga saylov boshlanishidan o'n besh kun ilgari ma'lum qilinadi. Bu hol saylovchilarning ro'yxat bilan tanishishlari va unda yo'l qo'yilgan ayrim noaniqliklar va xatoliklarni saylovdan oldin bilishlari va ularni saylov uchastkalariga aytib tuzatishlariga imkoniyat tug'diradi. Bunday arizalar saylov uchastkalarida yigirma to'rt soat ichida ko'rib chiqilib, hal etilishi kerak. Agar saylov komissiyalarining qarori saylovchilarni qoniqtirmasa, ular o'z navbatida qonunga muvofiq tarzda bu borada sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Saylov bulletinlarini tayyorlash borasidagi yana bir muhim yangi jihat shundaki, Qonunning 32-moddasiga binoan saylov bulletinlari davlat tilida chop etilishi bilan birga tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining qaroriga muvofiq ma'lum saylov okrugida yashovchi aholining ko'pchilik qismi gaplashadigan boshqa bir tilda ham chop etilishi mumkin.

Saylovda ovoz berish maxsus binolarda o'tkazilishi, mazkur binolarda yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar tashkil qilinishi, saylovchilarga bulletinlarni tarqatish joylari tashkil etilishi va saylov qog'ozlarini yig'ish uchun maxsus qutilar o'rnatilishi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bunda hatto saylov qog'ozlari tashlanadigan qutilarning joylashish o'rni ham belgilab berilganki, zero, mazkur qutilarga saylov varaqasini tashlashdan ilgari saylovchilar yashirin ovoz berish kabinalariga kirib chiqishlari kerak.

Saylov komissiyasi saylovchilarni saylov qayerda o'tkazilishi haqida saylov kunidan o'n kun avval xabardor qiladi. Bu, o'z navbatida, saylovni samarali va muvaffaqiyatli tashkil etish, ortiqcha tashvishlarsiz, shoshma-shosharliklarsiz o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Zero, bunday holatda

saylovchilar ham saylovda ishtirok etish uchun avvaldan tayyorgarlik ko`rib yuradilar va saylov kuni saylovchilarning aksariyat ko`pchiligi ishtirok etishiga zamin yaratiladi.

Saylov kuni saylov o`tkaziladigan bino mazkur saylov uchastkasida qayd etilgan saylovchilarning kamida uchdan ikki qismi yig`ilganidan so`ng ochiladi. Saylov komissiyasi raisi komissiya a`zolari ishtirokida saylov qutillarining surgichlarini olib tashlaydi va ular o`rtasida saylov bulletinlarini tarqatib, saylov boshlanganligini ma`lum qiladi. Qonun bulletinlarning umumiy soni alohida hujjatda qayd etilishini alohida shart qilib qo`yadi. Bu muqobilik asosida saylov o`tkazish jarayonida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, saylovda har qanday suiiste`mollarga, soxtalashtirishlarga yo`l qo`yilmasligini ta`minlaydi. Saylovchi ovoz berishda ishtirok etish uchun saylov to`g`risidagi Qonunning 37-moddasiga binoan o`z shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasini ko`rsatishi va shundan keyin saylovchilar ro`yxatidagi o`z ismi-sharifi yoniga imzo chekishi kerak. Bu ham bir paytlar urf bo`lgan nojoiz holatning, ya`ni oilaning bir a`zosi, barcha oila a`zolari, hattoki qo`ni-qo`shnilar uchun ham ovoz berish holatiga barham berishi shubhasizdir. Bu, albatta, muqobilikka asoslangan, birgina nomzodni caylashga mo`ljallangan davrlar uchun xos illat edi. Zero, u paytlarda saylovchilar saylovga o`ta befarqlik bilan munosabatda bo`lishar, hatto ularni saylov natijalari ham qiziqtirmas edi.

Saylovning holis o`tishini ta`minlovchi yana bir holat shundaki, saylov bulletinini mustaqil to`ldira olmaydigan saylovchi o`z ixtiyoriga ko`ra saylov komissiyasi a`zolaridan tashqari har qanday boshqa kishini ko`makka chaqirishi va uning ko`magida saylov qog`ozini to`ldirishi mumkinligidir. Saylovchilar uchun yana bir qulaylik shundaki, agar ular saylov kuni yashash joylarida bo`lish imkoniyatlariga ega bo`lmasalar, oldindan o`z saylov qog`ozlarini saylov uchastkasidagi maxsus qutilarga yopiq konvertlarga solgan holda qoldirishlari mumkin.

Bu ham saylovda saylovchilarning birortasi e`tibordan chetda qolmasligini ta`minlashda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunday tajriba taraqqiy topgan ko`plab xorijiy mamlakatlarda keng qo`llaniladi. Bizningcha, bu uslubni O`zbekistonda ham yanada kengroq joriy qilmoq kerak. Saylovchilarning ayrimlari salomatliklarini yo`qotganliklari tufayli kasalxonalarda va boshqa shifoxonalarda davolanayotgan hollarda ularning ham fuqarolik huquqlarini hurmat qilgan holda saylovda ishtirokini ta`minlash uchun bevosita ular davolanayotgan joylarda ovoz berishni tashkil qilish qonunda ko`zda tutilgan. Buning uchun saylov komissiyasi o`z a`zolarining ayrimlarini ana shu shifo maskanlariga yuboradilar.

Ovozlarni sanab chiqish saylov komissiyasi tomonidan har bir saylov okrugi va har bir deputatlikka nomzod uchun berilgan ovozni alohida-alohida sanash orqali amalga oshiriladi. Saylovning qay darajada demokratik tarzda o'tganligini, ovozlarni sanashda saylov bulletinining haqiqiyliги shubha ostiga olingan taqdirda bu masala uchastka saylov komissiyasi tomonidan ovozga qo'yish yo'li bilan hal etilishiga qarab bilsa ham bo'ladi. Saylovdagi ovozlarni sanash natijalari saylov uchastkasidagi saylov komissiyasi majlisining protokoli orqali qayd etilib, unga saylov komissiyasining raisi, rais muovini, kotibi va komissiyaning boshqa a'zolari imzo chekadilar.

Bunday yo'l tutish orqali ovozlarni sanash hujjatlarida bir yoqlamalikka yo'l qo'yishning oldi olinadi. Ovoz berish natijalarini bu tarzda aniqlash okrug, viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarida ham xuddi shunday amalga oshiriladi. Qonunning 41-moddasida alohida belgilab qo'yilganidek, saylovda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovoziga muvaffaq bo'lgan deputatlikka nomzodlarga deputat sifatida saylangan hisoblanadilar. Basharti, saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kamrog'i ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi.

Agar saylov jarayonida uning natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi qonunga xilof xatti-harakatlar yuz bergan bo'lsa, o'tkazilgan viloyat, tuman va shahar deputatlari kengashiga saylovlar umuman noqonuniy hisoblanadi. Saylovlarning noqonuniy deb baholanishi haqidagi qaror viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan qabul qilinadi va saylov natijalari e'lon qilingandan keyin o'n kun ichida ular yuzasidan sudga ariza berish mumkin. Agar ayrim saylov uchastkalaridagi saylovlar viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan noqonuniy deb belgilansa va ular saylovning umumiy natijalariga ta'sir qilmagan bo'lsa, ularsiz ham saylov o'tkazilgan hisoblanadi.

Qonunda takroriy saylov o'tkazish mumkinligi haqida ham huquqiy qoidalar o'rin olgan. Agar saylov okrugidan bir yo'la ikki nomzod deputatlik uchun ko'rsatilgan bo'lsada, ularning har ikkalasi ham saylovchilar ro'yxatida qayd etilgan saylovchilarning yarmidan ko'prog'ining ovozini olishga muvaffaq bo'lmasa, okrug saylov komissiyasi saylovni takroriy o'tkazish huquqiga egadir. Biroq takroriy saylovda faqat saylovchilarning ko'proq ovozini olishga muvaffaq bo'lgan ikki nomzod ishtirok etishi mumkin, holos. Qonunda takroriy saylov o'tkazish uchun ikki kun muhlat berilgan bo'lib, bunda saylov to'g'risidagi qonunning barcha talablariga rioya etish qat'i shart qilib qo'yiladi.

Takroriy saylov o`tkazilganda muqobillikda ovozga qo`yilgan ikki nomzodning qaysi biri saylovda ishtirok qilgan saylovchilarning ko`proq ovozini olishga muvaffaq bo`lsa, o`sha nomzod deputat etib saylangan hisoblanadi. Bunda qonun saylangan deputat uchun saylovchilarning yarmidan ko`prog`i ovoz berishini va unga qarshi ovoz bergan kishilar soni uni yoqlab ovoz bergan kishilar sonidan oshib ketmasligini shart qilib qo`yadi. Albatta, bu mutlaqo yangi bir usul bo`lib, u ma`muriy buyruq-bozlikdan xalos bo`lib, muqobillik asosida saylov o`tkazayotgan yangi huquqiy davlatgagina xosdir. Qayta ovoz berish albatta bir o`ringa bir nomzod ko`rsatilgan «sovet jamiyatining ajralmas yaxlitligi», «kommunistlar va partiyasizlar blokining ajralmasligi» haqida ayuhannos solingan eski tuzum davrida mutlaqo yuz berishi mumkin emas edi. Zero, u davrda saylov tizimlari mutlaqo buzib yuborilgan edi.

Takroriy saylov o`tkazish quyidagi hollarda o`tkaziladi:

birinchidan, basharti, saylov okrugi bo`yicha saylov o`tmagan yoxud haqiqiy emas deb topilgan bo`lsa;

ikkinchidan, basharti, takroriy ovoz berish deputatni aniqlash imkonini bermagan bo`lsa;

uchinchidan, basharti, saylov okrugi bo`yicha deputatlikka ko`pi bilan ikki nomzod ovozga qo`yilgan bo`lsa va ulardan birortasi ham saylanmagan bo`lsa;

Takroriy saylov o`tkazishning o`ziga xos tomonlari bor bo`lib, ular quyidagilardir:

- viloyat, tuman va shahar komissiyalari o`tkazilgan takroriy saylovni okrug va uchastka saylov komissiyasi yangi tarkibda o`tkazishlari haqida qaror qilishlari mumkin;

- asosiy saylovlar paytida deputatlikka nomzodi ko`rsatilgan shaxs, qayta saylov paytida o`z saylov okrugida ham, boshqa saylov uchastkasida ham qayta saylovda ishtirok etishga haqli emas;

- qayta saylovlar asosiy saylovlar o`tkazilgandan keyingi bir oy ichida o`tkazilishi kerak. Bunda saylov komissiyalarini tuzish, deputatlikka nomzodlarni ro`yxatga olish va boshqa tadbirlar qonunda ko`zda tutilganidek amalga oshirilishi lozim.

Mahalliy hokimiyat organlariga saylov o`tkazish borasidagi qonunda saylovlarni tayinlash, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ko`rsatish va ro`yxatga olishning huquqiy tomonlari ham har jihatdan batafsil tahlil etilgandir.

Mahalliy Kengashlarga saylovlar barcha darajada, odatda, bir vaqtda o`tkaziladi va O`zbekiston Respublikasining oliy hokimiyat organi Oliy

Majlis tomonidan deputatlarning vakolatlari tugashidan uch oy ilgari belgilanadi. Hozirgi kunda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni tayinlash bo'yicha yangi qoidalar kiritildi. Ular O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunining 3-moddasida belgilangan va shunga asosan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar ularning konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

Mazkur konstitutsiyaviy qonunga asosan bu yangiliklar amaldagi saylov to'g'risidagi qonunimizga kiritildi. Ushbu kun belgilangandan keyingi uch kun ichida saylov kuni haqida barcha matbuot organlari va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi. Aholiga saylovlar to'g'risida bu tarzda ma'lumot berish davlat hokimiyati organlari ushbu viloyat, tuman va shahar deputatlari Kengashiga o'tkaziladigan saylov tadbiriga nihoyatda katta ahamiyat berishidan dalolat beradi.

Saylov tizimining demokratlashtirilishi chiqib ketgan deputatlar o'rniga yangi deputatlar saylash mexanizmining ham huquqiy mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etdi. Biz tahlil etayotgan Qonunning 44-moddasiga muvofiq, muayyan xalq deputatlari Kengashi tomonidan haqiqiy emas deb e'tirof etilgan hollarda, shuningdek, deputat chaqirib olinganda va boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan ilgari to'xtatilganda mazkur saylov okruglarida ikki oylik muddat ichida yangidan saylov o'tkaziladi. Saylovlar davlatning mahalliy vakillik organlari tomonidan o'tkazilishi kerak bo'lgan kundan bir oy ilgari belgilanadi. Bunda viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tuzilmaydi. Ularning funksiyasini okrug saylov komissiyasi bajarib, u saylov boshlanishiga yigirma besh kun qolganda tuziladi. Uchastka saylov komissiyasi esa saylovga o'n besh kun qolganda tashkil etiladi. Yana bir yangi qoida shundaki, agar mazkur viloyat, tuman, shahar deputatining umumiy vakolati tugatilishiga olti oydan kamroq vaqt qolgan bo'lsa, uning o'rniga deputat saylovi o'tkazilmasligi ham mumkin.

Huquqiy davlat barpo qilish jarayoni ketayotgan bir paytda saylovlarni moddiy ta'minlash masalasi ham yangicha usulda hal etilmoqda. Saylovlar to'g'risidagi Qonunning 48-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida saylovni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar O'zbekiston Respublikasi davlat mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Shuning bilan birga, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, muassa-

salar, tashkilotlar va respublika fuqarolari ixtiyoriy ravishda saylovlarni o'tkazish tadbirlari uchun o'z mablag'alarini o'tkazish imkoniga ega. Bu mablag'lar viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan yig'ib olinadi va saylovlarni o'tkazish jarayonida sarflanadi. Qonundagi yana bir muhim, yangi jihat uni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi moddaning mavjudligidir.

Qonunda shunday belgilab qo'yilgan: saylovchilarning saylash va saylanish, saylovoldi tashviqot olib borishni amalga oshirishlariga zo'ra-vonlik, aldash, tahdid solish yoki boshqa yo'llar bilan to'sqinlik qiluvchi shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto'g'ri sanab chiqqan, yashirin ovoz berish tartibini buzgan yoki ushbu qonunning boshqacha tarzda buzilishiga yo'l qo'ygan saylov komissiyalarining a'zolari, boshqa mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalarning, fuqarolarning, o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra javobgarlikka tortiladilar. Shuningdek, deputatlikka nomzod to'g'risida soxta ma'lumotlar e'lon qilgan yoki ularni o'zgacha tarzda tarqatgan shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar

3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining funksiyalari

Davlat hokimiyati vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarining O'zbekistonda mavjud bo'lgan barcha tizimlari uchun yagona bo'lgan asosiy funksiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Tegishli hudud aholisini birlashtirish, barcha fuqarolarning manfaatlarini ifodalash, ularni davlat, jamoat ishlarini boshqarishga keng jalb etish.

2. Tegishli hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kompleksligini ta'minlash.

3. Davlat xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish bo'yicha respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

4. Mahalliy hokimiyat organlari qarorlarini, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati idora organlarining qarorlarini hayotga tatbiq qilish.

5. Tegishli hududda quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish, jamoatchilik faoliyatini birlashtirish va yo'naltirish.

6. Qonunchilikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash.

Xalq deputatlari Kengashlarining xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish sohasidagi funksiyalari.

Davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni amalga oshirganda e'tibor bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishini hisobga olish lozim. Ularning hududlarida davlat tasarrufidagi korxonalardan tashqari xususiy mulkchilikka asoslangan korxonalar vujudga kelmoqda va rivojlanmoqda. Xalq deputatlarining birinchi navbatdagi vazifalari shu hududda yashayotgan barcha fuqarolarni ularning ayrim guruhlari manfaatlarini bilan uyg'unlashtirib olib borishdir, tegishli hududda muhofaza qilinishini ta'minlaydilar.

Xalq deputatlari Kengashlari iqtisodiyotga rahbarlikni reja asosida amalga oshiradilar. Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tegishli hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini qabul qiladilar (O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasi).

Davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni muvofiqlashtirish va farmoyish berish, yo'naltirish faoliyatlari orqali ham amalga oshiradilar. Bulardan birinchisi ko'proq xalq deputatlari Kengashlariga xos bo'lsa, ikkinchisi hokimiyatga taalluqlidir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar xo'jalik qurilishi sohasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa vositalarini, turar joy qurilishi, kommunal qurilish, hududlarni obodonlashtirish, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarini hal qiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ijtimoiy-madaniy qurilish sohasida xalq maorifi, madaniy-ma'rifiy ishlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport, mehnat va ish haqi masalalarini hal qiladilar. Mazkur sohada sanab o'tilgan vakolatlarining o'zigina xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning shu sohadagi funksiyalarining murakkab va turli-tuman mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning davlat qurilishi sohasidagi funksiyalari.

O'zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi munosabati bilan hokimlar boshchilik qiladigan vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari davlat qurilishi sohasida eng muhim masalalarini hal etadilar. Bu masalalarga quyidagilar kiradi:

1. Milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 5-bandiga muvofiq O'zbekistondagi vakillik organining eng yuqori bosqichi bo'lgan Oliy Majlis palatalari O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlaydi. Shu moddaning 7-bandiga muvofiq esa ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish, shu moddaning 23-bandiga muvofiq, tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, nomini o'zgartirish va ularning chegaralari masalalarini hal etadi.

2. O'zbekiston Respublikasidagi davlat organlari tizimini, ularning huquqiy holatini belgilash va ular faoliyatiga rahbarlik qilish kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq respublikada tuziladigan davlat organlarining barcha tizimi Respublika Oliy Majlisi palatalari tomonidan saylanadi, tuziladi yoki tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi vakolatlariga xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash kiradi.

3. Tegishli hududlarda qonunlarga rioya etilishini, davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlash. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq davlat qurilishi sohasidagi shu vakolat bevosita viloyat, tuman, shahar hokimiga yuklatiladi. Unga ko'ra hokim tegishli hududda qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hal etadi.

4. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida mana shu sohada xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari va hokimlarning vakolatlari alohida-alohida berilgan. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga doir masalalarni hal etadi, deyilgan. Shu Qonunning 25-moddasida esa viloyat, tuman va shahar hokimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal etadi, deyilgan.

5. Respublika Oliy Majlisi palatalari, xalq deputatlari Kengashlari va

hokimlarning davlat qurilishi sohasidagi funksiyalari bevosita demokratiya shakllarining ishlashini va taraqqiy etishini ta'minlashdan iboratdir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy etilishi bu funktsiyaning dolzarbligini yanada oshiradi. Bu sohada Respublika Oliy Majlisi palatalari, Kengashlar va hokimlar shu hududlarda o'tkazilishi lozim bo'lgan saylovlarni tashkil etishlari, deputatlarga, nomzodlarga saylovoldi uchrashuvlarida berilgan topshiriqlarni ko'rib chiqishlari, ularni bajarish tadbirlarini ishlab chiqishlari, ijro to'g'risida axborotlar berishlari lozim.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining moddiy-moliyaviy ta'minoti davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan o'z funktsiyalarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri ularda moddiy-moliyaviy bazaning mavjudligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi, deb yozib qo'yilgan. Jamiyat iqtisodiy negizlari shu tartibda belgilangan ekan, keng ma'noda shu mulkning o'zi davlat hokimiyatining vakillik organlari faoliyatining moddiy-moliyaviy bazasi deb qaralishi lozim. Shu bilan birga Konstitutsiya asosida qabul qilingan joriy qonunlarda davlat hokimiyatining vakillik organlarining moddiy-moliyaviy bazasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari belgilangan. Unga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (jamoa mulki) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi ham ko'rsatilgan. Ushbu qonunning 2-moddasida viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari belgilangan. Unga ko'ra viloyat, tuman, shaharnig moliyaviy resurslarini byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika (viloyatlar, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Qonunga muvofiq mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham bo'lishi mumkin. Qonunning 14-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi fuqarolarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tash-

kilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalardan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan, o'zga mablag'lardan tarkib topadigan, byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topadi.

4-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshirib kelayotgan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar, faoliyatining tashkiliy shakli va uslublari o'z funksiya va vakolatlarini har xil tashkiliy shakllardan foydalanib amalga oshiradilar. Davlat hokimiyati organlari va hokimlar oldida turgan vazifalar deputatlar, hokimlik apparati, jamoatchilik vakillari tomonidan bajariladi. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari deyilganda yuqorida ko'rsatilgan shaxslar va organlarning xalq deputatlari Kengashlari funksiya va vakolatlarini amalga oshirishda qatnashish vositalari tushuniladi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari o'zlarining yo'nalishlariga ko'ra har tomonlama xarakterga ega. Ular yordamida xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardagi ichki tashkiliy munosabatlar ham, ular tomonidan davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bo'yicha o'z funksiyalarini bajarishga ham erishiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari O'zbekistonda mavjud bo'lgan vakillik organlarining tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan bo'lib, ularning asosiylari mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi mazmunidan kelib chiqadi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi:

- 1) Xalq deputatlari Kengashlarinig sessiyalari.
- 2) Hokimlarning ijroiya apparati.
- 3) Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari,
- 4) Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining saylov okrugining faoliyati.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati tashkiliy shakllarining asosiysi davlat hokimiyati vakillik organlari uchun ularning sessiyalaridir. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunining 17-moddasida «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir», deyilgan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-

moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyalari hokim tomonidan, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiyalar soni hududdagi dolzarb masalalarni yechish maqsadidan kelib chiqadi. Xalq deputatlari Kengashining sessiyalari deputatlarning kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin.

Kengashning sessiyasini chaqirish zarurligi to'g'risidagi asosli taklif yozma ravishda ko'riladigan masalalar ko'rsatilib ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun hokimga yuboriladi. Hokim Kengash sessiyasini chaqirish muddati va o'tkazish joyi xaqida, shuningdek uning ko'rib chiqishi uchun taqdim etiladigan masalalar to'g'risida deputatlarga 7 kun ilgari ma'lum qiladi. Bu haqdagi ma'lumot matbuotda e'lon qilanadi.

Deputatlarga sessiya kun tartibiga qo'yilgan hujjatlarning loyihalari sessiya ochilishidan kamida uch kun oldin taqdim etiladi. Deputat sessiya ishida ishtirok etishga majbur. Uzrli sabablarga ko'ra sessiyada ishtirok eta olmaydigan deputat bu haqida hokimga sessiya ochilishidan avval ma'lum qilishi zarur.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Deputatlarni ro'yxatga olish Kengashning har bir majlisi oldidan amalga oshiriladi. Kengashning sessiyasi umumiy majlis, shuningdek Kengash doimiy komissiyalarining majlislari shakllarida olib boriladi. "Kengash sessiyasi viloyat hokimi, (zaruriyatiga qarab hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri) tomonidan yiliga kamida ikki marta chaqiriladi"¹ Sessiya faqat umumiy majlislardagina ochiladi va yopiladi.

Kengash sessiyasining kun tartibi majlisni o'tkazish tartibi hamda unga tayyorgarlik va o'tkazish bilan bog'liq boshqa tashkiliy masalalarni dastlabki tarzda muhokama qilish uchun hokim zarur hollarda Kengash huzuridagi doimiy komissiya vakillari va deputatlik guruhlarining vakillaridan iborat majlis chaqiradi. Vakillar majlisining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasida ko'rib chiqiladigan masalalar hokim, doimiy komissiyalar, deputatlik guruhlari va Kengash deputatlari tomonidan kiritiladi. Zarur hollarda kun tartibiga masalalar Senat, Senat Kengashi va Senat qo'mitalari tomonidan ham kiritilishi mumkin.

¹ Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining Ish tartibi. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2006-yil 11-yanvardagi sessiyasida tasdiqlangan.

Kengash faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha Kengash sessiyasi-ning kun tartibiga jamoat tashkilotlari, muassasa, korxonalar va idoralar o'z takliflarini hokimga tavsiya qilish huquqiga egadirlar. Kengash sessiyasi kun tartibiga taklif kiritgan tashkilot vakillari sessiya ishida ishtirok etishlari zarur.

Hokim kelib tushgan takliflarni ularni kiritgan deputatlar, idoralar yoki tashkilotlarning vakillari ishtirokida hamda tegishli doimiy komissiyaning fikrini hisobga olgan holda ko'rib chiqadi, taklifni qabul qilish yoki qilmaslik sababini ko'rsatib, u yakuniy xulosa qabul qiladi.

Xalq deputatlari Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritilayotgan masalalar bo'yicha ma'ruzalar, ma'lumot materiallari va qaror loyihalari masalani kiritayotgan doimiy komissiyalar, deputatlar yoki hokim tomonidan masalani tayyorlash bo'yicha maxsus tuzilgan komissiya va hokimlikning taalluqli bo'lim va guruhlari tomonidan tayyorlanadi.

Taqdim etilgan materiallar tegishli doimiy komissiyalar tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi lozim. Kengashga ko'rib chiqish uchun tavsiya etilayotgan masalalarni tayyorlashda, saylovchilarning fikri o'rganib chiqiladi. Xalq deputatlari Kengashi o'z vakolati doirasida hudud hayotining eng zarur ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari bo'yicha Kengash qaror loyihalari, qoida tariqasida, hududdagi mehnat jamoalari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari majlislariga dastlabki tarzda muhokamaga olib chiqilishi mumkin.

Qaror loyihalari bo'yicha taklif va e'tirozlarni, hokim, tegishli doimiy komissiya tomonidan mazkur masalani mutaxassislar ishtirokida atroflicha o'rganib chiqishni topshiradi. Yangi saylangan xalq deputatlari o'rganib chiqish uchun Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va keksa deputatlardan biri tomonidan olib boriladi.

Yangi saylangan Xalq deputatlari Kengashining birinchi sessiyasida xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasining taqdimiga muvofiq deputatlarning vakolatlari to'g'risida qaror qabul qilinadi. Kengash deputatlarning vakolatini to'g'ri deb topgandan keyin hokim har bir deputatga belgilangan nus'hadagi deputatlik guvohnomasi va deputatning ko'krak nishonini topshiradi. Deputatlik guvohnomasiga xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi raisi imzo chekadi va komissiya muhri bilan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig'iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi.

Kengash har bir sessiyani o`tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyatini saylaydi. Sessiya kotibi yoki kotibiyati sessiya majlislarining stenogrammalari va bayonlarini, so`zga chiqishni so`rganlar ro`yxatini yozib borishni tashkil etadi, deputatlarning so`rovlari, ma`lumotnomalari, axborotlari, bayonotlari, takliflari hamda boshqa materiallarini sessiya hujjatlari sifatida qayd etadi. Sessiya kotibi muzokaralarda so`zga chiqish uchun yozilgan shaxslar ro`yxatini sessiya raisiga taqdim etadi, sessiyaning ishiga taaluqli masalalar yuzasidan deputatlarga izohlar beradi. Har sessiya yakunida kotibiyat sessiyada ko`rilgan masalalar yuzasidan yakuniy ma`lumotlarni e`lon qiladi.

Xalq deputatlari Kengashi o`z vakolatlari doirasida har qanday masalani sessiyalarda ko`rib chiqish va hal qilish huquqiga egadir. Kengash majlisi sessiyaning "Kun tartibi"ni va muhokama tartibini qabul qiladi. Sessiyaning kun tartibi va majlis tartibi bo`yicha takliflar doimiy komissiyalar majlisida dastlabki tarzda ko`rib chiqilishi mumkin, so`ngra esa hokimga Kengashning sessiyasida ko`rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Xalq deputatlari Kengashining majlislari ochiq tarzda o`tkaziladi. Zaruriyat tug`ilganda, deputatlarning ko`pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorga asosan yopiq majlislar ham o`tkazilishi mumkin. Kengash sessiyasi ma`ruza, qo`shimcha ma`ruza, nutqlar yuzasidan muzokaralarda so`zga chiqish, majlisni olib borish va ovoz berish tartiblari yuzasidan xamda sessiya ishidagi tanaffuslar uchun ajratilgan vaqtni mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o`zgartirishi mumkin. Bu to`g`risidagi takliflar sessiya materiallarini tayyorlovchi ishchi guruh tomonidan oldindan kiritiladi.

Xalq deputatlari Kengashida hokimning, hududning iqtisodiy va ijtimoiy majmualarining rivojlantirish rejalarini, mahalliy byudjet loyihalarini hamda ularning ijrosi to`g`risidagi hisobotlarni ko`rib chiqish chog`ida ma`ruzalar, qo`shimcha ma`ruzalar tinglanadi hamda ular muhokama qilinadi.

Sessiya majlislarida Kengash raisi taklif qilgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, ilmiy muassasalar, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar hozir bo`lishlari mumkin. Sessiyada raislik qiluvchi Kengashi deputatlariga sessiyaga taklif etilgan shaxslar tarkibi va soni to`g`risida axborot beradi.

Taklif qilingan shaxslar Kengashi sessiyasining ishiga aralashish, ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega emaslar, belgilangan tartib-qoidalarga rioya etishlari hamda raislik qiluvchining talabiga bo`ysunishlari shart. Kengashning sessiyasiga taklif qilingan shaxslar uchun majlislar

zalida maxsus joylar ajratiladi. Kengash majlislarida ish davlat tilida olib boriladi va zarurat bo'lganda Sessiya qarori asosida boshqa tillarga hamohang (sinxron) tarjimai ta'minlanadi.

Xalq deputatlari Kengashida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan muzokarlarda so'z so'rash to'g'risidagi bildirishnoma sessiya raisi nomiga yuboriladi, rais tomonidan bildirishnomaga tartib raqami qo'yilib sessiya kotibi yoki kotibiyatiga topshiriladi. Sessiya raisi sessiyaga taklif etilgan va so'zga chiqish uchun yozilgan shaxslarga Kengashda muhokama qilina yotgan masala yuzasidan muzokarlarda so'zlash uchun imkon beradi hamda mas'ul mansabdor shaxslardan so'zga chiqishni talab etadi. Raislik qiluvchi so'zga chiqish navbatini o'zgartirish sabablarini bildirgan holda qaror qabul qilishi mumkin.

Kengashning deputati ayni bir masala yuzasidan bir martadan ortiq so'zga chiqishi mumkin emas. Deputat o'z joyidan turib so'zlashdan oldin o'zining familiyasi va saylov okrugi raqamini bildirishi shart. So'zga chiqqan deputat ma'lumot, izoh berish, savolga javob qaytarish huquqini saqlab qoladi. Zarurat tug'ilganda hokim, uning o'rinbosarlari ko'rilayotgan masalaga aniqlik kiritish uchun navbatsiz so'z olib gapirish huquqiga egadirlar.

Kengash sessiyasida so'zga chiquvchi shaxslar o'z nutqida qo'pol va beodob iboralarni ishlatmasligi, g'ayri-qonuniy harakatlarga chaqirmasligi kerak. Bunday holatda raislik qiluvchi deputatni ogohlantirib qo'yishga haqli. Ikkinchi ogohlantirishdan so'ng notiq so'zga chiqish huquqidan mahrum etiladi.

Agar notiq muhokama etilayotgan mavzudan chetga chiqib ketayotgan bo'lsa, raislik qiluvchi uni muhokama etilayotgan masalaga amal qilishga chaqiradi. Notiq so'zlash uchun o'ziga ajratilgan vaqtdan o'tib ketgan yoki ogohlantirishga qaramay muhokama etilayotgan masalaga aloqasi bo'lmagan mavzuda so'zlayotgan taqdirda raislik qiluvchi bir marta ogohlantirgandan keyin uni so'zlashdan mahrum etish huquqiga egadir. Xalq deputatlari Kengashining deputati Kengash ko'rib chiqadigan barcha masalalar bo'yicha hal qiluv ovozi huquqidan foydalanadi. Deputat o'zining ovoz berish huquqini shaxsan amalga oshiradi.

Deputat Kengash majlislarida ko'rib chiqish uchun masalalarni taklif etishga, sessiya kun tartibi, muhokama etiladigan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan, Kengashi tuzadigan idoralarning shaxsiy tarkibi hamda Kengashi saylaydigan, tayinlaydigan yoki tasdiqlaydigan mansabdor shaxslarning nomzodlari yuzasidan takliflar kiritishga, so'rovlar bilan murojaat qilishga, muzokarlarda qatnashishga, savollar

berishga, qarorlarning loyihalarini va ularga tuzatishlarni kiritishga, o`z takliflarini asoslash uchun so`zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan ma'lumotlar berishga haqlidir.

Kengash sessiyasida ko`rib chiqilayotgan masaladan qat'iy nazar deputat Kengashning vakolatidagi masalalar bo`yicha hokimining boshqaruv apparatiga, uning bosh boshqarma, boshqarma, bo`lim va ularga tenglashtirilgan boshqa idoralar rahbarlariga hamda hududida joylashgan korxonaga, muassasa va tashkilotlar rahbarlariga so`rov bilan murojaat qilish huquqiga ega.

So`rov deputat yoki Kengash bir guruh deputatlari tomonidan og`zaki yoki yozma shaklda berilishi mumkin. Kengash deputatlarining yozma so`rovlari sessiya raisi tomonidan o`qib eshittiriladi. Og`zaki so`rov uchun so`z darhol beriladi. So`rov oddiy ko`pchilik deputatlarning yoqlab ovoz bergan qarori bo`yicha Kengash tomonidan sessiya kun tartibiga kiritiladi.

Hokim boshqaruv apparati, hokimlik tizimidagi bosh boshqarma, boshqarma, bo`limlar va ularga tenglashtirilgan boshqa boshqaruv idoralari, korxonaga, tashkilot va muassasalar rahbarlari qilingan deputatlar so`roviga Kengash sessiyasida yozma yoki og`zaki javob berishlari shart. Agar deputat so`rovi qo`shimcha o`rganishni talab etsa, javobni deputatga mazkur so`rov olingan kundan e`tiboran o`n kundan kechiktirmay og`zaki yoki yozma shaklda beriladi.

So`rovga berilgan javob bo`yicha Kengashi qaror qabul qiladi. Hokim deputatlarning so`rovlari yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi haqida Kengashini xabardor etadi. So`rov olgan davlat organi, jamoat birlashmasi, korxonaga, muassasa va tashkilot, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari so`rov tushgan kundan e`tiboran unga 15 kun muddat ichida yozma javob beradi.

Muzokaralar to`xtatilgandan so`ng raislik qiluvchi so`zga chiqish uchun yozilgan va so`zga chiqqan deputatlar soni to`g`risida deputatlarni xabardor qiladi, so`zga chiqishni astoydil talab qilayotganlar haqida ma'lumot oladi. Xalq deputatlari Kengashi ko`rib chiqayotgan masala yuzasidan muzokaralar qaror qabul qilish yo`li bilan to`xtatiladi. Muzokaralar to`xtatilgandan keyin ma`ruzachilar va qo`shimcha ma`ruzachilar ya`kunlovchi nutq so`zlash xuquqiga egadirlar.

Kengashning deputatlari, shu jumladan so`zga chiqish imkoniga ega bo`lmaganlar sessiyada ko`rib chiqilayotgan masala yuzasidan sessiya raisiga o`z taklif, fikr mulohazalari va savollarini yozma ravishda berishlari mumkin. Takliflar va fikr mulohazalar sessiyaning bayoniga kiritiladi

hamda Kengash yoki uning topshirig'iga binoan hokim tomonidan ko'rib chiqiladi. Savollarga javoblarni Kengashning navbatdagi sessiyasida tegishli mansabdor shaxslar belgilangan tartibda beradilar.

Xalq deputatlari Kengashining qaroriga binoan zarur hollarda sessiya kun tartibidagi masalani ko'rib chiqish Kengash doimiy komissiyalarining majlislariga ko'chirilishi mumkin. Doimiy komissiyalar ishlab chiqqan xulosalar, tavsiyanomalar va takliflar Kengashning majlisi qayta boshlangandan keyin unga ma'lum qilinadi.

Kengash ko'rib chiqayotgan masala yuzasidan deputatlarning fikrini to'liqroq hisobga olish va aks ettirish hamda Kengashi qarorining uzil-kesil loyihagini ishlab chiqish uchun sessiya raisi va boshqa deputatlarning taklifiga ko'ra tahrir komissiyasini saylashi mumkin. Tahrir komissiyasi o'z ishining natijalarini belgilangan muddatda Kengashga taqdim etadi.

Kengash taqdim etilgan qaror loyihasi matnini asos qilib qabul qilgandan keyingina xalq deputatlari Kengashi qarorining loyihasi bo'yicha takliflar, qo'shimchalar va o'zgartirishlarni ko'rib chiqib qabul qiladi. Qaror loyihasi deputatlarga oldindan tarqatib qo'yilgan hollarda Kengashning qaroriga binoan uning matni Kengashining majlisida o'qib eshittirilmaligi mumkin.

Qaror loyihasi bo'yicha taklif va o'zgartirishlar Kengash deputatlariga ovoz berish uchun qo'yiladi. Kengashining qaroriga muvofiq qaror loyihasi bo'yicha ovoz berish umumiy yoki avvaliga bandlar, bo'limlar bo'yicha, so'ngra esa umumiy o'tkaziladi. Kengashning qarorlari ochiq yoki yopiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashining qarorlari uning majlislarida ishtirok etishi lozim bo'lgan (kvorum) deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan deb hisoblanadi. Ochiq ovoz berishni o'tkazish uchun deputatlar guruhiga ovozlarni sanab chikish topshiriladi, bu guruhning tarkibini sessiya belgilaydi. Deputat bir masala yuzasidan ovoz berish chog'ida bitta ovozga ega - «Yoqlab», «Qarshi» deb ovoz berish yoki «Betaraf» qolishi mumkin.

Ovozlarni hisoblab chiqib bo'lingandan keyin raislik qiluvchi ovoz berish natijalarini: «Taklif qabul qilinganligi» yoki «Rad» etilganligini e'lon qiladi. Kengash ishida ovozlarni hisoblash elektron hisoblash yoki yashirin ovoz berish bulletinlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. «Elektron hisoblash Kengashi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Kengash majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni deputatlar jumlasidan bo'lgan

kotibiyat amalga oshiradi”¹.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasida deputatlar bildirgan yoki yozma shaklda hokimga topshirgan, shuningdek doimiy komissiyalarning xulosalarida bayon etilgan taklif va tanqidiy fikr-mulohazalar, agar ular sessiyada yoki Kengashning qarorida hal etilmagan taqdirda 10 kun muddat ichida hokim tomonidan ko`rib chiqiladi yoki tegishli davlat hamda jamoat idoralariga va mansabdor shaxslarga yuboriladi, ular mazkur takliflar va fikr-mulohazalarni bir oylik muddat ichida ko`rib chiqib, natijalarni bevosita deputatga yoki doimiy komissiyaga, shuningdek hokimga ma`lum qilishlari shart. Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi nomiga fuqarolardan kelgan xatlar «Fuqarolarning murojaatlari to`g`risida»gi qonunda belgilangan tartibga muvofiq ko`rib chiqadi.

Xalq deputatlari Kengashi har yili o`z majlisida hududdan saylangan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a`zolarining, Kengash doimiy komissiyalari faoliyati to`g`risidagi hisobotlarni eshitadi va muhokama qiladi. Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasida sessiyaning bayonnomasi va stenogrammasi olib boriladi. Xalq deputatlari Kengashining davlat, xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalariga doir qarorlari gazetalarda, Kengash sessiyasidan keyin uzog`i bilan uch kun o`tgach bosib chiqariladi, televideniye va radio orqali o`qib eshittiriladi.

Xalq deputatlari Kengashining qarorlari o`n kunlik muddatdan kechiktirilmay Kengashning doimiy komissiyalariga, hokim boshqaruv apparati bo`limlari, bosh boshqarma, boshqarma hamda ularga tenglash-tirilgan o`zga boshqaruv idoralariga, tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslarga, quyi hokimiyatlarga tarqatiladi.

Kengash qarorlarida bayon etilgan takliflar hududida joylashgan korxonalar, muassasalar hamda yuqoriga bo`ysunuvchi tashkilotlar nomiga berilgan tavsiyalar shu tashkilotlarning rahbarlari tomonidan ko`rib chiqilib, bir oy muddatda uning natijalari haqida Kengashiga ma`lum qilinishi kerak.

Xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijro etilishi yuzasidan nazorat tegishli doimiy komissiya tomonidan amalga oshiriladi va uning natijalari haqida keyingi sessiyada axborot berib boriladi. Har bir sessiya kun tartibiga, qoida tariqasida, Kengash qarorlarini ijrosi hamda deputatlik so`rovlariga javoblarni ko`rib chiqish yuzasidan masala kiritiladi.

¹ Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Iah tartibi / Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2005-yil 8-apreldagi 10/3-3 sonli qarori bilan tasdiqlangan.

IX BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA SENATI FAOLIYATINING TASHKILIIY SHAKLLARI VA XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN, SHAHAR KENGASHINING SESSIIYALARI VA DOIMIIY KOMISSIIYALARI

1-§. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakllari

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli:

- sessiyalar davridagi yalpi majlislari;
- Qonunchilik palatasi Kengashi faoliyati;
- Qonunchilik palatasi qo`mitaa va komissiyalari faoliyati;
- Qonunchilik palatasi fraksiyalari va deputatlar guruhlarida;
- Palatalar qo`shma majlislari;
- Kelishuv komissiyasi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o`tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o`tkaziladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo`lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining *Qonunchilik palatasi majlislarida*, shuningdek ularning organlari majlislarida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo`jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun deputatlarni majlislarda muntazam va samarali ishtirokini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qonunchilik palatasi kollegial organ bo'lib, uning vakolatlariga doir masalalar albatta deputatlarning birgalikdagi muhokamasi uning faoliyati asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni, ya'ni uning kun tartibini belgilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi majlisida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar ularni ko'rib chiqish navbati, palataning har bir masalani ko'rib chiqishga tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan qo'mitalari, ma'ruzachilar (qo'shimcha ma'ruzachilar), shuningdek boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan holda majlis kun tartibi loyihasiga kiritiladi. Mazkur moddaning ikkinchi qismida esa Qonunchilik palatasi majlisi kun tartibining loyihasi Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan tuziladi deb e'tirof etilgan. Qonunchilik palatasining deputatlari Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi loyihasiga kiritilgan masalalar to'g'risida oldindan xabardor qilinishini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Chunki har bir deputat muhokama qilnadigan masala yuzasidan amaldagi ahvol, uning saylovchilari va partiya manfaatlarini o'rganib chiqishi lozim.

Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi palata qarori bilan tasdiqlanishi demokratik normalardan biridir. Bu yerda masalani deputatlar o'rganilganligi, uning muhokamasiga tayyorliklari va boshqa vajlarni inobatga olgan holda kun tartibiga o'zgartishlar kiritish imkoni bo'ladi.

Qonunchilik palatasi majlislaridagi masalalar bo'yicha ovoz berish shakli va uslublarini belgilash katta ahamiyatga ega. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasining qarorlari uning majlislarida ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ochiq ovoz berish nomma-nom, ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalangan holda yoki yashirin ovoz berish bulletinlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda konstitutsiyaviy qonunlarda belgilangan hollardan mustasno ovoz berish shakli va usuli to'g'risidagi qaror Qonunchilik palatasi tomonidan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinishi ijobiy hol.

Qonunchilik palatasining deputati o'zining ovoz berish huquqini shaxsan amalga oshirishining mustahkamlanishi ham demokratiyaning talabidir. Aynan deputat o'z saylovchilari va partiya manfaatlarini himoya qilishi lozim. Bu masalani ro'yobga chiqarishda ovozlarni hisobga olish shaklini belgilash hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Qoida tariqasida, Qonunchilik palatasi majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni Qonunchilik palatasi deputatlari jumlasidan bo'lgan guruh amalga oshiradi. Bu guruh ovozlarni to'g'ri tashkil etish uchun javob beradi. Agarda deputatlarda elektron tizimni to'g'ri ishlashi haqida shubha paydo bo'lsa, ular bulletinlardan foydalangan holda ovoz berishni tanlashlari mumkin.

Parlament faoliyatida jamoatchilik fikrini hisobga olish, avvalo uni shakllantirishni taqazo etadi. Shu jihatdan deputatlarning dahlsizligi (immuniteti) ularga parlament faoliyatining barcha masalalari yuzasidan ochiq va tanqidiy fikr bildirish imkoniyatini ta'minlaydi. Parlamentdagi o'z chiqishlari uchun deputat javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Parlament majlislari odatda ochiq bo'lib, har bir saylovchi muhokama qilinayotgan masalalar va ularni hal qilish yo'llari to'g'risida xabardor bo'lish hamda o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Horijiy davlatlar, parlamentlarning internet va boshqa ommaviy axborot vositalardagi maxsus sahifalari, nashrlari, ko'rsatuvlari bunga qulay sharoit yaratadi. Fransiyada esa, ochiq muhokamalar 1995-yildan keng qo'llanila boshladi. Misol uchun 2-oktabr 1995-yildan 30-sentabr 1996-yilgacha Milliy Majlis komissiyalari tomonidan 21 ta majlis «ochiq» o'tkazilgan¹. 1994-yildan esa komissiyalarning audio-vizual hisobotlarini tarqatish amaliyoti joriy etildi. Ushbu tadbirlar fuqarolarning faolligining oshishi va Qonunchilik palatasida ko'rilyotgan masalalar yuzasidan ularning obyektiv fikrini yig'ish uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, qo'mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish

¹ Бюллетень Национальной ассамблеи. 1995/1996, Париж. С.13.

maqsadida *Qonunchilik palatasi Kengashi* tuziladi. Qonunchilik palatasi Kengashining tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o`rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari, Qonunchilik palatasi qo`mitalarining raislari kiradi. Qonunchilik palatasi Kengashiga Qonunchilik palatasi Spikeri rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Qonunchilik palatasi siyosiy partiya fraksiyalari ham tuziladi. *Fraksiya* siyosiy partiyadan ko`rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyalardan ko`rsatilmagan deputatlar tuzishga haqlidir. Qonunchilik palatasining kamida to`qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a`zosi bo`lishi mumkin. Siyosiy partiyadan ko`rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a`zosi bo`lishi mumkin yoki hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka haqli.

2-§. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatining tashkiliy shakllari

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatining tashkiliy shakllari quyidagilardan iborat:

- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlisi;
- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi;
- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qumita va komissiyalari faoliyati;
- Palatalar qo`shma majlislari;

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o`tkaziladigan *majlislaridir*. Senat majlislari, agar ularning ishida senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunlarni ma`qullash, ularga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risidagi masalalarni ko`rib chiqishda senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo`lishi shart. Senatning birinchi majlisi Senat shakllantirilganidan keyin bir oydan kechiktirmay o`tkaziladi. Mazkur majlisni O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov

komissiyasining Raisi ochadi va Senat Raisi saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, qo`mitalar ishini muvofiq-lashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko`rib chiqishni tashkil etish maqsadida *Senat Kengashi* tuziladi. Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o`rinbosarlari va Senat qo`mitalarining raislari kiradi. Senat Kengashiga Senat Raisi rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Senat tomonidan senatorlar orasidan palataning vakolatlari muddatiga rais, uning o`rinbosari va a'zoldan iborat tarkibda *qo`mitalar* tuziladi. Senat Raisi va uning o`rinbosarlari Senatning qo`mitalari tarkibiga saylanishi mumkin emas. Senatda reglament, byudjet va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari, tashkiliy-ma'muriy masalalar, qonunchilik va sud-huquq masalalari, mudofaa va xavfsizlik masalalari, tashqi siyosat masalalari qo`mitalari tuzilishi shart. Senatda boshqa qo`mitalar ham tuzilishi mumkin. Senat qo`mitalarining umumiy soni, qoida tariqasida, sakkiztadan oshmasligi kerak. Senat qo`mitasining raisi, uning o`rinbosari va qo`mita a'zolari palata majlisida Senat Raisining taqdimiga binoan senatorlar umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan saylanadi. Senat qo`mitasining raisi, uning o`rinbosari, shuningdek qo`mita a'zolari saylangani to`g`risida Senat qarorlar qabul qiladi.

Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun *komissiyalar* tuzishi mumkin.

Komissiya Senat majlisida senatorlar orasidan komissiya raisi va a'zolari, zarurat bo`lganda esa komissiya raisining o`rinbosaridan iborat tarkibda tuziladi. Komissiya tuzilgani to`g`risida Senat qaror qabul qiladi. Komissiya o`z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan so`ng, qaysi muddatga tuzilgan bo`lsa, shu muddat o`tganidan keyin yoki Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari o`z faoliyatini tugatadi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Senat va Qonunchilik palatasi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Senatda kelishuv komissiyasini tuzish to`g`risidagi tashabbus Senat Raisidan, shuningdek Senat a'zolari umumiy sonining kamida beshdan bir qismini tashkil etuvchi senatorlardan chiqishi mumkin. Kelishuv komissiyasi tarkibiga nomzodlar yuzasidan Senat Raisi va Qonunchilik palatasining Spikeri tomonidan o`zaro maslahatlashuvlar o`tkaziladi. Kelishuv komissiyasining Senatdan ko`rsatilgan

tarkibi uning majlisida, Senat majlislari oralig`idagi davrda esa uning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari va doimiy komissiyalari

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari deyilganda Xalq deputatlari Kengashlari funktsiya va vakolatlarini amalga oshirishda qatnashish vositalari tushuniladi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkiliy shakllari o`zlarining yo`nalishlariga ko`ra har tomonlama xarakterga ega. Ular yordamida xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardagi ichki tashkiliy munosabatlar ham, ular tomonidan davlat, xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bo`yicha o`z funksiyalarini bajarishga ham erishiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy shakllari O`zbekistonda mavjud bo`lgan vakillik organlarining tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan bo`lib, ularning asosiylari mustaqil O`zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi mazmunidan kelib chiqadi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi:

- 1) Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari.
- 2) Hokimlarning ijroiya apparati.
- 3) Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari.
- 4) Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining saylov okrugining faoliyati.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati tashkiliy shakllarining asosiysi davlat hokimiyati vakillik organlari uchun ularning sessiyalaridir. O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to`g`risida»gi Qonunining 17-moddasida «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir», deyilgan. Tegishli xalq deputatlari Kengashlariga berilgan vakolatlar Oliy Majlis yig`ilishlarida va xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida ko`rib chiqiladi va hal etiladi.

Yuqorida sanab ko`rsatilgan vakillik organlari faoliyatining shakllarini asosiy deyish qabul qilingan. Vakillik organlari to`g`risidagi qonunchilikka ko`ra vakillik organlari o`z vakolatlarini amalga oshirganda, albatta, ulardan foydalanishlari shart.

Vakillik organlari vakolatlarini amalga oshirganda ular faoliyatining asosiy shakllari bilan bir qatorda turli xil yordamchi shakllardan ham

foydalaniladi. Ular qatoriga tayyorlov komissiyalari, yig`ilishlar, seksiyalar, postlar va hokazolar kiradi. Bular yordamida xalq deputatlari Kengashlari har xil tayyorgarlik va nazorat faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari o`z vakolatiga taalluqli bo`lgan muhim masalalarni muntazam ravishda sessiyalarda hal qiladilar. O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuniga ko`ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Mahalliy Kengashlarning navbatdagi sessiyalari tegishli hokim, hokim yo`qligida esa uning o`rinbosarlaridan biri tomonidan, zaruratga qarab, lekin yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Deputatlar uchun sessiyalar davlat ishida qatnashish maktabidir. Bu bilan har bir deputat Kengash sessiyasida masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, mavjud kamchiliklarni ochib tashlash, Kengash, hokimlik va ularga bo`ysungan organlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan takliflar kiritish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Sessiya, shuningdek, hokimning tashabbusiga ko`ra va tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlarining kamida uchdan bir qismi tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi ish tartibiga muvofiq, shahar tumanlarida tuziladigan deputatlik guruhlarining tashabbusi bilan ham navbatdan tashqari sessiya chaqirilishi mumkin. Buning uchta tumandagi deputatlik guruhining talabi lozim bo`ladi. Bu sessiyalar navbatdan tashqari sessiyalar deyiladi. Tegishli Kengashning navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish to`g`risidagi asoslantirilgan taklif sessiyada ko`riladigan masalalarni ko`rsatgan holda yozma ravishda hokimga beriladi. Hokim Kengashning navbatdan tashqari sessiyasining ochilishidan uch kun oldin o`z qarorini e`lon qilib, sessiyani chaqirishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to`g`risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida ikki hafta oldin xabardor qilinadi.

Ma`ruzasiz sessiyalar. O`zbekiston Respublikasi ayrim mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida sessiyalarni ma`ruza qilmasdan o`tkazish tajribasi ham bor. Sessiyada ma`ruza tezlari va qabul qilinishi kerak bo`lgan qaror loyihasi tarqatiladi. Sessiya ko`rilayotgan masalani bevosita muhokama qilishdan boshlanadi, bunda deputatlar ko`rilayotgan masala bilan yaxshi tanish bo`lishlari kerak. Ma`ruzasiz sessiyalar deputatlar uchun vaqtni tejash imkonini beradi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u yoshi ulug` deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u

yo`qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig`iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuni bilan belgilangan vakolatlari, asosan, Kengash sessiyalarida ko`rib chiqib hal qilinadi. Ularni uch guruhga bo`lish mumkin:

1. Kengashni tashkil etish va deputatlarning huquqiy maqomi bilan bog`liq bo`lgan masalalar.

2. Kengash organlarini tashkil etish va ular faoliyatini nazorat qilish bilan bog`liq masalalar.

3. Tegishli hududda xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bilan bog`liq bo`lgan masalalar.

O`zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining faoliyatining huquqiy asoslarini O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuni va doimiy komissiyalar to`g`risidagi nizomlari tashkil etiladi. Doimiy komissiyalar to`g`risidagi nizomlarni Kengashlarning o`zlari sessiyada qabul qiladilar. Doimiy komissiyalar deputatlarning Kengash oldiga qo`yilgan huquq va vazifalarini bajarishda ishtirok etishi uchun tuziladi va ular faoliyatining asosiy tashkiliy shakllaridan biri bo`lib xizmat qiladi. Komissiyalar faoliyatining o`ziga xosligi, eng avvalo shundan iboratki, ular orqali deputatlar sessiyalar oralig`idagi davrda kengash faoliyatiga bevosita va doimiy jalb qilinadi. Doimiy komissiyalar - mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining strukturaviy organlari bo`lib, ko`pchilik deputatlarni, ya`ni ko`p sonli faollarni birlashtiruvchi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi organdir.

O`zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlarining ish tajribasi shuni ko`rsatadiki, doimiy komissiyalar faoliyatining ahamiyati doim oshib bormoqda, ayniqsa, Kengashning ommaviy va nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishdagi tutgan o`rni diqqatga sazovordir.

Xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining asosiy vazifalari «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunning 19-moddasida belgilangan. Doimiy komissiyalarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash;

- Kengash qarorlarini va O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ro`yobga chiqarishga ko`maklashish;

- Kengash hokimiyat va yuqori organlarining qarorlarini amalga

oshirishdagi tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

- saylovchilar nakazlarining amalga oshirilishida va uning ijrosini nazorat qilishda ko`maklashish;

- Kengash qarorlarini amalga oshirish bo`yicha hokimiyat bo`lim va boshqarmalarining korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyatini nazorat qilish hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga, qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish.

Doimiy komissiyalar bevosita halq deputatlari Kengashi rahbarligida ish yuritadi va unga bo`ysunadi, hisob berib turadi. Faqatgina Kengash ularga ijrosi majburiy bo`lgan ko`rsatmalar berishi, hisobotlarini eshitishi, komissiyalar tizimi va tarkibini o`zgartirishi mumkin. Hozirgi vaqtlarda ko`pchilik xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida vaqti-vaqti bilan doimiy komissiyalar hisobotlarini eshitish tartibi belgilangan. Bundan tashqari doimiy komissiyalar sessiya vaqtida va sessiyalar oralig`idagi vaqtda deputatlarni qilingan ishlar haqida muntazam xabardor qilib boradilar.

O`zbekiston Respublikasidagi xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida ikki xil doimiy komissiyalar tuzilmoqda.

1. Xalq deputatlari Kengashlarining hammasida tuziladigan doimiy komissiyalar (mandat, byudjet masalalari bo`yicha, qonunchilik va jamoat tartibini saqlash, iqtisodiy islohotni, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni amalga oshirish bo`yicha, sanoat, transport, qurilish, aloqa masalalari, kommunal xo`jalik va atrof muhitni muhofaza qilish ishlari bilan shug`ullanuvchi doimiy komissiyalar).

2. Agrosanoat kompleksi va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha hamda qishloq xo`jaligini iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha tuziladigan doimiy komissiyalar. Ular mahalliy sharoitni hisobga olgan holda tuziladi. Bular dan tashqari ayrim masalalarni tayyorlash uchun vaqtinchalik komissiyalar tuzishi, ularning ishlash muddati va vazifalarini belgilashi mumkin.

Har bir xalq deputati Kengashi o`z doimiy komissiyalarining soni va turini mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda tuzadi. Komissiyalar mahalliy Kengashlar faoliyatining asosiy yo`nalishlari bo`yicha tuziladi. Eng ko`p tarqalgan doimiy komissiyalarga quyidagilar kiradi: byudjet masalalari bo`yicha, qishloq xo`jaligi, sanoat va qurilish, xalq maorifi, madaniyat, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot, savdo, transport bo`yicha, yo`l qurilishi va aloqa, kommunal xo`jalik va obodonlashtirish, qonunchilik va jamoat tartibini saqlash, yoshlar ishlari bo`yicha, tabiatni muhofaza qilish bo`yicha va hokazo. Zaruriy sharoitlar hisobga olingan holda Kengashlar tomonidan boshqa doimiy komissiyalar ham tuzish mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlarining turi va undagi deputatlarning soniga qarab, 4-5 tadan 13-17 gacha doimiy komissiyalar tuziladi.

Doimiy komissiyalarni tuzish tartibi va tarkibi har bir yangi chaqiriq xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyasida, ularning vakolatlari davriga tashkil etiladi. Lekin doimiy komissiyalar tizimi va tarkibiga keyingi Kengash sessiyalarida ham o`zgartishlar kiritilishi mumkin. Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlangan doimiy komissiyalar haqidagi nizomlarda ularning tarkibiga faqat deputatlar saylanishi ko`zda tutilgan.

X BOB. OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA SENATI QO`MITA VA KOMISSIYALARI HAMDA XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN, SHAHAR KENGASHINING DOIMIIY KOMISSIYALARI

1-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo`mita va komissiyalarini shakllantirish tartibi

Demokratik jamiyat barpo etish O`zbekiston siyosatining ustivor yo`nalishlaridan biridir. Ikki palatali parlamentning joriy etilishi belgilangan maqsad sari amalga oshirilgan muhim islohotlardan biridir. Ushbu parlamentning biz uchun yangiligi, rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasini chuqur o`rganishni taqozo etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi parlament vazifalarining samarali bajarilishi uning qo`mita va komissiyalari faoliyatiga bevosita bog`liqligini ko`rsatmoqda. Fransiya parlamenti quyi palatasi mudofaa va Qurolli Kuchlar bo`yicha komissiyasining sobiq raisi esa, "Milliy Majlisni yomon tomosha ekanligini qarang, vaholanki haqiqiy ish mavjud va u komissiyalarda bajariladi" deb aytishi ushbu holatni tasdiqlaydi. Barcha masalalarni uzoq va sinchkovlik bilan dastlab komissiyalarda o`rganilishi ular faoliyatining tashkiliy masalalarini muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi.

"O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi qonunning 17-moddasiga ko`ra Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko`rib chiqish va tayyorlash, O`zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o`rinbosari va a`zolardan iborat tarkibda qo`mitalar saylanadi.

Milliy qonunchiligimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo`mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya) bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi¹.

Qo`mita raisi, uning o`rinbosari va qo`mita a`zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi olganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi. "O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to`g`risida"gi qonuni 7-moddasining uchinchi qismiga ko`ra, Qonunchilik palatasida reglament; Byudjet, bank va moliya

¹ Конституции зарубежных государств. Учебное пособие. – М.: Бек, 2000. С.50-55, 60-61.

masalalari; Iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; Qonunchilik va sud-huquq masalalari; Mehnat va ijtimoiy masalalar; Mudofaa va xavfsizlik masalalari; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo`mitalari tuzilishi shart. Qonunchilik palatasida boshqa qo`mitalar ham tuzilishi mumkinligi ko`rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o`ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mehnat va ijtimoiy masalalar, Mudofaa va xavfsizlik masalalari, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Sanoat, qurilish, va savdo masalalari, Agrar, suv xo`jaligi masalalari va ekologiya, Fan, ta`lim, madaniyat va sport masalalari, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari qo`mitalari tuzilgan¹.

Parlamentlardagi qo`mitalar soni, nomi va vakolatlarini belgilashda ularning faoliyati davlat siyosatining barcha jabhalarini qamrab olishidan kelib chiqiladi. Bunday yondashuv natijasida xorijiy davlatlar parlamentlari qo`mita va komissiyalarining soni aytarli darajada salmoqli bo`ladi. Misol uchun, Yaponiya "Parlamenti to`g`risida"gi qonunining 42-moddasiga ko`ra Maslahatchilar palatasida adliya, tashqi siyosat, moliya, maorif, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy ma`muriyat, ijtimoiy muammolar, mehnat, qishloq xo`jaligi, o`rmon va suv xo`jaligi, savdo va sanoat, aloqa, transport, qurilish, shuningdek, byudjet, taftish, intizomiy va parlamentda ishni tashkil etish masalalari bo`yicha komissiyalar tuziladi.

Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarning parlamentlarida ham turli komissiyalar tuziladi. Biroq, komissiyalarning soni qanchalik ko`p bo`lmasin, ular davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo`lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab ololmaydilar. Shuning uchun komissiyalarning nomi ularning faoliyat sohasalaridan kengroq bo`lishi mumkin. Misol uchun, qurilish bo`yicha komissiyalar nafaqat qurilish, balki yerdan foydalanishni rejalashtirish, kartografiya, topografiya masalalari bilan ham shug`ullandilar.

Komissiyalar sonini ko`paytirish ular faoliyatini muvofiqlashtirish va mas`uliyatini ta`minlashda turli qiyinchiliklarni vujudga keltirishi mumkin. Fransiya tajribasi shuni ko`rsatadiki, ushbu holat O`zbekiston amaliyotida ijobiy hal qilingan. Misol uchun, Fransiya Konstitutsiyasi 43-moddasiga ko`ra, parlament palatalari oltita komissiya tuzish huquqiga ega. Fransiya qonunchilik organi komissiyalar sonini ko`paytirish lozim degan fikrlarga

¹ O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining "O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo`mitalari to`g`risida"gi 2005-yil 27-yanvardagi 14-I-sonli qarori.

qaramay bugungi kunga qadar Asosiy qonunga o'zgartirish kiritilgani yo'q.

Aytish lozimki, Fransiyaning tajribasi parlament komissiyalarining sonidan qat'i nazar, har bir komissiyaning faoliyat sohasi va uning vazifalarini aniq belgilash samarali faoliyat kafolati ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mitalari to'g'risidagi nizomning ishlab chiqilishi va unda har bir qo'mitaning faoliyat sohasi va vazifalarini belgilash barobarida palata ishini to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi.

O'z zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishi uchun O'zbekiston qonunchiligida qo'mitalarga keng vakolatlar berilgan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunning 18-moqdasiga ko'ra Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

o'z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;

qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;

qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyahasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslanirtilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;

Qonunchilik palatasining topshirig'iga yoki palata Kengashining tavsiyasiga binoan muayyan qonun loyihasi yoki palata vakolatlariga kiradigan boshqa masala yuzasidan mas'ul bo'ladi;

kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlari tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi;

qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyahasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi;

kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ayon bo'ladiki, ushbu vakolatlarni amalga oshirish jarayonida parlament qo'mitalari qonunchilik, nazorat va axborot to'plash funksiyalarini amalga oshiradilar.

Qo'mitalar qonunchilik jarayonidagi faolligi ularga berilgan muayyan huquqlar, avvalo, qonunchilik tashabbusi bilan belgilanadi. Ko'pchilik davlatlarda qo'mitalar qonunchilik tashabbusiga ega. Xususan, Shveysariyada ushbu huquq konstitutsiyaviy asosga ega. Shveysariya Konstitutsiyasida: "Federal Majlisning har bir a'zosi, parlament fraksiyasi, parlament komissiyasi va kantoni o'zining qonunchilik tashabbusini Federal Majlisga taqdim qilishi mumkin"ligi belgilangan.

Shuningdek, deyarli barcha davlatlarda qo'mitalar (komissiya) parlamentga kelib tushgan yangi qonun loyihalari va takliflarini dastlab tahlil qiladilar. Misol uchun, Fransiya parlamentining quyi palatasining Byurosi taqdim etilayotgan qonun loyahasini tegishli komissiyalarga berishi lozim. Agarda boshqa komissiyalar qonun loyahasini ko'rib chiqishga da'vogar bo'lsa, qaror palata tomonidan qabul qilinadi. Palataning raisi faqat hukumat vakili, qonun loyahasining muallifi va tegishli komissiyalar raislari so'zga chiqishi mumkin bo'lgan muhokamadan so'ng maxsus komissiya tuzish taklifi bilan chiqadi. Ushbu taklif inkor etilsa, palata tegishli qonun loyahasini ko'rib chiqishga mas'ul komissiya saylaydi.

O'zbekistonda ham qonun matni ko'rib chiqish uchun qo'mitaga berilganidan so'ng, u o'z tarkibidan ma'ruzachini tayinlaydi. Ma'ruzachi ushbu qonunning mohiyatini ko'rib chiquvchi qo'mita majlisida maslahat ovozi bilan qatnashishi va qo'mita tomonidan kiritilgan tuzatishlarni himoya qilishi mumkin. Tayinlanishi bilanoq ma'ruzachi matn ustida ishlashni boshlaydi. Unga palata devonining xodimlari salmoqli yordam ko'rsatadi. U matn mualliflari, shuningdek, lozim deb topgan boshqa mansabdor va jismoniy shaxslarni eshitadi. Bular davlat mansabdor shaxslari, xususiy sektor, kasaba va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari bo'lishlari mumkin. Zarur bo'lgan barcha axborotlarni to'plab, qonun matnining har bir moddasini tahlil qilib, ma'ruzachi o'z fikrini taqdim qiladi, shundan keyin masala qo'mita kun tartibiga qo'yiladi.

Umumiy muhokamani boshlashdan oldin, odatda, qo`mita majlisida manfaatdor shaxs o`z fikrini bayon qiladi va deputatlar savollariga javob beradi. Keyin ma`ruzachining nutqi har bir a'zo o`z fikrini bayon qilishi mumkin bo`lgan umumiy muhokamani ochib beradi. Muhokamadan so`ng doimiy qo`mita matni moddama-modda o`rganishga o`tadi. U ma`ruzachi va doimiy komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar bo`yicha qaror qabul qiladi. Yakunida matn ovozga qo`yiladi va qo`mita qarori qabul qilinadi.

Aytish lozimki, horijiy mamlakatlar parlamentlari qo`mitalarining faoliyati qonun loyihalarini tayyorlab, palata muhokamasiga olib chiqish bilan cheklanmaydi. Ular ushbu matnlarni uning majlislarida ko`rib chiqishda ham faol ishtirok etishadi. Misol uchun, Fransiya Milliy Majlisi Reglamentiga ko`ra, qonun loyihalari va qonunchilik takliflarining muhokamasidagi har bir tuzatish bo`yicha raislik qiluvchi komissiya bilan maslahatlashadi, ya'ni komissiya xulosasi qonun loyahasini qabul qilish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Senat qo`mitalari va komissiyalari konstitutsiyaviy maqomga ega. Bunda qo`mitalar amalda Senatning doimiy faoliyat yurituvchi tarkibiy birligi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi Qonuni bilan qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi tahriridagi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 87-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq qo`mitalarga ikki asosiy vazifa yuklatilgan.

Birinchisi - Senatga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko`rib chiqish va tayyorlash. Ikkinchisi - O`zbekiston Respublikasi qonunlari va Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilib borish.

Qo`mitalar rais, uning o`rinbosarlari va qo`mita a'zolaridan iborat tarkibda senatorlar orasidan palataning vakolatlari muddatiga saylanadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida reglament bo`yicha, byudjet va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo`yicha, tashkiliy-ma'muriy masalalar bo`yicha, qonunchilik va sud-huquq masalalari bo`yicha, mudofaa va xavfsizlik masalalari bo`yicha, tashqi siyosiy masalalar bo`yicha qo`mitalar albatta tuziladi.

Fransiya Senatida har uch yilda quyidagi doimiy komissiyalar: madaniyat ishlari bo`yicha; iqtisod va reja; ijtimoiy masalalar bo`yicha; tashqi ishlar, mudofaa va qurolli kuchlar bo`yicha; moliya, byudjet nazorati va milliy iqtisodiy hisoblar nazorati bo`yicha; konstitutsiyaviy qonunlar, qonun hujjatlari, umumhalk saylovlari, reglament va umumiy bosh-

qaruv bo'yicha doimiy komissiyalar tuziladi.

Oliy Majlis Senatining qo'mitalarini (Senat qo'mitasi raisi, uning o'rinbosarlari va qo'mita a'zolarini) shakllantirish tartibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qonunchilik Palatasining qo'mitalaridan («O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasi beshinchi qismiga muvofiq deputatlar birlashmalari rahbarlari o'zaro kelishgan holda va yaxlit (umumiy) qarori asosida shakllantiriladi) farqli holda Senat qo'mitalarining tarkibi Senat Raisining taqdimiga binoan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.

Jahon tajribasi doimiy qo'mitalar va komissiyalarning har qanday parlament yoki uning palatalarining (agar so'z ikki palatali parlament haqida borayotgan bo'lsa) muhim tarkibiy qismini tashkil etishini ko'rsatadi. Bu parlamentlar tomonidan qaror qabul etish uchun muhokamaga tavsiya etiladigan masalaning (ular tomonidan) chuqur o'rganib chiqilishi zarurati bilan ham bog'liqdir.

Qator mamlakatlarda ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratni amalga oshirish uchun ijroiya hokimiyati tegishli organlarining hujjatlari bilan tanishish huquqiga ega bo'lgan tarmoq doimiy komissiyalari tuziladi. Shunga o'xshash - hukumat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi maxsus doimiy komissiyalar ham mavjud bo'lib, ularga ba'zida hatto parlament oldiga hukumatga ishonchsizlik to'g'risidagi masalani qo'yish huquqi ham berilgan. Qo'mitalarning nazorat vakolati davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ta'sir ko'rsatishining qudratli vositasi sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekistondagi parlament islohotlari davomida palatalar qo'mitalarining roli yanada kuchaytirildi. Biroq bizda baribir bu masalaga vazmin ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lib kelinmoqda. Masalan, E.H.Halilov xorijiy mamlakatlarning tajribasini tahlil qilar ekan, demokratik tartibda tashkil etilgan jamiyatlardagi qo'mitalar va komissiyalar mavqeiini oshirish tendensiyasini ijobiy ta'riflaydi: Ishonch bilan aytish mumkinki, qo'mitalar va komissiyalar nafaqat qonun chiqaruvchi oliy organning muhim ishchi organ, balki demokratik mamlakatlar davlat mexanizmining ham muhim bo'lagidir.¹

Qo'mita palataning asosiy, lekin baribir tuzilmaviy-funksiyaviy tizimining bir qismi ekanligi uchun ham uni tuzish tartibi va ishlash jarayoni palataning umumiy maqsadi bilan bevosita obyektiv tarzda

¹ Halilov E.H. O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi to'xta vakillikdan haqiqiy parlamentarizimga qadar - T.: O'zbekiston, 2001, 176 bet

bog`liq bo`lishi hamda Konstitutsiya tomonidan tegishli qo`mitaga yuklatilgan vazifalarga mos kelishi lozim.

Jumladan. Senat qo`mitasi o`z zimmasiga yuklatilgan Konstitutsiyaviy vazifalardan kelib chiqqan holda yetarli darajada katta va mas`uliyatli vakolatlarga egadir. Masalan, Senat qo`mitasi (xuddi shuningdek quyi palataning qo`mitasi ham) davlat organiga manzillangan va ijro uchun majburiy bo`lgan qaror qabul qilishi mumkin. O`zining yuridik kuchiga ko`ra qo`mitalarning ushbu vakolatini palatalarning vakolati bilan tenglashtirish mumkin emas, albatta. Chunki palatalarning qarorlari umummajburiy xususiyatga egadir.

«O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 21-moddasi 2-qismida faqat «Senat qo`mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ko`rib chiqilishining boshqacha qoidasi belgilangan bo`lmasa, uzog`i bilan bir oydan kechiktirmasdan xabar qilishi» haqidagi muddat belgilangan.

Qonunchilik palatasidan yuboriladigan qonunlarni ko`rib chiqish Senat qo`mitalari faoliyatidagi muhim jihatlardandir. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 18-moddasiga muvofiq ushbu qo`mitalar Qonunchilik palatasi tomonidan Senatga ma`qullash uchun topshirilgan qonunlar yuzasidan xulosalar beradi (1-band); qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustida ishlashni davom ettirish yoxud asoslantirilgan holda uni rad etish to`g`risida Kengashga takliflar kiritadi (3-band); Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko`rib chiqish bo`yicha ishchi guruhlari tuzadi. ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining. ilmiy muassasalarning Vakillarini, mutaxassislar va olimlarni. xo`jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi (6-band); kiritilgan O`zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi (7-band).

Qo`mitalar tomonidan qonunlarni ko`rib chiqish tartibi ham o`ziga xosdir. Yuqori palataga kelib tushgan qonun Senat Raisi tomonidan qo`mitalarga o`tkaziladi. Shu tarzda ushbu qo`mita mazkur qonunni ko`rib chiqish hamda uning yuzasidan xulosa tayyorlash uchun mas`uldir. Xulosada qonunni ma`qullash yoki rad etish to`g`risiyuagi tavsiya ifodalangan baho bo`lishi kerak. Qonunni rad etish zarurligi to`g`risidagi xulosada mas`ul qo`mitaning qonunni rad etish zarur deb hisoblashining vajlari bayon etilishi lozim. Mas`ul qo`mitaning xulosasi Senat Kengashiga

taqdim etilib, Kengash qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi (11-moddaning ikkinchi qismi). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan rad etilgan xulosani qayta ko'rib chiqishda ham amalda xuddi shunday tartib nazarda tutiladi.

Qo'mitalar o'zlariga berilgan vakolatlar asosida Senat va Qonunchilik palatasining birgalikdagi tasarrufidagi masalalarga taalluqli hujjatlar loyihalarini tayyorlash vazifasini ham bajarishi lozim. Bu yerda so'z Qonunchilik palatasi bilan tengma-teng ish olib borish haqida bormokda. Chunonchi, navbatdagi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Senatga ham, Qonunchilik palatasiga ham bir vaqtda - joriy yilning 15 oktabridan kechiqtirmay yuboriladi. Demak, senatorlar ko'llarida qarorlarining o'z variantlari borligiga qaramasdan Davlat byudjeti bo'yicha Qonunchilik palatasining qarorini ham ko'rib chiqadilar. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti dastlabki ko'rib chiqish uchun Senatning mas'ul qo'mitasiga topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ishi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 19-moddasiga muvofiq Senat qo'mitalari ish rejasiga, shuningdek Senat, uning Raisi va Kengash topshiriqlari hamda tavsiyalariga muvofiq tashkil etiladi. Senat qo'mitalari faoliyatining aniq tartibi, Qonunga muvofiq Senat Reglamenti bilan belgilanadi.

Ushbu Qonunning 20-moddasiga muvofiq Senat qo'mitalarining majlislari Senat majlislari oralig'ida zaruratta qarab ochiq o'tkaziladi. Ehtiyoj tug'ilganida Senat qo'mitalari yopiq majlis o'tkazish haqida qaror qabul qilishi ham mumkin. Qo'mitalarning majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, teleko'rsatuv, radio eshittirish hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin. Qo'mita a'zolarining kamida yarmi hozir bo'lgan taqdirda, Senat qo'mitalarining majlislari vakolatli hisoblanadi.

Senatda qo'mitalar bilan bir qatorda komissiyalar ham tuzilishi mumkinligini ta'kidlash lozim. Qo'mitalardan farqli ravishda komissiyalar maxsus va albatta vaqtinchalik davr uchun tuziladi. Chunki, yangi qonun hujjatlarida ularning muayyan vazifalarni bajarish uchungina tuzilishi nazarda tutilgan. Komissiyalar palata tomonidan uning majlislarida tuzilib, zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilgandan keyin o'z faoliyatni tugatadi. Komissiyalar agar Senat ularni tugatish haqida qaror qabul qilgan

hollarda ham o`z faoliyatini tugatishi mumkin (22-modda).

Deyarli barcha ikki palatali parlamentlarning asosiy vazifasi, palatalarning qonun loyihalari bo`yicha qarorlarni murosaga keltirishda foydalaniladigan kelishuv komissiyalari tuzish xosdir. Xuddi shu singari, Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan yuqori va quyi palata yuzaga kelgan kelishmovchilikni bartaraf etish uchun Senat a`zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin («O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni 25-moddasi birinchi qismi). Kelishuv komissiyasini tuzish to`g`risidagi tashabbus Senat Raisidan yoki Senat a`zolari umumiy sonining kamida beshdan bir qismini tashkil etuvchi senatorlardan chiqishi mumkin. Ushbu komissiya uning tarkibiga nomzodlar yuzasidan Senat Raisi va Qonunchilik palatasining Spikeri tomonidan o`zaro maslahatlashuvlar o`tkazish orqali shakllantiriladi (12-modda uchinchi qismi). Kelishuv komissiyasining Senatdan ko`rsatilgan tarkibi uning majlisida, Senat majlislari oralig`idagi davrda esa uning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi (12-modda to`rtinchi qismi). Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a`zolari o`z tarkibidan ko`pchilik ovoz bilan komissiyaning hamraislarini saylaydi.

Senat qo`mitalarining qonunlarni ko`rib chiqish va xulosa berish bo`yicha vakolatlarini alohida ajratib ko`rsatgan holda ushbu qo`mitalar yetarli ravishda mas`ul vakolatlarga ega ekanligiga yana bir marta urg`u berish lozim.

Senat qonunlarni ishlab chiqishda bevosita qatnashmasligiga qaramasdan, ko`rsatib o`tilgan vakolatlarning o`ziyiq uning qo`mitalari va ularda ishtirok etayotgan senatorlarning yuksak kasbiy maxoratini taqozo qiladi va ularning palata oldida nihoyatda mas`ulligini tasdiqlaydi. Chunki, aynan Senat qo`mitalari qonunning mintaqalar manfaatiga mosligidan tashqari milliy manfaatlariga uyg`unligini ham amalda belgilab beradi.

2-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi doimiy komissiyalarining faoliyatining tashkil etish va ularning vakolatlari

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijro hokimiyati shakllantirilgan edi. Bugun esa, markaziy hokimiyat idoralari vakolatlarini mahalliy hokimiyat hamda fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlariga o`tkazish jarayonlari samarali uslublar va shakllarga ega bo`lib

borishi, siyosiy sohani erkinlashtirishning zarurligi ta'kidlanmoqda¹. Bu - jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning ma'suliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi.

Darhaqiqat, vakillik organlari barcha rivojlangan davlatlar mahalliy hokimiyat organlari tizimida yetakchi o'rin tutadi. Chunki to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanganligi tufayli vakillik organi aholi manfaatlarini ko'zlab ish yuritish va uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi. Zero, ular o'z-o'zini boshqarish demokratiya maktabining rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan.

Xalq deputatlari Kengashlari o'z vakolatlarini deputatlarning umumiy yig'ilishi, ya'ni sessiyalar orqali amalga oshirish huquqiga egadir. Chunki Kengash mahalliy hokimiyat organi sifatida aholi manfaatlarini ifodalovchi deputatlardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» to'g'risidagi qonunining 17-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda sessiya – Kengash faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy yoki, oddiy qilib, tashkiliy-huquqiy shakli deb nomlanadi².

Sessiyalarning, odatda, bir yilda ikki marta va qisqa muddatlarda o'tkazilishi, Kengashlar tomonidan keng va murakkab vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun uning doimiy va muvaqqat komissiyalari, deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati, deputatlik guruhlar kabi sessiyadan tashqari ish shakllarining rivojlanishiga olib keldi. Ular Kengash vazifalarining uzluksiz va samarali amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qilib, bunday vazifalar ixtisoslashtirilgan deputatlar ishchi organlari bo'lgan doimiy komissiyalar orqali amalga oshirilishini chet mamlakatlar tajribasidan ham ko'rish mumkin. Lekin ushbu tarkibiy tuzilmalarning faoliyati o'zaro bog'liq bo'lib, ularning har biri Kengash vakolatlariga doir

¹ Qarang: Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Xalq so'zi. 2002-yil, 30 avgust; Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998. - 105-141-b; Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, 1999. - 320 b.

² Qarang: Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuniga sharh. - T.: Adolat, 1995. - 50 b.; To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish. - T.: TDYI, 2002. - 111 b.

masalalarni sessiyada ko`rib chiqish, ushbu masalalar bo`yicha qarorlar qabul qilish va nazorat faoliyatini amalga oshirish bilan shug`ullanadi. Doimiy komissiyalar esa, o`z sohasida ko`rib chiqilayotgan masalalarni tayyorlash, ular bo`yicha qarorlar qabul qilish uchun mas`uldir. Shuning uchun doimiy komissiyalar vazifalarini amalga oshirishni yoritishdan oldin, Kengash faoliyatining boshqa shakllari bilan ularning o`zaro munosabatlarini ko`rib chiqish maqsadga muvofiq.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, deputatlik guruhleri doimiy komissiyalarning faoliyatini tashkil etishda muhim o`rin tutadilar. Ular hududiy asosda tuzilib, o`z raisi va kotiblarini saylaydi, ish rejasini tuzadi, muntazam ravishda majlislar o`tkazadi, mahalliy vakillik va uning boshqa organlari bilan o`zaro munosabatga kirishadi. Biroq doimiy komissiyalardan farqli o`laroq, deputatlik guruhleri, birinchidan, hududiy tamoyil asosida tuziladi (masalan, qishloq, tuman, shahar hududida); ikkinchidan, ular barcha sohalarni qamrab oladi; uchinchidan, deputatlik guruhleri deputatlarning saylov okrugidagi faoliyatini tashkil etishda doimiy komissiyaga xos bo`lmagan funksiyalarni ham amalga oshiradi (misol uchun, aholini saylov okrugida qabul qilish, deputatlar hisobotini tayyorlash va h.k.); to`rtinchidan, deputatlik guruhlarining faoliyati aholiga xizmat ko`rsatishni yaxshilash, tegishli hududda zarur kommunal va maishiy xizmat korxonalari hamda ijtimoiy-madaniy muassasalar ishini yaxshilash bilan bog`liqdir.

Doimiy komissiyalar esa, ma'lum sohaga ixtisoslashganligi tufayli muayyan hududdagi Kengash vakolatlariga doir barcha masalalarni qamrab olishga qodir emas. Ular tegishli sohadagi umumahamiyatga molik masalalarni, deputatlar guruhleri esa, o`z hududlaridagi ommaviy-tashkiliy va operativ ijro faoliyatining kundalik masalalari yechimi bilan shug`ullanadilar. Deputatlar guruhleri aholi ichida ishlashga, o`z hududida kundalik masalalarni hal qilishga moslashgan bo`lsalar ham, O`zbekiston mahalliy vakillik organlarida ularning faoliyati hozircha yo`lga qo`yilmagan. Deputatlik guruhlarini tuzish, ularni va doimiy komissiyalar ish rejalarini muvofiqlashtirish; birgalikda tekshiruvlar o`tkazish; doimiy komissiya qarorlari va tavsiyalarini amalga oshirishga deputatlik guruhlarini jalb qilish - dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Doimiy komissiyalar o`z vazifalarini ularni saylagan Kengash vakolat muddati davomida amalga oshiradilar, lekin mahalliy hokimiyat organlari tizimida alohida o`ringa ega emaslar. Shu bilan birga, ularning faoliyatini Kengash sessiyalariga xizmat ko`rsatish darajasi bilan ham cheklab bo`lmaydi. Zero, ular sessiyalar oralig`ida ham faoliyat ko`rsatib,

ularda ko`riladigan masalalarni oldindan o`rganish yoki keyin belgilangan masalalarni Kengash yig`ilishida hal etish bilan shug`ullanadi. Ularning vazifalari ichki organlarnikidan ancha kengligi - Kengash faoliyatining muhim ahamiyatga ega mustaqil shakli ekanligini tasdiqlaydi.

Doimiy komissiyalar Kengashning ishchi organi sifatida uning vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan (tashkiliy va u bilan bog`liq nazorat faoliyati) va Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish (qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish ustidan nazorat va uning ijrosini tashkil etishga ko`maklashish) bilan shug`ullanadilar. Demak, doimiy komissiyalar faoliyati Kengash sessiyalariga tayyorgarlik va boshqa ichki masalalarni yechish bilan cheklanmaydi. Doimiy komissiyaning Kengash qarorlarini hayotga joriy qilishga ko`maklashishi va bu jarayonni nazorat qilishi buning isbotidir. Chunki Birlashgan Britaniya Qirolligi mahalliy vakillik organlarining doimiy komissiyalari hokimiyat organi hisoblanmasalarda, ijro organlarining ayrim funksiyalarini bajaradilar¹.

Ko`rinib turganidek, bunday fikrlarni bugungi O`zbekistonda shakllangan doimiy komissiyalarga qo`llab bo`lmaydi. Chunki boshqaruv hamda ijro organlaridan farqli o`laroq, doimiy komissiyalar boshqaruv va ijro vakolatlariga ega emas. Doimiy komissiyalarni mahalliy hokimiyat organi sifatida ko`rish Kengash vakolatlarini uning biron-bir organiga o`tkazishni anglatadi.

Doimiy komissiyalar faoliyati ayrim boshqaruv xususiyatlariga, ba'zi masalalar bo`yicha majburiy kuchga ega bo`lgan normativ hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo`lsa ham, ular ijro hokimiyati organlarining operativ faoliyatiga aralashishga haqli emaslar. Yuqorida ta'kidlanganidek, doimiy komissiyalarning ko`makchi organ sifatida ish yuritishi, ularni Kengash faoliyatidagi o`rmini zarracha pasaytirmaydi. Zero, deputatlarning komissiyalar orqali doimiy faoliyatga jalb qilinishi - Kengash qarorlarini tayyorlash, amalga oshirish va nazorat qilishga, ijro organlari bilan bir qatorda, jamoatchilikning ishtirok etishiga qulay zamin yaratadi. Aholini mahalliy hokimiyat organlari vakolatlariga doir masalalarni hal qilishga jalb etish, jamoatchilik nazoratining amaliy mexanizmini shakllantirish - ularning asosiy vazifalaridan biridir.

Odatda, xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari to`g`risidagi ko`pchilik nizomlarda har bir deputat muayyan doimiy komissiya tarkibida faoliyat yuritishi belgilangan. Bu qoida barcha

¹ Игнатов В.Г., Бутюв В.И. Зарубежный опыт местного самоуправления российской практики. Учебное пособие. -Москва - Ростов: "МарТ", 1999. С. 29-30.

deputatlarni Kengash vazifalarini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan guruhlariga birlashtirishi tufayli hududdagi muammolarni atroflicha o`rganish va o`z vaqtida hal qilish uchun imkoniyat yaratadi. Demak, doimiy komissiyalar kengashlar faoliyatidagi tashkiliy-huquqiy shakllardan biri bo`lish bilan bir vaqtda deputatlar va fuqarolarni davlatni boshqarishga jalb etishning muhim vositachisi bo`lib xizmat qiladi.

Doimiy komissiyalar o`z faoliyatini majlislarida amalga oshiradi. Ayrim masalalarni muhokama qilishda bir necha doimiy komissiyalarning qo`shma majlislari va masalani joyida o`rganish uchun sayyor majlislar ham o`tkazilishi mumkin. Doimiy komissiyalar o`z ishiga turli mutaxassislarni, ilmiy xodimlarni, tajribaga ega bo`lgan kishilarni jalb qilishi, shuningdek zarur hollarda ishchi komissiyalari tuzishi mumkin. Doimiy komissiyalar majlislarida ko`riladigan masalalar oddiy ko`pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Doimiy komissiyalarning qarorlari tavsiya xarakteriga ega bo`lib, davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslar tomonidan albatta ko`rib chiqilishi shart.

Darhaqiqat, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari vazifalarining tahlili ularni Kengash hududida joylashgan va yuqori idoralarga bo`ysunuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning tabiatni muhofaza qilish, qurilish, yer va mehnat resurslaridan foydalanish, madaniy, mai-shiy va boshqa turdagi xizmat ko`rsatish sohalaridagi masalalarni o`rganish, ularni hal qilishga doir chora-tadbirlar ko`rish, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini nazorat qilishlarini ko`rsatadi.

O`z navbatida, doimiy komissiyalar faoliyatini takomillashtirish xalq deputatlari Kengashlarining mavqeini yuksaltirish, ularning nazorat faoliyatini kuchaytirish va, nihoyat, aholini mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, doimiy komissiyalar faoliyatining samarasi Kengash tomonidan ularga malakali rahbarlikning ta`minlanishiga bog`liq. O`z komissiyalari ishiga rahbarlik qilishning huquqiy asoslari - ularni tashkil etish, tarkibini belgilash xalq deputatlari Kengashining mutlaq vakolati sifatida qonuniy mustahkamlanganida namoyon bo`ladi. Bu holat, o`z navbatida, doimiy komissiyalarni ularni saylagan Kengash oldidagi hisobdorligini anglatadi. Doimiy komissiyalar faoliyatini yo`naltirish, muvofiqlashtirish, ularning ishi to`g`risidagi hisobotlarini sessiyalarda eshitish, ularga amaliy yordam ko`rsatish, faoliyati natijalarini umumlashtirish va ilg`or tajribalarini ommalashtirish - xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalar faoliyatiga rahbarligidan kelib chiqadigan asosiy vazifalaridir. Odatda, doimiy komissiyalar faoliyatini yo`naltirish Kengash qarorida belgilangan topshiriqlar asosida amalga

oshiriladi. Doimiy komissiyalar faoliyatini yo`naltirish, muvofiqlashtirish, asosan, sessiyalarni o`tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Kengashlar, doimiy komissiyalarning sohalariga qarab, ularga ma'lum masalani tayyorlashni topshirish orqali o`z vazifalarini bajargan holda, tegishli sohaning tahlili va samarali boshqaruviga erishadilar. Doimiy komissiyalar mazkur masalalar va ular yuzasidan qaror loyihalarini tayyorlaydilar va ushbu jarayonda aholi manfaatlarini aks ettirish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Doimiy komissiyalarning Kengash oldidagi hisobdorligi ularning faoliyatiga rahbarlik qilishning muhim huquqiy vositasini tashkil etadi. Shuning uchun har bir sessiyada doimiy komissiyalardan birining hisobotini eshitish maqsadga muvofiqdir. Chunki doimiy komissiya hisoboti, uning faoliyatidagi muhim voqea bo`lish bilan bir qatorda, boshqa masalalarga ixtisoslashgan doimiy komissiya hamda deputatlar mahoratini oshirish maktabi hamdir.

Doimiy komissiya hisoboti asosida Kengash tomonidan, odatga ko`ra, komissiya faoliyati atroflicha tahlil etilgan, erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar ko`rsatilgan qaror qabul qilinib, unda keyingi faoliyatning asosiy yo`nalishlari ishlab chiqiladi hamda tashkiliy-amaliy ishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bunday qarorlar nafaqat hisoboti tinglangan doimiy komissiya, balki boshqalari uchun ham rahbariy hujjat hisoblanib, ularning ishini yaxshilash, yo`naltirish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, respublika xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarida doimiy komissiyalar hisobotlari kam eshiltimoqda. Kengashlarning bu kabi rahbarlik amaliyoti doimiy komissiyalar ishining formal tus olishiga yo`l ochib beradi. Shuning uchun doimiy komissiyalarning Kengash oldida hisobot berish tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilash katta ahamiyatga ega. Ushbu masala xalq deputatlari Kengashlarining Ish tartibi hamda doimiy komissiyalar to`g`risidagi Nizomlarida aniq belgilanmagan bo`lsa-da, odatda, doimiy komissiyalar faoliyatiga Kengash raisi, ya'ni hokim rahbarlik qiladi. Hokim vazifalarining kengligi tufayli, amalda doimiy komissiyalarga hokim ijro mahkamasining tashkiliy-nazorat guruhining mutaxassisi rahbarlik qiladi.

Kengashlarda deputatlarning jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi O`zbekiston qonunchiligida mustahkamlangan. Kelajakda xalq deputatlari Kengashlari kotiblari, ularning o`rinbosarlari, keyinchalik esa, doimiy komissiyalar raislarining ham, professional ishga o`tishi imkoniyatini o`rganish mantiqiy ko`rinadi. Demokratik davlatlar tajribasi ham buni

tasdiqlamoqda. Buyuk Britaniyada, masalan, Mahalliy hokimiyat to`g`risidagi aktga binoan, 1972 yilga kelib doimiy qo`mitalarning raislari mahalliy Kengashlarda professional faoliyat yuritishi mustahkamlangan edi.

Rossiya Federatsiyasining ba`zi munisipal Kengashlarida doimiy faoliyat yurituvchi lavozimlarni belgilash tegishli Kengash vakolatlari doirasiga kiradi. Ayrim huquqshunoslar O`zbekistonda ham mahalliy vakillik organlarini yanada mustahkamlash va doimiy komissiyalar ishini faollashtirish uchun ularning raislarini muntazam ishga qabul qilish to`g`risida taklif kiritganlar¹.

Kengashda doimiy komissiyalar va deputatlar faoliyatiga uzluksiz rahbarlik qiladigan, sessiyalarga tayyorgarlik ko`radigan va ularni o`tkazadigan, ijro organlari faoliyatini nazorat qiladigan doimiy organning tashkil etilishi, mahalliy hokimiyat organlari vazifalarining samarali bajarilishiga olib keladi.

O`zbekistonda Oliy Majlis tavsiyalariga ko`ra, xalq deputatlari Kengashlarining deyarli barchasida bir xil doimiy komissiyalar tuziladi. Bir darajadagi Kengash doimiy komissiyalarining soni faqat qishloq va shahar hududiga qarab farqlanadi. Masalan, ikkinchi chaqiriq xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashida quyidagi doimiy komissiyalar tuzilgan: qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta`minlash masalalari bo`yicha; mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlik bo`yicha; ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo`yicha; kommunal xo`jalik va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari bo`yicha; sanoat, transport, qurilish, aloqa va aholiga xizmatlar ko`rsatish masalalari bo`yicha; yoshlar siyosati va sog`lom avlod masalalari bo`yicha.

O`zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi qonunining 24-moddasiga ko`ra, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarini tuzish, ularning tarkibini tasdiqlash, o`zgartirish Kengashning mutlaq vakolatlariga kiradi. Ushbu qoidani amalga joriy qilish doimiy komissiyalarni tuzishda Kengashlarning ish sharoitlari, ularning vazifalarini hisobga olish, ish jarayonida komissiyalar faoliyatini takomillashtirib borish imkonini beradi².

Xalq deputatlari Kengashining raisi, ya'ni hokim hamda uning ijro mahkamasi doimiy komissiyalar ro`yxatini tuzib, deputatlarning kasbi, bilim va ko`nikmalariga qarab, komissiyalar tarkibiga kiritadilar. Doimiy

¹ Misol uchun qarang: Jo`rayev B. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta`minlash faoliyati: huquqiy tashkiliy masalalar. Yuridik fanlar nomzodi ... dissertatsiya avtoreferati. T., 1999. - 13 b.

² Xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari to`g`risidagi namunaviy nizomning 3-moddasi.

komissiyalarning ro'yxati va ularning tarkibi esa, Kengashning birinchi sessiyasida tasdiqlanadi. Ta'kidlash joizki, doimiy komissiyalar tarkibini o'zgartirishga zarurat tug'ilganda, doimiy komissiyalar raislarining taklifi-ga muvofiq, komissiyalar tarkibini viloyat Kengashining raisi o'zgartiradi, so'ngra bu o'zgartirishlarni viloyat Kengashining tasdig'iga kiritish tavsiya qilinadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida doimiy komissiyalar turlari muhokama qilinib, siyosiy partiyalar vakillari va mustaqil deputatlar o'rtasida ularning har biriga teng taqsimlanadi. O'zbekistonda ham ushbu qoidaning joriy etilishi, har bir doimiy komissiya bilan barobar, siyosiy partiyalar, gurhlari va deputatlarining chaqiriq davomidagi samarali faoliyatini ta'minlaydi.

3-§. Hokim – xalq deputatlari viloyat Kengashining rahbari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdir. Hozirgi davrda huquqiy davlat va fuqarolik huquqiy asoslari yaratilib, demokratik xarakterdagi milliy davlatchilik shakllandi. Jamiyat hayotini demokratiyalash, o'zini o'zi boshqarish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya etishning huquqiy davlatga xos prinsiplari g'oyat murakkab o'tish davrini vujudga keltirib, mahalliy boshqaruvning doimiy ravishda ishlab turadigan mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish tamoyillarini belgilab olish, muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Birinchi tamoyil, boshqaruv jarayonlarining ilmiy-amaliy asoslanganligini; fuqarolar siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksalishiga, boshqaruv xodimlari va xizmatchilari ish faoliyatini takomillashtirish, siyosiy institutlar va jamiyat hayotining huquqiy asoslarini takomillashtirishga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tamoyil davlat hokimiyati barcha darajalarida ularning vakolatlarini huquqiy va amaliy jihatlarini kengaytirish va ularning jamiyat hayotidagi o'rmini oshirish, ularga nisbatan nodavlat va jamoat tashkilotlari hamda o'zini o'zi boshqarish organlari nazoratini yo'lga qo'yish, oshkoralikni, o'zaro tanqidni kengaytirish jamoatchilik fikrini e'tiborga olishni tashkil etadi.

"O'zbekiston Respublikasi mahalliy organlarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan bo'lsa-da, undagi ba'zi qoidalar Konstitutsiyada ham, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 1993-yil 2-sentabr qonunida ham ifodasini topgan bo'lib, u qoidalar quyidagilardan iboratdir:

- viloyatlarning hokimlari Prezidentning joylardagi rasmiy vakillari bo'ladilar;

- shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanib, xalq deputatlari tegishli shahardagi tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadilar (ma'lumki, shahar tarkibidagi tumanlarda xalq deputatlari Kengashlari tashkil etilmaydi).

- Hokim O'zbekiston Respublikasi qonunlarida o'ziga berib qo'yilgan vakolatlar doirasida qarorlar va farmoyishlar chiqaradi (qaror chiqaril-maydi, qabul qilinadi).

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarining qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar. Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil etish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi. Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi.

Hokim o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish va farmoyishlar chiqarish huquqi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»ga qonunning 6-moddasida belgilanib, qanday masalada qaror qabul qilishi va qaysi masalada farmoyish chiqarishi ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ularga asosan hokim quyidagi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi:

- hududni rivojlantirish va rejalashning istiqbol yo'nalishlariga doir;

- hudud byudjeti loyihasini tuzish va uni xalq deputatlari Kengashiga taqdim etish va tarmoqlar komissiyalari moliyaviy ahvolini mustahkamlashga doir;

- birjalar va sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, ish bilan bandligini ta'minlash, umumiy ta'lim va madaniyati rivojlantirishga doir;

- munisipal mulkni xususiylashtirish va boshqalarda¹.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z vazifalarini bajarish uchun "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va boshqa qonunlarda belgilangan vakolatlari aholining manfaatlari asosida amalga oshirishni ta'minlovchi qoidalar belgilangan.

Islahotlar kechayotgan jamiyatda Qonunning ustuvorligi, fuqarolar

¹ Qarang: Xusanov O.T. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat (huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar). -T.: Sharq, 1996, 41-42-b.

xavfsizligini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir. Mahalliy hokimiyat organlari hayotning barcha jabhalarida qonuniylikni ta'minlash uchun fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasida kuchli va keng faoliyat olib borishlari kerak bo'ladi. Lekin qonuniylikni ta'minlash sohasidagi asosiy vazifalar huquq-tartibot organlari vakolatlariga kiritilgan. Ularning ichida sud hokimiyati va prokuratura organlari mahalliy davlat organlariga bo'ysinmaydi. Shuning uchun ham mahalliy davlat organlari bu sohada asosan mahalliy axolinining irodasini ifodalashdek o'z vazifasidan kelib chiqib barcha huquq-tartibot organlari bilan o'ziga xos munosabatlar o'rnatadi. Jamiyatdagi qonuniylikni ta'minlash sohasida mahalliy davlat organlari ko'proq jinoiy ishlarni oldini oladigan ijtimoiy muhitni yaxshilash, vakillik organlari vositasida bu sohadagi ishlarni nazorat qilish, aholinint bu sohaga doir fikrini shakllantirish, barcha huquq organlari faoliyati yo'nalishini muhim masalalarga qaratish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Shuningdek, qonuniylikni ta'minlash va fuqarolar xavfsizligini saqlash sohasidagi barcha chora-tadbirlar va muvofiqlashtirish ishlarini mahalliy hokimiyat bajaradi. Buning asosiy sababi shundaki, mahalliy davlat hokimiyati organlari bir tomondan xalqning saylashi natijasida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijro hokimiyatlarini boshliqlarini markaziy davlat organlari tomonidan tayinlashi natijasida ular o'rtasida uzviy munosabatlar shakllanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududlari doirasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish masalalariga ham mas'uldirlar. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik qadriyatlardan kelib chiqib mahalliy hokimiyat organlari davlatga tegishli bo'lmagan tashkilotlar, korxonalar va jamoat tashkilotlarning ichki ishlariga aralashmagan holda ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi va vakillik organlarining tasdiqlashlari vositasida hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning dasturlarini, tuman, shaharlar rivojlanishining rejalarini tuzadi.

Shuningdek, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunga binoan vakillik organlari bilan hokimlarning vakolatlari biri-birlaridan aniq chegaralar bilan ajratib qo'yilgan. Shu bilan birga mahalliy hokimiyat organlari o'z hududlari doirasida iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar, sanoat, qurilish, aloqa vositalari, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish va madaniy sohalarga rahbarlik qiladi va ularning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari mahalliy hokimiyat organlarining tegishli hududda joylashgan, lekin yuqoriga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot, muassasa faoliyatiga ham ta'sir qila oladi. Mahalliy davlat hokimiyati

joylarda qonuniylikni saqlashni nazorat etish prinsiplaridai kelib chiqib o'z hududidagi markaziy vazirliklar va boshqa idoralarga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot, muassasalarni ham o'z vakolatlari doirasida nazorat qilish huquqlariga egadir.

Mahalliy ijro organlari mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijrosini amalga oshirish, mahalliy soliqlar, to'lovlar va yig'imlarni belgilash, byudjetga kirmaydigan jamg'armalar shakllantirish kabi ishlarni bajaradi va o'z aholisi joylashtirilgan hududni barcha jihatlar bo'yicha rivojlantirishga o'zining katta xissasini qo'shadi. Lekin, hududda hokimiyat organlari - vakillik organlari va ijro hokimiyatlarining olib boradigan ishlari vakolatlari bir-biridan alohida ajratilgan. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda vakillik organlari bilan ijro organlarining bu masaladagi vakolatlari aniq ajratib qo'yilgan: hokimlar har yillik byudjet loyihalarni tayyorlash, ularni xalq deputatlari Kengashiga tasdiqlash uchun taklif kiritish, byudjet ijrosini amalga oshirish kabi vakolatlarga ega bo'lsa, vakillik organlari byudjetni tasdiqlash, uni ijrosini bajarilishini nazorati haqidagi hisobotlarni eshitish va muhokama qilish kabi vakolatlar kiradi.

Shu bilan birga ba'zi vakolatlar har ikkala organga ham tegishli bo'lishi mumkin: masalan, bunga byudjetning bajarilishi ijrosini nazorat qilish faoliyatini ko'rsatish mumkin. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda mahalliy soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, ularni to'laydiganlar uchun turli imtiyozlar berish, vakillik organlarining vakolatiga kiritilib, ular mazkur vakolatlarning ayrimlarini (soliq va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar belgilash kabilarni) hokimlar vakolatiga o'tkazish huquqiga egadirlar. Bu kabi vakolatlarni O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida», «Yer to'g'risida»gi va boshqa qonunlar doirasida aniqlashtiriladi.

Tuman, shahar va boshqa birliklardagi kommunal xizmatni amalga oshirish, bu sohaga boshchilik qilish vakolatlari ham mahalliy hokimiyat organlariga berilgandir. "Mahalliy davlat hokimiyati-to'g'risida"gi Qonunga binoan hokimlar aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ko'plab vakolatlarga egadir. Ma'lumki, kommunal xizmat sohasiga taalluqli bo'lgan yashash joy jamg'armalari, ularni ta'mirlash, loyihalash va yangilarini qurish, yordamchi xo'jaliklar, xizmat ko'rsatish texnika bazalari, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gazlashtirish, isitish, elektr energiyasi bilan ta'minlash, mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish kabilarni ko'rsatish mumkin. Har bir mahalliy hokimiyat organlari o'z hudularida kommunal xizmatning ana shu tarmoqlari ishini nazorat qiladi, ularga rahbarlik qiladi. Bu tarmoqlar hokimlik apparati bo'limlariga birlashtirilgan bo'lib, ko'p

masalalarni tegishli bo`limlar hal etadilar.

Tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish ham mahalliy davlat hokimiyatlari vakolatlariga kiradi. «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunda vakillik organlari va hokimlarning atrof muhit va tabiatni muhofaza qilishdagi rahbarlik va muvofiqlashtirib turuvchilik funksiyalari aniq ko`rsatilgan. Bunday funksiyalarga yer (tuproq), yer osti boyliklari, suv, havo, o`rmon, o`simlik va hayvonot dunyosini avaylab asrash, ulardan unumli foydalanish kabilar kiradi. Shuningdek, bu sohaga doir vakolatlar «Yer to`g`risida», «Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida»gi va boshqa qonunlarda ko`rsatilgan. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish borasidagi qonunlarni va boshqa huquqiy me`yorlarni buzganlarga nisbatan jazolash choralarini ham ko`radi.

Mahalliy hokimiyat organlari o`z hududlari doirasida favqulotda fuqarolik holati aktlarini qayd etadi, uni amalga oshiruvchi idoralar faoliyatiga rahbarlik qiladi. Mahalliy hokimiyat organlari kichik shaharlar, ovul, qishloq, posyolkalarda fuqarolik holati aktlarini bevosita o`zlari amalga oshirsalar, viloyatlar va ular maqomiga ega hududiy birliklarda bu funksiyalarni adliya organlari bajaradilar. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari qaror, farmoyish va boshqa me`yoriy hujjatlar qabul qilish huquqlariga ham egadirlar. Bunday hujjatlar vakillik organlari tomonidan jamoaviy tarzda, ijro hokimiyati - hokimlikda esa yakkaboshchilik asosda qabul qilinadi. Bu kabi hujjatlarni hududdagi barcha fuqarolar bajarishga majburdirlar.

Davlat oganlari boshqa institutlar kabi yangi vujudga kelayotgan munosabatlar ta'sirida mukammalashib boradi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari ham demokratik islohotlar, davlat qurilishini erkinlashtirish jarayonida takomillashib bormoqda. Davlat qurilishini erkinlashtirish davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishni, ya'ni markaziy hokimiyat organlari vakolatlarini quyi organlarga o`tkazishni taqozo etadi. Shvetsiya va boshqa ko`pchilik davlatlarda 1980-yildan - 1994-yilgacha davlat hokimiyatining katta qismi mahalliy hokimiyat organlariga o`tkazildi.

Mahalliy ijro boshqaruvi organlari o`zlarining saylanishlari va mahalliy aholining vakillari sifatidagi rasmiy o`rinlariga binoan vakillik tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohada-gi faoliyatlari aholi uchun ulkan ahamiyatga egadir. Munisipal organlarda davlat apparatining boshqa bo`g`inlariga nisbatan byurokratizmga berilish kamroq bo`ladi. Ana shu barcha fazilatlar saylanadigan mahalliy boshqaruvni demokratiya qadriyatlaridan biriga aylantirdi.

Davlat boshqaruvida aholi ishtirokini, nazoratini kengaytirish

masalasi qo'yilar ekan, mahalliy hokimiyat vakillik organi - xalq deputatlari Kengashlari o'z hududida aholi bilan bevosita munosabatlarda faoliyat ko'rsatadi va ularning bu boshqaruv va boshqa barcha masalalarni aholining manfaatlarini e'tiborga olgan holda qonunlar, shuningdek, tegishli moddiy va moliyaviy resurslar asosida bevosita yoki bilvosita (o'zlari saylab qo'yadigan idoralar orqali) hal qilish maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi belgilandi.

Konstitutsiyaga binoan, mahalliy vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga ijro hokimiyati boshlig'i -hokim rahbarlik qilib, bu rahbarlik asosan Kengashlar ishini tashkil qilish, ular faoliyatini yo'naltirib turishdir. Jumladan, hokimlar xalq deputatlari Kengashlari sessiyalariga tayyorgarlik ko'rish ishlariga boshchilik qiladi, sessiya majlisini chaqirish muddatini e'lon qiladi, sessiya haqida deputatlar va hududdagi aholini habardor qiladi, sessiya majlislari boshlanganida esa ularga raislik qiladi. Hokim sessiya kengashi raisi sifatida sessiya majlisi qabul qilgan qarorlar va boshqa hujjatlarni, o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlarining ko'ppartiyaviylik asosidagi demokratik saylovlar vositasida shakllanishlari ham bu organlarning vakillik demokratiyasiga taalluqli ekanligini bildiradi. Qolaversa, saylovlar jarayonlarida saylovchilar o'z vakillarini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega bo'ladilar. Saylovchilar mahalliy davlat hokimiyati organlarini boshqarish ishlarida o'z vakillari orqali, saylovlardagi ishtiroki bilan esa bevosita ishtirok etadilar.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga asosan, hokimlar ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Ushbu qoida o'tish davrida qo'l keladi. Bu davrda kuchli ijroiya hokimiyati kerakligi ko'p ta'kidlandi, ammo bozor iqtisodiyotiga o'tishning oz bo'lmagan yo'lini bosib o'tdik. Davlat hokimiyati oliy organlarida amalga oshiralayotgan islohotlar yanada chuqurlashtirilib, parlamentimiz ikki palataliga aylantirildi. Davlat hokimiyati organlarida olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida hududiy davlat boshqaruvi organlarida ham islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shunga ko'ra, hokimdan tegishli hududdagi vakillik hokimiyatiga boshchilik qilish vakolatini olish kerak. Hokimiyatlar taqsimlanganligi tamoyili asosida joylardagi Xalq deputatlari tegishli hudud Kengashlari hokimga nisbatan "tiyib turish va muvozanatda ushlash"vositasi bo'lishi kerak. Xalq deputatlari tegishli hudud kengashlari vakolatlari doirasiga Prezident oldiga hokimni lavozimidan olish masalasini qo'yish huquqini kiritish kerak. Bunday qoida Italiya, Qozog'iston davlatlari konstitutsiya-

sida o'z ifodasini topgan. Masalan, Qozog'iston Konstitutsiyasining 87-moddasi 5-qismida hududiy vakillik organi jami deputatlarining uchdan ikki qismi ovozi bilan mahalliy davlat ijroiya organi rahbari – akimga ishonchsizlik bildirib, uni lavozimdan olish masalasini Respublika Prezidenti oldiga yoki yuqori turuvchi akim oldiga qo'yishi mumkinligi belgilangan.¹

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunning 2-moddasining ikkinchi qismida “Viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan tayinlanadi hamda tasdiqlanadi» - deb belgilangan. Hokimlik lavozimiga kadrlarni qo'yish masalasi doimo dolzarb masala bo'lib kelgan va bo'lib qoladi ham. Bunga birgina 2004-yilning o'zida yettita viloyat (Toshkent, Andijon, Surxondaryo, Farg'ona, Samarqand, Namangan, Sirdaryo viloyatlari) hokimini almashganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Amaldagi qonunchilikka asosan, hokimlarni lavozimiga tayinlashning quyidagi tartibi mavjud:

- Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tegishli viloyat, Toshkent shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi;

- Tuman, shahar hokimi viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi;

- Shahardagi tuman, tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimi tegishli shahar, tuman hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tegishli tuman, shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hokimlik lavozimiga nomzod, avvalo, yuqori ahloqiy fazilatga ega bo'lishi, xalq uchun jon kuydiradigan bo'lishi, o'z ishining ustasi bo'lishi kerak.

Hokimlik lavozimiga nomzod adolatli bo'lishi kerak. Bunday xislatga hayotiy tajribaga ega, oliy ma'lumotli, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsgina ega bo'la oladi, deb o'ylaymiz. Shundagina u hayotiy jarayonlarni chuqur tahlil qilib, u yoki bu holat yuzasidan xolis baho bera oladi. Shubhasiz, hokimlikka nomzod yuqori tashkilotchilik qobiliyatiga ega va boshliqlik, rahbarlik tajribasiga ham ega bo'lishi kerak. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “...hokim, ya'ni yetakchi o'zini saylagan, unga ishonch bildirgan odamlar nazarida obro'li bo'lishi, boshqalarga nisbatan bilimlroq, uzoqni ko'ra oladigan, el-yurt dardini chuqurroq tushunadigan, azmu qarori qat'iy, kurashchi bo'lishi kerak.”²

¹ Qarang: Конституции мира (Сборник конституций государств мира. В шести томах. Т.2) Сост. и авторы вступительных статей У.Таджиханов, А.Х.Сандов. -Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. С.382.

² Qarang: Karimov I.A. Bizdan ozod va ubod vatan qolsin. Т.2. -Т.: O'zbekiston, 1996. -202 b.

XI BOB. QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATI VA SENAT A'ZOSINING HAMDA XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN VA SHAHAR KENGASHLARI DEPUTATLARINING HUQUQIY MAQOMI

1-§. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosining huquqiy maqomi

Mamlakatimizda ikki palatali parlament shakllantirilishi davlat qurilishi sohasida olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, u demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, xalq hokimiyatining amalda bo'lishini ta'minlashni nazarda tutadi. Huquqiy davlatchilikni shakllantirish ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan murakkab va davomli jarayondir. Parlament har qanday mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgani uchun uning faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Parlamentarizm prinsiplar asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki, XXI asrning boshlariga kelib, oddiy bir haqiqat – to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu Qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning Qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror erishish vazifasi turibdi.

Bu oldimizga qo'yilgan vazifalarni soddagina ifodalamoqchi bo'lsak har qanday hokimiyat, u Qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi-ularning barchasi o'z vazifasini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi, o'z yukini ko'tarishi darkor.

Mamlakatimizda ikki palatali parlamentning barpo etishdan asosiy maqsadlardan biri bu parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozonat va cheklovlar tizimini yaratish, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish edi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005-yil 27-yanvar kunidagi birin-

chi yig`ilishida so`zlagan nutqlarida: "Deputat - bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo`lmasin, avvalo xalq oldida javob beradi. Shuning uchun ana shu xalq manfaatlari yo`lida parlamentdagi g`oyalar, yondashuv va qarashlar xilma-xil bo`lgani yaxshi"ligini ta'kidlaganlar¹.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti o`z nutqlarida² Qonunchilik palatasi deputatlariga murojaat qilib, har qaysi deputat o`zining qadr-qimmatini bilishi lozimligini, mehr-oqibatlik bizning xalqimizga yarashadigan, bizning xalqimizga xos bo`lgan fazilat ekanini hech kachon yoddan chiqarmaslik darkorligini hamda Amir Temur bobomiz aytganidek, qanday xalqning farzandimiz, degan savolni ham hech qachon unutmashimiz lozimligini ko`rsatgan.

Qonunchilik palatasi deputatlari xalqning hokimiyat vakillik organlarida faoliyat ko`rsatuvchi to`laqonli vakilidir. Respublikamizning mustaqilligini mustahkamlashda, huquqiy davlat qurishda, chin ma`nodagi demokratiyaga erishishda deputatlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi

Huquqshunos olim R.Qayumov "deputatning huquqiy maqomi-bu deputatlarning huquqiy normalarda belgilangan huquqlari, majburiyatlari va burchlari, ular faoliyatining shakllari va vakolatlarini yig`indisi demakdir"³ deb ta'kidlagan.

Shunday qilib, deputatning huquqiy maqomi ko`p hollarda unga yuklangan vazifalarni sifatli va belgilangan tartibda amalga oshirishi uning huquqiy kafolatini qay darajada belgilab berilganligi bilan chambarchas bog`liqdir.

Deputatlik maqomi bilan bog`liq masalalar tegishli tartibda huquqiy tartibga solinishi deputatlik faoliyatini to`siqlarsiz va samarali amalga oshirilishini ta`minlaydi, uning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta`minlash bilan bir qatorda deputatning xalq va jamiyat oldidagi majburiyatini kuchaytiradi.

Qonunchilik palatasi deputati va senator faoliyatining huquqiy asoslari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qator qonun normalarida: "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to`g`risida"gi, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to`g`risida"gi, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risi-

¹ Husanov O. Vakolat va mas'uliyat, u parlament faoliyatining asosidir. "Hayot va qonun" yuridik jurnali, 2005-yil I son, 3-bet.

² Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O`zbekiston, 2005-y. 9-10-betlar.

³ Qayumov R. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. -T.: Adolat, 1998-y. 300-bet.

da”gi, “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to`g`risida”gi, “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida”gi, “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to`g`risida”gi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to`g`risida”gi qonunlarida va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilab berilgan.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati senator faoliyatining huquqiy asoslarini ifodalovchi huquqiy normalar ichida konstitutsiyaviy normalar alohida ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning 87-88-moddalarida deputat va senatorlarning huquqiy maqomining umumiy asoslari belgilab berilgan, ya'ni deputat va senatorlarning asosiy vazifalari qayd qilinib, daxlsizlik huquqi, deputatlik va senatorlik faoliyatiga haq to`lash kabi umumiy masalalar tartibga solingan.

Deputat va Senator maqomi 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to`g`risida”gi qonunida kengroq va to`laroq tartibga solingan. Ushbu qonunda deputat va senatorlarning maqomiga tegishli barcha masalalarni - kimlar deputat va senator bo`lishi, ularning vakolat muddati, deputatlikni tasdiqlovchi vositalar, deputatning Oliy Majlisdagi ishi kabi masalalarni qonuniy asosda mustahkamlagani, deputatning huquq hamda majburiyatlarini, deputatlarning saylovchilar, siyosiy partiyalar bilan olib boradigan ishlarini, deputatning parlament so`rovini, deputat odobini o`z ichiga qamrab olgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatini huquqiy maqomini asosiy xarakterli tomonlarini aniqlashdan oldin, deputat - parlamentariy yoki o`zining saylovchilarining yoxud uning nomzodini ilgari surgan tashkilotning vakilimi degan savolning yechimini topish lozim. Bu savolga aniq javob berish uchun deputatlik mandatining tabiatini ochish lozim.

Shu qatorda bu savolning javobi deputatning huquqiy maqomining mazmuni, uning vazifalari va funksiyalari, davlat xizmatchilari tizimida tutgan o`rnini aniqlash bilan uzviy bog`liqdir.

Suverenitetni fransuz mutafakkuri J.J.Russo o`z asarida “Xalq deputatlari xalqning bevosita vakili bo`la olmaydilar, ular faqat undan vakolat olgan kishilardir”¹, deb ta'kidlagan. Xalq deputatlarga hokimiyat vakolatlarini beriladi, deputatlar esa o`z navbatida qonun qabul qilish orqali xalqning umumiy irodasiga muvofiq harakat qiladilar.

¹ Руссо Ж.Ж. Трактаты. –М.: Наука, 1969, С.222 .

Yuqoridagi fikrdan deputatning huquqiy maqomini belgilovchi muhim prinsip - ya'ni imperativ mandat prinsipi kelib chiqadi. Mandatning ikki turi: *imperativ deputat mandati va erkin deputat mandati* mavjud. Ular bir - birlardan farqlanishi, uning xususiyati deputat va unga ovoz bergan saylovchilarning o'zaro munosabatlari prinsiplari bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Deputat mandati muammosi deputat parlament a'zosi sifatida kimning xohish-irodasini ifoda etishi, parlament, uning palatalari qarorlarini qabul qilishda ishtirok etar ekan, u kimning manfaatlarini himoya qilishi lozim, o'zining parlamentdagi faoliyati uchun deputat o'z saylovchilari oldida siyosiy-huquqiy javobgar bo'ladimi, saylovchilar deputatlarga ijro etish majburiy bo'lgan yo'l-yo'riqlar berish va uni chaqirib olishga haqlimi, degan savollar bilan bog'liq.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, Qonunchilik palatasi deputatlari ham o'z saylovchilar manfaatlarini, ham butun xalq manfaatini aks ettiradilar, xalq irodasini ifoda etuvchi qonunlar qabul qiladilar.

Shuning uchun, Qonunchilik palatasi deputatlariga qonun chiqaruvchi organga saylangan, o'z saylovchilari oldida to'g'ridan-to'g'ri javobgar bo'lmagan, o'z faoliyatini ma'lum bir guruhning vakili sifatida emas, balki mamlakatning barcha fuqarolari, boshqacha so'z bilan aytganda butun xalqning vakili sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Shunday holatda deputat o'z harakatlarida juda keng mustaqillikka ega bo'ladi, o'z faoliyat ko'rsatishida shaxsiy fikr va qarashlariga asoslangan

holda butun xalq manfaatidan kelib chiqadi. Deputatning bunday maqomi huquqiy fan tizimida erkin mandat deb yuritiladi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning parlamentlarida deputatlar odatda professional tarzda ish olib boradilar va erkin mandatga egadirlar. Bu mamlakatlarning konstitutsiyalarida imperativ mandat harakati to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan. Masalan, Bolgariya Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "deputatlar nafaqat o'z saylovchilarining, balki butun xalqning vakili hisoblanadi. Majburiy vakolatlar belgilanishi qonuniy kuchga ega emas", - deb belgilangan. Bunday normalarni, Fransiya (27-modda), Italiya (67-modda), Ispaniya (67-modda) konstitutsiyalarida va Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonunida (38-modda) uchratish mumkin¹.

Ayrim xorijiy mamlakatlarida esa, imperativ mandat harakati Konstitutsiyada taqiqlanmagan bo'lsada, deputatlarning maqomini belgilashda

¹ Конституция мира : Сб. Конституции государства мира / Сост. У.Таджиханов, А.Сандов/ Т. 1997 том 1-8.

muhi**m** bo`lgan qonun hujjatlarida taqiqlangan. Xususan, Qozog`iston Respublikasining 1995 yil 16 oktabrdagi "Qozog`iston Respublikasi parlamenti va uning deputatlarining maqomi to`g`risida" ¹gi Konstitutsiyaviy Qonunining 24-moddasida parlament deputati biror-bir imperativ mandat bilan bog`liq emasligi va parlamentda o`z fikri bo`yicha ovoz berishi belgilangan.

Bunda ushbu mamlakatlar erkin mandat, ya'ni majburiy vakolatlar belgilanmasligi parlamentar tizimning demokratikligining asosiy belgisi ekanligidan kelib chiqishgan. Bunday mandatli deputat mamlakatning barcha fuqarolarini manfaatlarini ifodalaydi va o`z saylovchilarining irodasiga bevosita tobe hisoblanmaydi.

Asosiy qonunda ta'kidlanishicha, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga saylanish huquqiga 25 yoshga to`lgan O`zbekiston Respublikasining fuqarolari egadirlar. Deputatlar fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar. Senatorlar esa xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining qo`shma majlisida har bir hududiy birlikdan 6 nafardan saylanadilar. Senatning o`n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo`lgan hamda alohida xizmat ko`rsatgan eng obro`li fuqarolar orasidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiyaning 88-moddasiga ko`ra, Qonunchilik palatasi deputatlar va senatorlarga ularning deputatlik faoliyati bilan bog`liq xarajatlar qoplanadi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidani izohlashda shuni ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy huquqda deputatning huquqiy maqomi indemnitet va immunitet orqali tavsiflanadi¹.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining huquqiy asoslari va huquqiy maqomining tarkibiy qismi sifatida immunitet va indemnitet hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Indemnitet deputatga parlamentdagi ishi uchun turli moddiy rag`batlar berilishi tushuniladi, bunda avvalo, professional parlament faoliyati uchun haq-to`lovlar ajratilishi nazarda tutiladi².

Ko`pgina huquqiy adabiyotlarda indemnitetni deputatni o`z faoliyatini amalga oshirishda moddiy ta'minot bilan ta'minlash deb ta'riflash maqsadga muvofiqligi belgilangan³.

¹ Конституционный закон Республики Казахстан от 16 октября 1995. № 2529, О Парламенте Республики Казахстан и статусе его депутатов (с изменениями, внесенными Конституционными законами РК от 11.04.97г.№91-1; от 12.03.99г. № 348-1; от 06.05.99г № 377-1) <http://www/5 baiiov.ru/>.

² O'sha joyda

³ Конституция Российской Федерации: Энциклопедический словарь. В. А. Туманов, В.Е. Чиркин, Ю.А. Юдин и др. М. 1997. С.109

Indemnitetning moddiy jihati parlament faoliyati uchun to'lanadigan haq bilan bog'liq. Xorijiy mamlakatlarning amaliyoti parlament a'zolari o'z faoliyati uchun, qoida tariqasida, to'laqonli haq olishlarini ko'rsatadi. Mazkur haq miqdori odatda vazirlar, davlatning boshqa oliy mansabdor shaxslariga to'lanadigan maosh miqdoriga teng. Masalan, AQShda Kongress palatalarining a'zolari o'z xizmati uchun qonunda belgilangan va AQSH g'aznasi tomonidan to'lanadigan haq oladilar. 1990-yildan kongress a'zolariga 120 ming dollar miqdorida yillik maosh belgilangan¹. Rossiyaning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, parlament a'zolari, egallagan lavozimidan qat'i nazar (palatalarning raislaridan tashqari), federal vazirning oylik maoshi miqdorida haq oladilar. Rossiya parlamenti palatalarining raislari hukumat raisining maoshi miqdorida haq oladilar. Bundan tashqari, Rossiya parlamenti palatalarining a'zolariga har oyda ularning o'z vakolatlarini amalga oshirishlari bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar eng kam ish haqining besh baravari miqdorida qoplanadi.

Parlament a'zolari oylik maoshdan tashqari, qoida tariqasida, turli kompensatsiya to'lovlari olib turadilar, har xil moddiy va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanadilar. Masalan, AQShda parlament a'zolari o'z saylov okruglariga 15 marta safar qilishlari uchun yo'l xarajatlari qoplanadi. Ularga shuningdek Vashington va o'z okruglaridagi ofislarini mebel va texnika uskunalari bilan jihozlash xarajatlari ham qoplanadi. Parlament a'zolari saylovchilarga o'z faoliyati haqida axborot berish maqsadida tegishli materiallarni pochta orqali bepul yuborish huquqiga egadirlar. Ular telegraf va telefon aloqasidan ham bepul foydalanadilar. AQSH qonunlari to'plami, rang-barang ma'lumotnomalar parlament a'zolariga bepul beriladi. AQShda parlament a'zolari ijtimoiy imtiyozlar: o'z hayotini davlat hisobidan sug'urta qilish, o'z sog'lig'ini imtiyozli shartlarda sug'urta qilish, birinchi tibbiy yordamni bepul olish huquqiga ham ega bo'ladi. Har bir parlament a'zosi o'z xodimlari devoniga: okrug va shtatning kattaligiga qarab, Vakillar palatasining deputatgi 18 tagacha, senator esa – 20 dan 30 tagacha xodimdan iborat devonga ega bo'ladi².

Rossiyada ham parlament a'zolari ancha keng ijtimoiy va boshqa kafolatlarga ega. Ijtimoiy kafolatlarning hajmiga ko'ra ular federal vazirga tenglashtirilgan. «Rossiya Federatsiyasi Federal Yig'ilishining Federatsiya Kengashi a'zosi va Davlat Dumasi deputatining maqomi to'g'risida»gi 1994-yil 8-may Qonuniga muvofiq, ijtimoiy kafolatlarga, oylik maosh va qonunda nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan tashqari,

¹ Qarang: Лафитский В.И. Основы конституционного строя США. –М., 1998. С. 147.

² Qarang: Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т. 4. –М.: Бек. С.101.

quyidagilar kiritilgan: a) haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tili; b) parlament vakolatlarini amalga oshirish davrini davlat xizmati stajiga kiritish; v) parlament a'zosiga hamda uning oila a'zolariga tibbiy, sanitariya-kurort xizmatlari ko'rsatish; g) pensiya ta'minoti; d) o'z vakolatlarini amalga oshirish davrida kasallanish yoki mehnat layoqatini yo'qotishini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish; ye) Moskva shahrida turar joy maydoniga ega bo'lmagan parlament a'zolarini uy-joy va maishiy sharoitlar bilan ta'minlash.

Rossiya parlamentining a'zolari mehnat shartnomasiga binoan ishlaydigan beshtagacha va jamoatchilik asosida ishlaydigan qirqtagacha yordamchiga ega bo'lishga haqli. Bundan tashqari, Qonun parlament a'zolarining mehnat huquqini kafolatlaydi, ularni harbiy yig'inlar chaqirilishdan ozod qiladi, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ixtiyoridagi (shu jumladan hukumat) aloqa vositalaridan bepul foydalanish, taksidan tashqari, barcha transport vositalarida tekin yurish huquqini beradi, mehmonxonaga navbatdan tashqari joylashtirish huquqini kafolatlaydi.

Immunitet - deputatning daxlsizligi, ya'ni deputatlik faoliyatining eng muhim kafolatining huquqiy ifodasidir. Immunitet deputatning javobgarlikka tortilmasligi va daxlsizligini anglatadi¹.

Deputatning javobgarlikka tortilmasligi uning so'z va ovoz berish erkinligida ifodalanib, parlament a'zosi oliy vakillik organi majlislarida bildirgan fikri va bergan ovozi uchun javobgarlikka tortilmaydi. Javobgarlikka tortilmaslik deputat uchun imtiyoz emas, balki xalq manfaatini ifoda etishdagi mas'uliyatdir.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda immunitetni deputatlarga o'z faoliyatlarini tazyiqsiz, to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun qonun bilan belgilangan imtiyozlar yig'indisi deb aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunida² "Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyatiga asoslanadi", - deb belgilangan.

Bu holatni ham deputat faoliyatining huquqiy asosi va maqomining muhim belgisi sifatida qarash mumkin. Bu norma bir tomondan Oliy Majlisni professional parlament sifatida faoliyat ko'rsatishini belgilasa,

¹ Tojixonov U. Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. T.: 2001-y. 509 bet

² O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami. 2003-y 9-10-son.

ikkinchi tomondan har bir deputatga uning faoliyat ko`rsatishiga yordam beruvchi ta'minot bilan ta'minlanishi lozimligini keltirib chiqaradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga, ya'ni besh yil muddatga saylanadi. Shu boisdan deputatning vakolatlari saylangan kundan boshlanadi va Qonunchilik palatasi vakolatlari tugagandan so`ng yangi chaqiriq saylovlar o`tkazilganda tugaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining vakolatlari muddatidan oldin ham tugatilishi mumkinligi belgilangan. Xususan, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to`g`risida"gi Qonunining 4-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputatining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

- u o`z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish haqida yozma ariza bergan taqdirda;

- u qonunga ko`ra deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga nomuvofiq bo`lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;

- unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

- u chaqirib olingan taqdirda;

- sud uni muomalaga layoqatsiz deb topgan taqdirda;

- u sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo`qolgan deb topilgan yoxud vafot etgan deb e`lon qilingan taqdirda;

- u O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo`qotgan taqdirda;

- u vafot etgan taqdirda;

- palata tarqatib yuborilgan taqdirda.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesining, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining senator etib saylangan deputati vakolatlarining muddatidan ilgari tugatilishi uning senatorlik vakolatlari tugatilishiga olib keladi.

Alohida hollarda deputatning, senatorning vakolatlari tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat, senator degan yuksak nomga dog` tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko`rib chiqish uchun asos bo`lishi mumkin.

Deputatning, senatorning vakolatlarini boshqa shaxsga topshirish mumkin emas.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining huquqiy maqomining

muhim elementi - bu uning deputatlik huquq va majburiyatlaridir. Deputatning huquq va majburiyatlari doirasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zolarining maqomi to'g'risida"gi Qonunida to'liq aniqlangan. Shu bilan bir qatorda ularning huquqlari va majburiyatlari xususidagi moddalarni aniqlashtirish hamda ularning ro'yxatini alohida belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Aytish lozimki, deputatlarning ayrim vakolatlari, huquqlari ularning majburiyatlari sifatida ham tushunilishi mumkin.

Masalan, bunday norma sifatida deputatning o'ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqishi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko'rishi, fuqarolarni qabul qilish xususidagi normani ko'rsatish mumkin. Bu normani bir tomonidan deputatning huquqi, ikkinchi tomondan uning majburiyati sifatida baholash mumkin.

Mamlakatimiz qonunchiligiga asosan Qonunchilik palatasi deputatlari faoliyatlarini asosan ikki shaklda amalga oshiradilar.

Bu ularning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi faoliyati va saylov okruglaridagi faoliyatidir. Shu sababdan ham deputatlarning huquq va majburiyatlarini 2 guruhga, ya'ni Qonunchilik palatasidagi faoliyatiga doir hamda saylov okruglaridagi faoliyatiga doir huquq va majburiyatlari guruhiga bo'lanadi.

Deputatlar o'z vakolatlarining asosiy qismini o'zlari saylangan Qonunchilik palatasi orqali amalga oshiradilar.

Deputat va senatorlarning huquqlari va majburiyatlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida berilgan.

Bu qonunga ko'ra, palatasining majlisida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.

Shuningdek, deputat va senator:

- palataning organlariga saylash va saylanishga;
- palata majlisida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;
- palata majlisining kun tartibi, muhokoma qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga, qaror loyihalari va ularga tuzatishlar kiritishga, palata tomonidan tuziladigan organlarning shaxsiy tarkibi hamda saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;

- munozoralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;

- parlament so`rovi bilan murojaat etishga;
- o`z takliflarini asoslab berish uchun so`zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;
- palata majlisida raislik qiluvchiga palata majlisida muhokoma qilinayotgan masala yuzasidan o`z nutqi, taklif yoki mulohazasi matnini topshirishga;
- palata tarkibidagi o`zi a`zo bo`lgan tegishli organning qaroriga qo`shilmagan taqdirda o`z nuqtai nazarini palata majlisida bayon qilishga yoki bu haqida tegishincha Qonunchilik palatasining spikeriga, Senat raisiga yozma ravishda ma`lum qilishga;
- palataga hisobdor yoki uning nazorat ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini palata majlislarida eshitish to`g`risida taklif kiritishga;
- O`zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek, palata qarorlarining bajarilishini tekshirish haqida ko`rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;
- palata majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga;
- fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofoza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma`lum bo`lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo`yish choralarini ko`rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga hakli.

Deputatlar qayd etilgan huquqlaridan ijodiy yondashgan holda tashabbus ko`rsatib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ishida qatnashib, davlat, xo`jalik va ijtimoiy-iqtisodiy qurilishning muhim masalalarini hal etadilar, qonunlarni va Qonunchilik palatasi qarorlarini qabul qilishda ishtirok etadilar hamda davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ishini nazorat qilib boradilar.

Bu o`rinda, Qonunchilik palatasi deputatining eng muhim huquqlaridan biri sifatida Qonunchilik tashabbusi huquqini alohida ta`kidlash lozim. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining Qonunchilik tashabbusi huquqi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasida va tegishli qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Konstitutsiya va "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi Konstitutsiyaviy qonun normasiga ko`ra, Qonunchilik palatasi deputatlari Qonunchilik tashabbusi huquqiga egadirlar va bu huquq deputatlar tomonidan qonun loyahasini O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Deputat Qonunchilik palatasida Qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirib, yangi qonun ishlab chiqarish zarurligi to'g'risida masala qo'yish, yangi qonun loyihalarini, amaldagi qonunlarga o'zgartirish kiritish haqidagi takliflar bilan chiqishi mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritgan qonun loyihasini Qonunchilik palatasi tomonidan birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar loyiha matnini o'zgartirish yoki o'zi kiritgan qonun loyihasini chaqirib olish huquqiga ham egadir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining Qonunchilik tashabbusi huquqi tartibida kiritilgan taklifni Qonun loyihasining Qonunchilik palatasi qo'mitasi dastlabki tarzda ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasida qonun qabul qilish, yangi qonun loyihasini ishlab chiqishni boshlash haqida qaror qabul qilish, taklif qilingan qonun loyihasini takomiliga yetkazish uchun tegishli qo'mitalar va komissiyalarga yuborish, qonun loyihasini, taklifni asosli rad qilish singari qarorlardan birini qabul qilish bilan kafolatlanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari va senatorlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari ustidan nazoratni amalga oshirishning shakli sifatida parlament so'rovi huquqiga egadir.

Deputat va senatorning parlament so'rovi, qonunda ko'rsatilishicha¹, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish haqida qo'yilgan talabidir.

Parlament so'rovi parlament nazoratining eng samarali vositasidir. Shu sababli uni amaliyotda keng qo'llash lozim. U deputatlarga berilgan eng kuchli, ta'sirchan imkoniyatdir. Parlament so'rovi orqali deputatlar saylovchilarning talab va hoxishlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Parlament so'rovi deputat yoki bir guruh deputatlar tomonidan yozma ravishda yoki og'zaki ravishda kiritilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi deputati va senatorning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlari nomiga yo'llangan parlament so'rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas

Qonunchilik palatasining deputatlari talab qilib oladigan axborotni tegishli davlat organi, boshqa tashkilot, mansabdor shaxs murojaat olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay taqdim etishi kerak.

Deputatlar faoliyati amalga oshirilishining muhim shakllaridan biri ularning saylov okruglaridagi faoliyatidir. O'zbekiston qonunchiligida deputatlarning bu sohadagi faoliyati uchun ham ma'lum bir huquqlardan foydalanish imkoni yaratilgan. Bu deputatlarning ularni saylovchilar bilan doimiy mustahkam aloqani o'rnatishi bilan bog'langan deb hisoblash mumkin¹.

Xususan, deputat saylovchilar bilan aloqa o'rnatar ekan, ularni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ishi bilan batafsil tanishtirib boradi, bunda deputatning saylovchilar bilan uchrashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonuniga asosan deputat saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun zarur shart-sharoit bilan ta'minlanishi shart.

Ushbu qonunning 9-moddasiga asosan "Deputatlarga saylovchilar bilan olib boriladigan ishlar uchun Qonunchilik palatasining reglamentida belgilanadigan tartibda muayyan kunlari ajratiladi", - deb ko'rsatilgan.

Deputatlar saylov okruglarida o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun tegishli hokimiyat vakillik organi nazorati ostidagi tashkilotlarda o'z saylov okrugidagi fuqarolarning muhim manfaatlariga taalluqli bo'lgan har qanday masala ko'rib chiqilishi chog'ida ishtirok etish, okrug saylovchilari bilan yig'ilishlar, mehnat jamoalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalarning tashkilotlari bilan yig'ilish o'tkazish huquqiga egadir.

Amaldagi Qonunchilikda deputatlarning o'z saylovchilaridan tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishi, ularni o'z vaqtida hal etish choralarini ko'rishi, saylovchilar oldida o'z faoliyati xususida vaqti-vaqti bilan axborot berib turishi ko'rsatilgan. Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati yiliga kamida bir marta o'z ishi to'g'risida saylovchilarga o'z faoliyati va o'zi saylangan Qonunchilik palatasi faoliyati haqida axborot berib turishi shart.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa, ijro etuvchi hokimiyat organlari deputatning iltimosiga ko'ra bino ajratilishini tashkil etishlari, deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari o'tkaziladigan, deputat tomonidan fuqarolar qabul qilinadigan vaqt va joy haqida fuqarolarga xabar berishlari, qabul va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o'zlarining mas'ul vakillarini yuborishlari, shuningdek, deputatning joylardagi ishiga ko'maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar

¹ To'laganov A. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. Darslik. -T.: TDYI, 2002. 161-bet.

ko`rishlari lozim.

Shuningdek, deputat o`z deputatlik faoliyatiga doir masalalar yuzasidan matbuot organlarida chiqish, radio va televideniye orqali so`zlash borasida ham ma`lum darajada imtiyozli huquqlarga egadir.

Fuqarolarning huquqlari va manfaatlari buzilgan taqdirda yoki qonuniylik buzilgan boshqa hollarda deputat davlat hokimiyatining vakili sifatida, o`sha joyning o`zida bunday qoidabuzarliklar to`xtatilishini talab qilishga yoki tegishli organlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilishga haklidir. Qonunbuzarlik holati deputatning talabi bilan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ yoki nazorat organining vakili tuzgan bayon-nomada qayd etilishi mumkin¹.

Deputat talab bilan murojaat etgan davlat organlarining mansabdor shaxslari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining rahbarlari, korxonalar va tashkilotlarning ma`muriyati, shuningdek, ichki ishlar vazirligi tizimi xodimlari qonun buzilgan hollarni bartaraf etish va aybdorlarni javobgarlikka tortish uchun zudlik bilan chora ko`rishlari, ko`rilgan choralar haqida deputatga ma`lum qilishlari shart.

Qonunchilik palatasining faoliyat olib borishida ham deputatlar fraksiyalari salmoqli rol o`ynaydi. Xususan, O`zbekiston Respublikasining "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to`g`risida"gi Qonuniga ko`ra "Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyalardan ko`rsatilmagan deputatlar tuzishga haqlidir" deb belgilangan. Ushbu normani ham deputatlar-ning huquqlaridan biri sifatida qarash lozim.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 4-apreldagi 351-II sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2002-yil 27-yanvarda o`tkazilgan O`zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo`yicha amalga oshiriladigan Qonunchilik ishlarining asosiy yunalishlari"da qonunda fraksiyalarni tuzish tartibi, ularning parlament faoliyatidagi ishtiroki shakllari nazarda tutilishi kerakligi ko`zda tutilgan.

Ta`kidlash joizki, ikki palatali parlament tizimida faqat quyi palatagina siyosiylashgan xususiyatga ega bo`lgani bois, deputatlar birlashmalari (siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlari) aynan mazkur palatada tuziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar hamda deputatlar guruhlari shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin. Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog`liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining uch shakli - fraksiyalar va deputatlar guruhlari mavjud.

¹ Qayumov R. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. -T.: Adolat .1998. 300-310-betlar.

Fraksiya - Qonunchilik palatasida siyosiy partiyadan ko`rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini ifodalash maqsadida tuziladi.

Deputatlar guruhleri esa, Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko`rsatilmagan deputatlar tomonidan tuzilishi mumkin.

Bloklar-fraksiyalar, deputatlar guruhleri birlashuvi asosida tuzilishi mumkin.

Siyosiy partiyadan ko`rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo`lishi mumkin yoki hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka haqli.

Ushbu qonunga ko`ra, Qonunchilik palatasining kamida to`qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega³.

Fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- fraksiya yoki deputatlar guruhining ta'sis yig`ilishini o`tkazish;

- fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish haqida ta'sis bayonnomasini qabul qilish;

- fraksiya yoki deputatlar guruhining rahbarini saylash.

Konstitutsiyaviy qonundagi e'tiborga molik tomon shundaki, deputatlar birlashmalarining, ular hoh fraksiya, hoh guruh tarzida shakllanganidan qat'i nazar, ro'yxatdan o'tkazilishi belgilangan. Bu esa, birinchidan deputatlar uyushqoqligini huquqiy kafolatlasa, ikkinchidan, parlament tuzilmalari ishining samaradorligini oshiradi.

Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o`rinbosarlari o`z vakolatlarini bajarish davrida siyosiy a'zolikni to`xtatib turadilar, shuningdek ular fraksiya yoxud deputatlar guruhi tarkibiga kirishlari mumkin emas.

Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo`lishi mumkin. Lekin, bundan Qonunchilik palatasining deputatlarining har biri fraksiya yoki deputatlar guruhi a'zosi bo`lishi kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Binobarin, saylangan deputat hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka ham haqlidir.

Qonunchilik palatasi deputatining fraksiyaga yoki deputatlar guruhiga kirishi to`g`risidagi qaror ularning majlislarida qabul qilinadi.

2005-yilning 26-yanvar kuni Qonunchilik palatasiga siyosiy partiyalardan saylangan deputatlarning majlislari bo`lib o`tib, mavjud siyosiy partiyalarning barchasi o`z fraksiyalarini tuzishga muvaffaq bo`ldilar. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O`zbekiston liberal demokratik partiyasining 4 nafar a'zosidan iborat, Xalq demokratik partiyasining 28 nafar deputatidan iborat, O`zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasining 18 nafar vakilidan iborat, O`zbekiston "Milliy tiklanish" par-

tiyasining 11 nafar deputatidan iborat, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 10 nafar saylangan deputatidan iborat fraksiyalar tuzildi hamda fraksiyalar rahbarlari saylandi¹.

Qonunchiligimizning e'tiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhlarining vakolatlari doirasi siyosiy partiyalar fraksiyalari vakolatlari doirasiga tenglashtirildi. Ayni chog`da, ularning fraksiyalar bilan bir qatorda va ular bilan teng ravishda ish yurita olishining huquqiy asosi yaratildi. Bular, xususan, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to`g`risida"gi Konstitutsiya-viy qonunning 25-moddasida mufassal ifodasini topdi.

Deputatlar fraksiyasi yoki deputatlar guruhi tarkibiga kirgan Qonunchilik palatasi deputati ma'lum bir darajada qo`shimcha huquqlardan foydalanish imkoniga ega bo`ladi, deb aytish mumkin. Chunki, deputat fraksiya yoki guruh tarkibida:

- Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko`rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritish;

- Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so`z berilishi huquqidan foydalanish;

- kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to`g`risida masala qo`yish;

- Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etish;

- Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini Qonunchilik palatasi deputatlari o`rtasida tarqatish;

- Qonunchilik palatasining Kengashi, qo`mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etish;

- Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan o`z takliflarini kiritish;

- hukumat a'zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to`g`risida masala qo`yish;

- fraksiyaning, deputatlar guruhining faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib olish huquqiga ham ega bo`ladi.

¹ Husanova M. Ikki palatali parlament: deputatlar birlashmalari. // "Hayot va qonun", 2005. 1. 15-bet

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, deputatlik faoliyatining kafolatlari qonun bilan muhofaza qilinadi va uni buzganlik uchun tegishli javobgarlik choralari belgilanganligi ham ular o'z huquqlaridan to'la imkon darajasida foydalanishini kafolatlaydi.

Qonunchilik palatasi deputati va senator qaysi qo'mitasi, komissiyasi tarkibiga, kelishuv komissiyasi tarkibiga saylangan bo'lsa, shu qo'mita, komissiyaning majlislarida qatnashishi, ovoz berishda Qonunchilik palatasining reglamentlarida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etishi shart. Bu majburiyat juda muhim ahamiyatga ega.

Chunki, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Qonunchilik palatasining majlislari, agar ularning ishida palata deputatlari umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi². O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini; konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritishda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi shart. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari, agar ularda qo'mita a'zolarining kamida yarmi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Deputat o'z vakolatlarining ko'pchiligini Qonunchilik palatasi majlislarida amalga oshiradi¹. Deputat Qonunchilik palatasi ishida doimiy ravishda va intizomli qatnashishi juda katta ahamiyatga ega, chunki bir qism deputatlar majlislarga kelmay qolsalar qonun talab qilgan kворum yig'ilmaydi va Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini to'liq amalga oshira olmay qoladi.

Shu sababdan, Qonunchilik palatasi, qo'mita, komissiya, kelishuv komissiyasi majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, deputatlar bu haqda Qonunchilik palatasining Spikeriga, qo'mita, komissiya raisiga, kelishuv komissiyasining tegishli palatadan saylangan hamraisiga oldindan xabar qilishi shart.

Agar Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyatiga asoslanganligini e'tiborga olsak, intizomning bu tarzda buzilishi Qonunchilik palatasi faoliyatini ma'lum bir darajada izdan chiqarishgacha olib kelishi mumkin.

Shu sababli, deputatning Qonunchilik palatasiga majlislariga bir necha marotaba uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi holatlari bo'yicha ham deputatning vakolat muddatlarini ilgaridan tugatishni qonun darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ To'laganov A. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. Darslik. -T.: TDYI, 2002. 160-165-betlar.

Qonunchilik palatasi deputati vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida bir marta, saylovchilarga o'z faoliyati haqida axborot berishi shart.

Deputat o'z maqomidan fuqarolarning, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanishi mumkin emas.

Deputatlik odobi buzilgan taqdirda deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala tegishli palata tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan palataning organi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari ham mumkin emas. Mazkur konstitutsiyaviy qoida deputatlikning boshqa mansab bilan nomutanosibliги prinsipini mustahkamlaydi¹. Bir qator mansab lavozimlarining deputatlik bilan nomutanosibliги prinsipi deputatning moliyaviy va iqtisodiy jihatdan muayyan ta'sir doirasiga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan. Deputat bunday omillar ta'siridan holi bo'lsa, xususiy manfaatlarini cheklay olsa, xalq, jamiyat manfaatlarini xolis va to'la-to'kis ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agarda yig'ilishda raislik qiluvchi so'zga chiqqan deputatga murojaat qilsa, u o'z nutqini darhol to'xtatishi lozim.

Qonunchilik palatasi reglamentida majburiyat va javobgarlik turlarini aniq belgilanishi, ularni qo'llash tartibi belgilanishi bevosita palata ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, deputatlarning faolligini oshirishga, deputatlik etikasiga qat'iy rioya qilishiga olib keladi.

2-§. O'zbekiston Respublikasida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi faoliyatining kafolatlari

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Qonunida deputat va senatorlarning o'z vakolatlarini to'liq hajmda va mustaqil ravishda amalga oshirishlar uchun ma'lum bir darajada kafolatlar belgilangan.

Ayrim huquqshunos olimlar “deputatlik kafolatlarini amalga oshirishga imkon yaratadigan sharoitlar yig'indisi deputatlik kafolatlari” deb atalishini ta'kidlaganlar. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, har bir deputatga o'z vakolatlarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinadi.

Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va senatorning sha'ni va

¹ Tojixonov U va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: Sharq, 2001. 510-b.

qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy, jinoiy javobgar bo'ladilar. Deputat va senatorni haqorat qilgan, unga nisbatan tuhmat qilgan, unga ataylab soxta ma'lumot bergan mansabdor shaxslar tegishli javobgarlikka tortilishi ham qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda parlament deputatlarini sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish aybni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Xususan, Finlyandiya qonunchiligiga ko'ra, parlament, deputatini sessiyaga borish yoki qaytish davrida uni deputatligini bilgan holda sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilib, haqorat qilgan shaxslarni javobgarlikka tortishda ushbu holat og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanishi lozimligi belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputati va senator o'zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega.

Deputatning daxlsizligi uning huquqiy holatini belgilanishida muhim ahamiyat kasb etishi shunda ko'rinadiki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati senat a'zosining daxlsizlik huquqidan foydalanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (88-modda) mustahkamlanganligidan ko'rish mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senat a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini, shaxsini muhofoza etish maqsadida, uning muayyan yuridik javobgarlikka tortilmasligini nazarda tutadi.

Tegishli palataning rozilgisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek, uning uy-joyi, xizmat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transporti vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek, unga tegishli hujjatlarni ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, qayd etilgan qonunda deputat, senator tegishli palatada ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas, shu jumladan vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat, senator haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygani bo'lsa, u daxlsizlik

huquqidan mahrum qilingan taqdirda javobgarlikka tortiladi.

Deputatlar daxlsizligiga taalluqli bu normalarni boshqa Qonun normalarida ham uchratish mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham deputatlar daxlsizligi bo'yicha aniq tartib belgilangan.

Respublikamizda deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining deputatni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi taqdimnomasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqiladi, Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig'idagi davrda esa, uning Kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, Qonunchilik palatasi Kengashining ushbu masalaga doir qarori keyinchalik Qonunchilik palatasining sessiyasida tasdiqlanadi. Senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala Senat tomonidan uning majlisida, Senatning majlislari oralig'idagi davrda esa, Senatning Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning yoki palatalar Kengashlarining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori darhol O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuboriladi.

Deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida Qonunchilik palatasiga yoki Senatga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatasining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holat hisoblanadi. Tegishli ishni tugatish to'g'risidagi qaror faqat yangi ochilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

Deputat, senatorlik faoliyatining tashkiliy kafolalariga deputat va senatorning mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinishi, deputat va setatorga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasiga asosan deputat va senator o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko‘rsatib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga moneliksiz kirish huquqidan, shuningdek ularning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadilar.

Qonun normalaridan kelib chiqqan holda deputat va senatorlik faoliyatining kafolatlarini ma‘lum bir guruhlariga ajratish mumkin. Xususan, bu kafolatlarni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va shaxsiy daxlsizlik kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senat a‘zosi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari sifatida harbiy yig‘inlardan ozod qilish, transportda tekin yurish, xizmat turar joyi berish, pul to‘lanadigan yillik ta‘tillarni berilishini va mehnat huquqlari kafolatlarini ko‘rsatish mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasiga asosan, deputat senatorning Qonunchilik palatasida ishlagan vaqti umumiy ish stajiga va avvalgi ixtisosi bo‘yicha ish stajiga qo‘shib hisoblanishi ko‘zda tutilgan.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarqatib yuborilgan taqdirda deputatga ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanadi hamda ishga joylashish davrida qonunda belgilangan tartibda o‘rtacha ish haqi saqlanib qolinadi.

Deputat va senatorga har yili o‘ttiz olti ish kunidan iborat haq to‘lanadigan mehnat ta‘tili beriladi. Har yilgi mehnat ta‘tili, odatda, Qonunchilik palatasi sessiyalari oralig‘idagi davrda beriladi.

Deputat, senator O‘zbekiston Respublikasi hududida havo, temir yul va taksi hamda shahar yo‘lovchilar transportidan tashqari avtomobil yo‘lovchi transportida tekin yurish huquqi kafolatlangan.

Shuningdek, deputat, senator aeroportlar va aerovokzallar, temir yo‘l vokzallari hamda stansiyalarning rasmiy shaxslar va delegatsiyalar uchun mo‘ljallangan zallaridan tekin foydalanish huquqiga ega.

O‘z o‘rnida temir yo‘l vokzallari va stansiyalarining chipta sotadigan kassalari, fuqaro aviatsiya agentligi yoki aeroportlar deputat o‘z guvohnomasini ko‘rsatganidan so‘ng unga poyezdning yotoqli yoki yumshoq o‘rindiqli vagonidan, samolyot salonidan navbatsiz joy berishlari shart.

Bundan tashqari, chiptasida o‘rindiqlarning tartib raqami ham ko‘rsatiladigan shaharlararo, shuningdek shahar atrofiga qatnaydigan avtobuslarda deputat avtovokzallar va avtostansiyalarning kassalaridan navbatsiz

olinadigan tekin chipta bilan yurish huquqi kafolatlangan.

Deputat, senator har bir transport turida qo`l yukini tekin olib yurish huquqiga egadir.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining raisi, rais o`rinbosarlari, qo`mitalari va komissiyalarining raislari, parlamentlararo aloqalar bo`limining mudiriga o`z faoliyatlarini yanada to`laroq amalga oshirish maqsadida diplomatik pasportlar berilishi ham qonun normalarida belgilab qo`yilgan.

Qonunchilik palatasi deputati, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga Toshkent shahrida turar joyga ega bo`lmasa, ular bergan arizalariga ko`ra vakolat muddatiga oila a`zolari bilan yashash uchun Toshkent shahrida xizmat turar joyi beriladi.

Lekin shu bilan bir qatorda deputat, senator faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari sifatida deputatning hayotini majburiy sug`urtalash, deputat, senatorni vakolat muddati tugagandan so`ng uning saylangunga qadar ishlagan lavozimiga tavsiya etish yoki bu lavozimga teng ish bilan ta`minlash, tibbiy va maishiy xizmat ko`rsatishni ta`minlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni qonunda mustahkamlash lozim.

3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi

Davlat hokimiyati vakillik organlari tizimida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi muhim o`rin tutadi. Viloyat va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga 60 ta, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga 30 ta deputatlar bevosita xalq tomonidan to`g`ridan-to`g`ri saylanadilar.

Viloyat, tuman va shahar Kengashining deputati faoliyatining huquqiy asoslari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to`g`risida"gi qonunlarida o`z ifodasini topgan.

Deputat tegishli xalq deputatlari Kengashining vakolatlari muddatiga saylanadi. Deputatning vakolatlari muddatidan ilgari tugatish asoslari "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to`g`risida"gi qonunlarining 3-moddasida ko`rsatib o`tilgan.

Alohida hollarda deputatning vakolatlari tegishli xalq deputatlari Kengashi qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat degan yuksak nomga dog` tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko`rib

chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi qonunlarida deputatning huquqlari ko'rsatib o'tilgan.

Qonunga ko'ra deputat:

- tegishli xalq deputatlari Kengashining doimiy hamda muvaqqat komissiyalariga saylash va saylanishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida munozaralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;

- deputat so'rovi bilan murojaat etishga;

- o'z takliflarini asoslab berish uchun so'zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida raislik qiluvchiga majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi tarkibidagi o'zi a'zo bo'lgan organning qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida bayon etishga yoki bu haqda mazkur xalq deputatlari Kengashi rahbariga yozma ravishda ma'lum qilishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashiga hisobdor yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini mazkur xalq deputatlari Kengashining majlislarida eshitish to'g'risida taklif kiritishga;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek, tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishini tekshirish to'g'risida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

tegishli xalq deputatlari Kengashi majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga;

saylovchilar bilan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, siyosiy partiya tashkiloti bilan uchrashuvlar o'tkazishga;

fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa

hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralari ni ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga haqli.

Deputat huquqlari bilan bir qatorda majburiyatlarga ham ega . Ya'ni, deputat tegishli xalq deputatlari Kengashining majlislarida hamda mazkur Kengash tomonidan tuzilgan qaysi komissiya tarkibiga saylangan bo'lsa, shu komissiyaning majlislarida qatnashishi, ovoz berishda tegishli xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etishi shart.

Deputatning tegishli xalq deputatlari Kengashining hamda qaysi komissiya tarkibida bo'lsa, shu komissiyaning majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, bu haqda mazkur xalq deputatlari Kengashi yoki komissiya rahbariga oldindan xabar qilishi shart.

Xalq deputatlari Kengashining deputati o'z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan muntazam aloqa bog'lab tura-di, tegishli xalq deputatlari Kengashida ularning manfaatlarini ifoda etadi.

Deputat belgilangan kunlarda fuqarolarni qabul qiladi. Saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko'radi.

Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida ikki marta saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot beradi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari deputatga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun zarur shart-sharoit ta'minlaydi. Saylovchilarning ishonchini oqlay olmagan deputat qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin.

Deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovi yuborishga haqlidir.

So'rovnoma og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari deputat so'roviga javobni deputatga mazkur so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yuboradilar.

Sudlarning raislariga, prokurorlarga, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlariga yo'llangan deputat so'rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Deputat so'rovlari bo'yicha axborot tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida muhokama qilinadi.

Deputat xalq vakili ekan, albatta odob qoidalariga qat'iy rioya etishi lozim. Deputatlik odobi buzilgan taqdirda deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan yoki uning topshirig'iga ko'ra tegishli xalq deputatlari Kengashining organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xalq deputatlariga o'z vakolatlarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan muhofaza qilinadi.

Deputatning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy, jinoiy yoki o'zga tarzda javobgar bo'ladilar. Deputatni haqorat qilish, shuningdek, unga nisbatan tuhmat qilish qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga qanaqa tarzda bo'lmasin ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Deputat oldidagi o'z vazifalarini bajarmaydigan, uning ishiga to'sqinlik qiladigan, bila turib unga yolg'on axborot beradigan, deputat faoliyatining kafolatlarini buzadigan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Deputat o'zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi.

Tegishli xalq deputatlari Kengashining roziligisiz deputat mazkur hududda jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Deputat o'zining deputatlik daxlsizligi to'g'risidagi masala ko'rib chiqayotgan majlisda ishtirok etishga haqli.

Deputat tegishli xalq deputatlari Kengashida tegishli masala yuzasidan ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi, shu jumladan, vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'yan bo'lsa, u daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi.

Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala tegishincha viloyat, tuman, shahar prokurorining yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga binoan xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi. Senator etib saylangan deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda hal etiladi.

Deputatni javobgarlikka tortishga rozilik olish to'g'risida quyi prokuror tomonidan kiritilgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin.

Deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi prokuror taqdimnomasi tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi, sessiyalar oralig'idagi davrda esa mazkur xalq deputatlari Kengashi rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilingan qaror keyinchalik tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashining deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori darhol tegishli prokurorga yuboriladi.

Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan prokuror ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida tegishli xalq deputatlari Kengashiga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

Tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holat hisoblanadi.

Xalq deputatlari Kengashining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, yuqori turuvchi prokuror tegishincha yuqori Kengashga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qarorni bekor qilish va masalani tegishli xalq deputatlari Kengashi qayta ko'rib chiqishi uchun topshirish to'g'risida taqdimnoma kiritishga haqlidir.

Agar deputat o'zi xalq deputatlari Kengashi deputati bo'lgan viloyat, tuman yoki shahar hududidan tashqarida jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish talab qilinmaydi.

Deputat o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko'rsatib, tegishli viloyat, tuman va shahar hududida joylashgan korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga moneliksiz kirish huquqidan,

Deputat qonunchilarni javobgarlikka olib kelish darajasida buzsa, o'z xatti-harakatlari bilan deputatlik nomiga dog' tushirsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi obro'siga putur yetkazsa, o'z deputatlik vazifasini bajarishga mas'uliyat bilan yondashmasa deputatlikdan chaqirib olinishi mumkin.

Qonun hujjatlarini, axloq va deputatlik odobi normalarini buzgan, o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmayotgan deputatni, senatorni chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaror tegishincha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) tomonidan qabul qilinadi.

Deputatni, senatorni chaqirib olish masalasini ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar va prokuratura tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan so'rovi ham asos bo'lishi mumkin.

Deputatning, senatorning qonun hujjatlarini buzganligi dalillariga oid materiallar xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) tomonidan tegishincha viloyat, tuman, shahar prokuroriga yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ushbu masala yuzasidan xalq deputatlari Kengashining, Qonunchilik palatasining yoki Senatning deputatlik odobi qo'mitasiga (komissiyasiga) xulosa taqdim etish uchun topshiriladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senat (Senat Kengashi) deputatlik odobi qo'mitasining (komissiyasining) va prokurorning xulosalarini eshitish yakunlari bo'yicha deputatni, senatorni chaqirib olish haqidagi masalaning qo'yilishi asosligi yoxud asossizligi to'g'risida qaror chiqaradi.

Chaqirib olish to'g'risidagi masalasi qo'yilgan deputatning, senatorning hamda mazkur masalaga doir materiallarni o'rgangan va tayyorlagan prokurorning fikri xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining, Qonunchilik palatasining yoki Senatning (Senat Kengashining) majlisida eshutilishi mumkin.

Chaqirib olish to'g'risidagi taklif asosli deb e'tirof etilgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organining tegishli qarori deputatni, senatorni chaqirib olish bo'yicha ovoz berishni tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra, tegishli davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisida saylangan senator eng avvalo tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining deputati bo'lib, u tegishli davlat hokimiyati vakillik organining deputati sifatida chaqirib olinadi.

Markaziy saylov komissiyasi Senatning senatorni chaqirib olish

zarurligi to`g`risidagi qaroriga muvofiq senator tegishli davlat hokimiyati vakillik organi deputati etib saylangan saylov okrugida ovoz berishni tashkil etadi. Bunda ovoz berish deputatni chaqirib olish bo`yicha o`tkaziladi.

Tegishli davlat hokimiyati vakillik organlarining qo`shma majlisida saylangan senator deputatlik maqomini yo`qotganidan keyin, tegishincha deputatni chaqirib olish bo`yicha ovoz berish natijalari ro`yxatga olingan paytdan e`tiboran senatorlik maqomini ham yo`qotadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorni chaqirib olish qonunda nazarda tutilgan asoslar bo`yicha amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorni chaqirib olish O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan amalga oshiriladi.

Deputatni chaqirib olish haqida qaror yetarli asoslar bo`lganda, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadi. Bu qarordan so`ng chaqirib olish jarayoni boshlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi chaqirib olish to`g`risidagi qaror qabul qilish masalasini o`z tashabbusi bilan ham hal qilishi mumkin.

Shuningdek, bunday qaror qabul qilinishiga huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va prokuratura organlari tomonidan belgilangan tartibda bergan so`rovlari ham asos bo`lishi mumkin.

Deputatning qonun hujjatlarini buzgani haqida ma`lumot Qonunchilik palatasi tomonidan Respublika Bosh prokuroriga dastlabki tarzda ko`rib chiqish, shu masala yuzasidan Qonunchilik palatasi deputatlik odobi qo`mitasiga (komissiya) xulosa taqdim etish uchun topshiriladi. Prokuror xulosasi va deputatlik odobi komissiyasi (qo`mita) xulosalarini eshitish yakuni bo`yicha deputatni chaqirib olish to`g`risida qaror qabul qilinadi. Mazkur masalani o`rgangan prokuror fikri Qonunchilik palatasi majlislarida eshitalishi mumkin.

Chaqirib olish taklifi asosli deb topilib, tegishli qaror qabul qilingach, ushbu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Deputatni chaqirib olish tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlari, prokuror chiqishi mumkin. Chaqirib olish to`g`risidagi qaror Qonunchilik palatasi tomonidan prokuror va deputatlik odobi komissiyasi (qo`mita)ning xulosalariga asosan qabul qilinadi.

Markaziy saylov komissiyasi deputatni chaqirib olish to`g`risidagi qarorga binoan shu deputat saylangan okrugda ovoz berishni tashkil etadi. Deputatlarni chaqirib olish ular saylangan okruglarda yashirin ovoz berish yo`li bilan amalga oshiriladi. Deputatni chaqirib olish bo`yicha ovoz

berishni Markaziy saylov komissiyasi saylov qonunlariga asosan tashkil qiladi. Markaziy saylov komissiyasi chaqirib olish to'g'risidagi qarorni olgach, o'n kunlik muddat ichida deputatni chaqirib olish bo'yicha okrug komissiyasini tuzilishini ta'minlaydi va ovoz berish vaqti hamda joyini tayinlaydi. Bu haqda qaror qabul qilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi xabardor qilinadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, chaqirib olindigan deputat huquqi qonun bo'yicha kafolatlanadi. Bu chaqirib olish uchun asoslar mavjud materiallar uch kun ichida deputatga hujjatlar ilova qilingan holda xabar qilinishida, chaqirib olish uchun masalasi quyilgan deputat saylovchilar bilan uchra-shishga, saylovchilarning yig'ilishlarida, Qonunchilik palatasi sessiya va majlislarida chaqirib olish masalasi ko'rilayotganda ishtirok etish va o'zini himoya qilib so'zga chiqishga haqli ekanida namoyon bo'ladi.

Chaqirib olish masalasi qo'yilishiga sabab bo'lgan yolg'on axborotlar bila turib taqdim etilgan bo'lsa, bunday axborot taqdim etgan shaxs qonunga muvofiq jazolanadi.

Chaqirib olish haqida ovoz berishni tashkil qilish okrug komissiyasi zimmasiga yuklatiladi. Ovoz berish o'tkazish uchun, ovoz berishga kechi bilan yigirma besh kun qolganda ovoz berish uchastkalari, kechi bilan yigirma kun qolganda uchastka komissiyalari tuziladi. Okrugdagi saylovchilarning ro'yxati ovoz berish kuniga kechi bilan o'n kun qolganda tanishish uchun taqdim qilinadi.

Chaqirib olish **bulleten** asosida o'tkazilib, unda deputatning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, lavozimi (mashg'ulotning turi) ko'rsatiladi. Bulletin matnida "Deputatning chaqirib olinishini yoqlayman" va "Deputatning chaqirib olinishiga qarshiman" degan so'zlar alohida-alohida yozilib, har bir qatorning ro'parasiga bo'sh kataklar joylashtiriladi.

Saylovchi shu kataklardan biriga maxsus belgi qo'yadi. Ovoz berish uchastkalari va komissiyalarini tuzish, ularning vakolatlari, saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, ovoz berishni o'tkazish qonunga muvofiq belgilanadi. Okrug va uchastka komissiyalarining vakolatlarini chaqirib olish bo'yicha ishlar yakunlar chiqarilgandan so'ng tugaydi. Ovoz berish o'tkazilgan kunning ertasiga okrug komissiyasi majlisida ovoz berish natijalari aniqlanib, bayonnomaga kiritiladi. Bayonnoma Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pi chaqirib olishni yoqlab ovoz bergan bo'lsa yoki ovoz berishda ro'yxatdan o'tgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kami ovoz berishda ishtirok etgan bo'lsa, deputatni chaqirib olish rad etilgan hisoblanadi.

Ovoz berishda yoqlangan va qarshi ovozlar teng bo`lib qolgan vaqtda deputat o`z vakolatini saqlab qoladi. Tegishli saylov komissiyalari okrug komissiyasidan olingan bayonnoma asosida ovoz berish natijalarini besh kunlik muddat ichida ro`yxatga oladi va bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi. Ovoz berishda qonun talablari buzilgan taqdirda takroran saylov o`tkazilishi mumkin. Kechi bilan ikki haftalik muddat ichida ovoz berish natijalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga xabar qilinadi. Ovoz berish natijasida deputat chaqirib olingan bo`lsa, ovoz berish natijalari ro`yxatga olingan paytdan boshlab deputatning vakolati muddatidan ilgari tugatilgan hisoblanadi. Deputatni chaqirib olish bilan bog`liq xarajatlar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Deputatni chaqirib olish haqidagi qaror tegishli asoslar bo`lganda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadi. Lekin, bu qaror deputatning vakolatini tugatmaydi. Ularning vakolati ovoz berish natijasiga ko`ra tugatilishi mumkin. Qonunchilik palatasi qanday qaror qabul qilganidan qat`i nazar, hal qiluvchi so`zni saylovchilar aytadi. Ularning fikri deputatning taqdirini uzil-kesil hal qiladi.

“O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a`zolarining maqomi to`g`risida”gi qonunning 4-moddasiga binoan, alohida hollarda deputat vakolati Qonunchilik palatasi qaroriga binoan tugatilishi mumkin. Deputat degan yuksak nomga dog` tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko`rib chiqish uchun asos bo`ladi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, deputatning vakolatini muddatidan avval tugatish deputatga nisbatan qo`llaniladigan og`ir majburiy choradir. Bu esa deputatlikning katta mas`uliyat ekanini ko`rsatadi.

XII BOB.OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA SENAT TARKIBIY TUZILMALARI

1-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining tarkibi va ular faoliyatini tashkil etish

Parlamentarizm amaliyoti shuni ko'rsatadiki, parlament palatalari palata ishiga rahbarlik qiluvchi: palata majlislarini o'tkazuvchi, palata devonini boshqaruvchi o'z organlarini tuzadi. Qoida tariqasida, mazkur organlar jumlasiga palatalarning raislari va tegishli byurolar (prezidiumlar, kengashlar) kiradi. Mazkur organlarni saylash ba'zi bir hollarda, masalan, Italiyada Konstitutsiyaning o'zida (Italiya Respublikasining Konstitutsiyasi, 63-modda) nazarda tutilgan bo'lsa, boshqa hollarda palatalarning raislarigina tilga olib o'tiladi, palatalarning ishini tashkil etuvchi kollegial organlar (palata byurosi, kengashi) haqida esa so'z yuritilmaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashining ish tajribasini tahlildan o'tkazish va umumlashtirish Qonunchilik palatasi va Senati Kengashi ishini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'rib chiqilayotgan kollegial organning huquqiy maqomi shu bilan belgilanadiki, parlamentning rahbar organi bo'lgani holda, u o'zining rahbarlik funksiyalarini parlament vakolatlarini «o'zlashtirish» uchun emas, balki parlamentning samarali ishlashini tashkil etish maqsadida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi. Qonunchilik palatasi Kengashi palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Qonunchilik palatasi Kengashining tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining raislari kiradi. Qonunchilik palatasi Kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida palata faoliyatining tashkiliy masalalarini dastlabki tarzda tayyorlash va ko'rib chiqish uchun tuziladigan Davlat Dumasi Kengashi (palata kengashi) Davlat Dumasining ishini tashkil etishda juda muhim rol o'ynaydi. Palata kengashi tarkibiga palata raisi, deputatlar guruhlarining rahbarlari hal qiluvchi ovoz berish huquqi bilan kiradilar. Bundan tashqari, palata kengashi tarkibiga palata raisining

o`rinbosarlari, palata qo`mitalarining raislari maslahat ovozi huquqi bilan kiradilar.

Qonunchilik palatasi qo`mitalari tashkil etilgandan so`ng o`z faoliyatini o`z rejaloriga, shu bilan birga Qonunchilik palatasi Kengashi topshiriqlari hamda tavsiyalariga muvofiq tashkil etadi. Qonun loyihasini dastlabki tarzda ko`rib chiqish natijalari asosida mas'ul qo`mita uni Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritish yoki qonun loyihasini kiritgan organga (shaxsga) qaytarish to`g`risida Qonunchilik palatasi Kengashi oldiga masala qo`yadi.

Agar Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan boshqa muddat belgilangan bo`lmasa, mas'ul qo`mita qonun loyihasi olingan kundan e'tiboran ikki oy ichida uni:

Qonunchilik palatasi Kengashining qonun loyihasini birinchi o`qishda ko`rib chiqish uchun Qonunchilik palatasiga kiritish to`g`risidagi qarorining loyihasini;

mas'ul qo`mitaning mazkur qonun loyihasini qabul qilish yoki rad etish zarurligi asoslangan holdagi xulosasini ilova qilib, Qonunchilik palatasining Kengashi ko`rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Qonunchilik palatasi Kengashi mas'ul qo`mita taqdim etgan qonun loyihasini birinchi o`qishda ko`rib chiqish uchun Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish to`g`risida qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasi Spikeri Qonunchilik palatasi qarorining loyihasini dastlabki tarzda ko`rib chiqish uchun mas'ul qo`mita va muddat belgilaydi. Qonunchilik palatasi Kengashi mas'ul qo`mita vakilining axborotini eshitib, qaror loyihasini Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritish to`g`risida qaror qabul qiladi va ma'ruzachini belgilaydi.

Qonunchilik palatasi Kengashining yana bir muhim vakolatlaridan biri, bu "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti "to`g`risidagi Qonunning 30-moddasida ko`rsatib o`tilgan. Qonunga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining Qonunchilik palatasi deputatini jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'murmy jazo choralarini qo`llashga rozilik olish to`g`risidagi taqdimnomalari Qonunchilik palatasi tomonidan, Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig`iddagi davrda esa uning Kengashi tomonidan ko`rib chiqilib, keyinchalik Qonunchilik palatasi Kengashining ushbu masala yuzasidan qarori Qonunchilik palatasining sessiyasida tasdiqlanadi.

Qonunchilik palatasining yoki uning Kengashining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etishga rozilik berish

to`g`risidagi qarori yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Qonunchilik palatasining yoki uning Kengashining Qonunchilik palatasi deputati deputatini jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma`muriy jazo choralarini qo`llashga rozilik berish masalasi yuzasidan qarori darhol O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuboriladi.

Qonunchilik palatasiga singari, Senat faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo`mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko`rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat majlisining kun tartibi loyihasi Senat majlisida ko`rib chiqilishi lozim bo`lgan masalalar va ularning ko`rib chiqilish navbati, har bir masalani ko`rib chiqishga tayyorlash uchun mas`ul bo`lgan palata qo`mitalari, ma`ruzachi (qo`shimcha ma`ruzachi), shuningdek, boshqa ma`lumotlar ko`rsatilgan holda Senat Kengashi tomonidan shakllantiriladi.

Senat Majlisining kun tartibi palataning qarori bilan tasdiqlanadi. Konstitutsiya, qonunlar va qarorlarning ko`rib chiqilishi tartibiga bincan mas`ul qo`mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etilib, Kengash Qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to`g`risida qaror qabul qiladi.

Senat Kengashi palata majlislari oraliq`ida zaruratga qarab to`planadi. Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o`rinbosarlari va qo`mitalarning raislari kiradi. Senat Kengashi o`z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a`zolari umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, qo`mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko`rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o`rinbosarlari va Senat qo`mitalarining raislari kiradi.

Senat Kengashiga Senat Raisi rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislari olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi. Senat majlisida ko`rib chiqilishi lozim bo`lgan masalalar ularni ko`rib chiqish navbati, palataning har bir masalani ko`rib chiqishga tayyorlash uchun mas`ul bo`lgan qo`mitalari, ma`ruzachilar (qo`shimcha ma`ruzachilar), shuningdek boshqa ma`lumotlar ko`rsatilgan holda majlis kun tartibi loyihasiga kiritiladi.

Senat majlisi kun tartibining loyihasi Senat Kengashi tomonidan tuziladi.

Senat majlislarining oralig'ida uning Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining senatorni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida qo'llaniladigan ma'muriy jazo choralarini ko'llashga rozilik olish to'g'risidagi taqdimnomalari ham ko'rib chiqiladi. Kengashning senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum etishga rozilik berish to'g'risidagi qarori yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Kengashning senatorni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralarini qo'llashga roziligi masalasi bo'yicha qarori zudlik bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuboriladi.

2-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisining saylanish tartibi hamda ularning vakolatlari

Qonunchilik palatasining birinchi majlisi Qonunchilik palatasi Spikerini saylashdan boshlanadi. Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o'rinbosarlarini saylash uchun deputatlar orasidan ko'pi bilan o'n besh kishidan iborat Oqsoqollar kengashi tuziladi, mazkur kengash vakolatlari Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari saylangach tugaydi.

Oqsoqollar kengashining tarkibi to'g'risidagi taklifni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi kiritadi. Oqsoqollar kengashi tarkibiga: Markaziy saylov komissiyasining Raisi; deputatlik faoliyatida katta tajribaga ega bo'lgan, yoshi eng ulug' deputatlar; nomzodlari Qonunchilik palatasiga saylangan siyosiy partiyalar deputatlarining vakillari; Qonunchilik palatasiga saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlarning vakillari kiritiladi.

Oqsoqollar kengashining tarkibi to'g'risidagi qaror Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Oqsoqollar kengashi Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari lavozimiga nomzodlarni, qoida tariqasida, eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiyalar yoki saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar orasidan ko'rsatadi.

Nomzod, agar u yashirin ovoz berish natijasida Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining yarmidan ko'p ovozini olgan bo'lsa, Qonunchilik palatasining Spikeri etib saylangan hisoblanadi. Oqsoqollar kengashi tomonidan Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlari lavozimiga nomzodlar ko'rsatish va ularni saylash Qonunchilik palatasi Spikerini saylash uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlarining soni **Oqsoqollar**

Kengashining tavsiyasi bo'yicha, Qonunchilik palatasi tomonidan belgilanadi. Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari saylanganligi to'g'risida qarorlar qabul qilinadi, qarorlarni palata majlisida raislik qiluvchi tomonidan imzolaniadi. Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasining qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Qonunchilik palatasi Spikerini yoki uning o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismidan iborat Qonunchilik palatasi deputatlari guruhining taklifiga binoan palata tomonidan ko'rib chiqiladi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan ham kiritilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi Spikerini yoki uning o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi, qarorni palata majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

Oliy Majlis yuqori palatasi bo'lmish Senatning birinchi majlisi Senat Raisini saylashdan boshlanadi. Senat Raisligiga va uning o'rinbosarligiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan senatorlar orasidan taqdim etiladi. Nomzod, agar u yashirin ovoz berish natijasida senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'p ovozi olgan bo'lsa, Senat Raisi yoki uning o'rinbosari etib saylangan hisoblanadi.

Senatorlar orasidan saylanadigan Senat Raisining o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi. Senat Raisi va uning o'rinbosarlari saylanganligi to'g'risida qarorlar qabul qilinadi, qarorlarni Senat majlisida raislik qiluvchi imzolaydi. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Senat Raisining o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Senat Raisini yoki uning o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-

ning taqdimiga yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan Senat tomonidan ko'rib chiqiladi. Senat Raisini yoki uning o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi, qarorni Senat majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

Konstitutsiyaviy qonunlarda Oliy Majlis palatalarining Spikeri va Raisining vakolatlari belgilangan. Ularning asosiy vakolatlari ko'pgina umumiy jihatlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bo'lmish Qonunchilik faoliyatiga rahbarlik faoliyatini amalga oshiruvchi Spiker vakolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Qonunchilik palatasi Spikeri quyidagi vakolatlarni bevosita amalga oshiradi. Bu vakolatlarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga

umumiy rahbarlik qiladi;

Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma'qullash uchun

Senatga yuboradi;

Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va Qonunchilik palatasi Reglamentida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Qonunchilik palatasi Spikeri o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli.

Senat Raisi Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi. Senat Raisligiga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat Raisi o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiya va harakatlarga a'zolikni to'xtatib turadi. Senat Raisi Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin. Senat Raisi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining vakolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Senat Raisi ham o'z faoliyati davrida Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatiga o'xshash bir qancha muhim vakolatlarni amalga oshiradilar. Bu vakolatlar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Senat va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

Senat ma'qullagan qonunlarni imzolash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboradi;

Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

Senat Raisining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

Senat matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

Kengash bilan kelishilgan holda Senat matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

Senat matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;

Senat va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

Senat devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, senatorlar va Senat devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va Senat Reglamentida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Senat Raisi o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli. Konstitutsiyaning 86-moddasi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunining 14-moddasiga binoan Senat Raisiga Senat ishini tashkil etishda asosiy mas'uliyat yuklatilganligi uchun ham ushbu mexanizmida Senat Raisining roli muhim ahamiyatga egadir.

Rais zimmasiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish va noshirlik faoliyatiga rahbarlik qilish, Senatni va moliyaviy masalalarni boshqarish ham birlashtirilgan. Jumladan: Senat Raisi Senat matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur harajatlar smetalarini tasdiqlaydi; Kengash bilan kelishilgan holda Senat matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi; Senat matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Senat Raisi Kengash ko'rib chiqishi uchun o'z tasarrufiga kiruvchi boshqa masalalarni kiritishga ham haqli. Senat Raisining ushbu maqomi yuqori palataning kelgusidagi ishida rasmiy va norasmiy rahbarlik muammosini hal etish uchun yetarli bo'lib, bunga uning tuzilmasida deputatlar birlashmalari yo'qligi bilan ham shart-sharoit yaratiladi.

3-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi siyosiy partiya fraksiyalari va deputatlar guruhi

Har qanday davlat organi, birinchi navbatda parlament faoliyatining zahirida xalqning xohish-irodasi yotishi lozim. Ilg'or demokratiyalarda bunga, avvalambor, parlament saylovining asosiy subyektlari – siyosiy partiyalar yordamida erishiladi. Siyosiy partiyalar jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy kuchlarning jamoatchilik fikrini shakllantiradilar va ifoda

etadilar. Siyosiy partiyalar – zamonaviy demokratiya tizimining ajralmas qismi, saylov kampaniyalarining asosiy ishtirokchilaridan biri.

Eski demokratik an'analarga ega mamlakatlarda siyosiy partiyalar jamoatchilik fikri, xalqning siyosiy irodasini demokratik shakllantirish va uni saylovda ifoda etish jarayonida yetakchi marralarni egallaydilar. Ko'ppartiyaviylik tizimi jamiyat va davlatni rivojlantirishning o'ta muhim masalalariga doir muqobillar, ortiqcha qarashlar, fikr-mulohazalarni qisqartirish, saylovchilarga mazkur masalalarni hal qilishga nisbatan bir nechta asosiy yondashuvlarni taklif qilish va shu tariqa muayyan siyosiy partiya, uning nomzodlari va ularning dasturlariga o'z ovozlari berayotgan saylovchilar eng samarali siyosiy qarorlar qabul qilishlariga ko'maklashish imkonini beradi.

Shu bilan birga, saylov kampaniyalarida, xalqning siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etishda partiyalarning roli doim ham bir xilda baholanavermaydi. Ko'p partiyaviylik prinsipi partiya ro'yxatlari (fraksiyalari) bo'yicha saylangan deputatlar jumlasidan siyosiy uyushmalar tashkil etishda o'z aksini topadi. Mazkur uyushmalar aholi turli tabaqalarining parlamentdagi siyosiy vakilligini ta'minlabgina qolmasdan, balki butun parlament ishining tashkil etilishini yaxshilashga ham ko'maklashadi.

Bunda, tabiiyki, jamiyatning bir nechta kichik siyosiy partiya va guruhlariga parchalanishi va parlamentda ularning ancha to'liq vakilligi parlament ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi: qarama-qarshiliklar natijasida (agar parlamentda barqaror ko'pchilik bo'lmasa) parlamentning vakolatlari jumlasiga kiritilgan muayyan masalani hal qilishning iloji bo'lmasligi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim.

Ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament tizimida faqat Qonunchilik palatasigina siyosiy xususiyatga ega bo'lgani bois, deputatlar birlashmalari-fraksiya va deputatlar guruhlarini aynan mazkur palatada tuziladi.

“Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi konsitutsiyaviy Qonunning 23-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli-fraksiyalar va deputatlar guruhlarini mavjud.

Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladi-

gan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishi mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin. Lekin, bundan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining har biri fraksiya yoki deputatlar guruhi a'zosi bo'lishi kerak, deb xulosa qilish kerak emas. Binobarin, saylangan deputat hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka ham haqli.

Bugungi kunga qadar beshta siyosiy partiya fraksiyalari tuzildi. Bular O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi – 40 kishidan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi – 27 kishidan, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi – 18 kishidan, Milliy tiklanish partiyasi – 11 kishidan, "Adolat" sotsial demokratik partiyasi – 10 kishidan iborat fraksiyalaridir.

Qonunchiligimizning e'tiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhlarining vakolatlari doirasi siyosiy partiyalar fraksiyailari vakolatlari doirasiga tenglashtirildi. Ayni chog'da, ularning fraksiyalar bilan bir qatorda va ular bilan teng ravishda ish yurita olishining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Bular, xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 25-moddasida mufassal ifodasini topdi. Unga ko'ra, fraksiya va deputatlar guruhi:

1) Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi;

2) Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi;

3) Kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qo'yadi;

4) Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi;

5) Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini Qonunchilik palatasi deputatlari o`rtasida tarqatadi;

6) palataning Kengashi, qo`mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etadi;

7) Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan o`z takliflarini kiritadi;

8) hukumat a`zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to`g`risida masala qo`yadi;

9) fraksiyaning, deputatlar guruhining faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib oladi;

10) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qo`mita raisi, uning o`rinbosari va qo`mita a`zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiyaga yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi olganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qarori bilan belgilanadi. Ushbu qoidaga asosan O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi - Mehnat va ijtimoiy masalalar, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Agrar, suv xo`jaligi masalalari va ekologiya qo`mitalari; O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi - Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Sanoat, qurilish, va savdo masalalari qo`mitalari; Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi - Mudofaa va xavfsizlik masalalari, Fan, ta`lim, madaniyat va sport masalalari qo`mitalari, "Milliy tiklanish" partiyasi fraksiyasi - Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi - Byudjet va iqtisodiy islohotlar, saylovchilar tashabuskor guruhlari uchun - Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari qo`mitalari raislari lavozimi taqsimlandi¹.

Parlament ishchi organlarini shakllantirish va tarkibini belgilashda partiyalar ishtirokini ta`minlash ularning faoliyatini tashkil etishda muhim o`rin tutadi. Misol uchun, Fransiya quyi palatasi reglamenti bilan doimiy komissiyalar a`zolarining soni turlicha belgilangan. Madaniyat, oila va ijtimoiy muammolar hamda ishlab chiqarish va ayirboshlash bo`yicha komissiyalarda Milliy Majlis tarkibining to`rtidan biri, ya'ni 145 ta deputat, qolgan to`rttasida esa uning sakkizdan bir qismi faoliyat yuritishi mumkin.

Odatda, ularning tarkibini siyosiy partiyalar belgilab, parlamentdagi a`zolarining to`rtidan birini ikkita komissiyaga, qolganlarini boshqa

¹ O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining "O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo`mitalari to`g`risida"gi 2005-yil 27-yanvardagi 14-I-sonli qarori.

komissiyalarga teng taqsimlashadi. Ya'ni, parlament siyosiy partiyalar guruhlarining rahbarlari quyi palata raisiga o'z nomzodlarini taqdim qilishadi. Deputatlarning ismi-shariflari «Journal Officiel»da nashr qilinishi bilan ular tayinlangan deb hisoblanadi. Ushbu qoida har bir siyosiy partiya, ya'ni turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini to'g'ri yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday yo'l bilan shakllangan komissiyalarda ish jadal olib boriladi.

Shuningdek, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyasi quyidagi huquqlarga ega:

Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibini tuzishda ishtirok etish;

Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi;

tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeriga va O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, vazirlarga, shuningdek boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rov bilan murojaat etish;

Qonunchilik palatasining qo'mitalari va komissiyalari raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

Qonunchilik palatasining majlisida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini deputatlar orasida tarqatish;

Qonunchilik palatasi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish. Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi tarkibiga kiradi.

Fraksiyalarning faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy jihatdan va boshqa xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining devoni tomonidan ta'minlanadi. Fraksiya va deputatlar guruhi o'z tashabbusi bilan, Qonunchilik palatasining vakolat muddati tugaganda, ular tarkibiga kiruvchi deputatlar soni ularni tuzish uchun zarur bo'lgan miqdor chegarasidan kamayib ketganda tugatilishi mumkin.

Erkin demokratik jamiyat barpo etishning huquqiy poydevorini mustahkamlash maqsadida yaratilayotgan har bir qonunning adolatli, halqchil, soda va tushunarli, inson huquq va manfaatlarini himoya qiladigan darajada bo'lishi talab etiladi. Bunda, albatta, parlament tuzilmalarining ishi samarali tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston qonunchiligi siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlarining Qonunchilik palatasida o'z dasturini amalga oshirish, o'z

tarafdorlarining manfaatlarini amalga oshirish imkoni to'la ta'minlangan. Lekin, ular davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi ishtirokini kuchaytirish navbatdagi masalalardan biridir. Uni hal qilish deputatlar birlashmalari vakolatlarini kengaytirish, xususan bloklar tuzish tartibi, ularni vakolatlari va ularni faoliyatidagi boshqa munosabatlar qonun darajasida huquqiy tartibga solinishi lozimligini ko'rsatmoqda. Deputatlar birlashmalari faolligini oshirish aholining manfaatlarini yanada kengroq ro'yobga chiqarishiga shubha yo'q.

4-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat devoni

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi qonunning 36-moddasi quyidagicha ta'riflanadi, Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta'minotini Qonunchilik palatasi devoni tomonidan amalga oshiriladi.

Demak, Qonunchilik palatasi devoni Qonunchilik palatasi tegishli organlarining samarali faoliyat olib borishini va ularning o'z vakolatlarini amalga oshirishlarida tashkiliy – moddiy ko'mak berishni ta'minlaydi.

Qonunchilik palatasi devoni tuzilmasi, shtatlari, xodimlarining mehnat haqi miqdori va moddiy-texnika ta'minoti, shuningdek ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan tasdiqlanadi. Yuqoridagi paragraflarda ham Senat raisi vakolatlariga to'xtalganimizda, bu vakolatlarni Senat raisi tomonidan amalga oshirishini guvohi bo'lgan edik.

Qonunchilik palatasi devoni xodimlarining mehnatga oid munosabatlari Qonunchilik palatasining vakolat muddatiga bog'liq bo'lmaydi. Qonunchilik palatasi devoni yuridik shaxs hisoblanadi. Ya'ni, yuridik shaxslar tomonidan bajariladigan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Qonunchilik palatasi devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi. Bu nizomda Qonunchilik palatasi devoni tomonidan amalsha oshiriladigan vazifalar, devonning ishlash mexanizmi hamda tegishli Qonunchilik palatasi ichki organlari bilan o'zaro munosabatlari ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi devoni xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarlik masalalari ham ushbu Nizomda mustahkamlangan.

Shuningdek, Oliy Majlisning yuqori palatasi bo'lmish Senat devoniga to'raladigan bo'lsak, Senat devoni quyidagi maqsadda tashkil etiladi. Ya'ni, Senat, uning organlari va senatorlar faoliyatining tashkiliy, axborot,

moddiy-texnika ta'minotini Senat devoni tomonidan amalga oshiradi. Bu norma "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasida o'z aksini topgan.

Senat devoni tuzilmasi, shtatlari, xodimlarining mehnat haqi miqdori va moddiy-texnika ta'minoti, shuningdek ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar Senat Raisi tomonidan tasdiqlanadi. Ya'ni, bu ko'proq Senat Kengashida, Senatning yalpi majlislarida muhokama qilinadi. Senat devoni xodimlarining mehnatga oid munosabatlari Senatning vakolati muddatiga bog'liq bo'lmaydi.

Senat devoni yuridik shaxs hisoblanadi. Senat devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Senat Raisi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi.

Umuman olib qaraganimizda, Qonunchilik palatasi va Senat devoni faoliyati bir-biriga o'xshash. Ular faoliyatining huquqiy asoslari esa quyidagi qonunlar bilan tartibga solinadi: "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy Qonuni hamda Qonunchilik palatasi va Senati devoni faoliyatini tartibga soluvchi Nizom.

XIII BOB. DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKILY USHLARI

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy ushblari tushunchasi va ahamiyati

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy ushblari deyilganda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, xalq deputatlari Kengashlari, ularning organlari, senatorlar, deputatlar, mahalliy ijroiya hokimiyati (hokimliklar) xodimlari, xalq deputatlari Kengashlari faollari qonunchilik bilan ularga berilgan vakolatlarni amalga oshirish uchun qo`llaydigan va ishlatadigan vositalar tushuniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining *tashkiliy ushblari* deyilganda xalq deputatlari Kengashlari, ularning organlari, deputatlar, mahalliy ijroiya hokimiyati (hokimliklar) xodimlari, xalq deputatlari Kengashlari faollari qonunchilik bilan ularga berilgan vakolatlarni amalga oshirish uchun qo`llaydigan va ishlatadigan vositalar tushuniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy ushblari ularning funksiyalari bilan bevosita bog`langan. Tashkiliy ushblar qonuniylik va demokratik prinsiplar talablariga mos kelishi kerak.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy ushblari, huquqiy aktlar bilan bir qatorda, ularni o`z funksiyalarini amalga oshirishda bosh vosita bo`lib xizmat qiladi. Ular davlat hokimiyati vakillik organlari qaramog`ida bo`lgan ishlarga rahbarlik qilishning zarur elementlaridir. Tashkiliy ushblar hamma sohalarida, tarmoqlarda ishlatilganligi uchun ularga Kengash, hokimlik apparati faoliyatining o`ziga xos yetakchi yo`nalishi sifatida qarash mumkin. U davlat hokimiyat organining xo`jalik, ijtimoiy va davlat qurilishidagi konkret vazifalarini va vakolatlarni amalga oshirishga bo`ysungan.

Tashkiliy ushblar vakillik organlari faoliyatida demokratiya prinsiplarini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga kasb etadi. Bu ushblarning takomillashtirilishi O`zbekistonning mustaqilligi sharoitida davlat hokimiyati organlari ishining samaradorligini oshirish uchun muhim omildir.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy ushblaridan shu organlarning ichki tuzilishlarini tartibga solishda ham, ularning nazorat va rahbarlik qilish bo`yicha funksiyalarini amalga oshirishda ham foydalaniladi. Masalan, muvofiqlashtirish ushblarini qarash, unda xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari ishini bir-biriga kelishtirishda foydalaniladi. Shu bilan birga, shu ushblardan Kengash hududida joylashgan

korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatini shu hududni kompleks rivojlantirish yoʻlida birlashtirish uchun ham foydalaniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublari shu organlar toʻgʻrisidagi normativ aktlar, ish tartiblari va nizomlar bilan tartibga solinadi. Masalan, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkiliy rejalarning ayrim bosqichlari, kengashlar va hokimlar qabul qilgan qarorlarning ijrosini tekshirishdir.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublari asosiy va yordamchi uslublariga ajratiladi. Bu Kengashlar va hokimlar vakolatlarini amalga oshirishda tutgan roli va ahamiyatiga qarab boʻlinadi. Asosiy uslublariga rejalashtirish, muvofiqlashtirish, qarorlarni tayyorlash, ijroni tashkil etish va uni nazorat qilish kiradi. Bu uslublarning asosiy deb koʻrsatilishiga ikkita sabab mavjud: birinchidan, bu uslublardan davlat hokimiyati organlari vakolatlarining eng muhim masalalarini hal qilishda foydalanilsa, ikkinchidan, asosiy tashkiliy uslublar yordamida shu masalalarni hal qilayotganda boshqa yordamchi vosita va uslublardan foydalaniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining yordamchi tashkiliy uslublarga har xil tekshirishlar, kuzatishlar, instruksiya oʻtkazishlar, qarab chiqishlar va boshqalar kiradi. Shuni ham qayd qilish lozimki, bu uslublar xalq deputatlari Kengashlari organlari uchun asosiy uslub boʻlib qolaveradi. Masalan, kengashlarning doimiy komissiyalari uchun tekshirish va kuzatuv, hokimlik apparati, uning boʻlim va boshqarmalari uchun instruksiya va inspeksiya oʻtkazish asosiy uslub hisoblanadi.

2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublari amalga oshirish

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining asosiy tashkiliy uslublari rejalashtirish, muvofiqlashtirish, qarorlarni tayyorlash, ijroni tashkil etish va uni nazorat qilishda koʻriladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik apparati faoliyatida rejalashtirish uslubi. Oʻzbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida»gi Qonuni Kengashlar va hokimlik apparati faoliyatini rejalashtirish vazifalarini hokimlarga yuklaydi. Qonunning 25-moddasida viloyat, tuman va shahar hokimi rejalashtirish masalalarini hal etadi, deyilgan. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik apparatida rejalashtirish uslubidan kengashlar ikki yoʻnalishda foydalanadilar. **Birinchidan**, barcha davlat hokimiyatini vakillik organlari oʻz vakolatlari doirasida tegishli

hududda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal qilishni rejalashtiradilar, shu masalalarni yuqori turuvchi Kengashlar tomonidan rejalashtirilganda ishtirok etadilar. *Ikkinchidan*, xalq deputatlari Kengashlari o'zlarining faoliyatlarini tashkiliy rejalashtirishni uyushtiradilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining o'z hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni rejalashtirishning lozimligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan va boshqa joriy qonunlardan kelib chiqadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 4-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish huquqiga ega. Strategik dasturlarni qabul qilishni amalga oshirish, albatta, tegishlicha rejalar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirishni ta'minlashi belgilangan. Mazkur qonunning 24-moddasida esa xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari tegishli hokimlarning taqdimiga binoan hududlarni rivojlantirishning istiqboliga mo'ljallangan dasturlarni tasdiqlashlari belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining bu vakolatlarini amalga oshirish uchun tegishli rejalar tuziladi. Shu rejalarni tasdiqlash va ular ijrosini nazorat qilish davlat hokimiyati vakillik organlarining mutlaq vakolatlariga kiradi, ya'ni ular faqat Oliy Majlis palatalari majlislarida va mahalliy kengashlar sessiyalarida hal qilinadi. Rejalarni ishlab chiqishda deputatlar, doimiy komissiyalar va qo'mitalar, jamoatchilik keng ishtirok etadi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida rejalashtirish uslubi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Davlat hokimiyati vakillik organlari o'zlariga bo'ysungan xo'jalik, ijtimoiy qurilish tarmoqlarini rejalashtiradilar va o'z hududlarida barcha ishlab chiqarish kuchlarining rejali rivojlanishiga muhim ta'sir o'tkazadilar.

2. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga qarashli tashkilotlarining va muassasalarining ishi reja asosida olib boriladi.

3. Kengash va uning organlari ishini tashkil qilish ularning barcha tashkiliy-ommaviy ishi reja asosida quriladi.

Mahalliy Kengashlar rejaları tizimida markaziy o'rinni barcha tarmoqlarning, Mahalliy Kengashning barcha korxon va muassasalari ishini

qamrab oluvchi mahalliy xo'jalikni va ijtimoiy-madaniy qurilishni rivojlantirishning yillik va istiqbolli rejalari egallaydi. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish topshiriqlarini, tovarlarning muhim turlarini, ish haqi fondini, byudjetga to'lanadigan mablag' summasini va rentabelligini, yangi texnikani tatbiq qilishni, moddiy-texnikaviy ta'minotni o'z ichiga oladilar. Savdo shaxobchalarini, aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatishning barcha turlarini rivojlantirish va turar joy fondini qurish ham rejalashtiriladi.

Tarmoq rejalari muhim sohalarni tashkil qiladi: qishloq xo'jaligining rivojlanishi, turar-joy qurilishi, maishiy-xizmat ko'rsatish va hokazolar.

Mahalliy Kengashlar yig'ma rejalari va alohida tarmoqlar bo'yicha rejalari bilan birga tarmoqlararo xususiyatga ega bo'lgan har xil maxsus rejalarni ham tasdiqlaydilar. Jumladan, har bir Kengash saylovchilar topshiriqlarini ijro qilish tadbirlari rejasini tasdiqlaydi. Shahar Kengashlari shaharlarning bosh loyihalarini ishlab chiqadilar va ularni qabul qiladilar, tuman Kengashlari tuman hudud planirovka sxemasini ko'rib chiqadilar va keyin ularni yuqori turuvchi organlarning tasdig'iga beradilar. Mahalliy Kengashlar rejalardan tashqari balanslarning tuzilishini ham ta'minlaydilar - yer, mahalliy yoqilg'i, qurilish materiallari, mehnat resurslari, aholi pul daromadlari va xarajatlari va boshqa balanslarni, bu balanslar tegishli ma'muriy-hududiy birliklarning xo'jaligini kompleks rivojlantirishni rejalashtirish uchun zarur. Mahalliy Kengashlarning rejalari Kengash hududida joylashgan korxonalar va muassasalarni, ularning kimga bo'ysunishidan va qanday mulk egaligidan qat'i nazar rivojlanishini va ishlashini muvofiqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining o'rnatilishi munosabati bilan mahalliy Kengashlar amalga oshirayotgan rejalashtirish shakli va mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish rahbarlikning va ishni amalga oshirishning uslubiyatida umuman Kengashga, hokimga, hokimlik apparatiga va uning barcha organlariga xosdir. Sessiyalarda mahalliy Kengashlar mahalliy xo'jalikni va ijtimoiy qurilishni rivojlantirishning yillik va strategik rejalari, qurilish rejalari, saylovchilarning nakazlarini bajarish bo'yicha tadbirlar rejalari ko'rib chiqadilar va tasdiqlaydilar. Hokimlik apparati kengashlar tomonidan qabul qilinadigan rejalarni loyihalarini tayyorlashni tashkil qiladilar, boshqarish tarmoqlari bo'yicha rejalarni o'zlariga bevosita bo'ysungan korxonalar, xo'jalik tashkilotlariga reja topshiriqlarini tasdiqlaydilar. Bo'lim va boshqarmalar tegishli tarmoqlarning rivojlanish rejalari tuzadilar, o'zlariga bo'ysungan korxonalar, tashkilot va muassasalarning rejalari ko'rib

chiqadilar va muvofiqlashtiradilar. Moliya bo`limlari rejalarini mahalliy Kengash byudjetlari bilan muvofiqlashtiradilar.

Mahalliy Kengashga qarashli korxonalar va xo`jalik tashkilotlari o`z ishlab chiqarish - moliya rejalariga ega. Shunday qilib, quyi turuvchi qismlarni, tegishli organlar tomonidan umumlashtiriladigan va birlashtiriladigan rejalar bo`yicha va kompleks rejalarining asosi va nihoyat, mahalliy Kengash qabul qiladigan tegishli hududda xo`jalikni va ijtimoiy qurilishni rivojlantirish yig`ma rejasi uchun asos bo`ladi.

Rejalashtirish davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslubi sifatida faqatgina ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko`rsatishni qamrab olmasdan, balki shu tegishli hududda rahbarlikni tashkil qilishning o`zini ham qamrab oladi. Reja bo`yicha Kengashlarning sessiyalari, hokimlik apparati majlislari o`tkaziladi, rejalar bo`yicha doimiy komissiyalar, deputatlik guruhlarini ishlaydi. Deputatlar ham saylov okruglaridagi faoliyatini rejalashtiradilar. Bo`lim va boshqarmalarning faoliyati ham reja asosida tashkil qilinadi. Rejalashtirishning bu turi *tashkiliy rejalashtirish* deyiladi.

Tashkiliy rejalashtirishning bu shakli kengash va hokim faoliyatini umuman butunligicha muvofiqlashtirishni qisman osonlashtiradi, xalq xo`jaligi vazifalarining bajarilishini tashkiliy tomondan yetarli ta`minlaydi hamda Kengash va hokimga tashkiliy faoliyatda kelajakni mo`ljallashga imkon beradi.

Mahalliy Kengashlar va hokimlar faoliyatini kompleks rejalashtirishning quyidagi o`ziga xos tomonlarini ko`rsatish mumkin:

birinchidan, ular bir yilga yoki Kengash va hokim vakolatining hamma muddatiga, ya'ni besh yilga qabul qilinadi. Bu Kengash va hokim tashkiliy tadbirlarini mahalliy xo`jalik va byudjet rivojlanishining bir yillik rejalarini bilan muvofiqlashtirishga imkon yaratadi;

ikkinchidan, u Kengash va hokimning xo`jalik va ijtimoiy qurilish sohasida oldinda turgan davrga mo`ljallangan faoliyatining asosiy yo`nalishlariga asoslanadi va har bir tadbirni tashkiliy ta`minlashning zarur vositalarini ko`zda tutadi (qaror tayyorlash va qabul qilish, ma'lumotlar yig`ish, ommaviy ish olib borish, ijroni tashkil qilish va nazorat). Bu reja Kengash va hokimlik apparati barcha qismlarining ishini birlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning asosiy ishlash sohaslarini ham belgilaydi. Jumladan, unda Kengash sessiyasini, hokim apparatining majlisini o`tkazish muddatlari va ko`riladigan asosiy masalalar doirasi belgilanadi. Rejada xalq xo`jalik rejalaridan kelib chiqadigan har xil tadbirlar tayyorlash va o`tkazishga tashkiliy choralar mo`ljallanadi (masalani o`rga-

nish, tekshirish, kuzatish, o`tkazish).

Kengash va hokim faoliyatining kompleks istiqbolli rejasi, hokimlik apparati va boshqa organlar uchun vazifalarini, odatda, kvartalga, ayrim hollarda yarim yilga belgilab beruvchi joriy rejalarni tuzish uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Ish rejalarni tayyorlash texnikasi ko`p holatda kengashning turi, uning organlari tizimi va strukturasi bilan belgilanadi. Lekin umumiy tartibga ko`ra, ishning hamma tashkiliy-texnikaviy tomoniga tayyorgarlik ishiga Kengash organlari rahbarlarini, deputatlarni, xo`jalik tashkilot va muassasalarini, jamoatchilik vakillarini jalb qilishni hokimlik apparati bajaradi.

Barcha bo`lim, boshqarma, inspeksiya, komissiya, yirik xo`jaliklar boshliqlari o`z takliflarini hokimlik apparatiga berishlariga oldindan choralar ko`rib qo`yiladi. Ko`p hollarda reja mazmuni oldindan chiqariladi.

Kengash va hokimlik apparati ish rejasi loyahasini tuzishga doimiy komissiyalar jalb qilinadi. Odatda, hokimlik apparati bu masala bo`yicha doimiy komissiyalar raislari bilan yig`ilish o`tkazadi yoki hokimlik apparati rejasini bo`lim va boshqarma rahbarlari bilan muhokama qilayotganda ularni taklif qilishadi. Reja loyihasi tayyorlanayotganda deputatlarni, faollarni hokimlik apparatiga yuborish, sessiyada so`zlagan fikrlari e`tiborga olinadi. Hokimlik apparati Kengash va hokimlik apparati ishining rejasi bo`yicha o`z takliflarini yuborishni so`rab deputatlarga, xo`jaliklar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga hamda quyi turuvchi ijro organlariga murojaat qilinadi. Hokimlik apparatiga tushgan barcha takliflar reja loyahasini tayyorlovchi maxsus komissiya tomonidan umumlashtiriladi.

Kompleks istiqbolli reja, albatta, kengash sessiyasida qabul qilinadi. Ish rejasi hokimlik apparati xodimlariga, doimiy komissiya raislariga, bo`lim va boshqarmalarga, yuqori turuvchi va quyi turuvchi hokimlik apparatiga, tegishli hududning prokuroriga yuboriladi.

Kengash va hokimlik apparati ishining oshkoraligi uchun bunday rejalarni nashr qildirish katta ahamiyatga ega. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik apparati rejasi ijrosini nazorat qilish, eng avvalo, hokim, uning o`rinbosari va kotibning to`g`ridan-to`g`ri vazifasidir. Rejaning bajarilishi hokimlik apparati nazorati ostida bo`ladi. Reja muddati oxirida uni hayotga tatbiq qilinishining ahvoli va natijalari muhokama qilinadi. Rejaning amalga oshirilishi natijalari barcha deputatlar muhokamasiga ham qo`yiladi. Tashkiliy rejalashtirishning samaradorligiga erishish uchun zarur talab unga har tomonlama yondoshishdir. Unga quyidagi vositalar yordamida erishiladi:

1. Tashkiliy rejalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalari bilan uzviy bog'lash.

2. Tashkiliy rejalarda asosiy e'tiborni eng muhim vazifalarga qaratgan holda tegishli Kengash va hokimlik faoliyatining hamma tomonlarini ham qamrab olish.

3. Tashkiliy rejalashtirishning Kengash va hokim vakolati muddatiga tuzilishi.

4. Tashkiliy rejalashtirish tizimiga Kengash va hokimlikning barcha organlarini kiritish, Kengash va hokim vazifalarini hal qilishda ularning har birining rolini va ishtirok etish hajmini belgilab berish.

5. Barcha tashkiliy rejalarni o'zaro kelishtirish, muvofiqlashtirish.

Kengash va hokimlik devoni ish faoliyatida tashkiliy rejalarning quyidagi turlaridan foydalaniladi: Kengashning ish rejasi, Kengash organlarining ish rejasi, tematik rejalar (savdoni, maishiy xizmatlarni va hokazolarni yaxshilash); deputatlar va hokimlik devoni xodimlarining shaxsiy rejalari. Bu rejalarning hammasi, amalda bo'lishining muddatiga ko'ra, perspektiv va joriy bo'lishi mumkin. Har bir bug'in Kengashlarining ishini rejalashtirish o'ziga xos tomonlarga ega.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar faoliyatida muvofiqlashtirish. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar davlat xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish sohalarida ko'p qirrali faoliyatni amalga oshiradilar. Tegishli hududda shu masalalarni bir xil amalga oshirish juda murakkab vazifa, chunki har bir alohida olingan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik murakkab tizimga egadir. Bu tizimga xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlik devonining har xil organlari, ularning xodimlari, faollar va jamoatchilik tashkilotlari kiradi. Kengashlarning hududlarida mulkchilikning turli shakllariga mansub bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, ularga bo'ysungan mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mavjuddir. Har bir xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning asosiy vazifasi ana shu tizimning yagona bir butun faoliyat olib borishini ta'minlashdir. Bu vazifani amalga oshirishda muvofiqlashtirish uslubidan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq muvofiqlashtirishni ta'minlash viloyat, tuman va shahar hokimlariga yuklatilgan. Tegishli hududlarning hokimlari byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan hamjihatlik qilish masalalarini hal etadilar. Hamjihatlikni ta'minlash muvofiqlashtirish demakdir. Xalq deputatlari Kengash-

lari va hokimlarning muvofiqlashtirish faoliyati deyilganda, shu organlarning oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida Kengashga va hokimga qarashli barcha organlarni, ularning bo`lim va boshqarmalarini, korxonalar, tashkilot, muassasalarni, hokim devoni xodimlarini, Kengash faollarining faoliyatini bir yo`la birlashtirish tushuniladi. Kengashlar faoliyatida muvofiqlashtirish uslubini ular faoliyatining turli shakllari asosida ham amalga oshirish mumkin. Masalan, kengash sessiyasi ishida hamma organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu vazifani hokimlik devoni majlisida ham amalga oshirish mumkin. Kengash doimiy komissiyalari raislari komissiya a'zolari faoliyatini muvofiqlashtiradilar. Deputatlik guruhlar deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Muvofiqlashtirishni amalga oshirish uchun Kengash va hokimlik huzurida har xil jamoatchilik Kengashlari tuzilishi mumkin. Kengash faoliyatida muvofiqlashtirishni ma'lum bir muddatga mo`ljallab olish Kengashlar va hokimlar tuzadigan tashkiliy rejalar orqali amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar faoliyatida qarorlarni tayyorlash, ijroni tashkil etish va uni nazorat qilish.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman xalq deputatlari Kengashlari qaror qabul qiladi, farmoyishlar chiqaradi.

Mahalliy Kengashlar vakolatlariga taalluqli har xil masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo`lgan hujjatlar qabul qilish bilan hal qiladilar. Ular qabul qilayotgan qarorlarning samaradorligi ularni sinchkovlik bilan tayyorlashga va tajribada ishlab chiqilgan va qonunchilikda ko`rsatilgan ma'lum talablarning bajarilishiga ko`p jihatdan bog`liq.

Birinchiidan, xalq deputatlari Kengashi va hokimning har bir qarori asoslangan bo`lishi lozim, ya'ni ishonarli va yetarli ma'lumotlarga ega bo`lishi lozim.

Ikkinchiidan, Kengash va hokimning qabul qiladigan har bir qarori keng ma'noda tejamkor bo`lishi shart. Birinchi navbatda, u haqiqatan ham zarur bo`lib qolganda chiqarilishi kerak. Yuqori turuvchi organlarning qarorlarini yoki o`zini Kengash va hokimning oldin qabul qilgan qarorlarini qaytaruvchi, takrorlovchi qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Qarorlarning ko`pligi, agarda ular bir-birini qaytarsa, qaror bilan uning ijrosi o`rtasida qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi, ijroning ahamiyatini kamaytiradi va uni qiyinlashtiradi. U yoki bu masalani hal qilish yo`llari mavjud bo`lsa, eng kam mablag` sarf qilishni, kam kuch sarf qilishni talab

qiladigan yo'l tanlab olinishi lozim. Tejamkorlik hal qilinayotgan masalaga har tomonlama yondoshish, hozirgi zamon fani va ilg'or tajriba yutuqlaridan foydalanish bilan ta'minlanadi.

Uchinchidan, qaror qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni u tegishli organ tomonidan vakolati doirasida qabul qilinganligini bildiradi va u yoki bu masalaning qonun yo'l qo'ygan vositalar bilan hal qilinishini ko'zda tutadi. Bu, shuningdek, hujjat shaklining o'zini, uni qabul qilish jarayonining qonunchilik talablariga mos bo'lishini bildiradi.

Kengash va hokimlik qarorlari ularning sessiyalari va majlislarida yetarli sondagi deputatlar qatnashganda, qarorlar ovozga qo'yilganda ovozlarni mo'ljallagan ko'pchiligi bilan qabul qilinishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va imzolanishi, ijrochilarga ko'rsatilgan muddatlarda yuborilishi lozim. Qarorlarning hayotiyligi va tejamkorligini ta'minlash uchun loyihalarni tayyorlashga qarorlar qabul qilish tartibini bildirgan mutaxassislar va manfaatdor tashkilotlar jalb qilinishi, deputatlarning, jamoatchilikning, quyi turuvchi organlarining fikr va mulohazalari e'tiborga olinishi muhim.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar qaror loyihalarini tayyorlashni yaxshilash maqsadida ish olib borish haqidagi yo'riqnomaalarda va boshqa hujjatlarda, qarorlarni tayyorlashda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiruvchi maxsus chora-tadbirlarni belgilaydilar.

Qaror qabul qilish ularni hayotga tatbiq qilish bo'yicha tashkiliy ishdan ajratilmagan holda amalga oshiriladi. Qarorlarning ijrosini va nazoratini tashkil qilib qolmasdan, yuqori organlar aktlari ijrosining nazorati ham tashkil qilinadi. Ijro va nazorat tashkil qilish ishining markazida hokimlik devoni bo'lishi lozim. U bu yo'nalishda bo'lim va boshqarmalarni, doimiy komissiyalarni, deputatlik guruhlarini, jamoatchilik organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ijroni tashkil qilishning birinchi talabi qarorni ijrochilarga va manfaatdor shaxslarga o'z vaqtida yetkazishdir.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar, ya'ni qarorlar va farmoyishlar ular imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti, ana shu hujjatlarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa. Manfaatdor organ yoki shaxslarga qarorlarning nusxasi yoki undan ko'chirma yuboriladi. Agarda qabul qilingan hujjat muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ma'lum joydagi aholiga bevosita aloqador bo'lsa, u to'g'risida hamma fuqarolar tanishtirilishi shart. Bunday hujjatlar hokimlik xodimlari doimiy komissiyalari

tomonidan radio, mahalliy matbuot, e'lonlar, rahbarlarning chiqishlari orqali aholiga yetkaziladi. Deputatlar o'z saylov okruglarida ham shu ishni amalga oshiradilar.

Xo'jalik va ijtimoiy qurilish masalalari bo'yicha qarorlarni ijro qilish katta tayyorgarlik ishlarini talab qiladi. Hukimliklar, doimiy komissiyalar ijroni tashkil qilish tadbirlari rejasini tuzadilar, vazifalarni belgilaydilar, u yoki bu ishni bajarishning muddatlarini belgilaydilar. Bo'lim, boshqarma va xo'jalik rahbarlarining yig'ilishlari tashkil etiladi. Agarda qarorning ijrosiga keng mehnatkashlar ommasini jalb qilish lozim bo'lsa, fuqarolarning majlislari o'tkaziladi.

Ijroni tashkil qilish bilan shug'ullanuvchi xodimlar rahbarlar tomonidan shaxsiy instruksiyadan o'tkazilishi, hokimlik apparati xodimlarining joylarga u yoki bu tadbirni amalga oshirishda yordam berishi uchun borishi muhim ahamiyatga ega.

Qarorni ijro qilish uchun ko'p hollarda hokimning o'z vaqtida bergan farmoyishi zarur buladi. Mansabdor shaxslar tomonidan zarur moddiy-texnika va moliyaviy mablag'larning kechiktirmasdan ajratilishi juda muhimdir.

Jamoatchilikni, mehnatkashlarni qarorni ijrosiga jalb qilish Kengashning bosh vazifalaridan biri. Mehnatkashlarni u yoki bu tadbirlarni amalga oshirishga jalb qilishning shakli, eng avvalo, mahalliy sharoit bilan, tadbirlarning xususiyati bilan belgilanadi. Jamoatchilikni qarorlarni ijro qilishga jalb etishda doimiy komissiyalar, kasaba uyushmalari, deputatlar faoliyati kabi har xil shakl va uslublar qo'llaniladi.

Kengashlar va hokimlarning barcha organlari qo'llayotgan nazoratning amaliy vositasi joylardagi ishning ahvolini tekshirish va o'rganish, tekshirilayotgan korxonalar va tashkilotlarga amaliy yordam berish bilan qo'shib olib borishdir. Kompleks tekshirishda bir yoki bir necha korxonalar, tashkilot yoki muassasa yoxud hokimlik apparatining bo'lim boshqarmalari ishi tekshirilganda har tomonlama o'rganib chiqiladi. Tematik tekshirish yoki o'rganishlar qandaydir bir masalani o'rganishga qaratilgan bo'ladi.

Qarorning ijrosini tekshirish, mehnatni tashkil qilish, fuqarolarning ariza yoki xatlarini ko'rib chiqish holati.

Kengashning yoki hokimlikning ma'lum tarmoqdagi ishi o'rganilayotganda, masalan, savdo va umumiy ovqatlanish, maktablarning o'quv yiliga tayyorgarligi, odat bo'yicha, shu sohadagi hamma korxonalar, muassasalarning ishi tekshiriladi. Shunday yo'l bilan faqat korxonalar, tashkilot va muassasalarning ishi bilangina tanishib qolmasdan, balki ularga tegishli

Kengash va hokimlik, shuningdek, bo'lim va boshqarmalarning rahbarlik qilish sifati bilan ham tanishish uchun keng imkoniyat yaratiladi.

Hozirgi sharoitda qarorlarning ijrosiga deputatlar nazoratini o'rnatish shakllari rivojlanmoqda. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi» qonunga binoan Kengashlarning sessiyada qarorlar ijrosining borishi haqida, deputatlarning sessiyalarda aytgan tanqidiy fikr va mulohazalarini hisobga olish haqida muntazam xabardor qilib borishi belgilangan.

Qarorlarning ijrosi ustidan nazoratning to'g'ri yo'lga qo'yilishi qarorlar ijro qilinganligini hokimlik apparatida, uning bo'lim va boshqarmalarida, doimiy komissiyalar tomonidan aniq hisobga olinishi yordam beradi. Shu maqsadlarda hokimiyat devonida maxsus jurnal yuritiladi. Unda Kengash qarori, hokimning qaror va farmoyishi, hujjatning tartib raqami, qabul qilingan vaqti, nomi va yuborilgan kartoteka bor. Shuningdek, qarorlarning amalga oshirilishi ham qayd qilib boriladi. Qaror ijro qilinib bo'lingach, uning ijrochisi kim ekanligi shu sohaga rahbarlik qiluvchi hokimiyat apparati rahbarlarining ko'rsatmasi bilan nazoratdan olinadi va shu haqda kartochkaga qayd qilinadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida ijroni tekshirish, odatda, umumiy bo'lim, tashkiliy-instruktorklik bo'limlarining instruktorlari, rais yordamchilari tomonidan hisobga olinadi. Lekin ijroni amalga oshirish bo'yicha umumiy rahbarlikni hokim, uning o'rinbosarlari, kotib amalga oshiradi. Bo'lim va boshqarmalarda ijroni nazorat qilish bo'yicha hujjatlarni olib borish bir instruktorga topshiriladi. Doimiy komissiyalarda ham shunga o'xshash hujjatlarni olib borish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan ba'zi hokimliklarda, masalan, Toshkent shahrida qarorlarni hisobga olish, uning ijrosini nazorat qilish zamonaviy hisoblash vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlari bilan ishlash jarayonini quyidagilarga bo'lish mumkin: qaror tayyorlash, qaror qabul qilish, qaror ijrosini tashkil etish, qaror ijrosini tekshirish.

«Davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etish» fanining Kengashlar va hokimlar qarorlariga qo'yayotgan talablari quyidagilardir:

- O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo'lgandagina qabul qilinishi;

- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategik dasturlariga mos kelishi;

- qarorlar qabul qilish uchun mo'ljallangan barcha jarayonlardan o'tgan bo'lishi;

- qabul qilinayotgan sharoitlarga javob berishi va buni ta'minlash uchun muqobil qaror loyihalarining ham tuzib qo'yilishi;

- qarorlarning o'z vaqtida qabul qilinishi.

XIV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI TIZIMI VA ISH FAOLIYATINING SHAKLLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari tizimi

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi¹.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini amalda ko'rsatadigan tashkiliy davlat tuzilmalarini shakllantirish davom etmoqda, davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy tizimi shakllanmoqda.

Vakillik organlari barcha rivojlangan mamlakatlarning davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi o'rin tutadi. Chunki to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan tashkil etilishi tufayli aholi manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi va uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi². Vakillik instituti o'z-o'zini boshqarish demokratiya maktabining rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan³. Sobiq totalitar tuzumga qadar O'zbekistonda barcha muhim qarorlar bevosita aholi yoki uning vakillari Kengashi bilan kelishiilgan shaklda amalga oshirilgan. Soxibqiron Amir Temur davrida ham har ishni Kengashgan holda hal etganligini yozgan⁴. Chunki Qur'oni Karimning «Sho'ro» surasi, 38 oyatida keltirilishicha, «U(imonli kishi)larning ishlari o'zaro maslahat (bilan) bo'lur»⁵. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi o'z milliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini rivojlantirishda otabobolarimizning qoldirgan davlatchilik tajribalariga suyanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni asosida mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlariga hokim rahbarlik qiladi. Viloyat tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003. –M.3.- B.4..

² Анимица Е.Г., Тертышный А.Т. Основы местного самоуправления. – М.: Инфра-М, 2000. –С.138.

³ Исломов Э.М. Гражданское общество: вчера, сегодня завтра. Узбекистан на пути к гражданскому обществу - O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari: (Сборник статей // Отв. Ред.: Р.Алимов. –Т.: Sharq, 2003. –С.38.

⁴ Temur tuzuklari. – T.: G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.- 15 b.

⁵ Qur'oni Karim ma'polarning tarjimai. /Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001. – 483 b. 42-«Sho'ro» surasi, 38-oyat.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari: qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi; jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va sixat-salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli tadbirlarni tashkil etadi. Shuningdek, xo'jalik masalalarini tezkorlik bilan hal qilish, madaniyatni rivojlantirish masalalarini ko'rish va aholining kundalik turmush ehtiyojlarini, madaniy va moddiy talablarini qondirish choralarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida mahalliy davlat hokimiyati tizimi belgilangan bo'lib, bu esa ularning ichki tashkiliy tuzilishini ham mustahkamlaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilma va bo'linmalaridagi mahalliy davlat hokimiyat organlarining tizimi va huquqiy holati "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunida belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi Qarorlari bilan tasdiqlangan namunaviy Nizom va Yo'riqnomalar hamda shu organlarining faoliyatiga taalluqli ichki hujjat qoidalarida belgilangan.

"Mahalliy hokimiyat organlari organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat organlari vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirish darkor. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday yondashuv fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtiroq etish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa fuqarolik jamiyati tamoyillariga to'la mos keladi."¹

O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari kengayishi ularning ijtimoiy hayotda ta'sir doirasini yani faoliyatining yangi-yangi shakllarini vujudga keltirmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, eng avvalo, tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda mas'ul bo'lib, uni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash orqali bunga erishadilar.

¹ Karimov I.A. Biz ketajagimizni o'z qo'limiz bilan quraniz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – B.389.

Mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga bir qator Konstitutsiyaviy vakolatlar yuklatilgan bo`lib, "Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:¹

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg`armalarni hosil qilish;

- mahalliy kommunal xo`jalikka rahbarlik qilish;

- atrof muhitni muhofaza qilish;

- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O`zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish".

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlaridan tashkil topgan.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo`ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlari bo`lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab o`z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.^{2*}

O`zbekiston Respublikasining viloyatlar, tumanlar va shaharlarida tashkil etilgan xalq deputatlari Kengashlari davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab, o`z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etish prinsiplari saylovning muhim rivojlanish talablaridan biri ekanligini ko`rsatmoqda. Bu jarayonlarda siyosiy partiyalarning xalq deputatlari Kengashlari faoliyatidagi ishtiroki dolzarb masalalarni hal etilishida muhim bo`lib hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, birinchi navbatda, siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog`liqligi umume'tirof etilgan demokratik me'yor hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to`g`risida»gi Qonunining 17-moddasida «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir», deyilgan. Tegishli xalq deputatlari Kengashlariga berilgan vakolatlar Oliy Majlis palatalari yig`ilishlarida va xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida ko`rib chiqiladi va hal etiladi.

¹ O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2003. 100-m. 27-b.

² O`zsha erda. 99-m. 27-b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunlari va boshqa qonun hujjatlarida mutlaqo yangidan tuzilayotgan komissiyalarni xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar huzurida bo'lishligini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlarini, Oliy Majlis qarorlarini, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlarini hamda boshqa hujjatlarining ijrosini taminlash uchun viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari qarorlar qabul qiladi va hokimlar qaror, farmoyishlar chiqaradi.

Mahalliy ijroiya va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlariga taalluqli masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo'lgan hujjatlarning samaradorligi ularni tayyorlashga va tajribada ishlab chiqilgan va qonunchilikda ko'rsatilgan ma'lum talablarning bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bunda birinchidan, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning har bir qarori asoslantirilgan bo'lishi, ya'ni masalani yechimi bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, Kengash va hokimning qabul qiladigan har bir qarori keng ma'noda tejamkor bo'lishi shart. Birinchi navbatda, u haqiqatan ham zarur bo'lib qolganda chiqarilishi kerak. Yuqori turuvchi organlarning qarorlarini yoki o'zini Kengash va hokimning oldin qabul qilgan qarorlarini qaytaruvchi, takrorlovchi qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Agar bir-birini qaytarsa, qaror bilan uning ijrosi o'rtasida qarama-qarshiliklar kelib chiqaradigan bo'lsa ijroning ahamiyatini kamaytiradi va uni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. U yoki bu masalani hal qilish yo'llari mavjud bo'lsa, eng kam mablag' sarf qilishni, kam kuch sarf qilishni talab qiladigan yo'l tanlab olinishi lozim.

Uchinchidan, qaror qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni u tegishli organ tomonidan vakolati doirasida qabul qilinishi va u yoki bu masalaning qonun yo'l qo'ygan huquqiy vositalar yo'li bilan hal qilinishi mumkin.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklarning qarorlari sessiyalar va majlislarida deputatlar kvorumida, ovozga qo'yilganda qabul qilinishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va imzolanishi, ijrochilarga belgilangan muddatlarda yuborilishi lozim. Qarorlarning hayotiyiligi va tejamkorligini ta'minlash uchun loyihalarni tayyorlash va qabul qilish tayyorlashda mutaxassislar va manfaatdor tashkilotlar jalb qilinishi, deputatlarning, jamoatchilikning, quyi turuvchi organlarining fikr va mulohazalari e'tiborga olinishi talab etiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar qaror loyihalarini tayyorlashni takomillashtirish maqsadida yo`riqnomalar va boshqa hujjatlarda unga masul shaxslarning javobgarligini oshiruvchi maxsus chora-tadbirlarni belgilaydilar.

Qaror qabul qilish va hayotga tatbiq qilish bo`yicha unga masul shaxslar asosiy ishidan ajralmagan holda amalga oshiradi. Hamda, qarorlarning ijrosini va nazoratini tashkil qilib qolmasdan, yuqori organlar aktlarining amalga oshirilish nazoratini ham tashkil qiladi. Ijro va nazoratni tashkil qilishda hokimlik devoni, bo`lim va boshqarmalari, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari, deputatlik guruhleri va jamoatchilik organlarining faoliyati muvofiqlashtiriladi. Ijroni tashkil qilishning birinchi talabi qarorni ijrochilarga va manfaatdor shaxslarga o`z vaqtida yetkazishdir.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar, ya`ni qarorlar va farmoyishlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, boshqa muddat belgilanmagan bo`lsa, manfaatdor organ yoki shaxslarga qarorlarning nusxasi yoki undan ko`chirma yuboriladi. Agarda qabul qilingan hujjat aholiga bevosita tegishli bo`lsa, u to`g`risida hamma xabardor bo`lishi shart. Bu hokimlikning mas`ul xodimlari, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari tomonidan radio, mahalliy matbuot, e`lonlar, rahbarlarning chiqishlari orqali aholiga yetkaziladi.

Xo`jalik va ijtimoiy qurilish masalalari bo`yicha qarorlarni ijro qilish katta tayyorgarlik ishlarini talab qiladi. Hokimliklar, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari ijroni tashkil qilish tadbirlari rejasini tuzadilar, vazifalarni taqsimlaydilar va bajarish muddatlarini belgilaydilar. Bo`lim, boshqarma va xo`jalik rahbarlarining majlislari tashkil etiladi. Agarda qarorning ijrosiga keng jamoatchilikni jalb qilish lozim bo`lsa, joylarda fuqarolarning yig`ilishlari o`tkaziladi.

2-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga saylovlarni tashkil etish va o`tkazish tartibi

Mahalliy viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga saylov O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov tomonidan deputatlarining vakolatlari muddatining tugashga uch oy qolganda elon qilinadi¹.

¹ "O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to`g`risida"gi qonuni, Nizom va Yo`riqnomalari. -T.: O`zbekiston. 2004. - 5 m.

O`zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to`g`risida»gi 2002-yil 4-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonunining 3-moddasida belgilangan va shunga asosan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar ularning Konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o`n kunligining birinchi yakshanbasida o`tkaziladi. Ushbu kun belgilangandan keyingi uch kun ichida saylov kuni haqida barcha matbuot organlari va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi. Mazkur Konstitutsiyaviy qonun normalari amaldagi saylov to`g`risidagi qonunlarga kiritildi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O`zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to`g`risida»gi (1997-yil 26-dekabr, 1998-yil 25-dekabr, 1999-yil 19-avgust, 2000-yil 26-may, 2003-yil 29-avgust va 2004-yil 27-avgustdagi qonunlariga muvofiq o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan) Qonuniga ko`ra O`zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylovlar tashkil etiladi.

O`zbekiston Respublikasi mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga saylov umumiy, teng va to`g`ridan-to`g`ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo`li bilan amalga oshiriladi. Umumiy saylov huquqida saylov kuniga qadar 18 yoshga to`lgan O`zbekiston Respublikasi fuqarolarning saylovda ovoz berish huquqiga, saylov kuni 21 yoshga to`lgan bo`lsa mahalliy vakillik organlari deputatligiga o`z nomzodini qo`yish huquqiga, saylov kuni 25 yoshga to`lgan bo`lsa Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga o`z nomzodini qo`yish huquqiga ega bo`ladi. Ayni paytda sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolar saylovda ishtirok etish huquqiga ega emas Agar sud hukmi kuchga kirmagan bo`lsa, ishi sud muhokamasida bo`lsa, uning saylov huquqi saqlanib qoladi.

Teng saylov huquqida, O`zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining bir marotaba ovoz berish huquqini belgilaydi. Bunda fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy holatidan, irqiy va milliy mansubligidan, jinsi va ma'lumotidan, dinga munosabatidan, mashg`ulotining turidan qat'i nazar cheklashlarga yo`l qo`yilmasligi ta'minlanadi.

To`g`ridan-to`g`ri saylov huquqi deyilganda, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining fuqarolar tomonidan bevosita saylanishi tushuniladi.

mahalliy vakillik organlari deputatligiga saylov erkin va yopiq tarzda o`tkazilib, unda saylovchilarning o`z xohish-irodalariga chetdan ta'sir ko`rsatish yoki ularni nazorat qilishga yo`l qo`yilmaydi.

”O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”gi (yangi tahriri 29.08.2003.)va «O`zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to`g`risida»gi qonunlariga binoan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar bir vaqtda o`tkazilib, bir mandatli saylov okruglar bo`yicha ko`p partiyaviylik asosida o`tkaziladi va besh yil muddatga saylanadilar.

O`zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to`g`risida»gi Qonunning¹ 6-moddasiga muvofiq viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o`tkazish va ularga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazishda oshkoralik prinsipida tashkil etilishi belgilangan. Unga ko`ra fuqarolarga saylovni borishi to`g`risida xabardor qilib turish, ya`ni fuqarolarni saylov uchastkasi tashkil etilganligi, saylov komissiyasi tarkibi, saylovchilar ro`yhati bilan tanishtirish, deputatlikka nomzodlar haqidagi ma`lumotlar bilan, ovoz berish kuni va tartibi, saylov natijalari bilan tanishtirib borish haqidagi chora-tadbirlar o`z ifodasini topgan.

Mazkur qonunning 7-moddasi saylov okruglarini tashkil qilish jarayonini har tomonlama belgilab bergan: Viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga saylov o`tkazish uchun 60 tagacha saylov okruglari tashkil etiladi, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga saylov o`tkazish uchun esa 30 tagacha saylov okruglari tashkil etiladi. Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashiga bitta deputat saylanadi. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarga saylangan deputatlar sonining qisqartirilishi ularning sifati oshishini ta`minlaydi, ya`ni nomzod deputatlar xalq orasida obro`ga, ma`lum nufuzga, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish borasida muayyan tajribaga ega bo`lmog`i lozim.

Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining deputatlarini saylash uchun tuziladigan saylov okruglarining miqdori saylovchilarning soni va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olingan holda, qonunda belgilangan tartibda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilanadi.

Saylov okruglari saylovchilarning hammasini, ayni paytda, viloyat, tuman va shaharlarning ma`muriy bo`linishi bo`yicha hamma hududlarni qamrab olishi, o`n besh kun ichida muayyan viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi tomonidan mazkur viloyat, tuman va shahar saylov okruglarining ro`yhati elon qilinadi.

Qonunning 8-moddasida saylov uchastkalarini tashkil etishning

¹ O`zbekiston Respublikasining Qonunlari. -T.: O`zbekiston, 2004. - 44 b.

tartibi va tuzish tartib-qoidalari belgilab berilgan. Xususan, unda saylov uchastkalari tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan tuman va shahar hokimlarining tavsiyasiga ko`ra, harbiy qismlar va qo`shin birlashmalarida qo`mondonlarining tavsiyasiga ko`ra tashkil etilishi ifodalangan. Saylov uchastkalari saylov belgilangan kundan boshlab o`ttiz kun ichida tashkil etilishi kerak. Harbiy qismlarda, shuningdek, yetib borish qiyin bo`lgan joylarda ham saylov uchastkalari ana shu muddat ichida, juda kechikib ketgan taqdirda (istisno tariqasida) esa saylov boshlanishidan 5 kun ilgari tashkil qilinishi belgilab qo`yilgan. Saylov uchastkalari saylovchilar uchun juda qulay shart-sharoitlarni yaratib berish maqsadida tashkil qilinadi. Shuning uchun ham ular ayrim hollarda harbiy qismlarda, sanatoriyalarda, shifoxonalarda va boshqa doimiy davolash muassasalari va boshqa tashkilotlarda tashkil etiladi.

Saylov uchastkalari qoida tariqasida kamida 20 nafar va ko`pi bilan uch ming nafar saylovchidan iborat tartibda tuziladi. Saylovchilar qonunda ko`zda tutilgan barcha haq-huquqlaridan foydalana olishi uchun qonunchilik idoralari tuman va shahar hokimiyatlariga har bir saylov uchastkasi uchun alohida ovoz berish binosi ajratishini topshiradi va, ayni paytda, tuman va shahar saylov uchastkasidagi komissiya zimmasiga saylovchilarga mazkur saylov uchastkasining ovoz berish binosi qayerda ekanligini ma'lum qilish vazifasi yuklangan.

Qonunda mustahkamlab qo`yilgan ushbu tadbirlarni amalga oshirish tufayli har bir saylovchi nafaqat o`z huquqiga ega bo`ladi, balki, ayni paytda, u o`zining bevosita fuqarolik burchini ado etib, viloyat, tuman va shahar kabi joylardagi davlat hokimiyati organlari saylovida ishtirok etadi.

Qonunning 9-moddasida saylovni tashkil etish va o`tkazish uchun quyidagi saylov komissiyalarining tuzilishi belgilangan:

a) xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o`tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi;

b) xalq deputatlari tuman Kengashiga saylov o`tkazuvchi tuman saylov komissiyasi;

v) xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o`tkazuvchi shahar saylov komissiyasi;

g) okrug saylov komissiyasi;

d) uchastka saylov komissiyasi.

Saylovlarni tashkil qilish va o`tkazish bo`yicha mas'ul komissiyalarni belgilash bilan birga qonun chiqaruvchi organlar ularning tashkil etilishi borasida qoidalarni, ularning vakolatlari va majburiyatlarini ham qat'i belgilab bergan. Masalan, qonunning 10-moddasida viloyat, tuman va

shahar saylov komissiyasi mazkur viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylov kuni belgilanganidan keyingi 10 kun ichida tashkil etilishi va uning tarkibida rais va 6-14 nafar komissiya a'zolari bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, bu yerda saylov komissiyasi raisining o'rinbosari va kotibi uning birinchi majlisidayoq mazkur komissiya a'zolarining orasidan saylanishi qayd etilgan.

Qonunning 11-moddasida viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining vakolatlari belgilab berilgan bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat:

- mavjud qonunning o'zi ko'zda tutilgan hududda rioya etilishini ta'minlash, hamma joyda unga bir xilda amal qilinishini, saylovni tashkil etish masalalarini oydinlashtirish bo'yicha faoliyat yuritish;

- viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga deputatlar saylashga muvofiq ravishda saylov okruglarini tashkil qilish;

- tegishli xalq deputatlari Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarini tuzish va ularning joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish;

- tegishli saylov komissiyalarining ishini yo'naltirish, ular tarkibiga o'zgartirish kiritish tartibini belgilash, ularga mustaqil ravishda yoki viloyat, tuman, shahar prokurori tavsiyasiga binoan huquq berish, agar ushbu qonunga xilof ravishda qabul qilingan bo'lsa, okrug yoki uchastka saylov komissiyalarining qarorlarini bekor qilish;

- deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, hokimiyatning vakillik organlaridan zarur hujjatlarni qabul qilishni yo'lga qo'yish;

- tegishli xalq deputatlari Kengashlariga nomzodlarni ro'yhatga olish va ular haqidagi ma'lumotlarni chop etish;

- deputatlikka nomzodlar uchun saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun bir xilda shart-sharoit yaratib berish;

- tegishli saylov komissiyalariga pul-mablag'larini taqsimlash, saylov komissiyalarining binolar, transport vositalari va aloqa vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish, saylovning moddiy - texnika masalalarini ko'rib chiqish;

- tegishli xalq deputatlari Kengashiga saylov bo'yicha saylov bulletinlarining shaklini tasdiqlash va ularning tayyorlanishini ta'minlash, saylovchilar ro'yhatini, saylov komissiyalarining bayonnomalarini boshqa saylov hujjatlarini tayyorlash;

- siyosiy partiyalarning, mahalliy davlat organlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining va jamoat birlashmalari vakillarining

saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish borasidagi axborotlarini tinglash;

- tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi saylov yakunlarini chiqarish, saylangan deputatlarni ro'yhatga olish, saylov yakunlari va saylangan deputatlar ro'yhatini matbuotda e'lon qilish, saylov komissiyalarining majlislarida, shuningdek, saylov o'tkazilgan kunda saylovchilarning ovozlari sanalayotgan paytda saylov o'tkazilgan binoda hozir bo'lish, ayni paytda, o'sha yerda hozir bo'lgan deputatlikka nomzod ko'rsatgan har bir siyosiy partiyadan, davlatning vakillik organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, tashabbuskor guruhlardan, matbuot xodimlaridan, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalaridan kelgan vakillarning ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish;

- deputatlarning vakolatlarini tekshirish uchun zarur hujjatlarni tegishli xalq deputatlari viloyat saylov komissiyasiga taqdim etish;

- takroriy saylov o'tkazish bilan aloqador masalalarni hal etish;

- tegishli saylov komissiyalarining qarorlari va faoliyatlari xususidagi ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish va ularni hal etish borasida zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

- ushbu qonunning jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladigan tarzda buzilganligiga doir materiallarni prokuratura organlariga oshirish;

- saylovlarni o'tkazish va ularni tashkil qilish bilan bog'liq barcha hujjatlarni arxivlarga topshirishni ta'minlash va nihoyat, saylovlar to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq vakolatlarni amalga oshirish.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarni o'tkazishda okrug saylov uchastkalari zimmasiga asosiy vazifalar yuklatiladi. Mazkur qonunning 12-moddasiga binoan okrug saylov komissiyalari tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan saylov kuni belgilanganidan keyin kechi bilan yigirma kun ichida tashkil etilib, uning tarkibiga komissiya raisi, uning muovini va 6-8 nafar boshqa komissiya a'zolari kiritiladi.

Mazkur qonunning 13-moddasida okrug saylov komissiyasi vakolatlari har tomonlama aniq va ravshan belgilab berilgan. Xususan, uning zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan¹:

- saylov okrugi hududida ushbu qonunga amal qilinishini nazorat qilish;

- saylovchilarni saylov uchastkasi qayerda joylashganligidan xabardor qilish;

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonunlari. - T.: O'zbekiston, 2004. -50-b.

- deputatlikka nomzodlarning saylovda ishtirok etishlari uchun bir xilda shart-sharoitlar yaratib berish;

- deputatlikka nomzodlarga guvohnoma berish, tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan ularni ro'yhatga olish;

- deputatlikka nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish;

- deputatlikka nomzodlarning ishonchli (vakolatli) vakillarini ro'yhatga olish va ularga maxsus guvohnoma berish;

- siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining saylovlarga tayyorgarlik va uni o'tkazish borasidagi axborotlarini eshitish;

- saylovchilar ro'yhatini tuzish ishlarini nazorat qilish va ularni keng jamoatchilikka ma'lum qilish;

- saylov okrugi bo'yicha saylov bulleteni matnini tasdiqlash va uchastka saylov komissiyalarini saylov bulletinlari bilan ta'minlash;

- saylov okrugi saylov natijalarini aniqlash va uni tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalariga topshirish;

- takroriy ovoz berish va takroriy saylovni tashkil qilish, shuningdek, vakolati tugagan deputat o'rniga deputat saylovi o'tkazishni tashkil qilish;

- uchastka saylov komissiyalarining faoliyati yuzasidan tushgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;

- mazkur qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga muvofiq ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Saylov kampaniyasida uchastka saylov komissiyasi asosiy vazifani bajaradi. Uchastka saylov komissiyasi tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan saylov kuni belgilangandan keyin 50 kun ichida 5-19 kishi tarkibida tashkil qilinib, rais, rais muovini, kotibi va azolari tarkibida tuziladi. Qonunda muayyan shart-sharoitlarga ko'ra komissiya a'zolarining sonini o'zgarishi ham nazarda tutilgan. Agar komissiya a'zolarining soni 7 kishidan oshmasa, ular orasidan faqat rais va kotib saylanadi.

Qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari quyidagicha belgilangan:

- saylov uchastkasi bo'yicha saylovchilar ro'yhatini tayyorlash; saylovchilarni ular bilan tanishtirish, ro'yhatdagi kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish, ro'yhatga arizalarga muvofiq o'zgartirishlar kiritish masalasini hal etish; saylov kunida o'z istiqomat joylarida bo'lmasliklari yoki boshqa sabablarga ko'ra saylovda bevosita ishtirok qila

olmaydigan saylovchilardan saylov konvertlarini qabul qilib olish;

- aholini saylov kuni va uning o'tkazilish joyidan xabardor etish; saylov o'tkaziladigan binoni tayyorlash, unga saylov qutilarini va boshqa saylovga zarur asbob-uskunalarni o'rnatish; saylov kunida saylov uchastkasida ovoz berishni tashkil qilish; saylov uchastkasida berilgan ovozlarni hisoblab chiqish;

- saylov o'tkazish va ovoz berishni tashkil qilish borasida tushgan arizalarni qabul qilish va ular yuzasidan muayyan chora-tadbirlarni ko'rish;

- mazkur qonunga va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Qonunda saylov komissiyalari vakolatlarining har tomonlama va aniq qayd etilishi, O'zbekistonda huquqiy davlat qurish ishi izchil ravishda olib borilayotganligini yaqqol ifoda etib, vakillik organlarini shakllantirishda boshboshdoqlik va voluntarizmga yo'l qo'yilmaslikni, bevosita huquqiy normalar nazorati ostida amalga oshirilishini mustahkamlagan.

Qonunning 16-moddasida komissiya a'zosining o'z vakolatlaridan mahrum etilgan taqdirdagina arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etilishi mumkin ekanligi belgilangan. Vakolatlardan mahrum etish huquqi komissiyani tashkil qilgan organgagina tegishli bo'lib, komissiya a'zolaridan biri qonun talablariga rioya etmasa yoki o'z vazifalarini bajarmasa, vakolatlaridan mahrum etiladi. Zarur hollarda qonunda belgilangan tartibda komissiya tarkibiga boshqa a'zo saylanishi mumkin. Shuningdek, saylov komissiyasining raisi, rais muovini, kotibi va boshqa a'zolari siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi mumkin emas. Bir shaxs faqat bir saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar saylov komissiyalariga a'zo bo'lishlari mumkin emas. Qonunda saylov komissiyalari ishini tashkil qilish har tomonlama belgilab berilgan. Masalan, saylov komissiyasining majlisida a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan holdagina uning qarorlari o'z kuchiga ega bo'lishi mumkin. Komissiya qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan hisoblanadi. Qabul qilingan qarorlardan norozi bo'lgan komissiya a'zolari o'z fikrlarini yozma ravishda bayon qilishlari mumkin va ushbu fikr-mulohazalar majlis protokoliga ilova tarzida yoziladi. Agar ovozlar teng kelib qolganda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi kuchga ega bo'ladi.

Saylov komissiyasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari muayyan davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, keng jamoatchilikning, harbiy qismlar, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning

rahbarlari tomonidan amalga oshirilishi majburiydir.

Saylov komissiyasi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun saylov komissiyasi raisi, uning muovini va kotibi bevosita ishlab chiqarish yoki asosiy xizmat majburiyatlaridan ozod qilinadi hamda saylov tadbirlariga ajratilgan mablag'lar hisobidan o'rtacha oylik maoshi saqlanib qoladi. Shuningdek, davlat tuzilmalari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning rahbarlari saylov komissiyasining ishiga har tomonlama ko'maklashishlari, ularning o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari, bino va jihozlar bilan ta'minlashlari kerak. Saylov komissiyalarining so'rovlariga davlat va jamoat tuzilmalari, muayyan lavozimdagi shaxslar uzog'i bilan uch kunda javob berishlari lozim. Bunday tartiblar saylov komissiyasining samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratib beradi. Bundan tashqari saylov komissiyalarining faoliyat yuritish muddatlari ham qat'i belgilab qo'yilgan. Masalan, viloyat, tuman va shahar, okrug va uchastka saylov komissiyalari o'z faoliyatlarini tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan saylov okruglari bo'yicha deputatlarining vakolatlari tan olingandan keyin to'xtatiladi.

Qonunning 18-moddasida, saylov komissiyalarining qarorlari yuzasidan deputatlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, deputatlikka nomzodlar, saylovchilar tashabbuskor guruhlarining azolari, kuzatuvchilar va saylovchilar yuqori saylov komissiyalariga yoki sudga saylov komissiyasining qarori qabul qilingandan keyin o'n kun ichida ariza yoki shikoyat berishi mumkin. Murojaatlar uch kun ichida, agar saylovga olti kundan kamroq vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi belgilangan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashlariga deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari egadirlar, tuman va shahar deputatlari Kengashiga nomzod ko'rsatish huquqiga esa siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari egadir. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bu tarzda nomzodlar ko'rsatish tartibi saylovlarni muqobillik asosida o'tkazishga, ularda turli davlat va jamoat tashkilotlarining ishtirok etishida populistik va safsatabozlikka yo'l qo'ymaslikka, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida mehnat jamoalarining barehasi ishtirok etayotganligi haqidagi xalqchilikning xuddi sovet davridagi kabi soxta demokratiyaga yo'l qo'ymaslikka keng imkoniyatlar yaratadi.

Lekin, yuqorida qayd etib o'tilgan mahalliy Kengashlarga nomzodlarni ko'rsatish tartibi «O'zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi 2003-yil

27-avgustdagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, vakillik organlari nomzodlarni ko'rsatish huquqidan mahrum qilindi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar faqat siyosiy partiyalar, fuqarolarning tashabbuskor guruhlari orqali va tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek bevosita fuqarolar egadirlar deb belgilandi.

Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin qonunda belgilangan tartibda ro'yhatga olingan taqdirdagina deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin. Bu yangi qoidalar amaldagi saylov to'g'risidagi qonunlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar sifatida kiritiladi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka nomzod ko'rsatishi uchun saylov kuni belgilangandan keyingi yigirma kun ichida viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasiga saylovda ishtirok etish haqida ariza topshirishlari lozim. Ushbu arizada siyosiy partiya yuqori organi rahbarining imzosi bo'lishi, shuningdek, siyosiy partiyaning qonunda belgilangan tartibda ro'yhatga olinganligi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarni taqdim etgandan so'ng tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi siyosiy partiyaning vakiliga maxsus ma'lumotnoma beradi. Ana shu hujjatlar asosida saylov komissiyasi besh kun ichida mazkur siyosiy partiyaning saylovda ishtirok etishi haqida o'z qarorini chiqaradi. Yuqorida ko'rsatilgan qonunning 21-moddasiga muvofiq ko'ppartiyaviylik asosida saylov o'tkazilishini ta'minlash uchun saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning arizalarini kelib tushgan vaqtiga qarab ro'yhatga olinadi va tegishli viloyat, tuman va shahar matbuotida e'lon qilinadi. Qonunning 22-moddasiga binoan viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga nomzod ko'rsatish saylov kuni belgilangandan keyingi yigirma besh kun ichida boshlanib, saylov boshlanishiga qirq besh kun qolganda to'xtatiladi. Bunday muddatning belgilanishi saylovchilarning nomzodlikka tavsiya qiladigan shaxslarni har tomonlama o'rganishlari, ular borasida o'zlarining qat'iy fikrlariga ega bo'lishlari va xulosa chiqarishlariga imkoniyat yaratiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning hududlardagi organlari tomonidan, fuqarolar yig'inlari (vakillar majlisi)da ko'rsatilishi amalga oshiriladi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham har bir saylov okrugi bo'yicha faqat bittagina nomzod ko'rsatish huquqiga egadirlar. Agar bir saylov okrugi hududida o'z-o'zini

boshqarishning ikki yoki undan ortiq organi joylashgan bo'lsa, bu tashkilotlardan nomzod ko'rsatish masalasi ularning vakillari majlisida hal etiladi. Vakillar miqdori qancha bo'lishini tegishli saylov komissiyasi belgilaydi.

Deputatlikka nomzod albatta, tegishli viloyat, tuman yoki shahar hududida ishlovchi yoki yashovchi fuqarolardan iborat bo'lishi kerak. Ayni paytda, tegishli viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzod faqat bir saylov okrugidan ko'rsatilishi mumkin. Siyosiy partiyalar, fuqarolarning tashabbuskor guruhlari, o'zini o'zi boshqarish organlari xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlarni mustaqil ravishda ko'rsatish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiya deputatlikka nomzod ko'rsatishda faqat o'z partiyasi azolari bilan cheklanmasdan boshqa shaxslarning nomzodini ham ko'rsatish huquqiga ega.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ro'yhatga olish siyosiy partiyaning tegishli organ rahbari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari tegishli saylov komissiyaga o'zlarining deputatlikka nomzodlarini ro'yhatga olishni so'rab murojaat qiladilar. Ayni paytda, ariza bilan birgalikda mazkur saylov komissiyasiga siyosiy partiya organining, fuqarolar yig'ini (vakillar majlisi)ning yoki o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari yig'ilishining deputatlikka nomzod qilib ko'rsatganligi haqidagi qarori, mazkur nomzodning rozilik xati ham taqdim etiladi. Deputatlikka nomzod etib, sudyalar yoki prokuraturaning mansabdor shaxslari faqat saylanganlaridan keyin o'z lavozimlaridan bo'sh shashi haqidagi oldindan ariza yozganlaridan keyin ro'yhatga olinishi mumkin. Qonunning 23-moddasida deputatlikka nomzodlarga qo'yilgan talablar: Birinchidan, sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan fuqarolar; ikkinchidan, saylov kuniga qadar so'ngi besh yil ichida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilmagan shaxslar; uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi harbiy kuchlarining xizmatchilari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, ichki ishlar va boshqa harbiy bo'linmalar xodimlari; to'rtinchidan, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yhatga olinmaydilar.

Bunday cheklovlar vakillik organlari faoliyatini tashkil etilishida obyektiv munosabatlarni shakllanishiga xizmat qiladi va saylov tadbirlarida kuch yoki ruhiy tazyiq bo'lmasligining kafolatidir.

Deputatlikka nomzodlarni ro'yhatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganida to'xtatiladi. Siyosiy partiyalar, fuqarolarning tashabbuskor guruhlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan

shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik uchun hujjatlar saylov komissiyalari nomzodlarni ro'yhatga olish tugatilishidan yetti kun ilgari ko'rib chiqadi. Qonunda bunday talablarning belgilanishi saylov kampaniyasida o'zi-bo'larchilikka yo'l qo'ymaslik, soxtagarchilikning oldini olish, turli tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining nomzodlarni ro'yhatga olish tugagandan so'ng besh kun ichida ularning ro'yhati va anketa ma'lumotlarini mahalliy matbuotda e'lon qiladi.

Albatta, muqobilik asosidagi saylov o'tkazishida saylovoldi targ'ibot - tashviqotlarisiz belgilangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Qonunga muvofiq saylovoldi targ'ibot va tashviqot tadbirlari deputatlikka nomzodlar viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan ro'yhatga olingandan keyin boshlanadi. Deputatlikka nomzodlar uchun teng ommaviy-axborot vositalaridan foydalanish, o'z saylovchilari bilan majlislarda muloqotda bo'lish imkoniyatlari berilishining qonunda belgilanganligi nihoyatda muhim huquqiy vosita sifatida saylovning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, saylov komissiyalari zimmasiga saylovchilar bilan bo'ladigan majlislarni tuman yoki shahar hokimliklari bilan hamkorlikda o'tkazish vazifasini yuklaydi. Saylov komissiyalari va hokimlikning vakillari deputatlikka nomzodlarning o'z saylovchilari bilan uchrashuvlarini o'tkazish uchun binolar va zarur jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etadilar. Majlislarda fuqarolarning ishtirok etishini ta'minlash maqsadida qonunda uchrashuvlarni ish va xizmat joylarida bo'sh vaqtlarda o'tkazilishi haqida saylovchilarga oldindan xabar berilishi nazarda tutilgan.

Ayni paytda, fuqarolarning osoyishtaligi va tinch-totuvligiga rahna soluvchi xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qonunning 25-moddasida siyosiy partiyalarning va deputatlikka nomzodlarning dasturlari respublikaning suverenitetiga, yaxlitligiga, xavfsizligiga qarshi yo'naltirilmasligi, xalqning salomatligiga va ma'naviyatiga rahna solmasligi, urushga, milliy nizolarga sabab bo'lmasligi, diniy dushmanlik va Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik ishlatib o'zgartirishga undamasligi, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va burchlarini poymol qilmasligiga - alohida ahamiyat berilgan.

Qonunda saylov kuni targ'ibot-tashviqot yurgizishga yo'l qo'yilmasligining ko'rsatib o'tilishi ham saylovlarni demokratik uslubda o'tkazish qoidalarini o'rnatgan.

Deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillarining huquqiy holati qonunda alohida normada o'z ifodasini topgan. Viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod uch nafarga qadar ishonchli vakilga ega

bo`lishi mumkin. Ularning zimmasiga nomzodni deputatlikka saylash uchun targ`ib qilish, saylovchilar bilan bo`ladigan o`zaro muloqotlarda uning manfaatlarini ifoda etish, saylov komissiyalarida qo`llab-quvvatlash majburiyatlari yuklatilgan. Deputatlikka nomzodlar ishonchli vakillarini o`zlari tayinlash huquqiga egadirlar va bu haqda okrug saylov komissiyasiga ma'lumot beradilar. Okrug saylov komissiyasi nomzodlarning ishonchli vakillari (vakolatli shaxslari)ni ro`yhatga oladilar va ularga maxsus guvohnoma beradilar. Ayni paytda deputatlikka nomzod o`z ishonchli vakilining vakolatlarini bekor qilishi, uni almashtirishi mumkin. Nomzodning ishonchli vakili o`zi istagan paytda, o`z vakolatlaridan voz kechishi mumkin. Vakolatli shaxsning faoliyati holis bo`lishini ta'minlash uchun uning saylov komissiyasiga a'zo bo`lishi mumkin emas.

Saylov to`g`risidagi qonunda, deputatlikka nomzodning saylovda o`z nomzodini ko`rsatishdan voz kechishi mumkinligi yoki o`z nomzodini butunlay qaytarib olishi mumkin ekanligi masalasi o`z ifodasini topgan. Shuningdek, Qonunning 28-moddasida siyosiy partiyalar fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhi istagan paytda deputatlikka nomzod haqidagi qarorni o`zgartirishi mumkinligi ko`zda tutilgan. Bu qarorga muvofiq viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari muayyan saylov komissiyasiga yangi nomzodni ro`yhatga olish uchun ariza beradilar. Nomzodlikka ko`rsatilgan nomzodlar tegishli siyosiy partiyalari o`z faoliyatini tugatgan hollarda ham o`z maqomidan mahrum etiladilar.

Saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish jarayonlarida saylovchilar ro`yhatini tuzish ham muhim o`rin tutadi. Saylovda teng ovoz berish huquqining ta'minlanishi shu tadbirning to`g`ri amalga oshirilishiga bog`liqdir. Saylovchilarning ro`yhati jamoatchilik e'tiboriga saylov boshlanishidan o`n besh kun ilgari ma'lum qilinadi. Bu esa saylovchilarning ro`yhat bilan tanishishlari va unda yo`l qo`yilgan ayrim noaniqliklar va xatoliklarni saylovdan oldin bilishlari va uni saylov uchastkalariga aytib tuzatishlariga imkoniyat tug`diradi. Bunday arizalar saylov uchastkalarida yigirma to`rt soat ichida ko`rib chiqilib, hal etilishi kerak. Agar saylov komissiyalarining qarori saylovchilarni qoniqtirmasa, ular o`z navbatida qonunga muvofiq sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Saylov yakunini aniqlanishida saylov bulletinlarini tayyorlash va saylov okruglariga tarqatish muhim hisoblanadi. Qonunning 32-moddasiga binoan saylov bulletinlari davlat tilida chop etilishi bilan birga tegishli viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarining qaroriga muvofiq ma'lum saylov okrugida yashovchi aholining ko`pchilik qismi so`zlashadi-

gan tilda ham chop etilishi mumkin. Saylov komissiyalari tomonidan saylovga tayyorgarlik ishlari qanday olib borilganligining natijasini saylovchilarning ovoz berish jarayoniga qarab belgilash mumkin. Shuning uchun saylovga juda puxta tayyorgarlik ko`rish, ayniqsa, saylovchilarning huquqlarini to`la ta`minlashga alohida e`tibor beriladi. Qonunning 34-moddasi saylovda ovoz berish maxsus binolarda, yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar tashkil qilinishi, saylovchilarga bulle-tenlarni tarqatish joylari tashkil etilishi va saylov bulletinlarini yig`ish uchun maxsus qutilar o`rnatilishi alohida ko`rsatib o`tilgan.

Saylov komissiyasi saylovchilarni saylov qayerda o`tkazilishi haqida saylov kuni dan o`n kun oldin xabardor qiladi. Bu o`z navbatida, saylovni samarali va muvaffaqiyatli tashkil etish, ortiqcha tashvishlarsiz, shoshma-shosharliklarsiz o`tkazishga imkoniyat yaratadi. Zero, bunday holatda saylovchilar ham saylovda ishtirok etish uchun avvaldan tayyorgarlik ko`rib yuradilar va saylov kuni da saylovchilarning aksariyat ko`pchiligi ishtirok etishiga zamin yaratiladi.

Saylov kuni saylov o`tkaziladigan maxsus binoga uchastka saylov komissiyasi a`zolarining kamida uchdan ikki qismi yig`ilganidan so`ng ochiladi. Saylov komissiyasi raisi komissiya a`zolari ishtirokida saylov qutilarining surguchlarini olib tashlaydi va ular o`rtasida saylov bulletinlarini tarqatib, saylov boshlanganligini ma`lum qiladi. Dastlab, bulletinlarning umumiy soni alohida hujjatda qayd etildi. Saylovchi ovoz berishda ishtirok etish uchun saylov to`g`risidagi qonunning 37-moddasiga binoan o`z shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasini ko`rsatishi va shundan keyin saylovchilar ro`yhatidagi o`z ismi-sharifi yoniga imzo chekishi kerak.

Saylovning holis o`tishini ta`minlovchi yana bir holat shundaki, saylov bulletinini mustaqil to`ldira olmaydigan saylovchi o`z ixtiyoriga ko`ra saylov komissiyasi a`zolaridan tashqari har qanday boshqa kishini ko`makka chaqirishi va uning ko`magida saylov qog`ozini to`ldirishi mumkinligidir. Saylovchilar uchun yana bir qulaylik shundan iboratki, agar saylov kuni yashash joylarida bo`lish imkoniyatlariga ega bo`lmasalar, oldindan o`z saylov bulletinlarini saylov uchastkasidagi maxsus qutilarga yopiq konvertlarga solgan holda qoldirishlari mumkin. Bu ham saylovda saylovchilarning birortasi e`tibordan chetda qolmasligini ta`minlashda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunday tajriba taraqqiy topgan ko`plab xorijiy mamlakatlarda keng qo`llanilmoqda. Saylovchilarning ayrimlari salomatliklarini yo`qotganliklari tufayli kasalxonalarda va boshqa shifoxonalarda davolanayotgan hollarda ularning ham fuqarolik huquqlarini hurmat qilgan holda saylovda ishtirokini ta`minlash

Uchun bevosita ular davolanayotgan joylarda ovoz berishni tashkil qilish **qonunda** ko`zda tutilgan. Buning uchun saylov komissiyasi o`z a'zolaridan **bilfo** maskanlariga yuboradilar.

Saylov natijalari Qonunning 39-moddasiga binoan saylov bulletinlari **yig`iladigan** qutilar uchastka saylov komissiyasi raisi ovoz berish tugaganini e`lon qilganidan keyin ochilishi belgilangan. Saylov tugallanmasdan saylov bulletinlari yig`ilgan qutilarni ochishni qat`iyan man etadi.

Uchastka saylov komissiyasi tomonidan ovozlarni sanab chiqishda har bir deputatlikka nomzod uchun berilgan ovozlar alohida-alohida sanab chiqish orqali amalga oshiriladi. Saylovning qay darajada demokratik tarzda o`rganligi ovozlarni sanashda saylov bulletinlarini sanash tartibiga qarab aniqlash mumkin. Saylovchilarning ovozlarni sanash natijalari saylov uchastkasida saylov komissiyasi majlisining bayoni orqali qayd etilib, unga saylov komissiyasining raisi, rais muovini, kotibi va komissiyaning boshqa a'zolari imzo chekadi. Buning orqali ovozlarni sanashda bir yoqlamalikka yo`l qo`yishning oldi olinadi. Saylovchilarning ovoz berish natijalarini aniqlash okrug, viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalarida ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi. Qonunning 41-moddasida, saylovda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko`pining ovozini olishga muvaffaq bo`lgan deputatlikka nomzodlarga deputat sifatida saylangan hisoblanadilar. Basharti, saylovda saylovchilar ro`yhatiga kiritilgan saylovchilarning o`ttiz uch foizidan kamrog`i ishtirok etgan bo`lsa saylov o`tmagan deb topiladi.

Agar saylov jarayonida uning natijalariga ta'sir ko`rsatuvchi qonunga xilof xatti-harakatlar yuz bergan bo`lsa, e`lon qilingandan keyin o`n kun ichida sudga ariza berish mumkin.

Agar saylov okrugidan ikki nomzod deputatlik uchun ko`rsatilgan bo`lsada, ularning har ikkalasi ham saylovchilar ro`yhatida qayd etilgan saylovchilarning yarmidan ko`prog`ining ovozini olishga muvaffaq bo`lmasa, okrug saylov komissiyasi saylovni bir oy muddat ichida takroriy o`tkazish huquqiga egadir. Agar saylov okrugidan ikkitadan ortiq nomzod deputatlik uchun ko`rsatilgan bo`lsada, ulardan hech biri saylovchilar ro`yhatida qayd etilgan saylovchilarning yarmidan ko`prog`ining ovozini olishga muvaffaq bo`lmasa, okrug saylov komissiyasi ikki hafta muddat ichida takroriy ovoz berishni o`tkazish huquqiga egadir. Takroriy saylov quyidagi hollardagina o`tkazilishi mumkin:

- saylov okrugi bo`yicha saylov o`tmagan yoxud haqiqiy emas deb topilgan bo`lsa;

- takroriy ovoz berish deputatni aniqlash imkonini bermagan bo`lsa;

- saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birortasi ham saylanmagan bo'lsa.

Takroriy saylov o'tkazishning o'ziga xos talablari bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- viloyat, tuman va shahar komissiyalari o'tkaziladigan takroriy saylovda okrug va uchastka saylov komissiyasining yangi tarkibda bo'lishi haqida qaror qilishlari mumkin;

- asosiy saylovlar deputatlikka nomzodi ko'rsatilgan shaxs, qayta saylovda ishtirok etishi mumkin emas;

- qayta saylovlar asosiy saylovlar o'tkazilgandan keyingi bir oy ichida o'tkazilishi shart.

Saylovning davomiyligi bo'shab qolgan deputat o'rniga yangi deputatni saylash mexanizmi Qonunning 44-moddasida, deputat chaqirib olingan taqdirda, boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda tegishli saylov okruglarida yangi saylov o'tkaziladi. Saylov tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylov o'tkazilishiga kechi bilan bir oy qolganida tayinlanadi va ushbu Qonunning talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi. Bu jarayonlarda viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tuzilmaydi, okrug saylov komissiyasi saylovga yigirma besh kun qolganida, uchastka saylov komissiyalari esa - o'n besh kun qolganida tuziladi. Tegishli xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi vakolat muddatining tugashiga olti oydan kam vaqt qolganida deputatning o'zni bo'shab qolsa, bo'shab qolgan o'ringa yangi deputat saylovi o'tkazilmasligi mumkin.

Huquqiy davlat barpo qilish jarayoni ketayotgan bir paytda saylovlarni moddiy ta'minlash masalasi ham yangicha usulda hal etilmoqda. Qonunning 48-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida saylovni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar O'zbekiston Respublikasi davlat mablag'lari hisobidan qoplanadi. Ayni paytda, deputatlikka nomzodlarni boshqa yo'llar bilan moddiy rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash taqiqlab qo'yildi. Buning natijasida ko'plab suiste'molliklarning, saylovchilarni sotib olish va boshqa saylovoldi xatti-harakatlarning oldi olindi.

Shuning bilan birga, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, muassasalar, tashkilotlar va respublika fuqarolari ixtiyoriy ravishda saylovlarni o'tkazish tadbirlari uchun o'z mablag'alarini o'tkazish imkoniga ega. Bu mablag'lar viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan saylovlarni o'tkazish jarayonida sarflanadi. Qonundagi yana bir muhim, yangi jihat uni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi moddaning mavjudli-

14. Qonunda saylovchilarning saylash va saylanish, saylovoldi tashviqot va borishni amalga oshirishlariga zo`ravonlik, aldash, tahdid solish yoki boshqa yo`llar bilan to`sqinlik qiluvchi shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto`g`ri sanab chiqqan, yashirin ovoz berish tartibini buzgan yoki ushbu qonunning boshqacha tarzda buzilishiga yo`l qo`ygan saylov komissiyalarining a`zolari, boshqa mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalarning, fuqarolarning, o`zini o`zi boshqarish organlarining vakillari O`zbekiston Respublikasi qonunlariga ko`ra javobgarlikka tortiladilar. Shuningdek, deputatlikka nomzod to`g`risida soxta ma'lumotlar e'lon qilgan yoki ularni o`zgacha tarzda tarqatgan shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar.

3-§. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy prinsiplari va vakolatlari

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq respublikada, yagona vakillik organlarining tizimi tashkil etilgan bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qonun chiqaruvchi hokimiyatni, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari qonun hujjatlarining amalga oshirish mexanizmini ta`minlaydi.

Xalqning vakolatli organlari yagona tizimga birlashgan holda oliy vakolatli organ sifatida davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyatini nazorat qilinishini amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasining vakillik organlari o`z faoliyatini amalga oshirishda umumetirof etilgan demokratik prinsiplarga tayanadi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida qonun ustuvorligi prinsipi; xalq hokimiyatchiligi (demokratizm) prinsipi; fuqarolar va jamoat birlashmalarining ishtiroki prinsipi; kollegiallik prinsipi; oshkoralik prinsipi; millatlar tengligi prinsipi; boshqarish va boshqaruv faoliyatini ilmiy tashkil etish prinsiplarining ahamiyati kattadir.

Oliy va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashkil etilishi va faoliyatidagi demokratik prinsiplar yordamida mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvi ishlariga jalb qilinadi, respublika mustaqilligini mustahkamlash borasidagi muhim masalalarni hal etish va ularni hayotga tatbiq qilishda faol ishtirok etadilar.

Davlat hokimiyati vakillik organlarining tashkil etilishi va faoliyatini prinsiplari deganda ularning tashkil etilishi va faoliyatining shakl va uslublarini belgilab beruvchi ilmiy-huquqiy g`oyalar, yetakchlovchi-rivojlanish yo`llarini ko`rsatuvchi, yangilika undovchi haqiqiy yo`nalish tushuniladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining demokratik prinsiplari xalq deputatlari Kengashlarining tashkil etilishi va faoliyatining to'g'ri yo'nalishini belgilab beradi. Bu prinsiplar, albatta, iqtisodiy munosabatlarni, jamiyat rivojlanishining siyosiy shart-sharoitlarini ham aks ettiradi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining prinsiplari Kengashlarning tashkil etilishi va faoliyatiga ta'sirining samaradorligiga, ularning ilmiy yetukligi va asoslantirilganligiga, jamiyatning haqiqiy rivojlanish darajasiga bog'liq.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati prinsiplari o'zlarining ahamiyatiga ko'ra asosiy (umumiy) va xususiy (maxsus) turlarga ajraladi. Umumiy prinsiplarga:

- 1) hokimiyatning taqsimlanish prinsipi;
- 2) fuqarolarning davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga jalb etish prinsipi;
- 3) qonuniylik prinsipi;
- 4) millatlarning tengligi prinsipi;
- 5) kollegiallik prinsipi;
- 6) oshkoralik prinsipi;
- 7) yuqori organlar aktlarining quyi organlar uchun majburiyligi prinsipi.

Hamma asosiy prinsiplar bir-birlari bilan o'zaro mustahkam bog'langan, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Masalan, fuqarolarning xalq deputatlari Kengashlari va ularning organlari ishiga keng jalb qilish eng avvalo faoliyatida oshkoralikni ta'minlash va qonuniylikka qat'i rioya qilish orqali erishish mumkin.

Davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil etilishi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov; "Bo'lib o'tgan saylovlar avvalgilaridan nainki ochiqligi va keskin kurash olib borilishi bilan, balki, avvalo aksariyat saylovchilarning bu jarayonlardan har tomonlama xabardorligi, ularga ongli munosabati bilan ham tubdan farq qildi. Fuqarolarimiz saylovlarga mamlakatimiz hayotidagi eng muhim, jamiyatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga tasir ko'rsatadigan siyosiy voqea sifatida yondashdilar. Bu ham bizning eng katta yutuqlarimizdan biridir"¹ degan edi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini tashkil etishning

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratishtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005. -33 b.

umumiy prinsiplari davlat va hokimiyat rivojlanib borgan sari o`zgarishlar ham ko`zda tutiladi.

Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining demokratik prinsiplari tashkiliy-siyosiy munosabatlarning huquqiy va tashkiliy shakllarini to`liq qamrab oladi. Misol uchun, Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining maxsus prinsiplari vakillik organlarining tizimi va hokimiyatning bo`linish prinsipiga ko`ra belgilanadi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil etishda maxsus prinsiplarini quyidagi tartibda o`rganish mumkin. Maxsus prinsiplarga:

- 1) vakillik organlari tizimining birligi prinsipi;
- 2) vakillik organlari faoliyatida yetakchi funksional prinsipi;
- 3) vakillik organlarining vakolatlilik prinsipi;
- 4) vakillik organlari faoliyatining tashkiliy tuzilish prinsipi;
- 5) vakillik organlari faoliyatida boshqa davlat organlari bilan o`zaro munosabatlarning belgilanish prinsipi.

Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining umumiy ahamiyatga ega bo`lgan prinsiplari, davlat hokimiyati vakillik organlari to`g`risidagi nazariyaning o`zagini tashkil etadi. Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining demokratiyaviyligi oshkoralik, kollejalik, qonuniylik, millatlarning tengligi prinsipi asos bo`lib hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlikning faoliyatida boshqaruvni ilmiy tashkil etish prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy prinsiplar Xalq deputatlari Kengashlari va ularning organlarini tashkil etish va faoliyatining boshqa maxsus prinsiplari uchun zamin bo`lib xizmat qiladi.

Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari huquqiy va tashkiliy vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularning ta'minlanishi bevosita huquqiy vositalarning mustahkamlanishi bilan belgilanadi. Jumladan, bu prinsiplar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunida belgilangan bo`lib, Qonunning 1-moddasida «Xalq deputatlari Kengashi va hokim aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi», deyilgan. Bu esa fuqarolarni Kengash va uning organlari faoliyatiga jalb etish prinsipidir.

Yuqorida sanab o`tilgan prinsiplarning huquqiy ta'minlanishi xalq deputatlari Kengashlari tomonidan boshqa davlat organlariga tegishli huquq va majburiyatlarni tartibga solinishi bilan erishiladi.

Xalq deputatlari Kengashlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplarini qonun me'yori darajasiga ko`tarish, unga doimiy amal

qilishning majburiyligi va uning ijro qilinishi qonun talablaridan biri ekanligini bildiradi.

Tashkiliy tomondan xalq deputatlari Kengashlari ishini uyushtirishning asosiy demokratik prinsiplari tashkiliy shakl va uslublar tizimi bilan ta'minlanadi. Ular, birinchidan, shu prinsiplarda talablarga javob beradi, ikkinchidan, prinsiplarni amalda tatbiq etish uchun muayyan yo'nalish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Demokratiyaning muhim prinsipi - davlat hayotida ishtirok qilishda, boshqarishda, xizmatini o'tashga fuqarolarni muntazam jalb qilib borishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillarini belgilab berar ekan, yaqin kelajakda fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarishda qatnashuvini ta'minlaydigan huquqiy asoslarni takomillashtirishga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidladi.

Bizning mamlakatimizda ommani davlat ishlarini boshqarishga jalb qilishda xalq deputatlari Kengashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholini xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga jalb etish xalq ommasini Kengashlarning faoliyatida ishtirokini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqi ularga faqat saylovlarda ishtirok etish imkonini berib qolmasdan, deputatlikka saylangandan so'ng davlat hokimiyatini bevosita amalga oshirish imkonini ham beradi.

Xalq deputatlari Kengashlari aholining yordamisiz faqat o'z deputatlarining kuchiga tayangan holda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha oldilarida turgan juda katta, ko'p qirrali vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olmas edilar. Bu esa uning faoliyatini doimo takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Fuqarolarning xalq deputatlari Kengashlari ishidagi ishtiroki saylash va saylanish huquqini amalga oshirish, ariza, shikoyat va takliflar bilan murojaat qilishi, doimiy komissiyalar faollari sifatida uning yig'ilishlarida ishtirok etish, hokimlikning bo'lim va boshqarmalarida jamoatchilik asosida ishlashlari va hokazolar kiradi.

Aholining xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida ishtirok etish shakllari uch turga ajraladi. Birinchidan; jamoatchilik tashkilotlari orqali ishtiroki, ikkinchidan; jamoatchilik tashabbuskor tashkilotlarining ishtiroki, uchinchidan; ishlab chiqarish va turar joylardagi majlislarida ishtirok

etish huquqlari kiradi. Majlislarda xalq deputatlari Kengashlari va uning **organlari** vakolatlariga kiruvchi masalalarni dastlabki tarzda muhokama **qilinadi**.

Aholining xalq deputatlari Kengashlari ishiga jalb qilish uchun har xil tashkiliy huquqiy vosita shakllari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida sessiyalarini tayyorlash va o'tkazishda, faqatgina deputatlarnigina emas, balki keng jamoatchilikni ham hokimlikning ijroiya apparatida jamoatchilik asosida ishlashga jalb qilish uchun qator huquqiy vosita usullari ishlab chiqilgan. Har xil masalalarni hal etish bo'yicha komissiyalarda, bo'limlar qoshida tuziladigan jamoatchilik guruhlarida faoliyat ko'rsatish. Aholining ishtiroki vositalari ichida qonun va qarorlarning loyihalarini oldindan muhokama qilish alohida o'rin tutadi.

Huquqiy hujjatlar loyihalarini oldindan muhokama qilish ular qanchalik xalq erkini ifodalashini bilish, undagi yo'l quyilgan kamchiliklarni aniqlab olish uchun olingan taklif, fikr-mulohazalar olinadi.

Jamoatchilik vakillari maslahat ovozi bilan xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarida, hokim qoshidagi maslahat Kengashi va doimiy komissiyalar majlislarida ishtirok etishlari mumkin. Ular tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Eng yaxshi qaror ham, agarda uning ijrosi oldindan belgilanmasa qog'ozdaligicha qolib ketaveradi. Shuning uchun ham qarorlarning ijro etish jarayonlari keng jamoatchilikning fikrini o'rgangan holda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida vakillik organlari faoliyatini nazorat qilishda aholi keng jalb qilinadi. Shuning uchun ham huquqiy davlat qurishda deputatlarning o'z saylovchilari oldida hisob berib turishlari muhim o'rin tutishi lozim. Ma'lum bir loyiha, muayyan qonun muhokama etilayotgan paytda ham saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish mumkin. Bu esa vakillik organlarining qonunchilik faoliyati sifatini oshiradi, qonunning ta'sirchanligi ta'minlanadi, xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning hamma sohalarida xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining tashkil etilishi va demokratiyaviyligining mohiyati shundan iboratki, turli siyosiy partiya va harakatlarning vakillaridan iborat deputatlar yagona bir tizimga birlashgan holda, bir maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar. Bu oddiygina yuqori turuvchi va quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining o'zaro munosabatini belgilamasdan, vakolatli davlat hokimiyati vakillik organlari-

ning halqchilik prinsipidir.

Xalq deputatlari Kengashlarining faoliyat prinsiplarini ta'minlashning bir qator tashkiliy kafolatlari mavjud. Ularning eng muhimlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan Oliy Majlis palatalari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunlarda, mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda va boshqa normativ hujjatlarda mustahkamlangan. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining demokratiyiligi prinsipini ta'minlashning moddiy kafolati shundan iboratki, «O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asoslari belgilangan. Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari berilgan va mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy resurslari, mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham ko'rsatilgan. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining demokratiyiligi siyosiy, tashkiliy va moddiy kafolatlarining doimo rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Har bir xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakolatli kollegial organi sifatida o'z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar buyicha deputatlar tomonidan sessiyalarda hal qilinadi.

Kollegiallik prinsipining mohiyati shundaki, xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar, ularning organlari, deputatlari o'z faoliyatlarida faqatgina o'z bilim va ish tajribalariga suyanib qolmaydilar. Asoslangan qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlashi uchun mutaxassislarning, jamoatchilikning tajribasiga tayanadi. Kollegiallik prinsipida vakolatlarni amalga oshirish - to'g'ri va zarur vaqtda qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Kollegiallik prinsipida vakolatlarni amalga oshirish deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatida ham keng qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni asosida o'zbek xalqining milliy an'analariga mos hokimlik institutining kiritilishi kollegiallik prinsipida boshchilik qilish imkonini berdi.

Kollegiallik prinsipi deputatlarining birgalikdagi faoliyatini mustahkamladi. Kollegiallik prinsipining eng yuqori shakli bu masalalarni hal etishda qonun talablari bo'yicha yig'ilishlarda ishtirok etishi shart bo'lgan deputatlarning sonidir. Agarda belgilangan deputatlar tarkibi ishtirok etsagina majlislar ochilishi va u qarorlar qabul qilinishi mumkin. Bu holat **kvorum** deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonun-
chiliga ko'ra kvorum ikki turga bo'linadi:

- a) majlisni ochish va uni o'tkazish uchun;
- b) qonunlarni va qarorlarni qabul qilish uchun;
- v) Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish uchun.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis palatalari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlarga va ish tartibiga ko'ra **Konstitutsiya** va konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish uchun deputat va **senatorlarning** uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina yig'ilishi ochilishi va o'tkazilishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunga ko'ra Kengashlar-
ning sessiyalari, agarda shu Kengash deputatlarining uchdan ikki qismi
hozir bo'lsa, ochilishi va ish boshlashi mumkin deb belgilangan.

Oliy Majlis palatalari qonunlarni, qarorlarni va boshqa aktlarni yoki
mahalliy xalq deputatlari Kengashlari aktlarini qabul qilish uchun
vakillarining oddiy ko'pchilik ovoz berishi kifoyadir.

Qonuniylik prinsipi hamma vakillik organlari faoliyatining eng
muhim tashkiliy siyosiy va huquqiy prinsiplarini ifoda etadi. Shuning
uchun ham bu prinsip O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va
qonunlarida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-
ning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respubli-
kasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat,
uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar
Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» deb mustahkam-
langan.

Qonuniylikning mohiyati hamma davlat organlari, jamoat tashkilot-
lari, mansabdor shaxslar va fuqarolar qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga
bir xilda munosabatda bo'lishlari va rioya qilishlari talab etiladi. Qonu-
niylik prinsipi xalq deputatlari Kengashlarining o'z vakolatlari doirasida
faoliyat yuritishini belgilab bergan.

Qonuniylikni ta'minlash davlat organlari faoliyatida qonunlarni va
ularga asoslanib qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni bajarilishi ustidan
nazorat o'rnatilishidir.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida qonuniylik prinsi-
pini ta'minlash talablariga javob berishning quyidagi tartibi o'rnatilgan:

- Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlar doira-
sida tegishli masalalarnigina hal qilish;
- masalalarni hal qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish;
- qonun talablariga rioya qilgan holda aktlar qabul qilish.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faqat unga berilgan vakolatlar doirasidagina aktlar qabul qilishi mumkin. Kengashning qarori o'zining mazmuniga ko'ra qonunlarga va yuqori organlarning aktlariga mos bo'lishi shart. Qaror qonunlarda belgilangan tartibda va shaklda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari berilgan. Qonunning 26-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Hokimlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, hukumat hujjatlariga zid keladigan me'yoriy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan qonunning 28-moddasiga muvofiq hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin. Bundan tashqari vakillik organlari faoliyatida oshkoralik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokim faoliyatida qarorlar qabul qilishdan tortib ularning ijrosini ta'minlashgacha bo'lgan jarayon jamoatchilikning ishtirokida amalga oshiriladi.

Vakillik organlari to'g'risidagi qonunlarda ular o'z faoliyatlari va qabul qilgan qarorlari haqida aholini muntazam xabardor qilib turishlari ko'rsatilgan. Ma'lumki, vakillik organlari faoliyatining asosiy tashkiliy-shakli ularning sessiyalaridir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi.

Sessiyalar, majlislarning borishi mahalliy ommaviy-axborot vositalarida yoritib boriladi, radio va televideniye orqali ma'lum qilinadi.

Oshkoralikni yanada taminlash maqsadida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining doimiy komissiyalarini faoliyati ham keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda tashkil etiladi.

Amalda bo'lgan qonunchilik xalq deputatlari Kengashlarining qaror-

larini aholiga tushuntirib borishni, saylovchilar, keng jamoatchilik va tashkilotlari oldida o'z ishi va faoliyati to'g'risida muntazam axborotlar berib turishni o'rnatadi. Bu ham oshkoralikning muhim ko'rinishlaridan biridir. Vakillik organlari faoliyatida oshkoralikning taminlanishida deputatlar asosiy o'rin tutadilar. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan Qonunning 7-moddasida, "Deputatning saylovchilar bilan deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan olib boradigan ishlari" belgilangan bo'lib, unga ko'ra deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida ikki marta saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida 2005-yil 27-yanvar kuni so'zlagan nutqida, "Deputat – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmasin, avvalo xalq oldida javob beradi" degan edi. Xalq, avvalo, saylovchilar, Oliy Majlis palatalarida qanday qonun muhokama qilinayotgan va qabul etilayotganidan xabardor bo'lib turishi kerak. Bu holat, albatta, to'raligicha mahalliy Kengashlar deputatlari uchun ham taalluqlidir.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida oshkoralikni ta'minlash usullari ham o'ziga xos yo'nalishlarda bo'lib vakillik organlarining demokratik asosi va maqsadi birdir.

Millatlarning tengligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida O'zbekiston xalqi millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etishi belgilangan. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari Kengashlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga turli millat vakillari saylangan. O'zbekiston Respublikasidagi hamma vakillik organlari o'zlarining tabiatiga ko'ra hamma millat vakillarini mustaqillikni mustahkamlashga, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga jipslashtiradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va boshqa Qonunlariga muvofiq hamma millat vakillari shu organlar saylanib qolmasdan, ular faoliyatida faol ishtirok etmoqdalar.

Shuningdek, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini ilmiy tashkil qilish talablarini joriy prinsipi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida ham, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida ham ta'biq qilinmoqda.

Boshqarish va boshqaruv faoliyatini ilmiy tashkil etish hozirgi zamon texnikasi va fani yutuqlarini qo'llagan holda yuqori natijalarga erishishdir. Vakillik organlari faoliyatida boshqarish va boshqaruv faoliyatini ilmiy tashkil etish talablarini joriy etish davlat boshqaruvini doimiy takomillash-tirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Boshqarish va boshqaruv faoliyatini ilmiy tashkil etish vakillik organlarini tashkil etish jarayonida ham, ularning rahbarlik qilish faoliyati jarayonlarida ham qo'llanilmoqda. Bu talablar faqat vakillik organlari faoliyatiga tatbiq qilinib qolmasdan, balki ijroiya hokimiyati organlari va barcha deputatlarning faoliyatida ham tatbiq qilinmoqda. Chunki deputat-larning sessiyalardagi, komissiyalardagi va saylov okruglaridagi faoliyati boshqarish sohasidagi davlat faoliyatining bir ko'rinishidir.

Mahalliy vakillik organlari, ijroiya hokimiyati va deputatlar faoliya-ting samaradorligini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri shu organlarning o'zaro hamkorligi va yaxshi yo'lga qo'yilganligidir.

Boshqarish va boshqaruv faoliyatini ilmiy tashkil etish prinsipi talab-larining xalq deputatlarining faoliyatiga joriy etilishida quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud: birinchidan, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik o'rtasidagi funktsiya va vazifalarining taqsimlanishi; ikkinchidan, deputatlar va hokimlikning ma'sul xodimlarini vazifa va vakolatlariga mos ravishda funktsiyalarni aniq belgilash; uchinchidan, deputatlar va hokimlik-ning xodimlari qaysi masalalar bo'yicha hisob berib turishini aniqlash; to'rtinchidan, deputatlar va hokimlikning xodimlarini vazifalari, tajribalari, tashkiliy qobiliyatlarini hisobga olgan holda joy-joyiga qo'yish; beshin-chidan, kadrlar malakasini oshirish, o'qitishning doimiy tizimini yaratish; oltinchidan, boshqarish samaradorligini oshirish, moddiy va ma'naviy me'yorlarning to'g'ri nisbatlarini belgilab berish; yettinchidan, deputatlar va hokimlikning xodimlari faoliyatini to'g'ri baholab, vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish; sakkizin-chidan, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik faoliyatida hozirgi zamon tashkiliy texnika vositalarini tatbiq qilib borish.

Sanab o'tilgan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik faoliyatidagi yo'nalishlar turli xil huquqiy vositalar shakllarida imkoniyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etilmoqda. Ishning aniq taqsimlanishi, eng avvalo, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlikning har bir organi va deputatlarning huquqiy hujjatlarida belgilanishini bildiradi.

Bu huquqiy hujjatlar xalq deputatlari Kengashlari va hokimlikning boshqaruv apparati faoliyatiga boshqarish faoliyatini ilmiy tashkil etish talablarini yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. xalq

deputatlari Kengashlari va hokimlik apparati faoliyatida funktsiya taqsimotining to'g'ri tashkil etilishi qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Bu hujjatlarga vakolatlari doirasida qabul qilinadigan nizomlar, mansab yo'riqnomlari, ko'rsatma, eslatmalarni ko'rsatish mumkin. Masalan, Toshkent shahar hokimligida hokim va uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash to'g'risida nizom qabul qilingan (Toshkent shahar hokimining 2004-yil 31-avgustdagi qarori).

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik faoliyatida boshqaruvni va boshqarish faoliyatini ilmiy tashkil etish talablarini joriy etish, kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishda ularning bilimlari, tajriba va imkoniyatlarini hisobga olish ko'zda tutiladi. Bu talablarga javob berish xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik tomonidan bo'lim va boshqarmalarni, komissiyalarni tuzishda, ularning rahbarlari va xodimlarini, instruktorlar, inspektorlar, referentlarni tanlashda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik apparati xodimlarining malakasini oshirish, deputatlarni o'qitishning rivojlangan tizimini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar faoliyatining unumdorligini oshirishning muhim tashkiliy asosi hozirgi zamon texnika vositalarini tatbiq qilishdir. Tashkiliy texnikani-diktofonlarni, ko'chiruvchi va ko'paytiruvchi apparatlarni, mikrofilmlarni, arxiv uskunalarining turlarini qo'llash hamda ish joylarini va binolarini shularga moslashtirish katta ahamiyatga ega.

Axborotlarni topish va ularni saqlash, qarorlarning maqsadga muvofiq turlarini ishlab chiqishni oldindan aniqlab berishning eng samarali hozirgi zamon vositasi - kompyuter vositalari (kompyuterlar), hisoblash markazlarini tuzishdir. Masalan, hozirgi zamon kompyuter hisoblash texnikasi hokimliklar faoliyatida moddiy-texnikaviy ta'minotni va savdo bozorining samarali tizimini yaratish, shahar aholiga xizmat ko'rsatuvchi transportning to'g'ri ishlashini ta'minlash, qurilishni rejalashtirish uchun keng qo'llanilmoqda. Boshqaruvni va boshqarish faoliyatini ilmiy tashkil etish xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar apparatida kompyuter hisoblash va tashkiliy texnikani qo'llanishini takomillashtirish maxsus xizmati tashkil etilmoqda.

Boshqaruvni va boshqarish faoliyatini ilmiy tashkil etish xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklarda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va ularni muntazam attestatsiyadan o'tkazib turishni ham qamrab olgan. Bu sohada saylab qo'yish, konkurs asosida tanlash, attestatsiya va tayinlash o'rtasida eng yaxshi mutanosiblik ta'minlanishi lozim.

4-§. Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining funksiyalari. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining "Ish tartibi" va uning tuzilish asoslari

Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlarining tashkil etilishi va faoliyati masalalarini tahlil qilganda, eng avvalo, ular faoliyatining mazmuni nimadan iborat ekanligini aniqlab olish lozim. Davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati mazmunini tavsiflash uchun qonunda shu organlarning «vazifalari», «vakolatlari» degan iboralarning mohiyatini tushunishimiz lozim.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari deganda ular faoliyatining ijtimoiy-siyosiy yo`nalishlari xalqqa tegishli bo`lgan davlat hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning asosiy tomonlari tushuniladi. Funksiyalar yig`indisi davlat hokimiyati vakillik organlarining qanday faoliyat bilan shug`ullanishlari mumkin ekanligi yani vakolatlari doirasida faoliyatining natijalarini belgilab beradi. Yanada kengroq manoda funktsiya deganda, davlat organlariga berilgan vakolat`arini amalga oshirish jarayonlarida vazifa, majburiyat va masuliyatni ta`minlangani holda faoliyatning mahsuli tushuniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi uchun yagona bo`lgan asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Tegishli hudud aholisini davlat va jamoat ishlarini boshqaruviga birlashtirish, barcha fuqarolarning manfaatlarini ifodalash;

2. Tegishli hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta`minlash;

3. Davlat xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish bo`yicha mahalliy ahamiyatga ega bo`lgan masalalarni muhokama qilish ;

4. O`zbekiston Respublikasi qonunlarini, Oliy Majlisi palatalarining qarorlarini, Prezident farmonlari va farmoyishlarini, davlat hokimiyati organlari qarorlarini hayotga tatbiq qilish;

5. Tegishli hududda quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish;

6. Qonuniylikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta`minlash.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining yuqorida sanab o`tilgan funksiyalari qanday amalga oshiriladi? Xalq deputatlari Kengashlari davlat, xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning hamma sohalarida bevosita yoki o`zlari tuzadigan organlar orqali rahbarlik qiladilar. Rahbarlik, birinchidan, bevosita xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida masalalarni ko`rib chiqish va hal qilish orqali amalga oshiriladi, ikkinchidan,

xalq deputatlari Kengashlari o'z funksiyalarini amalga oshirishlari uchun qarorlar qabul qiladilar, ularning ijrosini ta'minlaydilar va ijrosini nazorat qiladilar.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasi muvofiq, «Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni qarab chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash, deputatlar so'rovlarini, qaror loyihalarini qarab chiqish, ovoz berish, qarorlarni e'lon qilish, sessiyaga taklif etiladigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek deputatlarning mas'uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining Ish tartibiga muvofiq belgilanadi». Xalq deputatlari Kengashining «Ish tartibi» ularning funksiyalarini amalga oshirishning bir vositasi hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari o'z funksiyalarini amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalanadilar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini tashkil etish;

2. Hokimlarning farmoyish berish yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi faoliyatini nazorat qilish.

Xalq deputatlari kengashlari o'zlariga bo'ysunuvchi organlar tuzadilar, tegishli hududda joylashgan va bo'ysungan korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatiga rahbarlik qiladilar, lekin yuqori xalq deputatlari kengashlariga bo'ysunadigan korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirib turadilar.

Mahalliy xalq deputatlari kengashlari o'zlariga hisobot berib turuvchi organlar faoliyatini nazorat qiladilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqish huquqi berilgan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tegishli hududlarning mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalarini hal etadi.

Mahalliy xalq deputatlari kengashlari iqtisodiyotga rahbarlikni amalga oshirganda e'tibor bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishini hisobga olgan holda tegishli hududlarda

davlat tasarrufidagi korxonalardan tashqari xususiy mulkchilikka asoslangan korxonalar vujudga kelmoqda va rivojlanmoqda. Mahalliy xalq deputatlari kengashlarining birinchi navbatdagi vazifalari shu hududda yashayotgan barcha fuqarolarning manfaatlarini teng ifoda etishdir.

Xalq deputatlari Kengashlari iqtisodiyotga rahbarlikni oldindan belgilangan reja asosida amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasi muvofiq, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tegishli hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini qabul qiladilar. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari iqtisodiyotga rahbarlikni muvofiqlashtirish va farmoyish berish, yo'naltirish faoliyatlari orqali amalga oshiradilar. Bulardan birinchisi ko'proq xalq deputatlari Kengashlariga xos bo'lsa, ikkinchisi hokimlarga taalluqlidir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar xo'jalik qurilishi sohasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa vositalarini, turar joy qurilishi, kommunal qurilish, hududlarni obodonlashtirish, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarini hal qiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ijtimoiy-madaniy qurilish sohasida xalq maorifi, madaniy-ma'rifiy ishlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport, mehnat va ish haqi masalalarini hal qiladilar. Mazkur sohada sanab o'tilgan vakolatlarining o'zigina xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning shu sohadagi funksiyalarining murakkab va turli-tuman mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi sohasida hokimlar boshchilik qiladigan vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari eng muhim masalalarini hal etmoqdalar:

1. O'zbekiston Respublikasi viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzurida, "Toponomik obyektlarga nom berish masalalari komissiyasi" rais, rais o'rinbosari, kotib va o'n bir a'zodan iborat tarkibda tuziladi.¹ Komissiya raisi hokimning birorta o'rinbosari yoki hokimning topshirig'iga binoan hokimlik rahbarlaridan tayinlanadi. Bu komissiya tegishli joylarda, qishloqlar, ovullarni tuzish yoki tugatish, chegaralarini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish, ma'muriy markazlarni belgilash va ko'chirish, shaharlarni viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, shaharchalarni, aholi punktlarini shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish, aholi punktlarini shaharchalar turkumiga kiritish, shaharlarning

¹ Farg'ona viloyat hokimining 08.11.2000-yil 1832/6 raqamli Qarori bilan tasdiqlangan "Ish tartibi". (Joriy materiallari).

chegaralarini belgilash va kengaytirish, viloyatlar, tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha tegishli hududning hokimlariga takliflar tayyorlab beradilar. Bu takliflarni xalq deputatlari Kengashlarida o'rganib chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi, Vazirlar Mahkamasi bu masalani Oliy Majlis muhokamasida kiritadi va amalga oshiradi.¹ Mahallalar, ko'chalar, maydonlar, hiyobonlar, bog'lar, aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish bevosita tuman va shahar hokimliklari huzuridagi komissiya tomonidan belgilanib, (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-sentabr-dagi 358-qarori bilan "O'zbekiston Respublikasidagi toponomik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi" faoliyati to'xtatilganligi munosabati bilan) viloyat komissiyasi majlisida tasdiqlanadi hamda shunga oid masalalar yuzasidan doimiy faoliyat olib boradi. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik obyektlarlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi 1996-yil, 30-avgustda qabul qilingan Qonunning 19-moddasida; "mahallalar, ko'chalar, maydonlar, hiyobonlar, bog'lar, aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining taqdimnomasiga muvofiq, tegishli tuman, shahar Kengashi xalq deputatlari tomonidan amalga oshiriladi"² deb belgilangan.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq respublikada tuziladigan davlat organlarining barcha tizimi Respublika Oliy Majlisi palatalari tomonidan saylanadi, tuziladi yoki tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi vakolatlariga doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash kiradi. Buning natijasida tegishli hududlarda qonunlarga rioya etilishini, davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlanishini nazorat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasida, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofa-

¹ "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik obyektlarga nom berish va ularni o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi Qonuni 13-modda. (O'zbekiston yangi qonunlari, 14-son). – T.: Adolat, 1997. 14-m. – B. 136.

² O'sha joyda, 14-m. – B. 137.

za qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi" deb belgilangan.

25-moddasiga esa "Viloyat, tuman, shahar hokimlariga jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etish masalalarini hal etish" yuklatilgan.

3. Mahalliy xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning davlat qurilishi sohasidagi funksiyalari bevosita demokratiya shakllari va rivojlanishni ta'minlashdir. Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlariga mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini bosqichma-bosqich o'tkazilishi bu funksiyaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shuningdek, xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning hududlarda bo'lgan saylovlarni tashkil etish, deputatlikka nomzodlarga saylovoldi uchrashuvlarida shart-sharoitlar yaratib berish tadbirlarini tashkil etishlari alohida o'rganish mavzusidir.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining o'z funksiyalarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri ularda moddiy-moliyaviy bazaning mavjudligidir.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari belgilangan. Unga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (jamoat mulki) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Qonunda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi ham ko'rsatilgan. Ushbu qonunning 2-moddasida viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari belgilangan. Unga ko'ra viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika (viloyatlar, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiya-lar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Qonunga muvofiq mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham bo'lishi mumkin. Qonunning 14-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi fuqarolarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va

tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan, o'zga mablag'lardan tarkib topadigan, byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topadi.

Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradilar. Yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari quyi turuvchi xalq deputatlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirar ekanlar, ularning faoliyatini ham nazorat qiladilar. Xalq deputatlari Kengashlari o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan ham nazorat o'rnatadilar va ular faoliyatini yo'naltirib turadilar. Tashkilotchilik va tarbiyaviy faoliyati bilan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida fuqarolarni davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga jalb etish chora tadbirlarini ko'radi.

Xalq deputatlarining yana bir asosiy funksiyasi xalq deputatlari Kengashi va hokimiyat apparati organlarining qarorlarini qabul qilish va ular ijrosini ta'minlashdir.

5-§. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi mahalliy davlat hokimiyati asoslariga bag'ishlangan bo'lib, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning tutgan o'rni, bu organlarning davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha vakolatlari va boshqa davlat organlari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarining asoslari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat, tuman, shahar hokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qabul qiladigan normativ hujjatlarga nizomlar, ish tartiblari, yo'riqnomalari, qarorlar, farmoyishlar va hokazolar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunida xalq deputatlari Kengashi va hokim faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish tartibi belgilangan. Unga ko'ra xalq deputatlari

viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi.

Hokimlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashlari hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash, amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish, hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash va qonunchilikda belgilangan boshqa masalalarni hal etish vakolatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat hokimiyati vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlarni qabul qiladilar: xalq deputatlari Kengashining hokimlik apparatining ish tartibi (reglamenti), xalq deputatlari Kengashlarining yordamchi va ijro etuvchi organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlar (ularga deputatlik guruhlari to'g'risidagi Nizomlar, hokimiyat apparatining bo'limlari, boshqarmalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizomlar) kiradi. Hokimlik apparati tuzilmaviy qismlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarga mansub yo'riqnomalari, bo'lim va boshqarmalarning komissiyalari to'g'risidagi, qabulxonalar to'g'risidagi nizomlar, apparatdagi mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar (yo'riqnomalar) kiradi. Sanab o'tilgan huquqiy hujjatlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, hokimliklar va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan, ular yordamida shu organlarning vakolatlari amalga oshiriladi.

Hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning hamma sohalariga bevosita yoki o'zlari tuzadigan organlar orqali rahbarlik qiladilar. Rahbarlik, birinchidan, bevosita xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish orqali amalga oshiriladi, ikkinchidan, xalq deputatlari

Kengashlari o'z funksiyalarini amalga oshirishlari uchun qarorlar qabul qiladilar, ularning ijrosini ta'minlaydilar va ijrosini nazorat qiladilar.

Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 103-moddasida hokimlar o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshirishi va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsiy javobgar ekanligi belgilangan.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 1-moddasini ikkinchi bandida, hokimlar tegishli xalq deputatlari kengashlari oldida hisob berishi huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan. Qonunning 24-moddasida esa xalq deputatlari kengashlarining hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash vakolati mustahkamlangan, ya'ni hokim Prezident (yuqori turuvchi hokim) tomonidan lavozimga tayinlanib, kengash sessiyasida tasdiqlangachgina qonuniy vakolatga ega bo'ladi.

Mazkur qonunning moddalariga sinchiklab nazar tashlasak, ko'pgina moddalarda hokim qabul qilgan qarorlarni albatta sessiyada tasdiqlanishi shartligi belgilangan bo'lib, bu ham hokimga ma'lum mas'uliyatni yuklaydi va kengashlar nazoratida bo'lishini ko'rsatadi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 2-moddasida tuman markazlari hisoblangan shaharlarda viloyat hokimi shahar hokimini tuman hokimiga bo'sundirishi va yagona boshqaruv organi tuzish haqidagi qarori, 10-moddada hokimning yer xususidagi qarorlari, 23-moddada ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga qo'yish, lavozimdan ozod qilish haqidagi qarorlari tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yilgan. Xalq deputatlari Kengashlari hokimning noqonuniy qarorlarini bekor qilish huquqiga ega (24-modda). Bulardan ko'rinib turibdiki, hokim o'zidan yuqori turuvchi hokim yoki Prezident bilangina emas, mazkur hududdagi xalq deputatlari Kengashlari bilan ham albatta hisoblashadi, ularning nazoratida bo'ladi. Qonunda (25-modda) hokim tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlari ijrosini tashkil etishini belgilanishi ham, hokimlarni xalq deputatlari Kengashlari ta'sirida bo'lishini ko'rsatadi.

Bulardan tashqari, qonunda yana shunday qoidalar borki, ular hokimlar faoliyatini nazorat ostida bo'lishini ta'minlaydi.

Qonunning 16-moddasiga asosan hokimlarning noqonuniy qarorlarini Vazirlar Mahkamasi ham to'xtatib qo'yishi yoki bekor qilishi mumkin.

Hokimlarning qarorlarini qonuniyligini nazorat qilishda sud, prokuratura, adliya organlari ham o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi.

Hokimning qarorlari ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishi mumkin (28-modda). Qaror noqonuniy bo'lsa sud uni bekor qiladi. Sud hukmini bajarish hokim uchun ham majburiydir.

Qonunning 29-moddasida, hokimning qarorlari ustidan prokuror protest kiritishi mumkinligi ko'rsatilib, bunday protest hokimning o'zi yoki yuqori turuvchi hokim yoki Vazirlar Mahkamasi, zarur hollarda esa Prezident tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27-avgust 2003-yilda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida adliya organlariga insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha muhim vazifa yuklandi va ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun, adliya organlari va muassasalarini mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqilligi ta'minlandi. Buni oddiyroq qilib aytak, viloyatlardagi adliya boshqarmalari endi hokimlarga bo'ysunmaydigan bo'ldi. Bu esa hokimlarning faoliyatini nazorat qilish mexanizmini kuchaytiradi. Natijada, ayni paytda, vazirlik tomonidan olib borilgan tekshirishlar natijasida hokimliklar tomonidan yo'l qo'yilgan (tadbirkorlarning huquqlarini buzish bo'yicha) kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritilib, qonuniylikni ta'minlash yanada kuchaymoqda.

Ko'rinib turibdiki, hokim yakkaboshchi shaxs bo'lsada, uning faoliyatini Prezidentdan tashqari, Vazirlar Mahkamasi, tegishli xalq deputatlari Kengashlari, yuqori turuvchi hokim, sud, prokuratura, adliya organlari ham nazorat qiladi va hokim faoliyatiga ta'sir eta oladi. Hokimlar faoliyatini jamoatchilikning nazorat qilish imkoniyatlari xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining o'z burchlariga mas'uliyat bilan qarashlari kerakligini ko'rsatadi. Ular qonunda belgilangan «deputatlik so'rovi» huquqidan to'la foydalansa jamoat nazorati kuchayadi.

Hokimlar faoliyatida oshkoralik prinsipini keng qo'llash, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga imkoniyat yaratib, bu ishda ommaviy axborot vositalari muhim vazifani bajarmoqdalar.

XV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI SESSİYALARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI

1-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining sessiyasi tushunchasi va saylovdan keyin birinchi sessiyasini o'tkazilish prinsiplari. Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarini chaqirish va o'tkazish tartibi. Xalq xalq deputatlari Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish tartibi

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat asoslarini shakllantirishga hamda demokratik qadriyatlarni hayotimizga tobora chuqurroq singib borishiga xizmat qilmoqda. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq «...xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy va madaniy an'alariga, barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish, xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishi lozim»¹ligining e'tirof etilgani bunga mustahkam zamin vazifasini o'tamoqda.

Bu - jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning ma'suliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi².

Xalq deputatlari Kengashlari o'z vakolatlarini deputatlarning umumiy yig'ilishi, ya'ni sessiyalar orqali amalga oshirish huquqiga egadir. Chunki Kengash mahalliy hokimiyat organi sifatida aholi manfaatlarini ifodalovchi deputatlardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» to'g'risidagi qonunining 17-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda sessiya – Kengash faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy yoki, oddiy qilib, tashkiliy-huquqiy shakli deb nomlanadi³.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol. iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 - T.: O'zbekiston, 1996. - 44-45-betlar.

² Hinean Charles M.. Bureaucracy in Democracy.-Harper, 1950. pp. 12-15.

³ Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuniga sharh. - T.: Adolat, 1995.- 50 b.; To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish.. T.: TDVI, 2002.- 111 b.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo`qligida esa uning o`rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to`g`risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo`qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig`iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o`tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo`yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali, deputatlar umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

Sessiyalarning, odatda, bir yilda ikki marta va qisqa muddatlarda o`tkazilishi, Kengashlar tomonidan keng va murakkab vazifalarning bajarilishini ta`minlash uchun uning doimiy va muvaqqat komissiyalari, deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati, deputatlik guruhlar kabi sessiyadan tashqari ish shakllarining rivojlanishiga olib keldi¹. Ular Kengash vazifalarining uzluksiz va samarali amalga oshirilishini ta`minlashga xizmat qilib, bunday vazifalar ixtisoslashtirilgan deputatlar ishchi organlari bo`lgan doimiy komissiyalar orqali amalga oshirilishini chet mamlakatlar tajribasida ham ko`rish mumkin². Lekin ushbu tarkibiy tuzilmalarning faoliyati o`zaro bog`liq bo`lib, ularning har biri Kengash vakolatlariga doir masalalarni sessiyada ko`rib chiqish, ushbu masalalar bo`yicha qarorlar qabul qilish va nazorat faoliyatini amalga oshirish bilan shug`ullanadi. Doimiy komissiyalar esa, o`z sohasida ko`rib chiqilayotgan masalalarni tayyorlash, ular bo`yicha qarorlar qabul qilish uchun mas'uldir. Shuning

¹ Кобаса М.И. и др. Система местного самоуправления в Республике Беларусь. /Разработка новых правил игры в старых условиях. /под ред. И. Мунтягу, В. Попа. – Будапешт: LGI & PSR, 2001. С.85.

² Игнатов В.Г., Бутов В.И. Зарубежный опыт местного самоуправления и Российская практика. Учебное пособие. Москва-Ростов, 1999. с. 29; Муниципальный менеджмент: Учебное пособие для вузов/ под ред. проф. Т.Г Морозовой.-М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. С. 175.

uchun doimiy komissiyalar vazifalarini amalga oshirishni yoritishdan oldin, Kengash faoliyatining boshqa shakllari bilan ularning o'zaro munosabatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining asosiy vazifalari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasida belgilangan. Doimiy komissiyalarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash;

- Kengash qarorlarini va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- Kengash hokimiyat va yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirishdagi tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

- saylovchilar nakazlarining amalga oshirilishida va uning ijrosini nazorat qilishda ko'maklashish;

- Kengash qarorlarini amalga oshirish bo'yicha hokimiyat bo'lim va boshqarmalarining korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyatini nazorat qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga, qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish.

Sessiyalarda xalq deputatlari Kengashlarining xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishni rivojlantirishning yillik va strategik rejalarini bajarish bo'yicha tadbirlar rejalarini ko'rib chiqadilar va tasdiqlaydilar. Hokimlik apparati xalq deputatlari kengashlari tomonidan qabul qilinadigan rejalar loyihalarini tayyorlashni tashkil qiladilar, boshqarish tarmoqlari bo'yicha rejalarini o'zlariga bevosita bo'ysungan korxonalar, xo'jalik tashkilotlarning ish rejalarini tasdiqlaydilar. Bo'lim va boshqarmalar tegishli tarmoqlarning rivojlanish rejalarini tuzadilar, o'zlariga bo'ysungan korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyatlarini muvofiqlashtiradilar. Moliya bo'limlari rejalarini xalq deputatlari Kengashi byudjeti bilan muvofiqlashtiradilar.

Rejalashtirish davlat rahbarligining metodi sifatida faqatgina ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishni qamrab olmasdan, balki shu rahbarlikni tashkil qilishning o'zini ham qamrab oladi. Reja bo'yicha xalq deputatlari kengashlarining sessiyalari, hokimlik apparati majlislari o'tkaziladi, rejalar bo'yicha doimiy komissiyalar, deputatlik guruhlari ishlaydi.

Doimiy komissiyalar esa, ma'lum sohaga ixtisoslashganligi tufayli muayyan hududdagi Kengash vakolatlariga doir barcha masalalarni qamrab olishga qodir emas. Ular tegishli sohadagi umumahamiyatga molik masalalarni, deputatlar guruhlari esa, o'z hududlaridagi ommaviy-tashkiliy va operativ ijro faoliyatining kundalik masalalari yechimi bilan shug'ulla-

nadilar. Deputatlar guruhlari aholi ichida ishlashga, o'z hududida kundalik masalalarni hal qilishga moslashgan bo'lsalar ham, O'zbekiston mahalliy vakillik organlarida ularning faoliyati hozircha yo'lga qo'yilmagan. Deputatlik guruhlarini tuzish, ularni va doimiy komissiyalar ish rejalarini muvofiqlashtirish; birgalikda tekshiruvlar o'tkazish; doimiy komissiya qarorlari va tavsiyalarini amalga oshirishga deputatlik guruhlarini jalb qilish - dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman xalq deputatlari Kengashlari qaror qabul qiladi, farmoyishlar chiqaradi.

Mahalliy Kengashlar vakolatlariga taalluqli har xil masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo'lgan hujjatlar qabul qilish bilan hal qiladilar. Ular qabul qilayotgan qarorlarning samaradorligi ularni sinchkovlik bilan tayyorlashga va tajribada ishlab chiqilgan va qonunchilikda ko'rsatilgan ma'lum talablarning bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Kengash va hokimlik qarorlari ularning sessiyalari va majlislarida yetarli sondagi deputatlar qatnashganda, qarorlar ovozga qo'yilganda ovozlarni mo'ljallagan ko'pchiligi bilan qabul qilinishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va imzolanishi, ijrochilarga ko'rsatilgan muddatlarda yuborilishi lozim. Qarorlarning hayotiyligi va tejamkorligini ta'minlash uchun loyihalarni tayyorlashga qarorlar qabul qilish tartibini bildirgan mutaxassislar va manfaatdor tashkilotlar jalb qilinishi, deputatlarning, jamoatchilikning, quyi turuvchi organlarining fikr va mulohazalari e'tiborga olinishi muhim.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar qaror loyihalarini tayyorlashni yaxshilash maqsadida ish olib borish haqidagi yo'riqnomalarda va boshqa hujjatlarda, qarorlarni tayyorlashda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiruvchi maxsus chora-tadbirlarni belgilaydilar.

Qaror qabul qilish ularni hayotga tatbiq qilish bo'yicha tashkiliy ishdan ajratilmagan holda amalga oshiriladi. Qarorlarning ijrosini va nazoratini tashkil qilib qolmasdan, yuqori organlar aktlari ijrosining nazorati ham tashkil qilinadi. Ijro va nazorat tashkil qilish ishining markazida hokimlik devoni bo'lishi lozim. U bu yo'nalishda bo'lim va boshqarmalarni, doimiy komissiyalarni, deputatlik guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ijroni tashkil qilishning birinchi talabi qarorni ijrochilarga va manfaatdor shaxslarga o'z vaqtida yetkazishdir.

Doimiy komissiyalarning Kengash sessiyalariga va hokimiyat majlislariga masalalarni tayyorlash va uni ko'rib chiqishdagi ishtiroki muhim o'rin tutadi.

Mahalliy Kengash ishida yetilgan masalalarning tegishli davlat organlari oldiga qo'yilishida hamda sessiyalarga va hokimiyat majlislariga materiallarning qaror loyihalarini tayyorlashda va unda ma'ruza va qo'shimcha ma'ruza, xulosa, takliflar bilan chiqishda doimiy komissiyalar ishi ko'rinadi. Mahalliy Kengashlar ish tajribasida shunday tartib o'rnatilgan bo'lib, doimiy komissiyalar a'zolarining ishtirokisiz biron-bir muhim masala hal etilmaydi.

Sessiya kun tartibi loyahasini tayyorlaganda doimiy komissiyalar taklif va mulohazalarining e'tiborga olinishi yaxshi natija beradi. Doimiy komissiyalar o'z navbatida o'zlariga topshirilgan sohalardagi vazifalar bilan yaxshi tanish bo'lganliklari uchun eng dolzarb masalalarni Kengash va hokimiyat ish rejalariga kiritadilar.

Doimiy komissiyalarning Kengash sessiyasiga masalalarni tayyorlashdagi ishtirokining asosiy shakllari korxonalar, tashkilot, muassasalardagi ishning ahvolini o'rganish va tekshiruvlar o'tkazish, tegishli masalalarni oldindan tayyorlash, sessiya muhokamasiga kiritish, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, qaror loyihasi bo'yicha xulosa va takliflar kiritish hamda sessiyada ma'ruza, qo'shimcha ma'ruza yoki so'zga chiqishdan iboratdir.

Doimiy komissiyalarning sessiyalardagi bevosita ishtirokining eng ko'p tarqalgan shakli ma'ruza, xulosa va takliflar bilan chiqishdir.

Doimiy komissiyalar huquqlarining kengaytirilishi ularning tashkiliy va nazorat funksiyalari bilan hokimiyat faoliyatida ularni keng ishtirok etishini belgilaydi.

Mahalliy Kengashlar huquqlarining kengaytirilishi, ayniqsa, nazorat va muvofiqlashtirish sohasida komissiyalarni kengash sessiyasiga tayyorgarlik va maslahat berish vazifalarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Doimiy komissiyalar Kengashlarga bo'ysunmagan korxonalarining qonunga xilof hujjatlarini to'xtatib qo'yishda va Kengashlarning qarorlarini bajarmayotgan korxonalar, tashkilot, muassasa rahbarlarini javobgarlikka tortishda tegishli vakolatli organlar ishida ishtirok etishlari mumkin.

2-§. Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarini chaqirish va o`tkazilishida hokimning vazifalari. Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari kun tartibi loyihasini tayyorlash va uni hokim tasdig`iga kiritish tartibi

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuni bilan belgilangan vakolatlari, asosan, Kengash sessiyalarida ko`rib chiqib hal qilina-di. Ularni uch guruhga bo`lish mumkin:

1. Kengashni tashkil etish va deputatlarning huquqiy maqomi bilan bog`liq bo`lgan masalalar.

2. Kengash organlarini tashkil etish va ular faoliyatini nazorat qilish bilan bog`liq masalalar.

3. Tegishli hududda xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qilish bilan bog`liq bo`lgan masalalar.

Birinchi guruh masalalariga quyidagilar kiradi:

qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e`tirof etish va muddatidan oldin to`xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

-xalq deputatlarining so`rovlarini ko`rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Ikkinchi guruh masalalariga quyidagilar kiradi:

1) hokim va uning o`rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokim va uning o`rinbosalarini o`z lavozimidan ozod etish, ularning o`z faoliyatiga doir hisobotlarini tinglash;

2) O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonunida nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash, ularga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish;

3) xalq deputatlari Kengashining ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish;

4) xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o`zgartirish, ularning ishiga doir hisobotlarni tinglash;

5) hokimning va quyi kengashning O`zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

6) hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasi, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash.

Uchinchi guruh masalalariga quyidagilar kiradi:

1) hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

2) amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish.

Sessiyalarning mahalliy vakillik organlari faoliyatidagi yetakchi ahamiyatining muhim yuridik kafolati xalq deputatlari Kengashlari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, o'zining tashkiliy masalalarini va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat qilishga doir boshqa masalalarni hal etishidan iborat.

Mahalliy Kengash sessiyalarida ko'rib chiqish uchun masalalarni tanlab olishda, so'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy Kengashlar ish tajribasida keng tarqalgan Kengash faoliyatining kompleks rejasiga rioya qilish diqqatga sazovordir.

Sessiyalar ahamiyatining oshishi Kengash faoliyati samaradorligini hamda deputatlar faolligini oshirish va Kengashning aholi bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi yangi shakllarni qidirib topish bilan bog'liq.

Deputatlar va sessiyaning boshqa ishtirokchilari kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ahvol bilan joylarning o'zida tanishadilar, manfaatdor tomonlar bilan muloqotda bo'ladilar. Mahalliy Kengash sessiyasi kun tartibi loyihasini hokimlik tayyorlaydi. Hokimiyat sessiya kun tartibini tayyorlashda ish rejalarini, yuqori turuvchi organlar ko'rsatmalari, saylovchilarning taklif va nakazlariga, doimiy komissiyalar, deputatlar, bo'lim va boshqarmalarning hamda jamoat tashkilotlarining takliflarini e'tiborga oladi. Bu muhokama qilish uchun haqiqatan ham yetilgan dolzarb masalani tanlab olishga imkon beradi.

Xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, sessiyaga bitta yirik masalani va bir necha qo'shimcha masalalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Sessiyalarni puxta tayyorlash Kengash sessiyasi muhokama qiladigan masalaning haqiqiy ahvolini aniqlashga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga, ularni tugatish uchun maqsadga muvofiq samarali choralar topishga, to'g'ri, asoslantirilgan qarorni ishlab chiqishga yordam beradi. Hokimiyat tayyorlov tadbirlarini o'tkazishga doimiy komissiyalari,

deputatlarni, jamoatchilikni, shuningdek, bo`lim va boshqarmalarni keng jalb qiladi. Hokimiyat aholini va deputatlarni sessiya o`tkazilishi haqida xabardor qiladi, uning majlislariga turli tashkilotlar, muassasalar va jamoatchilik vakillarini taklif qiladi.

Hokimiyatning sessiyani chaqirish to`g`risidagi qarorida sessiyani chaqirish vaqti va joyi, sessiya ko`rib chiqadigan masalalar va ma`ruza-chilar ko`rsatiladi.

O`zbekiston Respublikasidagi hokimiyat vakillik organlarining ish tajribasida hokimliklar tayyorgarlik ishlarini rejalashtiradilar: tadbirlar doirasini, ularni ijro qiluvchi shaxslarni belgilaydilar, tegishli internallarni berish vaqtlarini tayinlaydilar. Ko`p hollarda hokimliklar tayyorgarlik ishlari olib borish uchun maxsus komissiyalar tuzadilar. Bu komissiyalarga manfaatdor bo`lim va boshqarmalarning, doimiy komissiyalarning, korxonalar, tashkilot, muassasa va jamoat tashkilotlarining vakillarini kiritadilar.

Sessiyaga tayyorgarlik ko`rish rejasi hokimiyatga oldindan puxta tayyorgarlik ishi olib borish uchun hamma imkoniyatlarini sarflashga, uning borishini nazorat qilishga va qo`yilgan kamchiliklarni o`z vaqtida oldini olishga imkoniyat yaratadi. Reja quyidagilarni o`z ichiga olgan bo`lishi mumkin: tekshirishning tashkiliy shakllarining ko`rsatilishi, doimiy komissiyalar tomonidan, hokimiyat apparat kuchi bilan, kompleks brigadalar yoki maxsus komissiyalar yordami bilan materiallarni umumlashtirish, ma`ruzalar va qo`shimcha ma`ruzalar, qaror loyihalarini tayyorlash muddatlari. Rejada turli tashkiliy-ommaviy va tashkiliy-texnikaviy tadbirlar ko`zda tutilgan bo`ladi.

Sessiyaga tayyorlanishning muhim bosqichi sessiyaga kiritilayotgan masalani har tomonlama o`rganish, zarur ma'lumotlarni yig`ish va umumlashtirishdir. Materialni sessiyaga hokimiyat apparatida kabinet yo`li bilan bo`lim va boshqarma rahbarlari tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar asosida tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Bunday materiallar ishni noto`g`ri yoki bir tomonlama ahvolini yoritishi mumkin.

Hokimiyat yoki sessiyani tayyorlash uchun tuzilgan komissiya faoliyatida deputatlarga Kengash sessiyasiga kiritilayotgan masalalarni o`z saylov okrugidagi ahvolini o`rganib chiqishni, saylovchilarning fikr-mulohazalarini aniqlab, o`z takliflarini berishni iltimos qilib, xat bilan murojaat qilish tajribasi bor. Shunday yo`l bilan hokimiyat sessiyaga tayyorlanish doirasini kengaytiradi, masalalarni muhokama qilayotganda deputatlarning faol, tashabbuskor bo`lishligini ta'minlaydi.

Sessiya kun tartibi to`g`risida aholi oldindan radio, televideniye, matbuot organlari, e`lonlar yordamida va saylovchilarning deputatlar bilan

uchrashuv vaqtlarida xabardor qilinadi. Sessiyaga kititilayotgan eng muhim masalalarni fuqarolarning turar joylarida, ish joylarida oldindan muhokama qilish yaxshi natija beradi.

Tayyorgarlik ishlari natijasida to'plangan materiallar, ma'ruza hamda qo'shimcha ma'ruzalar umumlashtiriladi. Ma'ruza mazmuni masala muhokamasiga yo'nalish berishi, qaror loyihasida taklif qilinayotgan tadbirlarni asoslantirishi, statistik ma'lumotlarni o'ylab tahlil qilishi, ishning ahvolini tanqidiy ko'rib chiqishi, chuqur umumlashtirish va xulosalarda vazifalarni aniq belgilab olishi lozim.

Masalaning xarakteriga qarab hokimiyat, bo'lim va boshqarmalar rahbarlari, jamoat birlashmalari, kengashga bo'sunmagan korxonalar, tashkilot va muassasalarning vakillari, quyi turuvchi hokimiyat rahbarlari ma'ruzalar bilan chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida sessiyada muhokama qilinayotgan masala bo'yicha doimiy komissiyalarning qo'shimcha ma'ruza bilan chiqish tajribasi mavjud. Qo'shimcha ma'ruzalar - tegishli tarmoqdagi ishning ahvoli ustidan deputatlar nazoratining muhim shakli bo'lishi bilan birga, Kengash qarorlarini qabul qilishdagi deputatlar faol va bevosita ishtirokining vositasidir. Qo'shimcha ma'ruzalarning maqsadi asosiy ma'ruzani to'ldirish, qo'yilgan bir tomonlilikning oldini olish, ma'ruzada o'z ifodasini topmagan kamchiliklarni ochib tashlash, chora va takliflarni Kengash muhokamasiga qo'yish hisoblanadi.

Sessiyaga tayyorgarlik qaror loyihalarini oldindan tayyorlab qo'yishni ham o'z ichiga oladi. Ko'p hollarda qaror loyihasi hokimiyat tomonidan tayyorlanadi va u ma'ruza materiallari bilan birga qo'shib muhokama qilinadi. Aholi manfaatlariga tegishli muhim masalalar bo'yicha ma'ruza doimiy komissiyalar tomonidan tayyorlanadigan bo'lsa, qaror loyihasi doimiy komissiyalar tomonidan tuziladi. Loyiha shu Kengash vakolatlariga mos kelishi, yuqori Kengash qarorlariga, Prezident farmonlariga, qonunlarga xilof bo'lmasligi, qonunchilik talablariga mos kelishi shart. Hokimiyat shtatidagi yurist-konsult shu ma'noda loyiha haqida xulosa beradi. Mahalliy Kengashlarning ish olib borish haqidagi yo'riqnomalarida qaror loyihalariga qo'yiladigan talablar berilgan.

Qaror loyihasida (bayon qiluvchi qism), odatda, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha ishning ahvoliga qisqacha baho beriladi, asosiy kamchiliklar, ularning sabablari yoritiladi, ijobiy tajriba ko'rsatiladi. Yana loyihada (qaror qiluvchi qismi) oldinda turgan vazifalarni hal qilish, kamchiliklarni tugatish uchun amaliy tadbirlar ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan chora-

larni amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan shaxs va organlar ijrosining konkret muddatlari ko'rsatiladi.

Kengash ko'rib chiqishi uchun qo'yilgan hamma masalalar bo'yicha ham kengaytirilgan qarorlar qabul qilinavermaydi. Hokimiyat tomonidan qandaydir tadbirning amalga oshirilishi yoki deputat so'rovi haqidagi ma'lumotlar to'g'risida muhokama o'tkazilmasdan ham ularni inobatga olish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin. Mabodo Kengash zarur deb topsa, shu masalalar bo'yicha ham muhokama o'tkaziladi va kengaytirilgan qaror qabul qilinadi.

Deputatlarning faolligini oshirishga qaror loyihalari bilan oldindan tanishib chiqish amaliy yordam beradi. Hokimiyat apparati deputatlarni qaror loyihalari bilan oldindan tanishtiradi. Bunday tadbir deputatlarga loyihani yaxshilab o'ylab chiqishga, saylovchilar bilan maslahatlashib olishga imkon yaratadi. Deputatlarga sessiyani chaqirish vaqti va joyi haqidagi xabar bilan birga qaror loyahasini ham yuborish maqsadga muvofiq. Ayrim hollarda loyihaga ba'zi bir boshqa materiallarning ma'ruza tezisi ham qo'shib yuboriladi.

Mahalliy matbuotda eng muhim masalalar bo'yicha qaror loyihalari-ning (masalan, mahalliy xo'jalikni rivojlantirish rejalari, ijro qilinmaganligi uchun ma'muriy javobgarlik o'rnatuvchi qarorlarning loyihalari) e'lon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Amalda bo'lgan qonunlarga binoan sessiyalarda maslahat ovozi bilan yuqori turuvchi Kengashlarning deputatlari qatnashishi mumkin. Sessiyalarga maslahat ovozi bilan davlat organlari, korxonalar, tashkilot, muassasalarning vakillari, mutaxassislar taklif qilinadi. Taklif qilingan shaxslar ro'yxatini hokimiyat apparati masalaning mohiyatiga va oshkoralik manfaatlariga ko'ra tayyorlaydi.

Kengash sessiyasida qatnashish - har bir deputatning muhim burchi. Sessiya vaqtida deputatning o'rtacha maoshi saqlanib qolgan holda u o'z asosiy ishidan, ishlab chiqarish va xizmat majburiyatlaridan vaqtincha ozod qilinadi. Faqatgina uzrlil sabablar (kasallik, xizmat safari) deputatning sessiyaga kelmasligiga asos bo'lishi mumkin. Deputatning sessiyada qatnashmasligi faqatgina Kengash ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qonunga ko'ra sessiyaning kvorumi deputatlarning uchdan ikki qismi hisoblanadi. Bu eng avvalo shuni bildiradiki, sessiya faqatgina kvorum bo'lgan taqdirdagina ochilishi mumkin. Sessiyani ochish haqidagi taklif hokim tomonidan, agarda u yo'q bo'lsa, uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan, saylovlardan keyingi birinchi sessiyada, o'rnatilgan odatga muvofiq, yoshi ulug' deputatlardan biri tomonidan kiritiladi. Sessiyani

ochish to'g'risidagi qaror Kengash tomonidan qabul qilinadi.

Sessiya ochilganidan so'ng sessiya davrining butun davomida kotib yoki kotibiyat saylanadi.

Hokim xalq deputatlari Kengashi majlislariga rahbarlik qiladi, Kengash ish tartibiga rioya qilinishini kuzatadi, ma'ruza, qo'shimcha ma'ruza, munozaralarda chiqish uchun, ma'lumotnomalar uchun so'rov kiritish va unga javob berish uchun so'z beradi, yozma ravishda tushgan so'rovlarni e'lon qiladi, ovozga qo'yilganlik natijasini hisoblashni tashkil qiladi va uni e'lon qiladi, majlislarda tanaffus va majlisning yopilganligini e'lon qiladi.

Kotib raisga yordam beradi, sessiya bayonnomasini olib borishni ta'minlaydi, unga o'zi va rais qo'l qo'yadi.

Xalq deputatlari Kengashi raisi e'lon qilgan sessiya kun tartibini tasdiqlaydi. Xohlagan deputat kun tartibi bo'yicha o'z taklifini kiritishi mumkin. U deputatning so'rovi bilan yoki deputatlar shu sessiyada ko'rib chiqishni lozim ko'rgan boshqa masalalar bilan to'ldirilishi mumkin. Ayrim hollarda kun tartibidan u yoki bu masala dolzarb bo'lmaganligi yoki kun tartibida masalalar ko'p bo'lganligi uchun olib tashlash haqida takliflar kiritilishi mumkin. Sessiya kun tartibining loyihasi o'zgarganligi munosabati bilan deputatlar masalalarni ko'rishni boshqa vaqtga ko'chirish haqida qaror qabul qilishlari mumkin. Yangi qo'shilgan yirik masalalarni tegishli tayyorgarliksiz ko'rish yoki sessiyani boshqa kunga ko'chirish hollari maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun hokimiyat sessiya kun tartibi loyihasini tayyorlashda doimiy komissiyalar, deputatlar va jamoatchilik fikriga suyangani ma'qul.

Kun tartibi majlisda bo'lgan deputatlarning oddiy ko'pchiligi ovozi bilan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashlarining ish tartibiga muvofiq ma'ruzalar uchun 30 minutdan 40-50 minutgacha, qo'shimcha ma'ruzalar uchun 20-30 minut, munozaralarda chiqish uchun, yakunlovchi so'z uchun 10-15 minut, ma'lumotlar, qayta chiqishlar uchun 5 minutgacha vaqt ajratiladi.

Har bir yangi chaqiriq xalq deputatlari Kengashi birinchi sessiyasining kun tartibi va ishlashining ba'zi bir o'ziga xosliklari mavjud. Qonun Mahalliy davlat hokimiyatining yangi saylangan Kengashining birinchi sessiyasi uch haftalik muddat ichida chaqirilishini ko'zda tutadi. Bu sessiyada eng avvalo, tashkiliy masalalar hal qilinadi.

Tashkiliy masalalarning to'g'ri hal qilinishi xalq deputatlari Kengashining keyingi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni izchillik bilan tayyorlash talab qilinadi.

Birinchi sessiyada xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalari ham ko`riladi. Bu orqali Xalq deputatlari Kengashlari Kengash organlarini tuzadi va deputatlarni amaliy masalalarni hal qilishga safarbar qiladi.

Kun tartibidagi masala bo`yicha kengaytirilgan qaror qabul qilish taqozo etiladigan holatlar bo`yicha, odatda, Kengash tomonidan quyidagi tartib belgilangan:

- ma`ruza yoki qo`shimcha ma`ruza eshitiladi, agarda ma`ruza ko`zda tutilmagan bo`lsa, sessiyani tayyorlashda qatnashgan deputatlarning chiqishlari eshitiladi;

- munozaralar o`tkaziladi;

- qaror loyihasi muhokama etiladi;

- qaror qabul qilinadi.

Kengashlar ish uslubining yaxshilanishi majlislar o`tkazishning aniq tashkil etilishini, ko`p cho`zilmaydigan, mazmunli ma`ruzalarni, deputatlarning faolligini talab qiladi. Sessiya vaqtida, xalq deputatlari Kengashi majlislarida tanaffus e`lon qilinib, doimiy komissiyalarning majlislarini o`tkazish orqali qaror loyihasi bo`yicha komissiyaning fikrini aniqlash mumkin.

Sessiya ishining maxsus qismi kun tartibidagi masalalar bo`yicha munozaralar hisoblanadi. Deputatlarning faolligi, tanqidning o`tkirliги va aniqliги, kiritilayotgan takliflarning ko`pligi va asoslanganliги - bularning hammasi sessiya ma`naviyatini belgilaydi, Kengash faoliyatining samaradorliги va qabul qilinayotgan qarorlar sifatini ta`minlaydi.

Masalalar muhokamasida so`zga chiqishni xohlaganlarni rais ro`yxatga kiritadi. So`z navbat bilan beriladi. Munozaralarni to`xtatish haqida taklif tushgan holatda, rais so`zga chiqishga yozilgan deputatlarning birinchi galda so`zga chiqish chorasini ko`rishi lozim. Rais deputatlarning Kengash sessiyasida so`zga chiqish huquqini to`siqsiz amalga oshirishlari to`g`risida g`amxo`rlik ko`rsatishi lozim. Munozaralarning maqsadga muvofiqliğini ta`minlash maqsadida, u so`zga chiquvchilarga masala mohiyatidan chetga chiqmasliklarini eslatib turishi mumkin.

Munozaralarni to`xtatish masalasi xalq deputatlari Kengashi tomonidan hal qilinadi. So`zga chiqqan va chiqmagan deputatlar ham o`z taklif va mulohazalarini raisga yozma ravishda berishlari mumkin. Qonunda, deputatlarning sessiyaga kiritgan yoki raisga yozma ravishda bergan taklif va mulohazalari Kengash tomonidan ko`rib chiqiladi yoki tegishli organ, mansabdor shaxslarga ko`rib chiqish uchun yuboriladi, deb ko`rsatilgan. Ular taklif va mulohazalarni o`rnatilgan muddatlarda ko`rib chiqib, deputatga va Kengashga xabar qilishlari lozim.

Qarorlar deputatlarning kollegial fikrini, ularning erkini ifodalashi **fozim**. Odatda, sessiyalarda ma'ruzachi, doimiy komissiyalar raislari va boshqa shaxslar tarkibida tahririy komissiyalar tuziladi. Komissiya qaror loyihasiga kiritilgan taklif va qo'shimchalarni, deputatlarning tanqidiy taklif va mulohazalarini e'tiborga olib, qaror loyihasini tayyorlaydi. U o'z nomidan ham xalq deputatlari Kengashining ko'rib chiqishi uchun loyiha-ga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Masalaning xarakteriga qarab, tahririy komissiya funksiyasini masalani yoki qaror loyihasini tayyorlashda qatnashgan doimiy komissiyaga topshirgan ma'qul.

Tayyorlangan loyihani qaror uchun asos qilib olish masalasini Kengashning o'zi hal qiladi. Agarda u asos qilib olinsa, sessiya raisi loyiha bo'yicha unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni xohlovchi shaxslarga so'z beradi. Tushgan takliflar navbati bilan ovozga qo'yiladi. Birinchi navbatda bir-birini inkor qiluvchi qo'shimchalar ovozga qo'yiladi. Loyiha qabul qilingan qo'shimchalar bilan o'zgartiriladi. Shundan keyin rais oxir-gi qaror matnini ovozga qo'yadi. Kengash tomonidan qabul qilingan hamma o'zgarishlar qarorga kiritiladi va qarorning o'zi oxirgi ko'rinishda sessiyada tasdiqlanadi.

Qarorlarni xalq deputatlari Kengashi ochiq ovoz berish va oddiy ko'pchilikning yoqlab bergan ovoz yo'li bilan qabul qiladi. Qaror hokim va kotib tomonidan imzolanadi.

Har bir sessiya o'zining mukammal tashkiliy-texnikaviy ta'minlanishi talab etadi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: sessiya hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish, sessiya o'tkaziladigan joyni tanlash, deputatlarga aniq xizmat ko'rsatish. Bu ishlar hokimiyat apparati vazifasiga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi majlisleri borishini o'zida ifodalovchi asosiy hujjat sessiya bayonnomasidir. Unda sessiyaning o'tkazilgan vaqti, ishtirok etgan deputatlar va taklif etilgan shaxslar soni, kun tartibi, ma'ruzachilar va qo'shimcha ma'ruzachilar, munozaralarda so'zga chiqqan shaxslar, ular nutqlarining qisqacha mazmuni ko'rsatiladi. Bayonnomada tanqidiy taklif va mulohazalar, qaror loyihalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar, qabul qilingan qarorlar va ovozga qo'yilish natijalari, so'rovlar va unga javoblar o'z ifodasini topishi shart. O'zbekiston Respublikasidagi ayrim xalq deputatlari Kengashlarida ham sessiyaning stenogrammasi olib boriladi. Sessiyada qabul qilingan Kengashning har qanday qarori bayonnomada o'z ifodasini topishi shart. Bayonnoma hokim va sessiya kotibi tomonidan imzolanadi. Bayonnomaning bir nusxasi yuqori turuvchi hokimiyatga beriladi va undan quyi turuvchi Kengashlarning ishini umumlash-

tirish va ular faoliyatini nazorat qilishda foydalaniladi.

Aholi sessiyalarda masalalarni muhokama qilish qanday o'tganligi bilan tanishishga haqli. Shuning uchun sessiya stenogrammalari yoki bayonnomalari va Kengash qarorlari kutubxonalarga, o'quv zallariga berilishi maqsadga muvofiq. Sessiyaning asosiy materiallari hamda deputatlarining har bir sessiya natijasi bo'yicha saylovchilar oldidagi chiqishlari mahalliy matbuotda e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mahalliy Kengashlar huquqlarining kengaytirilishi ayniqsa, nazorat va muvofiqlashtirish sohasida komissiyalarni kengash sessiyasiga tayyorgarlik va maslahat berish vazifalarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Doimiy komissiyalar Kengashlarga bo'sunmagan korxonalarining qonunga xilof hujjatlarini to'xtatib qo'yishda va Kengashlarning qarorlarini bajarmayotgan korxonalar, tashkilot, muassasa rahbarlarini javobgarlikka tortishda tegishli vakolatli organlar ishida ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni asosida "Doimiy komissiyalar to'g'risida"gi Nizom xalq deputatlari Kengashining sessiyasida qabul qilinadi. Doimiy komissiyalar deputatlarining Kengash oldiga qo'yilgan huquq va vazifalarini bajarishda ishtirok etishi uchun tuziladi va ular faoliyatining asosiy tashkiliy shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Komissiyalar faoliyatining o'ziga xosligi, eng avvalo shundan iboratki, ular orqali deputatlar sessiyalar oralig'idagi davrda kengash faoliyatiga bevosita va doimiy jalb qilinadi. Doimiy komissiyalar - mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining strukturaviy organlari bo'lib, ko'pchilik deputatlarni, ya'ni ko'p sonli faollarni birlashtiruvchi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi organdir.

Doimiy komissiyalarning nazorat va tashkilotchilik funksiyasining ahamiyatligi sessiyalar oralig'i davrida ko'rinadi. Yuqori turuvchi ijroiya hokimiyat davlat organlari hujjatlarini, o'z qaror va takliflarining ijro qilinishini tashkil etadi va uning bajarilishini nazorat qiladi.

Doimiy komissiyalarning nazorat etish faoliyati Kengash amalga oshirayotgan nazoratning muhim bir qismidir. O'z vakolatlari doirasida yoki Kengash ko'rsatmalari bilan hokimiyat va yuqori turuvchi Kengashlar doimiy komissiyalarining taqdimnomasiga asosan nazorat tekshiruvini tegishli korxonalar va tashkilotlar faoliyatining qonuniyligi yuzasidan o'tkazishi mumkin. Doimiy komissiyalarning bunday huquqlari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda va nizomlarda belgilangan. Ular ixtiyoriga berilgan masalalar bo'yicha majlislarda, hokimiyat bo'lim va boshqarmalarining rahbarlari, korxonalar rahbarlarining ma'ruza va

axborotlarini eshityshlari va ularga ishni yaxshilash bo'yicha o'z takliflarini berishlari mumkin.

Komissiyalar Kengash hududida joylashgan korxonalar faoliyati bilan tanishishlari, ularning rahbarlaridan zarur ma'lumotlarni talab qilishlari, ularning buyruqlari, ish rejaları va boshqa hujjatlaridan xabardor bo'lib turishlari ta'minlanadi. Agarda Kengash qabul qilgan qarorlar bajarilmayotgan bo'lsa, ularning rahbarlaridan tushuntirish talab qilishlari mumkin.

Komissiyalar Kengashga bo'ysungan korxonalar faoliyatini o'rganib chiqishda ular faoliyatining o'zlari lozim topgan tomoni bo'yicha nazorat tekshiruvini o'tkazishlari mumkin.

Shu bilan birga komissiyalar tekshirilayotgan korxonalarining kundalik faoliyatiga aralashmaydilar, ularning rahbarlari o'rnini bosmaydilar, ularning buyruq va farmoyishlarini o'zgartirmaydilar.

Tekshiruv o'tkazilishining rejasi oldindan tuziladi va unda ishtirok etuvchining vazifasi, bajarish yo'li va shakli, komissiyaga ma'lumotnomalar taqdim qilish shakli va muddatlari belgilanadi.

Komissiyalar yiqqan materiallar Kengash, hokimiyat va yuqori turuvchi manfaatdor organlarga yetkaziladi. Doimiy komissiyalar ko'pchilik hollarda sessiyalarda Kengash qarorlari ijro qilinishining borishi to'g'risida maxsus axborot bilan chiqadilar.

Komissiyalar tomonidan nazorat va tashkiliy ishlar olib borilayotganda ularning jamoatchilik bilan bo'lgan aloqalari muhim o'rin tutadi. Bu doimiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarda ko'zda tutilgan.

Mahalliy Kengash ishida yetilgan masalalarning tegishli davlat organlari oldiga qo'yilishida hamda sessiyalarga va hokimiyat majlislariga materiallarning qaror loyihalarini tayyorlashda va unda ma'ruza va qo'shimcha ma'ruza, xulosa, takliflar bilan chiqishda doimiy komissiyalar ishi ko'rinadi. Mahalliy Kengashlar ish tajribasida shunday tartib o'rnatilgan bo'lib, doimiy komissiyalar a'zolarining ishtirokisiz biron-bir muhim masala hal etilmaydi.

Sessiya kun tartibi loyhasini tayyorlaganda doimiy komissiyalar taklif va mulohazalarining e'tiborga olinishi yaxshi natija beradi. Doimiy komissiyalar o'z navbatida o'zlariga topshirilgan sohalaridagi vazifalar bilan yaxshi tanish bo'lganliklari uchun eng dolzarb masalalarni Kengash va hokimiyat ish rejalariga kiritadilar.

Doimiy komissiyalarning Kengash sessiyasiga masalalarni tayyorlashdagi ishtirokining asosiy shakllari korxonalar, tashkilot, muassasalardagi ishning ahvolini o'rganish va tekshiruvlar o'tkazish, tegishli masalalarni

oldindan tayyorlash, sessiya muhokamasiga kiritish, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, qaror loyihasi bo'yicha xulosa va takliflar kiritish hamda sessiyada ma'ruza, qo'shimcha ma'ruza yoki so'zga chiqishdan iboratdir.

Doimiy komissiyalarning sessiyalardagi bevosita ishtirokining eng ko'p tarqalgan shakli ma'ruza, xulosa va takliflar bilan chiqishdir.

Doimiy komissiyalar huquqlarining kengaytirilishi ularning tashkiliy va nazorat funksiyalari bilan hokimiyat faoliyatida ularni keng ishtirok etishini belgilaydi.

Mahalliy Kengashlar huquqlarining kengaytirilishi, ayniqsa, nazorat va muvofiqlashtirish sohasida komissiyalarni kengash sessiyasiga tayyorgarlik va maslahat berish vazifalarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Doimiy komissiyalar Kengashlarga bo'ysunmagan korxonalarining qonunga xilof hujjatlarini to'xtatib qo'yishda va Kengashlarning qarorlarini bajarmayotgan korxonalar, tashkilot, muassasa rahbarlarini javobgarlikka tortishda tegishli vakolatli organlar ishida ishtirok etishlari mumkin.

Doimiy komissiyalarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash;

- Kengash qarorlarini va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- Kengash hokimiyat va yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirishdagi tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

- saylovchilar nakazlarining amalga oshirilishida va uning ijrosini nazorat qilishda ko'maklashish;

Doimiy komissiyalar bevosita halq deputatlari Kengashi rahbarligida ish yuritadi va unga bo'ysunadi, hisob berib turadi. Faqatgina Kengash ularga ijrosi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishi, hisobotlarini eshitishi, komissiyalar tizimi va tarkibini o'zgartirishi mumkin. Hozirgi vaqtlarda ko'pchilik xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida vaqti-vaqti bilan doimiy komissiyalar hisobotlarini eshitish tartibi belgilangan. Bundan tashqari doimiy komissiyalar sessiya vaqtida va sessiyalar oralig'idagi vaqtda deputatlarni qilingan ishlar haqida muntazam xabardor qilib boradilar.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashining sessiyalarini o'tkazilishida uning kun tartibiga qo'yiladigan masalalarni tayyorlashda hokimlar rahbarlik qiladi va buning uchun shaxsan javobgardir. Mahalliy ijroiya hokimiyatining faoliyatini tashkil etishda tegishli hudud rahbari sifatida hokim kotibiyati boshlig'i alohida o'rin egallaydi. Hokim kotibiyatining

boshlig`i hokim tomonidan tayinlanadi, xalq deputatlari Kengashi sessiyasida tasdiqlanadi, bevosita hokimga bo`ysunadi va kotibiyat ishi uchun shaxsan javob beradi.

Hokimlik Kotibiyati sessiyalarga, majlislarga, hokim Maslahat Kengashi yig`ilishlariga tayyorgarlikni va unda qabul qilnadigan qarorlarning ekspertizasini, mahkama ishining istiqbol va joriy rejalarini ishlab chiqishda, xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalariga uslubiy yordam ko`rsatadi. Shuningdek, qabul qilingan qarorlar va boshqa hujjatlarning ijrosini tezkorlik bilan nazorat qilinishini tashkil etadi.

Kotibiyat boshlig`i: ijro etuvchi mahkama faoliyatini tashkiliy, ma`muriy va xo`jalik ishlarini ta`minlashni amalga oshiradi; Kengash sessiyalari va doimiy komissiyalari, hokim Maslahat Kengashi majlislarida muhokama etilishi belgilangan masalalarni tayyorlashni va o`tkazishni tashkil etadi; O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarining va xalq deputatlari Kengashi, hokimning qarorlari va farmoyishlarining kanday bajarilayotganini nazorat qilinishini tashkil etadi; hokim bilan kelishgan holda kotibiyat tarkibini belgilaydi va tuzilma bo`linmalar to`g`risidagi Nizomlarni, xodimlarning mansab yo`riqnomalarini tasdiqlaydi; hokim mahkamasi faoliyatining ichki tartibi masalalari va kadrlar masalalarini belgilash bo`yicha buyruqlar, o`z huquqlari doirasida ko`rsatmalar chiqaradi va boshqa hokimning turli xil tadbirlarida hokimlik vakili sifatida ishtirok etadi.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi, uning tarkibiga hokimning birinchi o`rinbosari va o`rinbosarlari, kotibiyat boshlig`i kiradi. Hokimning qaroriga muvofiq maslahat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari Kengashining deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo`lgan vakillar ham kiritilishi mumkin.

Maslahat Kengashi majlislari zarur bo`lganda hokim tomonidan chaqiriladi va uning rahbarligida o`tkaziladi.

Majlislarning kun tartibini tuzish, ularni tashkil etish va o`tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish hokim kotibiyatining boshlig`i tomonidan amalga oshiriladi. Maslahat Kengashi majlisining kun tartibini hokim tasdiqlaydi va majlislarda muhokama qilnadigan masalalar ko`rib chiqilayotganda tuman va shahar hokimlari, doimiy komissiyalarning raislari, bo`limlar, bosh boshqarmalar boshqarmalar va bo`linmalarining rahbarlari, jamoat birlashmalari va xo`jalik tashkilotlarining, ommaviy axborot-vositalarining vakillari ishtirok etishi mumkin.

Maslahat Kengashining majlislarini tayyorlash va o`tkazish hokim

tomonidan tasdiqlanadigan Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi. Reglament bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish tartibi va taxminiy vaqti, ma'ruzachilar, munozarada qatnashuvchilar va taklif qilingan shaxslar bir vaqtda keladigan qilib belgilanadi.

Maslahat Kengashi majlislarining samaradorligi ma'ruzachilar va so'zga chiquvchilarning qisqa, faqat ko'rilayotgan **masalalar bo'yicha** so'z yuritishlari, reglamentga qat'i rioya qilinish **natijasidir**. Dastlab, kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha **axborot beriladi**, keyin qisqacha fikr almashiladi.

Majlisning borishi bayonnomada ifodalanadi va unda ishtirok etgan shaxslar, kun tartibi, munozaralarda qatnashganlarning fikri, so'zga chiqqanlarning takliflari va tanqidiy mulohazalari va maslahat Kengashi qanday qarorga kelganligi qayd qilinadi. Muhokama qilingan masalalar bo'yicha **uzil-kesil qaror hokim tomonidan qarorlar yoki farmoyishlar shaklida natija qilinib, imzolanadi**.

Qarorlarning loyihalari yoki ulardan ko'chirmalar ish yurgizish haqidagi yo'riqnomalarda ko'rsatilgan muddatlarda yoki qarorlarning o'zlarida ko'rsatilgan muddatlarda manfaatdor tashkilotlarga va fuqarolarga yuboriladi.

Maslahat Kengashi majlislarini tayyorlash Kengash sessiyasini tayyorlash bilan ko'p umumiy tomonlarga ega. O'zbekiston Respublikasi ba'zi bir hokimliklarda ko'p hollarda hokim Mahkamasi majlislarini va unga materiallarni tayyorlash haqida maxsus tartib qabul qilinadi. U yoki bu masalaning reja bo'yicha ko'rib chiqishga javobgar xodimlar tayinlanadi. Hamma tayyorgarlik ishiga umumiy rahbarlikni kotibiyat boshlig'i olib boradi. Javobgar shaxslar joylarda tekshirishlar o'tkazadilar, ma'lumotnomalar va boshqa materiallar tayyorlaydi va ko'riladigan masala bo'yicha ma'ruza va qo'shimcha ma'ruzalar yozadilar, buning natijasida qaror loyahasini tuzib, hamma materiallarni hokim mahkamasiga beradilar. Bu ishga doimiy komissiyalar, deputatlar, keng jamoatchilik vakillari jalb qilinadi. Agarda masala Maslahat Kengashiga doimiy komissiya tomonidan kiritilgan bo'lsa, uni tayyorlash ham shu doimiy komissiyaga topshirishi mumkin. Masalani uzil-kesil hal qilish yuqori turuvchi organlarga yoki Kengashga bo'ysunmagan organlarga taalluqli bo'lib, qabul qilingan qaror ijro etilmasa, sud organlaridan uni ko'rib chiqib, qonuniy hal etish talab qilinadi. Hokimlikning hamma qarorlari loyihasi va ularga berilgan ma'lumotnomalar ularni bergan organ rahbarlari tomonidan imzolanadi va uni hokim, hokim o'rinbosari va kotibiyat boshlig'i imzolaydi va manfaatdor tashkilot, korxonalar, muassasalar bilan bajarilishi kelishib olinadi.

Hokimiyat apparatidagi yurist maslahatchi ham qaror loyihasini qonuniyligini ko'rib chiqadi va imzolaydi.

Yuridik bo'limlar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, xalq deputatlari Kengashlari qarorlari, tegishli hokimning qaror va farmoyishlari va yuridik bo'lim to'g'risidagi nizom asosida tashkil etadilar.

Yuridik bo'limlarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

-xalq deputatlari Kengashlari va hokimning qaror va farmoyishlari loyihasi bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

-tuman hokimlarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va tegishli hokimlarning qaror va farmoyishlari, tegishli xalq deputatlari qarorlariga va amaldagi qonunchilikka xilof qaror va farmoyishlarni bekor qilish yoki ularni to'xtatib qo'yish bo'yicha asoslantirilgan xulosalarni tayyorlaydi;

-xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari, hokimning ijroiya apparati, hududdagi sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar, mudofaa, milliy xavfsizlik sohasida faoliyat olib borilayotgan boshqa davlatlar organlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi;

-tegishli xalq deputatlari Kengashlarining huquqiy faoliyatini tashkil etish bo'yicha qonun hujjatlari talablarini o'rganadi va boshqa vazifalarni amalga oshirali.

3-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashi deputatining sessiyalarga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazilishida o'z saylovchilari va siyosiy partiyalar bilan o'zaro munosabatlari.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlash va rivojlanish davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar Kengashlari deputatlarining huquqiy holatlarini aniq belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda amalda bo'lgan qonunchilik vakillik organlari deputatlarini ikki pog'onadagi darajaga ajratadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari va hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarining deputatlari. Lekin ularning huquqiy maqomi alohida-alohida qonunlarda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida" 2004-yil 2-dekabrda

qabul qilingan Qonunida deputatning saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan olib boradigan ishlari alohida modda qilib belgilangan. Bu esa uning ahamiyatini oshirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida 2005-yil 27-yanvar kuni so'zlagan nutqida takidlab o'tganidek; "Deputat degan yuksak ishonchga sazovor har qaysi inson avvalo o'zi uchun ovoz bergan odamlar haqida o'ylashi zarur. Bu ham demokratiyaning yana bir belgi-alomati, desa bo'ladi"¹ degan prinsipni mustahkamlaydi.

Qonunning mazkur moddasida belgilanganidek, tegishli xalq deputatlari Kengashining deputati o'z saylov okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan aloqa bog'lab turadi, tegishli xalq deputatlari Kengashida ularning manfaatlarini ifoda etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari - xalq deputatlari kengashlari o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan muhim masalalarni muntazam ravishda sessiyalarda hal qiladilar. Deputatlar uchun sessiyalar davlat ishida qatnashish maktabidir. Bu bilan har bir deputat Kengash sessiyasida masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, mavjud kamchiliklarni ochib tashlash, Kengash, hokimlik va ularga bo'ysungan organlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan takliflar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalq deputatlari kengashlari deputati saylovchilar bilan mustahkam aloqa o'rnatar ekan, ularni Kengash ishi bilan batafsil tanishtirib boradi, bunda deputatning saylovchilar oldidagi hisobotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun bo'yicha deputatlar vaqti-vaqti bilan yiliga kamida bir marotaba, viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatlari yiliga ikki marta o'z ishi saylov oldi dasturi, qanday bajarilayotganligi haqida saylovchilar oldida hisob berib turadilar. Deputatlarning hisoboti tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan belgilangan miqdorda saylovchilar guruhining talabiga binoan ham o'tkazilishi mumkin.

Deputatlar o'z saylov okruglarida saylovchilarni qabul qilishni tashkil etadilar. Bu qabulda saylovchilar deputatlar bilan bevosita uchrashadilar deputat o'ziga saylovchilardan tushgan taklif, arizalar va shikoyatlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ularni hal etish chora-tartiblarini ko'radi. Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida ikki marta saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot beradi.

Qonunga ko'ra deputat o'zi saylangan xalq deputatlari Kengashi hududidagi quyi turuvchi kengashlarning va fuqarolarning o'zini o'zi

¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13.- T.: O'zbekiston. 2005. 168-b.

boshqarish organlari majlislarida maslahat ovozi bilan qatnashish huquqiga egadir.

Deputatning o'z saylov okrugidagi faoliyatini amalga oshirishning muhim kafolatlaridan biri deputatning qonun buzilgan hollarni tegishli davlat organlaridan bartaraf etishni talab qilish huquqidir. Davlat hokimiyatining vakili sifatida deputat fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari buzilganligi yoki qonunchilik o'zgacha tarzda buzilganligiga duch kelgan hollarda o'sha joyning o'zida bunday holatlarning darhol oldini-olishni talab qilib tegishli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga murojaat qilishi mumkin.

Deputat saylov okrugida o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun tegishli vakillik organi nazorati ostidagi tashkilotlarda fuqarolarning manfaatlariga taalluqli bo'lgan har qanday masala ko'rib chiqilishini talab qilish, okrugdagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalarning yig'ilishlarida saylovchilari uchrashuvlar o'tkazish huquqiga egadir. Deputatga saylovchilar bilan olib boriladigan ishlari uchun tegishli xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilanadigan tartibda muayan kunlar ajratiladi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish uchun deputatga zarur shart-sharoit taminlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari uning iltimosiga ko'ra bino ajratilishini tashkil etadilar, deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari o'tkaziladigan, deputat tomonidan fuqarolar qabul qilinadigan vaqt va joy haqida fuqarolarga xabar beradilar, qabul va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o'zlarining mas'ul vakillarini yuboradilar, shuningdek, deputatning joylardagi ishiga ko'maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar ko'radilar. Deputat o'z deputatlik faoliyatiga doir masalalar yuzasidan matbuot organlarida chiqish, radio va televedeniye orqali so'zlash borasida imtiyozli huquqqa ham egadir.

O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi" Qonunida deputat sessiyasida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalarda hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi, qaror loyihalariga tuzatishlarni taqdim etishi mumkin deb belgilangan.

Deputat mazkur funksiyasini davlat idoralarida ham amalga oshirishi belgilangan. Qonunning 5-moddasiga muvofiq deputat Kengash doimiy komissiyai va boshqa muvvaqat komissiyasi tarkibiga kirsam, tegishli idoralarga har qanday masala va taklifni kiritishga ular yuzasidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga, qarorlarning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga haqlidir.

Deputat o'z saylov okrugida aholini xalq deputatlari Kengashining ishi to'g'risida muntazam xabardor qilib turishi, qonunlarning va davlat hokimiyati vakillik organlari qarorlarining bajarilishi hamda nazorat qilinishida ishtirok etishi, jamoatchilik fikrini, aholining talab va ehtiyojlarini o'rganishi va bular haqida tegishli davlat hokimiyati organlariga malumot berishi hamda, qaror loyihalari tayyorlanayotgan vaqtda o'z takliflarini kiritishi mumkin.

Deputatlar xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalari, deputatlar guruhlarida ishida qatnashishlari va sessiya davrida ularning o'rtacha ish haqi saqlangan holda asosiy vazifasidan ozod qilinadilar va deputatlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar tegishli davlat byudjeti yoki mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shuningdek, deputatning transportda bepul yurish huquqi, hamda pul to'lanadigan yillik ta'tillari kafolatlanadi.

Deputatlik faoliyatining tashkiliy kafolatlariga deputatning mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinish huquqini deputatga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini deputatning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha mansabdor shaxslarning burchlarini ko'rsatish mumkin. Deputatlik faoliyatini amalga oshirishga imkoniyat yaratadigan shart-sharoitlar yig'indisi deputatlik faoliyatining kafolatlari deyiladi.

Qonunga ko'ra deputatning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinadi. Deputatning sha'ni va qadr-qimmatiga qasd qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Qonunning mazmuniga ko'ra boshqa davlat va jamoat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari deputatga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradilar.

Shuningdek, deputatlarning dahlsizligi masalalari o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga qaratilgan kafolatlarni nazarda tutgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkin: deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga imkon yaratadigan sharoit va vositalarning yig'indisi deputatlik faoliyatining kafolatlari deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida" Qonunning 7-moddasida saylovchilarning ishonchini oqlay olmagan deputat qonunda belgilangan tartibda saylovchilar tomonidan chaqirib olinishi mumkin deb belgilangan.

Saylovchilarning ishonchini oqlamagan deputat chaqirib olinishi mumkin yoki deputatlik etikasiga mos kelmaydigan xatti-harakatlar sodir

etgan deputat qonunda belgilangan tartibda mamuriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilib dahlsizlik huquqidan mahrum etilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasidagi amalda bo`lgan qonunchilikka muvofiq deputatlarning vakolatlari quyidagi holatlarda muddatidan oldin ham tugatilishi mumkin: 1) saylovchilar deputatlarni muddatidan oldin chaqirib olsalar; 2) deputatni deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga to`sqinlik qilgan sabablarni ko`rsatgan holda bergan arizasiga muvofiq qabul qilingan qaroriga ko`ra; 3) deputatga nisbatan sud ayblov hukmining qonuniy kuchga kirishi bilan; 4) deputat saylangan yoki tayinlangan lavozimni egallab turishi qonunga muvofiq deputatlik vakolatlarini bajarishga zid bo`lgan hollarda.

Deputatlarning vakolatlari viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlariga saylangan kundan boshlanadi va mana shu organlarning vakolatlari tugagandan so`ng yangi chaqiriq saylovlar o`tkazilgan kundan boshlab tugaydi.

XVI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI KOMISSIYALARI ISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

1-§. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari doimiy komissiyalari faoliyatini tashkil etilishining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikni dastlabki yillarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijro hokimiyati shakllantirilgan¹ edi. Bugun esa, markaziy hokimiyat idoralari vakolatlarini mahalliy hokimiyat hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish jarayonlari samarali uslublar va shakllarga ega bo'lib borishi, siyosiy sohani erkinlashtirishning zarurligi ta'kidlanmoqda². Bu - jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko'proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning ma'suliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi: Ushbu muhitni joylarda ta'minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi³.

Darhaqiqat, vakillik organlari barcha rivojlangan davlatlar mahalliy hokimiyat organlari tizimida yetakchi o'rin tutadi. Chunki to'g'ridan-to'g'ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanganligi tufayli vakillik organi aholi manfaatlarini ko'zlab ish yuritish va uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi⁴. Zero, ular o'zini o'zi boshqarish demokratiya maktabining rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan⁵.

O'zbekiston qonunchiligida o'z aksini topgan viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi xalq deputatlari kengashlarining davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi muhim demokratik me'yorlardan biridir.

Doimiy komissiyalarning huquq va vazifalari, ularning tashkil etilishi

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. - T.: O'zbekiston, 1997. 11-12-betlar.

² Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Xalq so'zi. 2002-yil, 30-avgust; Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.- 105-141-betlar.; Karimov I.A. Biz kelajaginizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, 1999. 320 b.

³ Hineman Charles M.. Bureaucracy in Democracy.-Harper, 1950, pp. 12-15.

⁴ Алимнид Е.Г., Тертышный А.Т. Основы местного самоуправления. - М.: Инфра-М, 2000. С.138.

⁵ Исломов Э.М. Гражданское общество: вчера, сегодня завтра. Узбекистан на пути к гражданскому обществу - O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari: Сборник статей // Отв. Ред.: П.Алимов.- Т.: Sharq, 2003. - С.38.

va faoliyatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qarorlari, davlat dasturlari, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, boshqa qonun hujjatlari, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi «Ish tartibi» hamda «Nizom» bilan belgilab beriladi va amal qilinadi.

Doimiy komissiyalar – Kengashning ishchi organlaridir. Ular Kengash tomonidan qo'yilgan vazifalarni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari Kengashlari o'z vakolatlarini deputatlarning umumiy yig'ilishi, ya'ni sessiyalar orqali amalga oshirish huquqiga egadir. Chunki Kengash mahalliy hokimiyat organi sifatida aholi manfaatlarini ifodalovchi deputatlardan iboratdir.

Doimiy komissiyalar Kengashning ishchi organi sifatida uning vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan (tashkiliy va u bilan bog'liq nazorat faoliyati) va Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish (qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish ustidan nazorat va uning ijrosini tashkil etishga ko'maklashish) bilan shug'ullanadilar.

Doimiy komissiyalar faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish, asosan, sessiyalarni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Kengashlar, doimiy komissiyalarning sohalariga qarab, ularga ma'lum masalani tayyorlashni topshirish orqali o'z vazifalarini bajargan holda, tegishli sohaning tahlili va samarali boshqaruviga erishadilar. Doimiy komissiyalar mazkur masalalar va ular yuzasidan qaror loyihalarini tayyorlaydilar va ushbu jarayonda aholi manfaatlarini aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Doimiy komissiyalarning Kengash oldidagi hisobdorligi ularning faoliyatiga rahbarlik qilishning muhim huquqiy vositasini tashkil etadi¹.

Doimiy komissiya hisoboti asosida Kengash tomonidan, odatga ko'ra, komissiya faoliyati atroflicha tahlil etilgan, erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar ko'rsatilgan qaror qabul qilinib, unda keyingi faoliyatning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqiladi hamda tashkiliy-amaliy ishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bunday qarorlar nafaqat hisoboti tinglangan doimiy komissiya, balki boshqalari uchun ham rahbariy hujjat hisoblanib, ularning ishini yaxshilash, yo'naltirish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

¹ Misol uchun qarang: Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizomining 10-moddasida doimiy komissiyalarni xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi oldida javobgarligi va unga hisobdorligi belgilangan.

Masalan, xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashi doimiy komissiyalarining tizimi quyidagicha tuzilgan:¹

1. Mandat komissiyasi;
2. Qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar tengligini ta'minlash masalalari doimiy komissiyasi;
3. Iqtisodiy islohotni, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish masalalari doimiy komissiyasi;
4. Agrosanoat kompleksi va suv xo'jaligi masalalari doimiy komissiyasi;
5. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot doimiy komissiyasi;
6. Sanoat, transport, qurilish, aloqa doimiy komissiyasi;
7. Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalari doimiy komissiyasi;
8. Kommunal xo'jalik va atrof muhitni muhofaza qilish doimiy komissiyasi.

O'zbekiston Respublikasidagi xalq deputatlari Kengashlari ish tajribasida komissiyalari o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilishi belgilangan.

Doimiy komissiyalar o'z faoliyatlarini "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 18 va 24-moddalariga muvofiq tashkil etadilar.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari doimiy komissiyalarining faoliyati Kengash tomonidan tasdiqlanadigan Nizom asosida yuritiladi. Doimiy komissiyalar, deputatlarni birlashtiruvchi organ hamda xalq deputatlari Kengashining yordamchi organlari bo'lib, hisoblanadi.²

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining yuqorida ko'rsatib o'tilgan huquq va vakolatlarining ma'lum bir qismini amalga oshirilishi tegishli tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarida komissiya tomonidan o'rganilib sessiya majlislarida ko'rib boriladi. Shuningdek, mahalliy ijroiya hokimiyat organlari huzuridagi komissiyalar faoliyatining tashkil etilishi ham Kengash doimiy komissiyalariga o'xshasada, lekin tarkib topishi, faoliyat yuritishi butunlay boshqa masaladir, ammo ular ishining ayrim tomonlari o'zlariga tegishli masalalarni va muammolarning yechimini o'z rejaları asosida amalga oshiradilar. Masalan, Kengashning, "Qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalalari doimiy komissiyasi". Hokimlik huzuridagi; "Jazoni o'tash joylaridan

¹ Andijon viloyati xalq deputatlari Kengashining I-chaqiriq, I-sessiyasida tasdiqlangan "Doimiy komissiyalari to'g'risida"gi Nizom, 1995. 4-m. (Joriy materiallari).

² Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. O'quv qo'llanma. - T.: Universitet, 1994. -B.37.

ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha komissiyasi", va «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi», mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirishning tegishli hududlarda ijtimoiy munosabatlarni ayrim masalalarini tartibga solinishida bu ikki hokimiyat organlarining komissiyalari o'z faoliyatlarini bir maqsad yo'lida tashkil etadilar. Mahalliy hokimliklar huzuridagi jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha komissiyasi faoliyatiga rahbarlik qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.¹

Mahalliy ijroiya hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko'maklashish, hokim qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda viloyat, tuman va shahar hokimlari, bo'lim va boshqarmalari, korxonalar tashkilot va xo'jaliklar faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida hokim tomonidan uning huzurida komissiyalar tuziladi.² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy Nizom asosida, viloyat, tuman va shahar hokimlari ularning vazifalari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari qoshida tuziladigan doimiy komissiyalar bilan hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalar farqi quyidagilardan iborat:

1. ularni tashkil etishning maqsadi, vazifalari va vakolatlari;
2. komissiyalar tarkibi, tuzilish tartibi, vakolat muddati va faoliyatining ko'lami;
3. komissiyalar ishining tashkil etilishi va ular faoliyatida ishtirok etuvchi davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar vakillarining doimiyliigi yoki zaruriyligi;
4. komissiyalar ishiga rahbarlik masalalari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Lekin faoliyatining maqsadi bitta, ya'ni tegishli hududda qonuniylikning rivojlanish talablarini amalga oshirishni ta'minlashdir.

Masalan, joylarda voyaga yetmagan fuqarolar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlarning susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko'plab yoshlar tomonidan

¹ "Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya"lar to'g'risidagi Nizomning 16-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-aprel 1999-yil, №180 Qarori bilan tasdiqlangan. (Joriy materiallari). Keyingi o'rintalarda «Maxsus komissiyalar» deb yuritiladi.

² Toshkent viloyati hokimining 1998-yil 27-martdagi 72 sonli qaroriga muvofiq, Toshkent viloyati hokimi ijroiya mahkamasining "Ish tartibi" tasdiqlangan. 6-bob, 1-moddasi. (Joriy materiallari).

huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish, giyohvandlik va ichqilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turibdi.¹ Yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish tarbiyalash va ular o'rtasidagi huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida, hokimliklar huzurida faoliyat yuritayotgan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar huquqiy holati qaytadan ko'rib chiqilib takomillashtirildi.

O'zbekiston hududining vodiy adirliklarida joylashgan Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari hokimliklari huzurida faoliyat ko'rsatuvchi komissiyalar tizimi quyidagicha belgilangan:

1. "Mustaqillik", "Navro'z" bayramlari va ommaviy tadbirlarni o'tkazish komissiyasi;
2. Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha viloyat mintaqaviy komissiyasi;
3. Favqulodda holatlar bo'yicha komissiyasi;
4. Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiyasi;
5. Harbiy chaqiruv komissiyasi;
6. Yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish komissiyasi;
7. Metallolom yig'ish va topshirish bo'yicha komissiyasi;
8. Qishloq infrastrukturasi rivojlantirish dasturining bajarilishni nazorat qilish bo'yicha komissiyasi;
9. Alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarning qo'riqlanishini nazorat qilish bo'yicha komissiyasi;
10. Qishga tayyorgarlik ko'rish komissiyasi;
11. Epidemiyaga qarshi kurash favqulotda komissiyasi;
12. Toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish masalalari komissiyasi;
13. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash komissiyasi;
14. "Davlat tili" to'g'risidagi qonunni bajarish va yangi o'zbek alifbosini joriy qilish masalalari komissiyasi;
15. Viloyat bozorlarining faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarishni tartibga solish komissiyasi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 360-sonli Qarori, 21-sentabr, 2000-yil "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari ho'zurdagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalari to'g'risidagi Nizom. Keyingi o'rinlarda, "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar" deb yuritiladi. (Joriy materiallari).

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-dekabr 604 sonli "Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining bajarilishini nazorat qilish komissiyasi;
 17. Pul-kredit siyosati komissiyasi;
 18. Korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari bo'yicha komissiyasi;
 19. Aksiz markalari tizimini joriy etish bo'yicha idoralararo komissiyasi;
 20. Qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish masalalari bo'yicha komissiyasi;
 21. Viloyat huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan musodara qilingan tovar xom-ashyo va boshqa moddiy boyliklarni baholash va sotilishini tashkil etish komissiyasi;
 22. Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'barlantirish bo'yicha viloyat muvofiqlashtirish va tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya loyihalari tanlab olish ishchi komissiyasi;
 23. Soliq va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiyasi;
 24. Haj va Umra ziyoratlarini tashkil etish komissiyasi;
 25. Qurish kompleksining norentabel va kam quvvatli tashkilotlarini qayta tiklash va tugatish bo'yicha komissiyasi;
 26. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi.
 27. Jazoni o'tash joylaridan ozod qilinadigan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha komissiyasi;
 28. Axborot faoliyati va ma'lumotlar o'zatilishini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha komissiyasi;
 29. Alkogolli mahsulotlar ishlab-chiqarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga maxsus ruxsatnomalar (litsenziya) berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasi;
 30. Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish bo'yicha komissiyasi. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash va viloyatda sel va suv toshqinlari xavfining oldini olish ishlarini tashkil qilish bo'yicha komissiya shtatlarining huquqiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunlarda ular joylarda o'z faoliyatlarini yuqori darajada davom ettirmoqdalar.
- Ushbu komissiyalarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari asosida tasdiqlangan "Namunaviy Nizom" va «Ish tartib»lari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunida bevosita maxsus komissiyalar tuzilishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan bo'lsa ham, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizom asosida, viloyat, tuman va shahar hokimlarining tegishli qarorlari bilan tashkil etiladi.¹ Bu qarorlarda komissiyalarning vazifalari, vakolatlari va shu komissiyalar ishini tashkil etish masalalari belgilab berilgan. Shundan xulosa qilib, viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar tizimi va tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

1) viloyat va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar;

2) tuman va shahar hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar. Shuningdek, istisno tariqasida komissiyalar tuman markazidan ancha olisda joylashgan qo'rg'onlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida ham tuzilishi mumkin, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida komissiyalar tuzishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala tegishli viloyatlar Toshkent shahar hokimligi tomonidan hal etiladi.²

O'zbekiston Respublikasi hokimliklari huzuridagi komissiyalari tizimi viloyat, tuman, shahar va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar, tuman tarkibiga kiruvchi shaharlarda ham tuziladi.

Ba'zi bir komissiyalarning tashkil etilishi mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa ham, masalan; voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi, Vazirlar Mahkamasi tamonidan tasdiqlangan «Namunaviy Nizom» asosida tuzilgan, ba'zi bir komissiyalarni tuzish mahalliy ijroiya mahkamaning tashabbusi va Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tuzilmoqda. Hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalarga rahbarlik masalalari hokim, hokim o'rinbosarlari va xodimlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillikdan keyingi davrda mahalliy ijroiya hokimiyat organlariga berilgan shtatlar miqdorida, hokim apparatidagi shtat birliklarini, ularning bo'lim va boshqarmalarini tegishli hudud mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda, Vazirlar Mahkamasining roziligi bilan o'zlari qayta taqsimlash huquqlari berilgan.³ Shuningdek, komissiyalarning ayrimlarini tuzish yoki tuzmaslik huquqlari ham bunga kiradi. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida hokimlik-

¹ Hokimliklar huzuridagi komissiyalar to'g'risidagi Nizomlarning kirish qismidan. (Joriy materiallari). 2002-yil.

² Maxsus va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi Nizomning kirish qismidan. (Joriy materiallari). 2000-yil.

³ Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining "Yo'riqnomalaridan. (Joriy materiallari). 2003-yil.

lar huzuridagi tuziladigan komissiyalar tizimi bir xil bo'lishi mumkin emas. Chunki respublikamiz ma'muriy-hududiy tuzilishidagi birliklarda, ya'ni viloyat, tuman va shaharlarning jo'g'rofiy va hududiy joylashishida hamda tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli xil bo'lishi mumkin. Lekin komissiyalar ish rejalarini respublika bo'yicha bir xil muddatlarda tuzilishi belgilangan.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzurida tuzilgan komissiyalar ixtiyoriga aniq belgilangan tarmoqlararo va funksional xarakterga ega bo'lgan, qat'iy chegaralangan masalalar doirasi berilgan. Shuningdek, ushbu komissiyalar hokimlik bilan uzviy tashkiliy aloqaga ega bo'ladi, odatda komissiyalar raislari va a'zolari hokimlikning rahbar xodimlaridan tayinlanadi. Bundan tashqari, komissiyalar tarkibiga nomzodlar tegishli davlat organlari rahbarlari va jamoat birlashmalari tomonidan tajribali tarbiyachilar, pedagoglar, huquqshunolar, jamoatchilikning boshqa vakillaridan ko'rsatiladi hamda ularning taqdimnomasi bo'yicha viloyat, tuman va shahar hokimliklari majlislarida ikki yil muddatga tasdiqlanadi.¹ Masalan, maxsus komissiyalar tarkibiga ichki ishlar organlari, prokuratura, sud, shuningdek advokatura xodimlari ham kirishi mumkin.² Maxsus komissiyalar butun faoliyatlari davomida tegishli hokimliklar oldida mas'uldirlar va ularga hisob berib turadilar.

2-§. Komissiyalarni tegishliligiga qarab, tuzish tartibi, vazifalari va rahbarlik masalalarini tashkil etilish tartibi

Xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari va hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalarni tegishliligiga qarab tuzish tartibi faoliyatini huquqiy tartibga solish demokratik davlat boshqaruvining asosiy talablaridan biridir. Shuning uchun ham xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari va hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalarning normativ-huququqiy hujjatlarda huquqlari, majburiyatlari va vazifalarini belgilanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlarining doimiy komissiyalari va ijroiya hokimiyat komissiyalari davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

O'zbekiston Respublikasi viloyat, tuman va shahar hokimliklari

¹ Mahalliy ijroiya hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hokimlar tomonidan tasdiqlangan "Ish tartibi" dan. (Joriy materiallari). 2003-yil.

² "Maxsus komissiyalar to'g'risida"gi Nizom, 3-bandi.

huzurida tuziladigan komissiyalar tegishli hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalarini samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini ijro etilishini ta'minlaydi. Shuningdek, tegishli hokimlarga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun uning topshirig'iga binoan hokim o'rinbosarlari rahbarligida faoliyat yuritadi. Viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida tasdiqlangan "Namunaviy Nizom" va «Ish tartib»lari bilan belgilanadi.

Ma'lumki, doimiy komissiyalarning vazifalari, huquq va majburiyatlari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, xalq deputatlari Kengashining reglamenti, doimiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarda mustahkamlanadi. Doimiy komissiyalarning ro'yxati va ularning tarkibi esa, Kengashning birinchi sessiyasida tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashlari, Kengash muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun o'z vakolati muddatiga deputatlar orasidan doimiy komissiyalarni saylaydi. Doimiy komissiyalarning ro'yxati va miqdor tarkibi xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilanadi. Har bir Kengashda qancha va qanday doimiy komissiyalar bo'lishligini o'z ish hajmi, hududining xususiyatlarini hisobga olib, Kengashning o'zi belgilaydi. Doimiy komissiyalar xalq deputatlari Kengashi tomonidan rais va a'zoldan iborat tarkibda ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Ta'kidlash joizki, doimiy komissiyalar tarkibini o'zgartirishga zarurat tug'ilganda, doimiy komissiyalar raislarining taklifiga muvofiq, komissiyalar tarkibini viloyat Kengashining raisi o'zgartiradi, so'ngra bu o'zgartirishlarni viloyat Kengashining tasdig'iga kiritish tavsiya qilinadi. Deputatlarning mahalliy vakillik organlarida faqat bitta doimiy komissiyasi tarkibida faoliyat yuritishi belgilangan.

Komissiyaning kotibi doimiy komissiya raisining taqdimiga muvofiq, tegishli komissiya a'zolari orasidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 24-moddasiga ko'ra, xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarini tuzish, ularning tarkibini tasdiqlash, o'zgartirish Kengashning mutlaq vakolatlariga kiradi. Ushbu qoidani amalga joriy qilish doimiy komissiyalarni tuzishda Kengashlarning ish sharoitlari, ularning vazifalarini hisobga olish, ish jarayonida komissiyalar faoliyatini takomillashtirib

borish imkonini beradi¹. Zero, doimiy komissiyalar tarkibini sifatli shakllantirish – ularning faoliyatini to`g`ri tashkil etish hamda Kengash ishini samarali amalga oshirilishini ta`minlaydi.

Doimiy komissiyalarning xalq deputatlari Kengashi tomonidan ochiq va Kengashning talabi bo`yicha har bir a`zoga alohida ovoz berish yo`li bilan saylanishi, deyarli barcha Kengashlarning doimiy komissiyalari to`g`risidagi Nizomlarda ko`rsatilgan. Doimiy komissiyalarni tashkil qilish tartibi va tarkibi har bir yangi chaqiriq xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyalarida, ularning vakolatlari davriga tuziladi. Lekin Kengash doimiy komissiyalarining tuzilishi va tarkibiga keyingi sessiyalarda ham o`zgartirishlar kiritilishi mumkin. Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlangan doimiy komissiyalar haqidagi Nizomlarda ularning tarkibiga faqat deputatlar saylanishi ko`zda tutilgan.² Doimiy komissiyalarni tuzish chog`ida kasbi, ishlab chiqarishdagi tajribasi inobatga olingan holda Kengashning har bir deputati faqat bitta komissiya a`zosi etib saylanishi mumkin. Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari tarkibiga hokim, uning o`rinbosarlari va boshqa hokimiyat apparatining xodimlari saylanishi mumkin emas.³

O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonuniga muvofiq, tegishli hududning hokimi xalq deputatlari Kengashiga rahbarlik qiladi, shundan xulosa chiqarib aytish mumkinki, Kengash doimiy komissiyalarini ishiga ham hokim rahbarlik qiladi. Kengash hokimlikning bo`lim va boshqarmalariga nisbatan nazorat funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ham hokimlik xodimlarining doimiy komissiyalar tarkibiga saylanishi Nizomda maqsadga muvofiq emasligi ko`rsatilgan.

Komissiyalar tarkibiga shu tarmoqning mutaxassislari bilan birga, mutaxassis bo`lmagan deputatlar ham saylanadi. Odatda doimiy komissiyalar tarkibiga, shu soha mutaxassislari, ya`ni komissiya ishiga mos deputatlar saylanadi. Masalan, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot doimiy komissiyasiga, o`qituvchilar, xalq maorif organlari xodimlari va boshqa ilmiy xodimlari kirgan.⁴ Iqtisodiy islohotni, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasiga, iqtisodchilar, korxonalar va tashkilotlarning rahbarlari saylanadilar.

¹ Xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari to`g`risidagi namunaviy nizomning 3-moddasi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ayrim masalalariga oid qo`llanmalar. – T., 2000.

² To`laganov A.T. Davlat hokimiyatini vakillik va o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etish. O`quv qo`llanma. – T.: Universitet, 1996. – B.107.

³ To`laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. Darslik. – T.: TDYI, 2002. – B.133.

⁴ Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyasi majlis bayonnomasidan. (Joriy materiallari). 2002-yil.

Doimiy komissiyalarni tashkil qilish haqidagi masala ko`rilayotganda hokimiyat hamda hokimiyat apparati xodimlari deputatlar bilan oldindan suhbatlashadilar va ularni Kengash doimiy komissiyalari tarkibida bo`lish-bo`lmasligi haqidagi fikr va istaklarini aniqlaydilar.¹

Doimiy komissiyalarning barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadilar. Uning tarkibiga saylanmagan Kengash deputati uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etishga haqlidir.

Doimiy komissiyalarning asosiy vazifasiga:²

- Kengash hokim ko`rib chiqishi uchun takliflarni ishlab chiqish;

- Kengash va hokim ko`rib chiqishi uchun kiritilgan masalalar yuzasidan xulosalarni tayyorlash;

- Kengash va hokimning qarorlarini hamda yuqori davlat idoralarining qarorlarini bajarilishi bo`yicha tashkiliy ishlarda qatnashish;

- hokim va yuqori davlat idoralarining qarorlarini hayotga tatbiq etishda, shuningdek O`zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya etish sohasidagi hokimlikning bosh boshqarma, boshqarma, ishlab chiqarish birlashmalari, ularga tenglashtirilgan boshqa idora, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning faoliyatlarini nazorat qilish.

Doimiy komissiyalar tegishli hududida joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarning yerdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, mehnat resurslaridan foydalanish, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish, aholiga ajratilgan madaniy, maishiy xizmat va boshqa turdagi xizmat ko`rsatish sohasidagi faoliyatlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Doimiy komissiyalar o`z faoliyatlarini "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunning 18 va 24-moddalariga muvofiq tashkil etadilar.

O`zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari doimiy komissiyalarining faoliyati Kengash tomonidan tasdiqlanadigan Nizom asosida yuritiladi. Doimiy komissiyalar, deputatlarni birlashtiruvchi organ hamda xalq deputatlari Kengashining yordamchi organlari bo`lib, hisoblanadi.³

Mahalliy ijroiya hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko`maklashish, hokim qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda viloyat, tuman va shahar hokimlari, bo`lim va boshqarmalari, korxonalar tashkilot va xo`jaliklar faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida hokim tomonidan uning

¹ To`laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish Darslik. - T.: TDVT, 2002. - B.133.

² Andijon viloyati xalq deputatlari Kengashining, "Doimiy komissiyalari to`g`risida"gi Nizomdan. (Joriy materiallari). 2002-yil.

³ Xusanov O.T. O`zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. O`quv qo`llanma. - T.: Universitet, 1994. - B.37.

huzurida komissiyalar tuziladi.¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy Nizom asosida, viloyat, tuman va shahar hokimlari ularning vazifalari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan materiallarni tayyorlash hamda komissiyalar qarorlarining bajarilishini nazorat qilish viloyat, tuman va shahar hokimligi kotibiyati va guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hokimliklari huzuridagi komissiyalari tizimi viloyat, tuman, shahar va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar, tuman tarkibiga kiruvchi shaharlarda ham tuziladi.

Ba'zi bir komissiyalarning tashkil etilishi mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa ham, masalan; voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «*Namunaviy Nizom*» asosida tuzilgan, ba'zi bir komissiyalarni tuzish mahalliy ijroiya mahkamaning tashabbusi va Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tuzilmoqda. Hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalarga rahbarlik masalalari hokim, hokim o'rinbosarlari va xodimlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillikdan keyingi davrda mahalliy ijroiya hokimiyat organlariga berilgan shtatlar miqdorida, hokim apparatidagi shtat birliklarini, ularning bo'lim va boshqarmalarini tegishli hudud mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda, Vazirlar Mahkamasining roziligi bilan o'zlariga qayta taqsimlash huquqlari berilgan.² Shuningdek, komissiyalarning ayrimlarini tuzish yoki tuzmaslik huquqlari ham bunga kiradi. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida hokimliklar huzuridagi tuziladigan komissiyalar tizimi bir xil bo'lishi mumkin emas. Chunki respublikamiz ma'muriy-hududiy tuzilishidagi birliklarda, ya'ni viloyat, tuman va shaharlarning jo'g'rofiy va hududiy joylashishida hamda tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli xil bo'lishi mumkin. Lekin komissiyalar ish rejalarini respublika bo'yicha bir xil muddatlarda tuzilishi belgilangan.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzurida tuzilgan komissiyalar ixtiyoriga aniq belgilangan tarmoqlararo va funksional xarakterga ega bo'lgan, qat'iy chegaralangan masalalar doirasi berilgan. Shuningdek, ushbu komissiyalar hokimlik bilan uzviy tashkiliy aloqaga ega bo'ladi, odatda komissiyalar raislari va a'zolari hokimlikning rahbar xodimlaridan tayinlanadi. Bundan tashqari, komissiyalar tarkibiga nomzodlar tegishli

¹ Toshkent viloyati hokimining 1998-yil 27-martdagi 72 sonli qaroriga muvofiq. Toshkent viloyati hokimi ijroiya mahkamasining "Ish tartibi" tasdiqlangan. 6-bob, 1-moddasi. (Joriy materiallari).

² Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining "Yo'riqnomalaridan. (Joriy materiallari). 2003-yil.

davlat organlari rahbarlari va jamoat birlashmalari tomonidan tajribali tarbiyachilar, pedagoglar, huquqshunoslar, jamoatchilikning boshqa vakillaridan ko`rsatiladi hamda ularning taqdimnomasi bo`yicha viloyat, tuman va shahar hokimliklari majlislarida ikki yil muddatga tasdiqlanadi.¹ Masalan, maxsus komissiyalar tarkibiga ichki ishlar organlari, prokuratura, sud, shuningdek advokatura xodimlari ham kirishi mumkin.² Maxsus komissiyalar butun faoliyatlari davomida tegishli hokimliklar oldida mas'uldirlar va ularga hisob berib turadilar.

Viloyat, shahar, tuman hokimliklari vaqti-vaqti bilan, yilning har choragida kamida bir marta o`z majlislarida maxsus komissiyalar hisobotlarini eshitadi.

Maxsus komissiyalar a'zolari ularning nomzodini ko`rsatgan organlar, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalariga o`z ishi to`g`risida muntazam ravishda axborot beradilar.³

Maxsus komissiyalar o`z vakolatlariga tegishli barcha masalalar bo`yicha mehnat, ijtimoiy ta'minot, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, turli jamoat birlashmalari, jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyati, hokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar bilan o`zaro hamkorlik qiladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar tumanlar, shaharlar, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tuziladi.⁴

Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar o`z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsiz qolishlar va huquqbuzarliklarning oldini olish organlari hisoblanadi.

Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz – jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g`oya, milliy mafkura, o`z vataniga mehr-sadoqat tuyg`usini uyg`otish, o`zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.⁵ Shu maqsadni ko`zlab tuzilgan voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar: voyaga yetmaganlarning nazoratsiz, qarovsiz qolishlari, huquqbuzarliklari va jamiyat uchun zararli xatti-harakat qilishlarining oldini olish, bularga imkon tug`diruvchi sabab-

¹ Mahalliy ijroiya hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hokimlar tomonidan tasdiqlangan "Ish tartibi"dan. (Joriy materiallari). 2003-yil.

² «Maxsus komissiyalar to`g`risida»gi Nizom. 3-bandi.

³ «Maxsus komissiyalar» to`g`risidagi Nizom. 4-bandi.

⁴ «Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi 360-sonli qaroridan. (Joriy materiallari). 2002-yil.

⁵ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.R. –T.: O`zbekiston. 2000. –B.24.

lar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan rehabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.¹

Mahalliy vakillik va hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalar tuzilishi va ularning faoliyatini tashkil etilishidagi vazifalari davlat rivojining sohaları bo'yicha bo'lingan bo'lib, asosiy maqsadi tegishli hududda davlat hokimiyatini amalga oshirilishida jamoatchilik nazoratini o'rnatishdir. Jamoatchilik nazoratining mohiyati shundaki, barcha jamoat tashkilotlari, mahalla oqsoqollari, xalq deputatlari faollari, hamma-hamma bir yoqadan bosh chiqarib, katta-kichik rahbarlarning ishga munosabatini nazorat qilib, ularning kamchiliklarini ro'y-rost ochib tashlashi kerak.² Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida ohirgi yillarda hokimliklar huzurida, mahalliy davlat boshqaruvining hamma sohalarini qamrab olgan komissiyalar tuzilmoqda.

3-§. Komissiyalar faoliyatining tashkiliy shakl va uslublari

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish mahalliy davlat organlari faoliyatining shakl va uslublarni takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlari faoliyatida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa jabhalarni isloh qilishdagi asosiy vazifalari, avvalo, komissiyalari faoliyatini samarali tashkil etishni talab qiladi. Komissiyalar faoliyatini samarali bo'lishi majlislarini sifatli tashkil etish bilan bog'diqdir.

Majlislar komissiyalar faoliyatining asosiy-tashkiliy shakllaridan biridir. Majlislarda komissiya a'zolariga, ma'lum sohalaridagi masalalarni muhokama qilish bilan birgalikda tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Kollegiallik qabul qilinayotgan qarorning barcha ijobiy va salbiy tomonlarini to'laroq hisobga olish, xato va nuqsonlarni hamda komissiyalar ishidagi sub'yektivlikning oldini olishga yordam beradi. Shuning uchun ham majlislarni tanqidiy ruhda tashkil etish prinsipial ahamiyatga egadir.

Komissiyalarning ishi uning birinchi tashkiliy majlisidan boshlanadi. Aynan shu davrdan komissiya Kengash va hokimning ishchi organiga aylanadi. Odatda, komissiyalar faoliyatini ta'minlovchi deyarli barcha

¹ "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida"gi Nizomning, 5-bandi.

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: O'zbekiston, 2000. - B.459.

ichki tashkiliy masalalar uning birinchi majlisida hal qilinadi.

Birinchi majlisida komissiyalar ichki tadbirlarining belgilanishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Unda komissiya a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi, komissiyaning rahbar organlari saylanadi, a'zolar o'z yechimini kutayotgan masalalar bilan tanishadilar.

Ko'pincha, komissiyalarning birinchi majlisida oldingi ishlagan komissiyalar axboroti tinglanadi.

Rejalashtirilgan masalalarning ishchan muhokamasi har bir komissiya majlisini puxta tayyorlashni talab qiladi. Chunki komissiya majlislarini tayyorlash va o'tkazish – bu ko'rilayotgan masalalarni o'z vaqtida, chuqur va to'la ko'rib chiqish, komissiyaning faoliyat sohasidagi holatni atroflicha muhokama qilish, nazorat ostidagi ob'yektlar ishini takomillash-tirishga tavsiyalar ishlab chiqish, ularga kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan yordam berish imkoniyatini beruvchi tashkiliy tadbirlar majmuidir.

Komissiyalar majlislariga tayyorgarlikning birinchi bosqichida quyidagi tadbirlarni o'tkazish mantiqiydir:

a) o'rganish uchun masalani tanlash va u bo'yicha xulosa tayyorlovchi mas'ul shaxsni saylash;

b) o'rganilayotgan masala bo'yicha zarur axborotni olish manbalarini tanlash (tekshiruvlar, ma'lumotlar, tushuntirishlar so'rash va h.k.);

v) masalani tayyorlashda jamoatchilik vakillarini jalb qilish shakllarini belgilash;

Ikkinchi bosqich: O'rganilayotgan masala bo'yicha zarur axborot to'plashda quyidagilar amalga oshiriladi;

a) masalani o'rganish uchun axborot to'plashga zarur bo'lgan komissiya a'zolari va faollarni jalb etish va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

b) zarur tekshiruv turini aniqlash va u bo'yicha eslatma ishlab chiqish;

v) ma'lum sohani tekshirish rejasini unga rahbarlik qiluvchi hokim o'rinbosari bilan kelishib olish;

g) ish materiallarini berish muddatlarini aniqlashtirish;

d) mas'ul shaxs tomonidan to'plangan axborotlarni umumlashtiruvchi hujjat shakli va muddatlarini belgilash.

Uchinchi bosqich: Axborot to'plash jarayoni;

a) to'plangan axborotni umumlashtirish va tahlil qilish;

b) aniq chora-tadbirlar belgilangan yakuniy hujjat loyahasini tayyorlash (xulosa, ma'lumotnoma).

To'rtinchi bosqich: Komissiya majlisi;

a) komissiya mas'ul a'zosining yakuniy hujjat loyihasi va masalani hal qilishga qaratilgan tavsiyalari bo'yicha ma'ruzasi;

b) nazorat qilinayotgan tashkilotlar rahbarlarining (vakillari) so'zga chiqishi;

v) ma'ruzalarni muhokama qilish;

g) ishlab chiqilgan tavsiyalar va qaror loyihasini muhokama qilish;

d) aniq chora-tadbirlar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan qaror qabul qilish.

Beshinchi bosqich: Komissiya tavsiyalarini tatbiq etish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

a) komissiya tavsiyalarini manfaatdor organlar va mansabdor shaxslarga yetkazish;

b) tavsiyalarni tatbiq etishni nazorat qilish;

v) komissiya qarorining amaliy ijrosini tashkil etish.

O'rganish uchun masalani tanlash komissiyalar majlislarini o'tkazishning **birinchi bosqichidagi** muhim masalalardan biridir. Odatda, komissiya majlisiga qo'yiladigan masalalar ularning ish rejalarida belgilanadi. Lekin fuqarolarning murojaatlari yoki ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan masalaning o'zi qator tadbirlarni qamrab olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda o'rganilayotgan masala bo'yicha zarur axborot to'plashda mas'ul shaxs tomonidan buning uchun zarur bo'lgan komissiya a'zolari va faollarni jalb etish va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash, tekshiruv o'tkazish lozim bo'lsa, uni o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish va, albatta, tekshirish rejasi o'rganilayotgan sohaga rahbarlik qiluvchi hokim o'rinbosari bilan kelishib olinishi lozim. Hokim o'rinbosari bilan kelishib olish deganda uning roziligini olish nazarda tutilmaydi. Aksincha, ushbu masalani atroflicha va operativ hal qilish yo'llari kelishib olinadi. **Uchinchi bosqichda** yakuniy hujjatni tayyorlashga mas'ul deputat-komissiya a'zosi to'plangan axborotni umumlashtiradi, tahlil qiladi va yakuniy hujjat loyihasini tayyorlaydi. Ushbu hujjat komissiyaning boshqa a'zolariga ma'lum qilinishi kerak bo'ladi. Chunki keyingi **to'rtinchi bosqichda** yakuniy hujjat loyihasi doimiy komissiya majlisida muhokama qilinadi, muhokama jarayonida manfaatdor tomonlarga so'zga chiqish uchun teng imkoniyatlar yaratiladi va natijada ob'yektiv qaror qabul qilish uchun sharoit ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich boshlanishidan yetti kun oldin komissiyaning barcha a'zolari va faollariga majlis o'tadigan joy va vaqt, kun tartibi ko'rsatilgan xabarnomalar tarqatiladi. Mazkur xabarnomalar u yoki bu masalani ko'rib chiqishda ishtirok etishi zarur bo'lgan barcha mansabdor

shaxslarga ham jo`natiladi. Xabarnomalarni majlis sanasini ko`rsatgan holda tarqatish, uning barcha ishtirokchilariga kun tartibiga qo`yilgan masalalarni o`rganib, ular bo`yicha o`z fikrlarini tayyorlash imkonini beradi. Majlisga chaqirilgan shaxslarni xabardor qilishda komissiyaga tashkiliy-texnik yordamni hokimlarning ijro mahkamalari ko`rsatadi.

Komissiyalarga tashkiliy-texnik yordam ko`rsatish vazifasi hokimlikning bir xodimi zimmasiga yuklatiladi.

Komissiyalar Nizomda belgilangan tartibda reja asosida ishlaydi. Komissiyalar rejasi qabul qilinganidan keyin komissiyaning faoliyati rejaga muvofiq olib boriladi. Zarurat tug`ilganda, komissiya majlislari rejadan tashqari o`tkazilishi mumkin. Masalan, xalq deputatlari kengashlari doimiy komissiyasining navbatdan tashqari majlisi uning tashabbusiga ko`ra chaqirilishi mumkin, ba`zida uni o`tkazish Kengashning navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish bilan bog`liq bo`ladi. Biroq doimiy komissiyalarning navbatdan tashqari majlislari amalda kam o`tkaziladi.

Shuningdek, hokimliklar huzuridagi komissiyalar qarorlarining ijrosini ta`minlash maqsadida, ularning majlislari muntazam chaqirilib turiladi. Ularda tekshirishlarning natijalari, rahbarlarning hisobotlari eshitiadi, qarorlar qabul qilinadi va tashkiliy-ommaviy tadbirlar belgilab olinadi, majlislarda asosiy tashkiliy masalalar muhokama qilinadi. O`zbekiston Respublikasi hokimliklari komissiyalarining ish tajribasida, odatda, oyida kamida bir marotaba majlis o`tkazish umumiy tartib sifatida qabul qilingan. Komissiya majlislarni tayyorlash va o`tkazishni rais ta`minlaydi. Bunda, albatta, qaysi masalalarni ko`rib chiqishda majlis kun tartibini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tashkiliy-texnikaviy tomonini hokimlikning mas`ul xodimlari amalga oshiradi. Masalan, "Maxsus komissiya o`z ishini komissiya majlisida tasdiqlangan reja asosida tashkil etadi, majlislar rais tomonidan, u bo`lmaganda rais o`rinbosari tomonidan zaruratga ko`ra, biroq har oyda kamida bir marta chaqiriladi. Komissiya a`zolarining kamida yarmi hozir bo`lgan taqdirda majlis vakolatli hisoblanadi. Komissiya majlisida barcha masalalar ko`pchilik ovoz bilan hal etiladi, ovozlar teng bo`lganda esa raisning ovozi hal qiluvchi kuchga ega bo`ladi. Komissiya qarori majlis bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnoma komissiya raisi va kotibi tomonidan imzolanadi".¹ Majlislar, odatda, ishdan keyingi vaqtlarda, ochiq tarzda o`tkazilib, kun tartibi va reglamentini komissiyaning o`zi qabul qiladi. Komissiyaning qarori va xulosalari loyihalarini ko`rib chiqayotganda, shu masalaga tegishli korxonalar, muassasa va tashkilotlar rahbarlari ham taklif etilib,

¹ Qarang: "Maxsus komissiyalar" to`g`risidagi Nizomning 10-bandidan.

ularning fikri inobatga olingan holda, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilinadi va rais tomonidan imzolanadi.

Komissiyalar majlislarining vakolatli deb topilishi komissiyalar to'g'risidagi nizomlarda belgilangan kvorum bilan ta'minlanadi. Qo'yilgan masalalarni ishchan muhokama yo'li bilan hal qilish uchun komissiya majlislarida uning barcha a'zolari faol ishtirok etishi zarur. Misol uchun, ko'pchilik mahalliy Kengashlarda doimiy komissiya majlislari a'zolarining yarmidan ko'pi yoki 2/3 qismi ishtirok etganda vakolatli bo'ladi, deb qabul qilingan. Demak, doimiy komissiyalar a'zolarining majlisdagi ishtirokini ta'minlash prinsipial masalalardan biri hisoblanadi.

Komissiyaning har bir a'zosi uning majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Komissiyaning ba'zi a'zolari muayyan masala yuzasidan chiqarilgan xulosaga qarshi bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda ular o'z fikrlarini bildirishga haqlidirlar.

Komissiya majlisining olib borilishi, unda qabul qilingan taklif va xulosalar komissiya kotibi tomonidan qayd etiladi. Komissiya majlisidagi masalalar oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Komissiyalar to'g'risidagi Nizomlarda biror-bir taklif bo'yicha berilgan ovozlar teng bo'lsa, raisning ovozi hal qiluvchi bo'lishi belgilangan.

Xalq deputatlari kengashlarining doimiy komissiyalari majlislari, odatda, Kengash sessiyalari davomida o'tkaziladi. Biroq Kengash sessiyasi davomida komissiyalar majlislarini o'tkazishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Kun tartibining asosiy masalalari doimiy komissiyada muhokama qilinadi. Masalan, Kengash sessiyasidagi ma'ruza tanaffus paytida doimiy komissiyalar majlisida muhokama qilinishi mumkin. Shundan keyin doimiy komissiyalar muhokama natijalarini deputatlarning umumiy yig'ilishida e'lon qiladilar va sessiya o'z qarorini mazkur axborot asosida qabul qiladi. Sessiyalarni bunday o'tkazish usuli qisqa vaqt ichida ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda ko'plab deputatlarning ishtirokini ta'minlaydi.

Doimiy komissiya vakillarining Kengash sessiyasidagi chiqishlari turli ko'rinish va maqsadlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun ular har xil nomlanadi. Doimiy komissiyalarning ma'ruza va qo'shimcha ma'ruzalari ularning asosiy ish shakllaridan biridir. Chunki, ma'ruza va qo'shimcha ma'ruza - ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha yakuniy hujjat shaklidir. Komissiya majlislari ularni tayyorlash jarayonini tashkil qiladi, ya'ni komissiyaning ishi ma'ruza va qo'shimcha ma'ruzalarda aks ettiriladi.

Avvalo, qo'shimcha ma'ruzalarning mohiyati shundaki, Kengash sessiyasida ko'rilayotgan masala bo'yicha mansabdor shaxs tomonidan

taqdim etilgan ma'lumot yoki hisobot doimiy komissiyaning xulosasi asosida tekshiriladi. Ya'ni, ko'rilayotgan masalaning obyektiv yechimiga sharoit yaratiladi. Shuning uchun doimiy komissiyalarning qo'shimcha ma'ruzasi muhim bo'lib, tabiiyki, u asosiy ma'ruzaning qaytarish bo'lmisligi lozim. Agarda mansabdor shaxsning ma'lumoti yoki hisobotida tegishli sohadagi umumiy holat, muassasa, tashkilotlar faoliyatiga ularning rahbari nuqtai nazaridan qaralsa, qo'shimcha ma'ruzada xalq vakillari bo'lmish deputatlarni ng mazkur sohaga doir tahliliy qarashi o'z ifodasini topishi zarur. Qo'shimcha ma'ruza doimiy komissiya a'zolari fikr va xulosalarining umumlashtirmasidan iboratdir. Doimiy komissiya asosiy ma'ruza bilan oldindan tanishib, uni yangi axborotlar bilan to'ldirishi, muhokama qilina yotgan masala yuzasidan Kengashda to'liq tasavvurni shakllantiradi. Ko'pincha, faoliyati Kengashda muhokama qilinadigan tashkilot vakillari tegishli doimiy komissiya majlislarida so'zga chiqishadi. Bu doimiy komissiyaga muassasa faoliyati to'g'risida Kengashga taqdim etiladigan axborotlar bilan oldindan tanishib borish imkoniyatini yaratadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyalarida biror-bir masalani muhokama qilishga qaror qilingach, doimiy komissiyaga ma'ruza tayyorlash topshirig'i beriladi. Ba'zida bunday topshiriq hokim tomonidan berilishi ham mumkin. Lekin, ko'pincha, muayyan masala doimiy komissiyaning tashabbusi bilan sessiya muhokamasiga kiritiladi va u bo'yicha ma'ruza tayyorlanadi. Doimiy komissiya a'zolari sessiya bilan bog'liq tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar, ya'ni to'plangan materiallarni umumlashtirib, tegishli qarorning loyihasini tayyorlaydilar hamda uni qabul qilish uchun Kengashga taqdim qiladilar.

Har qanday davlat hokimiyati organlari o'zlari tomonidan tuziladigan ichki tuzilma va bo'linmalari orqali o'z oldilariga qo'yilgan huquq, majburiyat, va vazifalarini amalga oshiradi. Bu ichki tuzilmalar tegishli masalalarning hal qilinishida kollegiallik prinsipiga tayanadi. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining komissiyalari ham masalalarni o'rganishda yoki ko'rib chiqishda Kengash sessiyalariga xulosalar tayyorlaydilar. Ushbu masalalar yuzasidan qabul qilingan Kengash qarorlarining amalga oshirilishi bo'yicha ishlarni tashkil qiladilar hamda ularning tegishli boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ijro etilishini tekshirib boradilar. Shuningdek, tegishli hududda qonuniylikni ta'minlashda davlat va jamoatchilik organlari faollarining jalb etilishi, mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlar komissiyalarining eng muhim faoliyat prinsiplaridan biri hisoblanadi. Masalan, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, voyaga yetmagan shaxslarning

ma'muriy huquqbuzarligi to`g`risidagi o`zlariga tegishli ishlarni O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarlik kodeksida nazarda tutilgan tartibda ko`rib chiqadilar. Mazkur ishlar uning majlislarida a'zolarining yarmida ko`pi hozir bo`lganda ko`rib chiqiladi va oddiy ko`pchilik ovoz bilan qaror qabul qilinadi.¹

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar, viloyatlar hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar o`zlariga yuklatilgan vazifalariga muvofiq;² Qoraqalpog`iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar hududida voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquq buzilishlarning oldini olish, ko`ngilsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish, bolalar va o`smirlarni joylashtirish va ularning huquqlarini himoya qilish bo`yicha tadbirlar ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar; tumanlar va shaharlar komissiyalari faoliyatini nazorat qiladilar, yo`naltiradilar va ularga uslubiy yordam ko`rsatadilar, ularning ijobiy ish tajribalarini umumlashtirib muvofiqlashtiradilar; tumanlar va shaharlar komissiyalarining voyaga yetmaganlarni maxsus o`quv-tarbiya muassasalariga yuborish to`g`risidagi qarorlarini tekshiradilar va ular noqonuniy yoki asossiz deb topilgan hollarda, bu qarorlar ustidan tegishli tuman, shahar hokimiga taqdimnoma kiritib bekor qiladilar.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarlik qilganligi to`g`risida tuman, shahar komissiyasi ko`rib chiqishi lozim bo`lgan materiallar komissiyaning raisi yoki uning o`rinbosari tomonidan oldindan o`rganib chiqiladi va komissiya majlisida muhokamaga qilish uchun kiritadi. Komissiya ishlarni tayyorlash va qarab chiqish paytida voyaga yetmagan shaxsning yoshi va mashg`ulotini, yashab turgan sharoitini, huquqbuzarlik sodir qilganligi haqidagi dalillarni va huquqbuzarlik sodir qilinishiga sabab bo`lgan omillarni, oldin chora ko`rilganmi-yo`qmi aniqlashi zarur. Unchalik zararli bo`lmagan ishlarni, huquqbuzar yashab turgan mahalla faollariga yoki jamoat birlashmalariga topshirish hususida qaror qabul qiladilar. Mazkur komissiyaning hujjatlarini o`rganish natijasida shunday xulosaga kelindi.

Huquqbuzarlik to`g`risidagi ish komissiya majlisida ko`rib chiqilmasdan oldin, voyaga yetmagan shaxs o`z ota-onasi yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar kuzatuviga topshirilishi mumkin. Maxsus o`quv-tarbiya muassasalarida yoki "Mehribonlik" uylarida tarbiyalanuvchi voyaga yetmagan shaxs shu muassasaning nazoratiga berilishi zarur. 11 yoshdan 14

¹ Qarang: "Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar to`g`risida"gi Nizomning 42-bandini.

² Qarang: Ushbu Nizomning III qismi.

yoshgacha bo'lgan o'smirlar jamoat uchun xavfli bo'lgan og'ir nojo'ya harakat sodir etgan taqdirda va shu munosabat bilan uni darhol yakkalab qo'yish zarurati tug'ilganda, bu shaxs komissiya raisi yoki uning o'rinbosari bergan yozma ko'rsatmasiga asosan o'ttiz kunlik muddatga voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan qabul taqsimotiga joylashtirilishi mumkin.¹

Ishni komissiya ko'rishi kerak bo'lgan voyaga yetmagan shaxs ruhiy jihatdan sog'lom ekanligiga shubha tug'ilgan taqdirda, mazkur shaxs tibbiy kuzatuvdan o'tish uchun yuboriladi. Bu qoidada shunday savol tug'iladi, agar huquqbuzar ruhiy kasal, aqli zaif bo'lsa, unda bu shaxsga qanday chora ko'riladi? Bu holda ular to'g'risidagi Nizomda hech nima deyilmagan. Shunga aniqlik kiritish maqsadida: "Ishni, komissiya ko'rishi kerak bo'lgan voyaga yetmagan shaxs maxsus tibbiy ko'rikdan o'tgandan so'ng, uning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi aniqlansa, bunday bolalar hamda o'smirlar ishi komissiyada ko'rilmaydi, faqat ularni davolash muassasalariga yuborilishi komissiya tomonidan ta'minlanadi" deb belgilansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Komissiya voyaga yetmagan shaxsning huquqbuzarlik sodir qilishga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni batafsil tekshirib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rishi shart. Ishi komissiya majlisida ko'rilayotgan shaxs, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar uzrsiz sabablar bilan kelishdan bosh tortsa, ichki ishlar organlari orqali olib kelinishi mumkin.² Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya ishi ko'rilayotgan shaxslarning ishlaydigan yoki yashaydigan joyida sayyor majlislar ham o'tkazilishi mumkin.³

Komissiya majlisida ko'rilayotgan huquqbuzarlikni sodir qilgan shaxsning ota-onasi, akasi yoki yaqin kishisini komissiya mas'ul kotibi barcha materiallar bilan tanishtirib chiqadi. Komissiya majlisi bo'ladigan kun, vaqti va joyi kerakli kishilarga va prokurorga bir necha kun oldin xabar qilinadi. Komissiyaning majlisi, komissiya a'zolarining yarmidan ko'pi hozir bo'lgan taqdirda huquqiy deb hisoblanadi.

Tuman va shahar komissiyalari, 14 yoshga to'lmadan turib jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan, 14 yoshga to'lgandan keyin og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirgan bolalar va o'smirlarning ishini ko'rmaydi. Agar 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda ular uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, jamiyat uchun xavfli xatti-harakat sodir etgan bo'lsa; 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrda jinoyat alomatlari bo'lgan xatti-harakatlar sodir etib, ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoiy ish to'xtatilgan bo'lsa; voyaga

¹ Qarang: "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida"gi Nizomning 36-bandi.

² Qarang: "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida"gi Nizomning, 37-bandi.

³ Qarang: Ushbu Nizomning 43-bandining ikkinchi jumlasini.

yetmagan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning jinoiy xatti-harakatlariga nisbatan jinoiy ishning to'xtatilishi yoki javobgarlikdan ozod qilinishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 65-68 moddalarida belgilangan holatlar aniqlangan bo'lsa; ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarishligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadi.¹ Mazkur ozod etish turiga oid sharoitning o'zgarishi deganda, aybdor voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etgunga qadar o'rab turgan tabiiy sharoitni, sun'iy o'zgarishlarni tushunishi zarur. Bunday o'zgarishlar kishilarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib yoki bog'liq bo'lmagan holdagi sharoitlarning o'zgarishi bilan uzviy bog'liq bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun, amaldagi qonunchilikda, birinchi marta Oliy Majlisning 2001-yil avgustida, "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi to'g'risida Qarori qabul qilindi.² Unda jumladan jinoyat sodir etgan shaxs, o'z jinoyati tufayli keltirilgan zararni to'liq bartaraf etib, chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa, jinoyatning ochilishiga yordam bergan bo'lsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanadi. Bunday shaxslar mazkur komissiyalar nazoratida bo'lib, komissiyalar ularning keyingi yurish-turishlari va ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'mak beradilar.

O'zbekiston Respublikasida viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalarning zimmasiga ko'pgina vazifalar yuklatilgan bo'lib, yosh o'spirinlarning 18 yoshgacha va undan keyingi davrda ham agar komissiya voyaga yetmagan shaxsni ishga joylashtirish yoki o'quv yurtiga yuborish hamda unga zarur bo'lgan moddiy-maishiy sharoitlar yaratib berish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish va boshqa masalalarni hal qiladi.

Umumiy o'rta maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'qishdan bosh tortgan, jamiyat uchun katta xavf tug'dirmagan huquqbuzarlik sodir etganida prokurorning qarori yoki sud ajrimi asosida ozod qilingan o'spirin yoshlar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik kodeksida nazarda tutilgan tartibda ularning ishlari komissiya majlisida ko'riladi.³

Mahalliy hokimliklar huzuridagi komissiyalar faoliyatini tashkil etish

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T.: Adolat, 1995. 65-m.

² "Xalq so'zi" ro'znomasining 2001. 30 avg.

³ Qarang: "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida"gi Nizomning 34-bandi.

va uning yig'ilishlarini o'tkazish kun tartibini belgilash, ko'riladigan masalalar ro'yxati va boshqa muammoli ishlar hokimning maslahat Kengashi majlislarida dastlab ko'rib chiqiladi va tegishli tavsiyalar, qarorlar qabul qilinadi.

Maslahat Kengashining tarkibiga, xalq deputatlari Kengashining deputatlari va komissiyalarning a'zolari kirishi mumkin. Maslahat Kengashining majlislari zarurat bo'lganda hokim tomonidan chaqiriladi va uning rahbarligida o'tkaziladi.

Jumladan, maxsus komissiyalar davlatimizning barcha shahar va tumanlarida tuzilgan bo'lsa-da, ularning tarkibidagi a'zolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus komissiyalar to'g'risidagi Nizomning uchinchi bandida, "Tegishli davlat organlari rahbarlari tomonidan tajribali tarbiyachilar, pedagoglar, huquqshunolar, jamoatchilikning boshqa vakillaridan ko'rsatiladi", deb belgilangan tartibga javob bermaydi.

Maxsus komissiyalar to'g'risida nizomning 3-bandida, "Maxsus komissiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar, jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun ijtimoiy moslashuv markazlari, huquqni muhofaza qilish organlari, mehnat birjalari, ijtimoiy ta'minot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, kasaba uyushmalari, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalari hamda mehnat jamoalari vakillaridan rais (Qaraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, rais o'rinbosari, tegishli hokimliklar rahbari, hokim o'rinbosari) rais o'rinbosari, mas'ul kotib (ichki ishlar vazirligining joylardagi jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslar bilan ishlash bo'linmalarining boshlig'i) va komissiya a'zolaridan kamida olti kishidan iborat tarkibda tuzilishi" ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sharoitida respublikadagi iqtisodiyot, sotsial-siyosiy va mafkuraviy sharoitlarni hisobga olgan holda xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar huzuridagi komissiyalar tashkiliy uslublarini tahlil qilish natijasida ular faoliyatining takomillashtirib borishni ilmiy asoslangan chora-tadbirlari aniqlandi. Bu uslublar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi sharoitida respublikada tashkil topgan mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkil topishiga tarixiy yondashish uslubi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining vujudga kelishi asosida rivojlanish omillarini ko'rsatib berdi.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda

tadrijiy yondashish uslubi belgilandi. Bu uslubda, birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy shakllari asosida o'zaro munosabatlari tegishli hudud muammolarini hal etish chora-tadbirlari rejalashtiriladigan bo'ldi. Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining komissiyalari tizimi va tuzilishi alohida-alohida hokimiyatning bo'linish prinsipiga mos holda faoliyatining tashkil etilishi belgilandi.

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarning takomillashtirilib borilishida ular faoliyatining natijali bo'lishiga mantiqiy yondashish uslubi senatorlarga vazifa qilib yuklatildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining natijalarini aniqlash amaldagi qonunchilikni takomillashtirish uchun qo'llanilmoqda.

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlarini o'rganishda ijtimoiy-tadqiqot uslubi ma'lumotlar to'plash uchun qo'llanilmoqda. Bu ma'lumotlar savolnoma, so'rovnoma shaklida viloyat, tuman, shahar tegishli davlat organlarining statistik bo'limlari orqali olinadi.

5. Mahalliy davlat hokimiyatining viloyatlararo, tumanlararo va shaharlararo bir-birining faoliyati natijalarini taqqoslash ularning faoliyatini tashkil etishdagi yutuq va kamchiliklarini o'chib berishda juda kata yordam beradi.

6. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda, ish faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltirish va rivojlantirishda zamonaviylashtirish uslubi keng tadbiq qilinmoqda. Davlat organini tuzilish yoki tugatish, yangi tarkibiy tuzilmasini vujudga keltirish yoki amaldagisini takomillashtirishda keng qo'llanilmoqda.

7. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimida ularning ichki tuzilishini o'zgartirish, qisqartirish yoki qo'shimcha yordamchi organlar tuzish kerakmi - yo'qligini, ular faoliyatini tashkil etishda tegishli hujjatlar asosida yangi tartib tatbiq qilish kerakmi yoki yo'qligini aniqlash maqsadida tajriba (eksperiment) o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari va hokimliklari huzuridagi komissiyalarning faolligini rivojlantirish va takomillashtirish davlatimizning kuch-qudratini oshirishda ularning faoliyatini ahamiyati kattadir. Iqtisodiyotdagi o'sish-inflatsiyasiga qarshi, moliyaviy barqarorlik va pul muomalasi tuzilishini mustahkamlash borasidagi tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani natijasidir.¹

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.: O'zbekiston, 1999. -B.7.

4-§. Komissiyalar vazifalarining amalga oshirish prinsiplari

Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlari komissiyalari vazifalarining samarali bajarilishi ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etilishini taqozo etadi. Ularning faoliyati esa, fuqarolarning manfaatlarini qarorlarida aks ettirish, mahalliy boshqaruvni samarali tashkil etish hamda aholining undagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgandir.

Komissiyalar ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri - bu a'zolar o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi komissiya tarkibidagilarning vazifalarini aniq bo'lishiga erishishdir.

Har qanday davlat hokimiyati organlari o'zlari tomonidan tuziladigan ichki tuzilma va bo'linmalari orqali o'z oldilariga qo'yilgan huquq, majburiyat, va vazifalarini amalga oshiradi. Bu ichki tuzilmalar tegishli masalalarning hal qilinishida kollegiallik prinsipiga tayanadi. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining komissiyalari ham masalalarni o'rganishda yoki ko'rib chiqishda Kengash sessiyalariga xulosalar tayyorlaydilar. Ushbu masalalar yuzasidan qabul qilingan Kengash qarorlarining amalga oshirilishi bo'yicha ishlarni tashkil qiladilar hamda ularning tegishli boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ijro etilishni tekshirib boradilar. Shuningdek, tegishli hududda qonuniylikni ta'minlashda davlat va jamoatchilik organlari faollarining jalb etilishi, mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlar komissiyalarining eng muhim faoliyat prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya hokimiyat organlarining komissiyalari ishini unumli tashkil etilishida komissiya raisining roli muhimdir. U komissiya ishining tashkil qililinishini yo'naltiradi, a'zolar bilan ish rejasini, qaror va tavsiyalar loyihalarini ishlab chiqadi, o'z topshiriqlarini komissiya a'zolari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi. Komissiya raisi boshqa organlar bilan bo'ladigan munosabatlarda uning nomidan ish ko'radi. U komissiya ishi yuzasidan boshqa tashkilotlar bilan aloqa qilib turadi. Xalq deputatlari Kengashining sessiyasida komissiya nomidan ma'ruza yoki qo'shimcha ma'ruzalar bilan chiqadi.

Misol uchun, xalq deputatlari "Toshkent shahar Kengashi doimiy komissiyalari to'g'risida"gi Nizomning 36-moddasiga ko'ra, doimiy komissiya raisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- zarur materiallarni tayyorlashni tashkil etadi, doimiy komissiyaning majlisini chaqiradi va unda raislik qiladi;

- doimiy komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi, ularga doimiy

komissiya faoliyati bilan bog`liq material va hujjatlarni yo`llaydi;

- doimiy komissiya a'zolarini ishchi guruhlar faoliyatida ishtirok etishga taklif qiladi, shuningdek, doimiy komissiya topshiriqlarini bajarishga jalb qiladi;

- doimiy komissiya ishida qatnashish uchun davlat organlari va jamoat birlashmalari vakillarini, mutaxassislar va olimlarni taklif etadi;

- doimiy komissiya nomidan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi sessiyasida qatnashadi, shahar hokimiyati, boshqa davlat organlari, jamoat birlashmalari bilan aloqada bo`ladi;

- xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga doimiy komissiya tomonidan bajarilgan ishlarni taqdim etadi;

- doimiy komissiya qarorini bajarish bo`yicha ishlarni tashkil etadi;

- xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga uning topshiriqlarining bajarilishi to`g`risida ma'lumot berib turadi;

- doimiy komissiyalar a'zolariga ular tomonidan qabul qilingan qarorlar va tavsiyanomalarning ko`rib chiqilishi to`g`risida ma'lumot beradi;

- o`z vakolati doirasidagi boshqa vazifalarni amalga oshiradi¹.

Komissiya raisining o`rinbosari lavozimi ham muhim. Lekin mamlakatimizdagi amaliyot tajribasi shuni ko`rsatadiki, komissiya a'zolarining soni o`n kishidan ortiq bo`lgan hollarda ham rais o`rinbosarining funksiyalari aniq belgilanmagan. Doimiy komissiyalar to`g`risidagi namunaviy nizomda ham, shahar, viloyat Kengashlarining doimiy komissiyalar to`g`risidagi nizomlariga muvofiq, komissiya kotibi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ish yuritadi, doimiy komissiya majlislari bayonnomalarini tuzadi;

- rejaga muvofiq ravishda yoki komissiya raisi topshirig`i bo`yicha komissiya a'zolari tomonidan tayyorlangan qarorlarning loyihalari, xulosalar, ma`ruzalar, qo`shimcha ma`ruzalar va boshqa hujjatlarning o`z vaqtida tayyorlanishini kuzatib boradi;

- doimiy komissiya a'zolari ishlarini qayd etib, ularning hisob-kitobini olib boradi;

- deputatlarni va doimiy komissiya faollarini, taklif etilgan mansabdor shaxslarga doimiy komissiyaning bo`ljak majlisi haqida ma'lum qiladi;

- doimiy komissiya raisi va rais o`rinbosari topshiriqlarini bajaradi².

¹ Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi raisining 2000-yil 11-yanvardagi 33/T-2 qarori bilan tasdiqlangan. Ikkinchi chaqiriq xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi doimiy komissiyalarining nizomi.

² O`sha nizom.

Doimiy komissiya ishida uning barcha a'zolari faol qatnashadi. Ular o'rtasidagi vazifalar komissiya ish hajmiga qarab taqsimlanadi. Ba'zida, komissiya a'zolari bo'lgan deputatlarga ish uchastkalarini uzoq muddatga, gohida, komissiya vakolat muddatiga ajratiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi bo'yicha doimiy komissiyalar a'zolariga aniq sohalar (chorvachilik, dehqonchilik, parrandachilik va h.k.) rivojlanishini kuzatish topshirilishi mumkin. Boshqa hollarda, komissiya a'zolariga ma'lum bir korxonalar, muassasa va tashkilotning rivojlanishini kuzatish vazifasi yuklatilishi mumkin. Biroq doimiy komissiyalar, odatda, aniq belgilangan vazifalarni bajaradilar. Ularning a'zolari Kengash sessiyalari, ijro mahkamasi majlislarida ko'riladigan masalalarni tayyorlashda ishtirok etadilar, shaxsan yoki deputatlar bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash bilan bog'liq tayyorgarlik va nazorat faoliyatini amalga oshiradilar. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, doimiy komissiya a'zolariga berilgan topshiriqlarning bajarilishi, ularning asosiy majburiyatlaridan biridir. Doimiy komissiyalar ishini tashkil qilishda ularning oldiga qo'yilgan vazifalarni rejalashtirish katta ahamiyatga ega. Tashkiliy rejalashtirish doimiy komissiyaning vazifalarini samarali va o'z vaqtida bajarish maqsadiga bo'yusundirilishi lozim. Mahalliy hokimiyat organlari ishini tashkiliy rejalashtirishning samaradorligiga erishish Kengash va hokim ijro mahkamasining tashkiliy rejalarini o'zaro muvofiqlashtirish bilan bog'liq. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunning 24-moddasida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari hududlarni rivojlantirishning istiqboliga mo'ljallangan dasturlarni tegishli hokimlarning taqdimiga binoan tasdiqlashi belgilangan¹. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining bu vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus bir yil yoki Kengash vakolati muddatiga tuziladigan istiqbolli rejalarining Kengash tashkiliy ishlarini qurilish va byudjet bilan muvofiqlashtirishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan².

Xalq deputatlari Kengashlarining vakolat muddatiga tuziladigan komissiyalarning istiqbol rejalarini tuzish yillik va joriy faoliyatini samarali rejalashtirishga sharoit yaratadi.

Bu rejalar Kengash faoliyatini samarali tashkil etish, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash va nazorat qilishga ko'maklashadi. Kengash tomonidan to'liq qamrab olingan istiqbolli rejalashtirish uning barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, hududni har tomonlama rivojlantirishni aholining manfaatlariga moslashtiradi. Istiqbolli kompleks reja-

¹ O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» 1993 yil 2 sentabr Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1993-yil, 9-son, 320-modda.

² To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish. – T.: TDYI, 2002. –18 b.

lashtirish tizimining yutuqlari barcha bo'g'indagi boshqa Kengashlar va doimiy komissiyalar faoliyatida ham qo'llaniladi.

Istiqbolli kompleks rejadagi tadbirlar bilan Kengash ishini tashkil etish o'rtasida uzviy aloqa bo'lishi lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun rejadagi har bir tadbirning muddati, uni tayyorlash va o'tkazishga mas'ul organlar, zarur qarorlar qabul qilish, doimiy komissiyaning tegishli masalalarni tayyorlash va tadbirlarni amalga oshirishdagi ishtirokinining shakllari belgilanadi¹. Kengash ishining istiqbolli kompleks rejasini tayyorlashda hokim, ijro organlari, Kengashning doimiy komissiyalari, deputatlarning takliflari inobatga olinadi.

Istiqbolli rejani tayyorlash jarayonida uning asosiy tamoyillari to'g'risida xalq vakillari xabardor qilingan. Ularning har biridan bu haqda o'z saylovchilari bilan suhbatlar o'tkazish so'ralgan. Barcha okruglarda saylovchilar bilan suhbatlar tashkil etilgan. Odamlar o'z fikrlari, e'tirozlari, maslahatlarini bildirishgan. Barcha a'zolar o'z takliflarini kiritgan.

Kengash sessiyasida tasdiqlangan istiqbolli reja doimiy komissiya ish rejasini tuzishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham doimiy komissiyaning istiqbolli rejasi unga muvofiq tuziladi.

Xalq deputatlari doimiy komissiyasi bilan hokim ijro mahkamasi komissiyalari o'zaro munosabatlaridagi huquq va majburiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun hokimning ijro mahkamasi zimmasiga quyidagi vazifalarni yuklamoqda:

a) komissiyalarni qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar, yuqori turuvchi Kengashlar qarorlari bilan muntazam tanishtirib borish;

b) komissiyalar faoliyatini uzluksiz takomillashtirish va tajriba almashish maqsadida komissiyalar raislari hamda kotiblarini ijro mahkamasi boshqarma va bo'limlari rahbarlari ishtirokidagi yig'ilishlarga taklif qilish;

v) ijro mahkamasi, uning boshqarma va bo'limlari ish rejalarini doimiy komissiyaga taqdim qilish, komissiyalar raislarini ushbu rejalarining muhokamasiga taklif qilish;

g) komissiyalar faoliyatini tashkil etishga, tekshiruvlar o'tkazishga, Kengash sessiyasiga kiritiladigan va boshqa masalalarni tayyorlashga har tomonlama ko'maklashish;

d) komissiyalar tomonidan kiritilgan takliflarni ko'rib chiqish, ularning tashabbusini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholi manfaatlarini

¹ Misol uchun qarang: Решение Территориальной Думы муниципального образования Нижнетуринский район «Об утверждении комплексного плана социально-экономического развития Муниципального образования Нижнетуринский район на 2003 год» от 21.03.2003 № 241. <http://www.n-tura.ru/admtown/docs/resherdum/210320030241.htm>.

ro'yobga chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

e) komissiyalar faoliyatni amalga oshirish uchun zarur joy va jihozlar bilan ta'minlash, uning moddiy-texnik ta'minotini amalga oshirish.

Kengash doimiy komissiyasining hokimlik huzuridagi maxsus komissiyalar bilan munosabatlari ham muhim masalalardandir. Chunki ularning o'xshash tomonlari anchagina.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonunchilik va doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizomlarda doimiy komissiyaning hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar bilan munosabatlari belgilanmagan.

Doimiy komissiya Kengashning ishchi organi bo'lganligi, maxsus komissiyalar esa hokimliklar huzurida tuzilganligi uchun doimiy komissiyalarga ularning faoliyatini nazorat qilish huquqini beradi. Maxsus komissiyalarning doimiy komissiya oldidagi hisobdorligi doimiy komissiyaning ijro organlarini nazorat qilish bilan bog'liq huquqidan kelib chiqadi.

Chunki ular o'z faoliyatini bir xil yo'nalishda jamoatchilik asosida amalga oshiradilar. Biroq maxsus komissiyalar tegishli soha idoralari xodimlaridan tuzilib, ularning faoliyati muvofiqlashtirish, umumiy masalalarni hal etishga qaratiladi. Shunday bo'lsa ham, ushbu tuzilmalarning o'zmi va vazifalarini aniq belgilash dolzarb masalalardan biridir.

Bu degani - doimiy komissiya bilan maxsus komissiyalar bir-biridan mutlaqo ajralgan holda faoliyat yuritishi lozimligini ham bildirmaydi. Aksincha, ular o'z faoliyatini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etmog'i lozim. Bir so'z bilan aytganda, doimiy komissiya bilan maxsus komissiyalar munosabatlari xuddi doimiy komissiya bilan ijro mahkamasining bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar kabi tashkil etilmog'i darkor. Chunki, ta'kidlanganidek, doimiy komissiyalar Kengashning ishchi organlaridir. Maxsus komissiyalar o'z ishlarini reja asosida, doimiy komissiya bilan yaqin hamkorlikda tashkil qiladilar. Ularning rejaları tegishli doimiy komissiya rejasiga bog'lab tuziladi.

Tekshiruvlar doimiy komissiyalar o'rganayotgan masalalar bo'yicha axborot to'plashning turlaridan biri bo'lishi bilan barobar, ular faoliyatining muhim uslublaridan biridir¹. Doimiy komissiya vakolatlariga doir masalalarni tayyorlashda tekshiruvlarni o'tkazish markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Odatda, eng muhim masalalar tekshiruvlar natijalari aso-

¹ To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish. - T.: TDYL, 2002. -136 b.

sida tayyorlanadi. Tekshirishlar natijasida olingan materiallarni komissiya majlisida ko'rib chiqish bilan bir qatorda, ijro mahkamasi, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslari ma'ruzalari tinglanib, ularning faoliyatini yaxshilashga doir takliflar ishlab chiqiladi.

Doimiy komissiya tomonidan o'tkaziladigan reydlar tekshiruvlarning alohida shaklini tashkil qiladi. Reydlar bir yoki bir necha o'zaro bog'liq masalalarning birdaniga ko'plab obyektlarda - korxonalar, tashkilot va muassasalar, mahallalar, ko'chalar, xiyobonlar va boshqa joylarda tekshiriladi. Reydlarni o'tkazishga ko'plab deputatlar, faollar, ijro organi xodimlari jalb qilinadi. Odatda, reydlar ko'rilayotgan masalalarni atroflicha o'rganish uchun uzoq muddat davomida o'tkaziladi. Reydlar davomida to'plangan materiallar tegishli doimiy komissiya tomonidan umumlashtirilib, majlislarda, zarurat tug'ilganida, Kengash sessiyasida muhokama qilinadi yoki reyd o'tkazilgan masalalar bilan shug'ullanuvchi muassasalarga taqdim qilinadi.

Shunday qilib, tekshiruvlar va reydlar doimiy komissiyaning muhim masalalarini tayyorlash vositalaridir. Bu ishning eng mashaqqatli va mas'uliyatli turidir, chunki xulosalarning ob'yektivligi va ko'riladigan choralarning samarasi aynan reydlarning sifatli bajarilishiga bog'liq. O'rganilishi lozim bo'lgan masalalar doirasi, axborot manbalari va uni olishning yo'llarini belgilash, eslatmalar tuzish, deputat va faollarga yo'llanmalar berish - bularning barchasi ishning muvaffaqiyatli amalga oshirish omillaridir.

Deputatlarga gohida shunday topshiriqlar beriladiki, ularga javobni joylardagi ijro mahkamasida, moliya bo'limida olish mumkin. Bunday ma'lumotlar bilan deputatlar tekshiruvdan oldin ta'minlangan bo'lishi kerak. Bir vaqtning o'zida deputatlarga baholash mezonlari ham berilishi lozim. Bu mezonlar ilmiy asoslangan hamda qonunchilikka muvofiq bo'lishi zarur. Bunda so'rov, kuzatish, hujjatlar va materiallarni o'rganish, anketalarni tarqatish kabi tekshirish metodlari ham katta rol o'ynaydi. Tekshiruvlar jarayonida deputatlar amaliy choralar ko'rishadi. Biroq, bu - tekshiruvning asosiy vazifasi emas. Asosiysi - takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish va to'plangan faktlarni umumlashtirish, ishni tashkiliy uyushtirishdir.

Tekshiruvlarning ahamiyati, ularning natijalarini doimiy komissiyalarda, zarur hollarda Kengash sessiyasida muhokama qilish bilan cheklanmaydi. Ularni o'tkazish jarayonida doimiy komissiya a'zolari tegishli masalaga oid ijobiy va salbiy tomonlarni o'rganibgina qolmasdan, tegishli

muammolar yechimini topishga ham yordamlashadilar¹.

Shuningdek, hokimliklar huzuridagi jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar faoliyatining nazorat etish sohasidagi vazifalari quyidagicha belgilangan:²

1. ishga joylashtirish, ijtimoiy ta'minot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va huquqni muhofaza qilish organlari, jazoni ijro etish muassasalari, jamoat birlashmalarining jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarni, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslarni ishga joylashtirish va ularga ijtimoiy-maishiy jihatdan zarur yordam ko'rsatish bo'yicha korxonalar ma'muriyati bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish va ta'minlanishini nazorat qilish;

2. jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun ijtimoiy moslashuv markazlari ishini bevosita tashkil etish va ular faoliyati ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

3. ushbu shaxslarni ishga qabul qilishni rad etishning qonuniyligi va asosligini tekshirish; ularning qonuniy huquq va manfaatlari kamsitilishining oldini olish; tegishli davlat organlari tomonidan ilgari sudlangan shaxslarning imkoniyatlari, arizalari va xatlari o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini nazorat qilish;

4. korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda axloq tuzatish ishlariga hukm etilgan, shuningdek, jazoni o'tash joylaridan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan shaxslar bilan tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi va olib borilishi ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etadi.

Hokimliklar huzuridagi jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha hokimliklar huzuridagi komissiya Nizomda umumiy manoda maxsus komissiya deb atalishi belgilangan. Hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar faoliyatiga rahbarlik qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, shahar va tuman hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda komissiyalar zimmasiga Kengash va hokim qarorlarini amalga oshirish mas'uliyatini yuklaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huzuridagi komissiyalarga yuklatilgan vazifalarni quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

¹ Чиркин В.Е. Государственное управление: Элементарный курс. – М.: Юристъ, 2001. С. 299.

² "Maxsus komissiyalar" to'g'risidagi Nizomning 8-bandi.

- komissiyalarning umumiy vazifalarini ularning funksiyalari deb atash mantiqiydir;
- ularning har biri vazifalarini faoliyat sohalariga qarab alohida belgilash maqsadga muvofiq;
- komissiyalar faoliyatini ommalashtirish bilan bog`liq funksiyalarini jamoatchilik asosida amalga oshirilishi natijalidir;
- komissiyalarning vakolatlari, vazifalari, muvobiyatlaridan kelib chiquvchi funksiyalarini tashkil etuvchi doirasini aniqlash zarur;
- komissiyalarning faoliyatida qonun hujjatlarini amalga oshirishda aholi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, uni takomillashtirish chora-tadbirlariga doir senatorlar faoliyatini o`rganish;
- ular faoliyatiga doir qonun hujjatlarida nazorat qilinish jarayonlarini ko`rib chiqish lozim.

5-§. Komissiyalar faoliyatida davlat hokimiyatining amalga oshirilishini nazorat etish prinsiplari va muvofiqlashtirilishi

O`zbekiston Respublikasi viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari va hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar tegishli hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy sohalarini samarali faoliyat ko`rsatishiga rahbarlik qilishda, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis Qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning Qarorlarini ijro etilishini ta`minlaydi. Shuningdek, tegishli hokimlarga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun hokim rahbarligida faoliyat yuritadi.

O`zbekiston Respublikasi hokimliklari huzurida tuziladigan komissiyalar faoliyatida ular tomonidan ko`rib chiqilishi kerak bo`lgan materiallarni tayyorlash hamda komissiyalar qarorlarini bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimligi kotibiyati va guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.¹ Zaruriyat bo`lganda, bu materiallarni tayyorlashga bo`lim, boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalarning mutaxassislarini jalb qilinishi mumkin.

Hokimlik ijroiya mahkamasi yig`ilishlari, choraklik, yarim yillik va yillik ish rejalariga muvofiq olib boriladi. Mahalliy ijroiya mahkama o`zining butun tarkibiy tuzilishi bilan tegishli hududning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolarini hal etish uchun dasturlar va ommaviy tadbirlarni

¹ Qarang: Toshkent viloyat hokimining 1998-yil 27-martdagi 72-sonli qaroriga muvofiq// "Toshkent viloyati hokimi ijroiya mahkamasining Ish tartibi" tasdiqlangan.. (Joriy materiallari).

ishlab chiqadilar, ularni hokim o`rinbosarlari majmua rahbarlari ko`rib chiqish uchun hokimga kiritadilar. Ish rejasining loyihasiga masalalarni kiritish to`g`risidagi takliflar hokimlikning kotibiyatlari, bo`lim va boshqarmalari, komissiyalarining raislarini takliflarini hisobga olgan holda kiritiladi. Viloyat va Toshkent shahar hokimiga ko`rib chiqish va tasdiqlash uchun beriladigan ish rejaları tuman va shahar hokimlarining takliflarini ham inobatga olgan holda qabul qilinadi. Demak, O`zbekiston Respublikasi viloyat va Toshkent shahar hokimlari tomonidan qabul qilingan «Ish rejası», tuman va shahar hokimligi ijroiya mahkamasi faoliyatini tartibga solish va ish yuritish uchun asos bo`lib hisoblanadi. Viloyat hokimiga uning o`rinbosarlari ish rejasini o`tgan davr mobaynida qanday bajariyatligi to`g`risida muntazam ravishda axborot berib boradilar.¹ Viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi komissiyalar yig`ilishida muhokama etish uchun masalalar, viloyat, tuman va shahar hokimlari, komissiyalar rahbarlari, a'zolari tomonidan kiritiladi. Davlat sektoriga kirmagan korxonalar va tashkilotlar rahbarlari o`zları joylashgan hudud hokimliklari orqali murojaat qiladilar va komissiyalar majlislari kun tartibiga masalalar kiritadilar.

«Mahalliy hokimlikka kiritiladigan har bir masala bo`yicha odatda, davlat tilida aniq bayon etilgan, asoslangan qaror yoki farmoyish loyihasi «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi Qonuni asosida uning vakolatiga kiruvchi masalalarning mohiyati bayon etilgan, mazkur hujjatni qabul qilish zarurligi asoslab berilgan qisqacha xat axborot yoki ma`lumotnoma tariqasida taqdim etiladi. Amalga oshirilishi, qo`shimcha moddiy va boshqa harajatlarni talab qiladigan qaror va farmoyishlar loyihalarini taqdim etganda moliyaviy-iqtisodiy asoslovchi hujjatlar ilova qilinadi».² Har bir hudud hokimligi huzuridagi komissiyalar ham viloyat, tuman, shahar hokimlarining qaror va farmoyishlari asosida o`z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo`yicha davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslari va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo`lgan qarorlar qabul qiladilar. Davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar mansabdor shaxslari komissiya qarorlarini bajarish yuzasidan ko`rilgan chora-tadbirlar to`g`risida komissiyaga o`n kun mobaynida xabar berishlari shartdir. Mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun qabul qilinadigan yuqori organlarining aktlari asosida hokimliklar komissiyalari qabul qiladigan qarorlarining farqi shundan iboratki, yuqori organlarning qaror va farmoyishlari respublika hududining hamma tarmoqlarini

¹ Qarang: Toshkent viloyati hokimining 1998-yil 27-martdagi 72-sonli qaroriga 1-ilova. (Joriy materiallari).

² To`laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. O`quv qo`llanma. – T.: Universitet, 1996. – B.120.

yoki ayrim sohalarini tartibga solish yoki rivojlantirish uchun qabul qilingan bo`lsa, komissiyalar qarorlari, takliflari va tavsiyalari esa faqat o`z vakolatlari va vazifalari doirasida Nizomlarida belgilangan tartibda o`zlariga tegishli masalalar bo`yicha qabul qilinadi va uning bajarilishi majburiydir.¹

O`zbekiston Respublikasida hokimlarning qaror va farmoyishlarining loyihalari amaldagi qonun hujjatlariga mos bo`lishi ularda ko`rib chiqilayotgan masala puxta tahlil qilingan va xolis baholangan, ijrochilar oldiga aniq ifodalangan maqsad va vazifalar qo`yilgan bo`lishi, ularda amalga oshirilsa bo`ladigan muddatlar belgilanishi kerak. Hokimning qaror va farmoyishlar loyihalarida, zaruriyat bo`lganida ilgari qabul qilingan qarorlarga o`zgartirishlar kiritish yoki ularning o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblash to`g`risidagi taklif shu hujjatni tayyorlovchilar tomonidan kiritiladi.²

Aynan shu masalalar yuzasidan ilgari qabul qilingan qarorlar bajarilmagan bo`lsa, viloyat, tuman va shahar hokimligiga ana shu masalalar bo`yicha qaror va farmoyish loyihalarini kiritilishiga yo`l qo`yilmaydi. Shuningdek, ushbu hujjatlarda yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun komissiyalarni moddiy-texnik jihatdan ta`minlash bilan bog`liq masalalarni hal etish bo`yicha majburiyat tegishligiga qarab tumanlar, shaharlar, viloyatlar hokimlariga, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklanadi.³

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklari tassarufidagi voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalarning ishini tayyorlash va qarab chiqish:⁴

1) O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda topshirilgan ishlarni;

2) O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga muvofiq ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni;

3) ichki ishlar organlari va xalq ta`limi organlari taqdimi bo`yicha berilgan ishlarni;

4) kasaba uyushmasi, umumta`lim maktablari huzuridagi ota-onalar qo`mitalari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari va boshqa jamoat birlashmalari taqdimnomasi bo`yicha topshirilgan ishlarni;

5) fuqarolarning arizalari bo`yicha ko`riladigan ishlarni;

¹ "Maxsus komissiyalar to`g`risida"gi Nizomning 14-bandi.

² To`laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. O`quv qo`llanma. - T.: Universitet, 1996. - B.122.

³ "Voyaga yetmaganlar ishlar buyicha komissiya"lar to`g`risidagi Nizomning 31-bandi.

⁴ "Voyaga yetmaganlar ishlar buyicha komissiya"lar to`g`risidagi Nizomning 34-bandi.

6) o'z tashabbuslari bilan ko'riladigan ishlarni qarab chiqadilar. Komissiyalar yuqorida ko'rsatilgan ishlarni, komissiyaga tushgan vaqtdan boshlab 15 kun ichida ko'rib chiqadilar.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi Nizomda 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlari uchun javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan ta'sir ko'rsatish choralari nazarda tutilgan.¹

O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalar faoliyati prinsipiellik, o'z vazifalariga ijodiy yondashuv, aholi fikrini o'rganib, azolari faoliyatini yo'naltiruvchi jamoatchilikning nazorati borligi namoyon bo'lmoqda. Jamoatchilik bilan aloqalar kundalik, professional mehnatni talab qiladi. Shuning uchun bunday organning hokim ijro mahkamasidagi matbuot xizmati yoki boshqa maxsus xizmatlar bilan munosabatlar mexanizmi ishlab chiqilmoqda. Mazkur nazorat organlari to'g'risidagi nizomlarda majlislarda sababsiz qatnashmagan komissiya azolariga nisbatan chora ko'rish tartibi belgilangan.

Bugungi kunda barcha mahalliy vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalari majlislarida ularning a'zolari ishtirok etishi majburiydir. Odatda, bu majlislarda komissiyaga a'zo bo'lmaganlar ham ishtirok etadilar. Masalan, Toshkent shahar Kengashi doimiy komissiyasi to'g'risidagi Nizomda muayyan komissiya majlislarida uning a'zosi bo'lmagan deputatlar ishtirok etishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, komissiya majlislarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- a) komissiya majlislarida ishtirok etishga majbur shaxslar;
- b) komissiya majlislarida ishtirok etish huquqiga ega shaxslar.

Birinchi guruhga komissiya a'zolari, majlislarda ko'rib chiqilayotgan masalani hal qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar, muhokama qilinayotgan masalaga aloqador tashkilot vakillari, tekshiruvlar o'tkazishda qatnashgan faollar kiradi.

Ikkinchi guruhga komissiya a'zosi bo'lmagan Kengash deputatlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalarining vakillari va fuqarolarni qo'shish mumkin. Ushbu ikki guruhga komissiya faoliyatida ishtirok etadigan shaxslarning huquqlari teng emasligi tabiiy hol. Hal qiluvchi ovozga faqat komissiya a'zolarigina egadirlar. Birinchi guruhga mansub boshqa shaxslar, doimiy komissiya a'zosi bo'lmagan Kengash deputatlari, jamoat birlashmalarining vakillari maslahat ovozi huquqiga egadirlar. Faqat birinchi guruhning tarkibiga kiruvchi shaxslarigina komissiyalar

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi". – T.: Adolat. 1995. – 14-modda.

majlislarini o'tkazish bilan bog'liq vaqtlarda asosiy ish joylaridan ruhsat etiladi. Komissiyalarning har bir a'zosi uning majlislarida muhokama qilayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Komissiyalarning ba'zi a'zolari muayyan masala yuzasidan chiqarilgan xulosaga qarshi bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda ular o'z fikrlarini bildirishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyat ishlarini boshqarishga aholini jalb qilish masalalari komissiyalar majlislarini samaraliroq bo'lishini taqozo etmoqda. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari doirasidagi turli muammolarning yechimiga xizmat qilayotgan ularning komissiyalari faoliyatiga, hamda ijro mahkamasining boshqarma va bo'limlari ustidan asosan halq deputatlari Kengashi nazoratni amalga oshirmoqda. O'zaro muvofiqlashtirilgan nazorat, birgalikdagi maqsadlarini ifodalab, tegishli hokimlikning nazorat bo'limini faoliyati bilan muvofiqlashtirish, ijro organlarining faoliyatiga ko'maklashishga qaratilgan chora-tadbirlarni ifoda etadi. Umuman olganda, komissiyalar faoliyati hokim tomonidan nazorat qilinadi va muvofiqlashtiriladi, chunki u Kengash raisi hisoblanadi. Lekin barcha harakatlar har doim ham xalq deputatlari Kengashining sessiya va yig'ilishlarida kelishilgan holda tashkil etiladi.

Bunday nazoratning asosiy sharti - ijro mahkamasining joriy faoliyati va rejalari haqida tegishli doimiy komissiyani muntazam xabardor bo'lib turishi ta'minlanadi. Boshqacha aytganda, har ikki tomon bir-birining faoliyatidan imkon qadar to'liqroq xabardor bo'lib turishi nazarda tutilgan. Shuning uchun komissiya raislari o'zaro muntazam ravishda vaqti-vaqti bilan uchrashuvlar o'tkazib turadi. Yig'ilishlarda ular batafsil axborot olib, ijro mahkamasining faoliyatida mavjud muammolar bilan tanishadilar. Bundan tashqari, har bir komissiya ijro mahkamasining barcha qarorlari matnlari, ish rejasini, navbatdagi sessiyani tayyorlash bilan bog'liq materiallarni olib turadi. Komissiyalar bilan hokim ijro mahkamasini o'rtasidagi o'zaro munosabatlaridagi vazifa va majburiyatlari xalq deputatlari Kengashining reglamenti, komissiya to'g'risidagi Nizomlarda belgilanmagan bo'lsa ham ish rejalari o'z ifodasini topgan.

Tegishli hudud rivojlanish sohalaridagi masalalarni bir xil amalga oshirish juda murakkab vazifa, chunki har bir alohida olingan xalq deputatlari Kengashlari va hokimlik komissiyalari faoliyatini tashkil etilishi murakkab tizimga ega. Bu tizimga xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlik devonining xodimlari, deputatlar va jamoatchilik tashkilotlarining vakillari kiradi. Har bir xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar-

ning asosiy vazifasi ana shu tizimning yagona bir butun faoliyat olib borishini ta'minlashdir. Bu vazifani amalga oshirishda nazorat va muvofiglashtirish uslubidan keng foydalanadilar. Umuman olganda, xalq deputatlari kengashlari va hokimliklar huzuridagi komissiyalar faoliyati davlat xo`jalik va ijtimoiy-iqtisodiy qurilish sohalarining rivojlanish tadbirlarini belgilab, uni amalga oshirilishini nazorat qilmoqdalar.

XVII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING IQTISODIY VA MOLIVAVIY ASOSLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllarining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobi jamiyatning iqtisodiy negizlariga bag'ishlangan bo'lib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning XX bobi mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asoslari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddada "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin" deb mustahkamlangan.

Bu konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishi barcha davlat organlari faoliyatini belgilab beruvchi qonunlar asosida ularga yuklatilgan. Mahalliy hududlardagi davlat hokimiyati organlari faoliyatida mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashda vakillik va hokimliklar zimmasiga asosiy vazifalar "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi" deb, 25-moddasining oxirgi bandida "Hokim rejalashtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash,

fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi" belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Viloyat, tuman, shahar mulkini, shuningdek viloyat, tuman va shaharga xo'jalik yuritish uchun berilgan davlat mulki obyektlarini boshqarish tartibi ushbu qonun, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan yo'lga solinadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar" deb belgilangan.

Mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlariga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishini rejalashtirish Xalq deputatlari Kengashlariga va uni hayotga tatbiq etilishi hokim ijroiya Mahkamasining zimmasidagi vazifalardir. Bu vazifalarning ijtimoiy hayotdagi amaliy natijasini nazorat qilish ularning yordamchi organlari bo'lgan jamoatchilik asosida faoliyat yuritilishi tatbiq etilgan komissiyalarining tashkiliy shakllarini ifoda etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, eng avvalo, tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda mas'ul bo'lib, uni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash orqali bunga erishadilar.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllarining huquqiy asoslari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 8-modda-

sida "Viloyat, tuman, shahar mulki Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o`ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o`zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to`liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, byudjet mablag`lari, byudjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag`lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo`lgan muhandislik infrastrukturasi ob`yektlari va boshqa ob`yektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta`limi, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag`i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog`ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo`lishi mumkin" deb belgilangan. Uning boshqaruvini tashkil etish esa qonunning 9-moddasida "Xalq deputatlari Kengashi, hokim viloyat, tuman, shahar mulki ob`yektlarini O`zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan doirada boshqaradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi hamda viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli viloyat, tuman, shahar mulkida bo`lgan obyektlarni O`zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda va doirada vaqtincha yoki doimiy egalik qilish va foydalanish uchun berishga haqlidir" deb ifoda etilgan.

Tegishli mahalliy hududning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolarini hal etish uchun kotibiyatlar, guruhlar, bo`lim va boshqarmalar kompleks yoki maqsadli dasturlar va tadbirlarni ishlab chiqadilar, ular viloyat hokimi o`rinbosarlari, majmua rahbarlari tomonidan viloyat hokimiga ko`rib chiqish uchun kiritiladi. Ish rejasi loyihasiga masalalarni kiritish to`g`risidagi takliflar viloyat hokimligi kotibiyatlari, guruhlari, bo`lim va boshqarmalari hamda shahar va tuman hokimliklari takliflarini hisobga olgan holda kiritiladi.

Masalan, Toshkent shahar hokimligida bosh boshqarma, boshqarma va bo`limlar mavjud bo`lib, rejalashtirilgan masalalarni ko`rib chiqish, muddatini o`zgartirish yoxud chiqarib tashlashga hokim-ruxsat beradi.

Hokimga uning o`rinbosarlari tasdiqlangan rejaga muvofiq o`tgan davr mobaynida ishning qanday bajarilayotganligi to`g`risida muntazam axborot berib boradilar. Toshkent shahar hokimiyatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish Toshkent shahar hokimi, uning o`rinbosarlari, guruhlari departamenti, bosh boshqarma, boshqarmalari rahbarlarining, tuman hokimligi, shuningdek Toshkent shahar hokimi mahkamasining doimiy va

vaqtinchalik komissiyalari, tegishli qarorlar bilan tuzilgan boshqa ishchi guruhlarini tashkiliy amaliy ishi bilan ta'minlaydi.¹ Yuqorida sanab o'tilgan bo'lim va bosh boshqarmalarga rahbarlikni hokimning o'rinbosarlari amalga oshiradi. Shuningdek, hokimlikning doimiy va vaqtinchalik komissiyalariga ham bevosita hokimlikning bo'lim va boshqarmalarga rahbarlik qilgan o'rinbosarlari rahbarlik qiladi.

“Mahalliy hokimiyat organlari, qonun va yuqori organlar mansabdor shaxslarining hujjatlarini amalga oshirishlari, ularning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifa mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyat organlarining birgalikdagi vazifasi bo'lib, uni amalga oshirishda ikki turdagi vakillik organlari ma'lum usullardan foydalanadi. Mahalliy vakillik organlari qonun va boshqa hujjatlarni amalga oshirish uchun o'zlarini hujjatlarini qabul qilib, shu hujjatlarida qonun va boshqa hujjatlarni amalga oshirish chora tadbirlarini belgilasa, ijro hokimiyati organlari qonun va boshqa hujjatlarni bevosita amalga oshiradilar, ya'ni ularning ijrosini ta'minlaydilar”².

Bu ba'zi bir muhim xalq xo'jalik masalalarini tezkorlik bilan hal qilishga, xalq xo'jaligi va madaniyatni rivojlantirish masalalarini mustaqil yechish va aholining turmush ehtiyojlarini, madaniy va moddiy talablarini qondirishga imkoniyat tug'diradi. Mahalliy hokimiyat komissiyalari o'z faoliyatlarini majlislarda rejalashtirib oladilar. Komissiyalar majlislari ularning muhim tashkiliy shakli bo'lib, unda davlat hokimiyati organlari vakolati amalga oshiriladi. Mahalliy hokimiyat organlarining komissiyalari tizimi ularning tashkiliy shakli va mohiyati bo'yicha yagonadir. Bu komissiyalarning yagonaligi, davlat hokimiyatining mahalliy davlat organlarining vazifa va huquq doiralari bilan bir xil degan ma'noni bermaydi. Har bir mahalliy davlat hokimiyati organlarining komissiyalari o'z faoliyatlariga taaluqli alohida belgilangan huquq va vazifalarni bajaradilar (tegishli hudud shart-sharoitlarini inobatga olgan holda).

“Biz O'zbekistonda o'ziga xos huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, xalqimiz turmushi va ongida tarixiy an'analarimizni saqlab, ulardan oqilona foydalanmoqdamiz. Adolat, ijtimoiy himoya, o'zaro yordam hozirgi jamiyatimizning negizini tashkil qiladi. Adolatga, xalqimizning eng yaxshi, ardoqli g'oyalari asoslangan demokratiyagina mustahkam zaminga ega bo'ladi”³.

¹ Toshkent shahar hokimiyatining “Ish tartibi” 3-bandi. 235-sonli Toshkent shahar hokimi qarori bilan tasdiqlangan. (Joriy materiallari). 2000-yil.

² Husanov O.T. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. (Huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar). – T.: Sharq, 1996. – B.148.

³ Azizxo'jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. (tajribalar, qiyosiy tahlil). – T.: Sharq, 1997. – B.81.

“Yurtimizning istiqboli-bozor xizmat tarmoqlarini shakllantirish bilan, kelgusida mulkni davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish, yakkahokimlikka qarshi tadbirlarni amalga oshirish, raqobat muhitini vujudga keltirish bilan o`zviy bog`liqdir. Ishlab chiqarishni, ya`ni ko`pchilik sanoat korxonalarini aksionerlarga berish lozim”.¹

Demak hokimliklar huzuridagi komissiyalarning asosiy vazifasiga, aholiga savdo xizmatini yaxshilash, pullik xizmatlar xajmini ko`paytirish tadbirkorlikni, xususiy biznesni va tijoratni qo`lab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog`liq chora-tadbirlarni ko`rish; yonilg`i-energetika resurslari iqtisodi bo`yicha tegishli hududda “Alohida muhim ahamiyatga ega bo`lgan ob`yektlarning qo`riqlashni nazorat qilish bo`yicha komissiya”si bilan hamkorlikda nazorat qilish bo`yicha idoralara komissiyalar ishiga rahbarlik qilishni tashkil etish; “Kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag`barlantirish bo`yicha viloyat muvofiq-lashtiruvchi va tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish ishchi komissiya”si bilan, sanoat, yonilg`i-energetika resurslari va xalq istemoli mollari, savdo va xizmat ko`rsatish sahasida tadbirkorlikni, xususiy-biznesni va tijoratni muvofiq-lashtirish qo`lab-quvvatlash bo`yicha dasturlarni tuzadi.

Umuman olganda, mahalliy vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalar o`z faoliyatini amalga oshirishda asosan majlislarida masalalarni ko`rib chiqadilar; neft maxsulotlari, elektr tarmoqlari, gaz boshqarmalari mashinasozlik, metalurgiya, kimyo, ko`mir, yengil sanoat, oziq-ovqat va unni qayta ishlash sanoati korxonalari, sanoat qurilish materallari, “Mahalliy sanoat” korporatsiyasi korxonalari, viloyat mahsulot ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, bozorlar boshqarmalari, maishiy xizmat ko`rsatish uyushmasi va avtotexxizmat bazalariga oid bo`lgan muammolarni o`rganadilar va unga doir bo`lgan rejalarning bajarilishi haqidagi hisobotlarni eshitadilar, tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi. Hokimlik aparati komissiyalarning tashkiliy-texnik faoliyatini muvofiq-lashtirilishini, mehnat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni, apparat xodimlarining mehnat ta`illari va malakasini oshirish jadvallarini bajarilishi ustidan nazoratni ta`minlaydi.

“Biz bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratdik, lekin ro`y-rost aytish kerakki, bozor iqtisodiyotiga xos yangilanishlar va islohotlar rasmiyatchiliklar bilan olib borilmoqda, ko`p hollarda shunchaki xo`jako`rsinga amalga oshirilayapti. Asosan nom o`zgarayapti-yu, mazmun-mohiyat o`sha-o`sha – esqiligicha qolmoqda. Bu hol iqtisodiyotning barcha sohalarida –

¹ Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O`zbekiston, 1993. – B.116.

sanoatda, qishloq xo'jaligida, kapital qurilish va boshqa tarmoqlarda ko'zga yaqqol tashlanib turibdi".¹

O'zbekiston Respublikasi hokimliklari huzuridagi komissiyalar tizimi boshqaruv sohalariga bo'lingan bo'lib, "Pul-kredit siyosati komissiyasi" ishini uyushtirishda, hokim o'rinbosari iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi boshlig'i rahbarlik qiladi.

Bu komissiyaning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarini quyidagi tartibda o'rganishimiz mumkin:²

1. ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarinin uslubiy dasturlarini ishlab-chiqish, iqtisodiyotning makroiqtisodiy tahlili, statistikani takomillashtirish masalalarini hal qilish;

2. mulkni davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlikni, fond va maxsulot homashyo birjalarini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ishlab-chiqarish sohasiga, b6zor munosabatlarini joriy etish masalalari, qimmatbaho qog'ozlar b6zori ishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

3. davlat byudjetini, pul-kredit siyosatini olib borish, to'lov intizomini mustahkamlash va pul mablag'lari emissiyasini qisqartirish va ijro etish masalalarini muvofiqlashtirish;

4. soliq, bandlik va aholining ijtimoiy himoyalanihini ta'minlash siyosatini amalga oshirish.

Har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirishva uni nazorat qilish uchun tashkiliy jihatdan tuzilgan yordamchi organlari mavjud bo'ladi. Davlatni mamuriy-hududiy jihatdan tashkillashtirish o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra iqtisodiy hududiy; siyosiy hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun); ekologik hududiy (masalan, Orol va Orol bo'yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofazaga muxtoj bo'lgan yer kengliklarining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) masalalarini hal etish uchun tuzilishi mumkin.

Davlatning ma'muriy jihatdan ajratilgan ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat va uning tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birini huquqiy holatiga doir masalalarni hal etilishining ma'lum bir shartlarini qamrab oladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari va hokimliklari huzurida faoliyat yuritayotgan

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz, asari. T.8. – T.: O'zbekiston. 2000. – B.382.

² Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand viloyatlari hokimliklarining joriy hujjatlaridan. 2005.

komissiyalari davlat tuzilishi shakliga mos ravishda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarini tartibga solish va uni rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash chora tadbirlarini ishlab chiqmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov davlat qurilishi va uning tuzilishi asoslariga bag'ishlangan bir qator asarlarida, xususan "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" degan kitoblarida bizda davlat tuzilishi yer kengliklarini viloyat, tuman va shaharlarga bo'linishi sun'iy ravishda, o'z-o'zidan kelib chiqqan "texnik" jarayon bo'lmay, balki respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsad va vazifalarini amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilgan deb, alohida urg'u bergan.

Mamlakatimizning mahalliy davlat organlarida asosan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni rivojlantirish, konstitutsiyaviy tuzumni, davlat mustaqilligi va hududiy yahlitlikni himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, samarali tashqi siyosat o'tkazish kabi vazifalar samarali amalga oshirilmoqda. Strategik, ya'ni uzoqqa mo'ljalangan va davlatning suveren huquqini ta'minlovchi:

1. Muhim iqtisodiy va xo'jalik ahamiyatiga ega masalalar (masalan, pul va valuta muomalasi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish) viloyat, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi pul-kredit siyosati, korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari bo'yicha, bozorlar faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarishni tartibga solish, aksiz markalari tizimini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-dekabr kuni e'lon qilingan 604 sonli "Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarordan kelib chiquvchi vazifalarning bajarilishini nazorat qilish, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi va tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, soliq va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha hokimliklar huzuridagi komissiyalar va xalq deputatlari kengashlarining iqtisodiy islohotni, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish masalalari doimiy komissiyasi; mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalari doimiy komissiyasi; qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar tengligini ta'minlash masalalari doimiy komissiyalari faoliyatini takomillashtirilishi respublikamiz hayotidagi eng muhim iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy, xo'jalik ahamiyatiga molik masalalarni

hal etishga xizmat qilmoqda;

2. tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni regional va global miqyosda hal qiluvchi masalalar (masalan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ekologik inqirozli hududlarni mutadillash-tirish); hokimliklar huzuridagi quyidagi komissiyalar; favqulodda holatlar bo'yicha komissiyalar; epidemiyaga qarshi kurash favqulodda komissiya-lari: alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlarning qo'riqlanishini nazorat qilish bo'yicha komissiyalari; qishga tayyorgarlik ko'rish komi-siyalari; pul-kredit siyosati komissiyalari; aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish bo'yicha komissiyalari; res-publika va halqaro ahamiyat kasb etuvchi transport, aloqa va muhandislik kommunikatsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish komissiyalari hamda, xalq deputatlari kengashlarining kommunal xo'jalik va atrof muhitni muhofaza qilish doimiy komissiyasi; agrosanoat kompleksi va suv xo'jaligi masalalari doimiy komissiyasi faoliyatida muhim o'rin tutadi;

3. yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalarining hal etilishi va rivojlantirish bo'yicha hokimliklar huzurida quyidagi komissiyalar faoliyat olib bormoqdalar; korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari komissiyalari; qishloq xo'jalik korxo-nalarini sanatsiya qilish komissiyalari; qurilish kompleksini norentabel va kam quvvatli tashkilotlarini qayta tashkillashtirish va tugatish bo'yicha komissiyalari; qishloq infrastrukturasi rivojlantirish dasturining bajarili-shini nazorat qilish bo'yicha komissiyalari; toponomik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari komissiyalari, hamda xalq deputatlari kengashlarining sanoat, transport, qurilish, aloqa doimiy komissiyasi eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat boshqaruvining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shmoqda;

4. mudofaa, energetika va boshqa maxsus vazifalarni bajarish bilan bog'liq masalalarning mahalliy davlat hokimiyati darajasida hal etilishi bo'yicha hokimliklar huzuridagi: harbiy chaqiruv komissiyasi; yonilg'i energetika resurslaridan oqilona foydalanish komissiyalari, hamda xalq deputatlari kengashlarining ijtimoiy-madaniy taraqqiyot doimiy komi-siyasi faoliyat olib bermoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan umum-ekologik, umum-iqtisodiy va umum-siyosiy sohalardan tashqari barcha mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan masalalarni hal etilishida komissiyalar tuzilishi; bozor islohotlarini chu-qurlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, xususiy mulkni turli ko'rinishlari va shakllarini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanti-

rish, fuqarolarning farovonligini oshirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi rivojlanish talablariga to'liq javob beradi.

2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining moliyaviy huquqiy asoslari. Viloyat, tuman, shahar mulki va moliyaviy resurslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning XXX bobida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asoslari belgilangan.

Mazkur qonunning 11-moddasida, viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra; "Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan birgalikdagi dasturlarni, shu jumladan hududlararo dasturlarni pul bilan ta'minlash uchun boshqa viloyatlar, tumanlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning moliya resurslari bilan shartnoma asosida birlashtirilishi mumkin".

Yangi korxonalar va ishlab chiqarish jihozlariga investitsiya ajratishni kreditlash asosan beshta bankda – "Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki", "O'zsanoatqurilishbank", "Paxtabank", "Asakabank" va "Ipotekabank"da jamlangan. Qolgan 28 bank hissasiga esa umumiy investitsiya kreditlari hajmining atigi 2 foizidan ziyodrog'i to'g'ri keladi. Yurtboshimiz I.A.Karimov "buning sababini, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni joriy etishga mas'ul bo'lgan Markaziy bank, Davlat mulk ko'mitasi, Moliya vazirligi va hukumat muassasa, tuzilmalari qoniqarsiz ishlayotganida, deb bilaman"¹, - degan edilar. Masalan, Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Pul-kredit siyosati bo'yicha komissiyasining 23-avgust 2005-yilda bo'lib o'tgan majlis bayonida hokimning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari, viloyat kommunal idoralari rahbarlari, viloyat tijorat banklari rahbarlari, savdo va naqd pul tushumiga ega bo'lgan tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ro'yxat bo'yicha, ishtirok etganligi belgilangan.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: O'zbekiston, 2000. – B.388.

Yig'ilish kun tartibida quyidagi masala ko'rilgan: "2005-yil III choragida kassa rejasi va naqd pul emissiyasi topshiriqlarining bajarilishi hamda mustaqilligimizning 13-yilligi bayrami kunigacha pensiya, nafaqa va ish haqidan bo'lgan to'lovlarni to'lig'icha to'lash chora tadbirlari to'g'risida kun tartibidagi masala yuzasidan viloyat hokimining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosarini axboroti tinglandi va viloyatda joriy yilning avgust oyi uchun belgilangan kassa rejalari va naqd pul emissiyasi darajasi topshiriqlarining bajarilishi, tijorat banklari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan ish haqi qarzlarni kamaytirish borasida olib borilayotgan ishlar va bu boradagi mavjud muammolar atroflicha tahlil etildi. Yig'ilish kun tartibidagi masala bo'yicha qaror qabul qildi; Markaziy bankning viloyat Bosh boshqarmasi, viloyat moliya boshqarmasi boshlig'i, viloyat pensiya jamg'armasi hamda barcha tijorat banklari rahbarlariga mustaqilligimizning 13-yilligi bayrami munosabati bilan joriy yilning 30 avgustiga qadar pensiya, nafaqa va ish haqidagi bo'lgan to'lovlarni to'lalig'icha to'lash qat'iy choralarini ko'rish va amalga oshirganligi to'g'risida shaxsan axborot berishlari yuklatildi. "...Davlatning bu jarayonlardagi eng muhim vazifasi ana shu qiyinchiliklarni imkoni bori qadar yumshatish, aholining ijtimoiy qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularning yangi hayotiy sharoitiga moslashishi uchun zarur yordam ko'rsatishdan iboratdir".¹

Viloyat hokimining o'rinbosari markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, kassa rejasi va naqd pul emissiyasi darajasi topshiriqlarining bajarilishida sustkashlikka yo'l qo'yayotgan tegishli tijorat banklari rahbarlarining o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan qaraganligi ko'rsatib o'tildi va ular faoliyatiga tanqidiy baho berildi.²

O'zbekiston Respublikasida bank sohasida o'tkazilayotgan islohotlar yanada rivojlantirilmoqda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustivor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: "Bank sohasida o'tkazilayotgan islohotlar yanada rivojlandi. Banklarning umumiy kapitali va bank tizimi aktivlarining umumiy hajmi yil davomida 1:9 barobar oshdi. O'zbekistonda bank aktivlarining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan nisbati 2000-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 56 foizni tashkil etdi. Bu albatta barchamizni quvontiradi. Chunki ushbu

¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan, T.4. - T.: O'zbekiston, 1996. - B.166.

² Farg'ona viloyati hokimligining: "Viloyat hokimligi Pul-kredit siyosati bo'yicha komissiyaning yig'ilish Bayoni". (joriy arxiv).

ko'rsatkich bir tomondan mamlakatimizda kredit berish imkoniyatlari kengayishini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, aholining banklarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi"¹ deb ta'kidlab o'tgan edi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarini jiddiy tahlil qilar ekan, bu borada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga va yo'l qo'yilayotgan kamchilik hamda nuqsonlarga alohida to'xtalib viloyat, tuman va shaharlar hokimliklarining bu sohaga yetarli e'tibor qilmayotganligini tanqid qildi.

O'zbekiston Respublikasi viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari va hokimliklar huzuridagi komissiyalarning faolligini rivojlantirish davlatimizning kuch-qudratini oshishida ahamiyati kattadir. Iqtisodiyotdagi o'sish-inflatsiyasiga qarshi, moliyaviy barqarorlik va pul muomalasi tuzilishini mustahkamlash borasidagi tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani natijasidir.²

O'zbekiston Respublikasidagi ba'zi bir hokimliklarda hokimning qarori bilan ko'p hollarda hokim mahkamasining hamma majlislarini va unga materiallarni tayyorlash haqida maxsus tartib qabul qilinadi.³

Mahalliy hokimliklar huzuridagi komissiyalarning yuqorida ko'rsatilgan hokim o'rinbosari boshchiligidagi «Pul kredit siyosati komissiyasi» faoliyatida masalalarni hal etish viloyat davlat istiqbolstat bosh boshqarmasi, moliya boshqarmasi, ijtimoiy ta'minot boshqarmasi, mehnat boshqarmasi, soliq qo'mitasi, davlat mulkini boshqarish qo'mitasi, markaziy bank, paxta bank, g'alla bank, mevasabzavot bank, xalq banki, sanoat qurilish banki, tijorat va investitsion banklar, tadbirkor bank, viloyat davlat agrosug'urta jamg'armasi, mahsulot xom ashyo birjasi, viloyat birja savdo, ko'chmas mulk birjasi va "Viloyatkonsauditaxborot"⁴ korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarini, ularning faol ishtirokini ta'minlash orqali hal etadi.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-dekabrda 604 sonli Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining bajarilishini nazorat qilish komissiyasi; korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari bo'yicha komissiyasi; aksiz markalari tizimini joriy etish bo'yicha idoralararo viloyat komissiyasi; hududni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan musodara qilingan tovar xom-ashyo va boshqa moddiy boyliklarni baholash va

¹ "Xalq so'zi", ro'znomasining 2002. 17 fevr.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-T.: O'zbekiston, 1999.-B.7.

³ To'laganov A.T. Davlat hokimiyatini vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini taszkil etish. O'quv qo'llanma.-T.: Universitet, 1996.-B.118.

⁴ Toshkent viloyat hokimining 1998 yil 27 martdagi 72-sonli qaroriga muvofiq, "Toshkent viloyati hokimi ijroiya mahkamasining ish tartibi" tasdiqlangan. (Joriy materiallari).

sotilishini tashkil etish komissiyasi har yili bir marta o'z ish rejalari va a'zolari tarkiblarini kelishib oladilar. Hokimliklar huzuridagi, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha viloyat muvofiqlashtiruvchi va tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish ishchi komissiyasi; soliqlik va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiyasi; qishloq ho'jalik korxonalarini sanatsiya qilish masalalari bo'yicha komissiyasi haj va umra ziyoratlarini tashkil etish komissiyasi har yili mavsumiy oy boshlarida komissiya tarkibi va ish rejasini yangidan tuzib chiqadilar.¹

Istiqbolli kompleks rejadagi tadbirlar bilan xalq deputatlari Kengashining ishini tashkil etish o'rtasida uzviy aloqa bo'ladi. Ushbu maqsadga erishish uchun rejadagi har bir tadbirning muddati, uni tayyorlash va o'tkazishga mas'ul organlar, zarur qarorlar qabul qilish, doimiy komissiyaning tegishli masalalarni tayyorlash va tadbirlarni amalga oshirishdagi ishtirokining shakllari belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashining faoliyatini istiqbolli kompleks rejasini tayyorlashda hokim, ijro organlari, Kengashning doimiy komissiyalari, deputatlarning takliflari inobatga olinadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan vazifalar barcha sohalarini tartibga solishni hisobga olgan holda qonuniy asoslari belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish vazifasi belgilangan bo'lib, unga ko'ra "Viloyat, tuman, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berishga, bu subyektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to'xtatib qo'yishga, shuningdek yerlarni olib qo'yishga haqli bo'lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashi, hokim O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qiladilar".

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan bu vazifalar o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Masalan, hokimlikning "Qishloq infrastrukturasi rivojlantirish dasturini bajarilishini nazorat qilish bo'yicha" komissiyasi, hududning agrosanoat majmui bilan bog'liq bo'limlari va boshqarmalari faoliyatini o'rganib majlislari asosida muvofiqlashtirib boradi. Komissiya majlisi zaruratga qarab, lekin oyida kamida bir marta chaqirilib, iqtisodiy sohada islohotlarni amalga oshirish, qishloqda bozor munosabatlarini shakllantirish, qishloq va suv xo'jaligi qurilishini rivojlan-

¹ Qarang: Farg'ona viloyati hokimining 2000-yil 24-fevral, 64-sonli qarori. (Joriy materiallari).

tirish, yer tuzilishining viloyat boshqarmasi kadastr bo'yicha ishlarini ko'rib chiqadi va bu haqda tegishli mutasaddi rahbarning hisobotlarini muxokama qilib chora-tadbirlarni ko'radi. Bu komissiya tarkibi doim o'zgarib turadi, ammo tegishli hududda shu soha mutaxassislari uning a'zolari hisoblanadi. Jumladan ushbu komissiya tarkibida; hududiga qarab, tegishli viloyat, tuman, shahar, suv xo'jaligi boshqarmasi rahbari, davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, "Ekosan" jamg'armasi (mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnik ta'minot qismida) paxtasanoatsotish korxonasi, "Don mahsulotlari" korporatsiyasi, "Mevasabzavotuzum sanoati", "Ipakchilik korxonasi", "Suv qurilish konserni", "Qishloq-xo'jalik-ta'minotta'mir", "Agrokimyota'minot", o'simliklarni himoya qilish va agrokimy markazi, davlat karantini, qo'riqxon va o'rmon xo'jaliklari, kanop tayyorlash sanoati, bo'rdochilik birlashmasi, davlat sug'urta jamg'armasi, "Paxta bank", "Falla bank", "Mevasabzavot bank", "Parandachilik" sanoati birlashmasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar rahbarlari yoki ularning o'rinbosarlari yoxud bo'lim va boshqarma rahbarlari faoliyat yuritadilar. Shuningdek, viloyat, tuman yoki shahar hududida, "Yonilg'i energetika resurslaridan oqilona foydalanish komissiya"si ham zaruratga qarab lekin oyda kamida bir marta o'z majlislarini chaqiradi. Bu komissiyalar tegishli hududda sanoat, yonilg'i-energetika resurslari majmuiga rahbarlik qilib shu sohani muvofiqlashtirib turadi. Ushbu komissiya, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-dekabr 1999-yilgi, 604-sonli, respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorini nazorat qilish komissiya"si bilan hamkorlikda o'z faoliyatini olib boradi. Chunki hududda sanoat, yoqilg'i-energetika resurslari va xalq istemoli mollari majmuini tashkil etish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni, xususiyy biznesni va tijoratni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlashda, sanoat va yagona ilmiy-texnik, iqtisodiy va investitsion siyosatni ishlab-chiqish va amalga oshirish, sanoat korxonalarida mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, xalq iste'mol mollari ishlab chiqishda mulkchilik shakllarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi.¹

O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan, qonun va qonun hujjatlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan mahalliy hokimiyat organlarining komissiyalari, ko'pqirrali va mas'uliyatli vazifalarni bajarmoqdalar.

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda, tegishli hududlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarining

¹ Qarang: Farg'ona viloyati hokimining 2000-yil 24-fevral 64-sonli Qarori bilan tasdiqlangan, komissiya «Ish tartibi». (Joriy materiallari).

hamma tomonlarini qamrab olgan ularning komissiyalari, davlat va jamiyatni rivojlanib borishida eng muhim va dolzarb bo'lgan vazifalarni hal etmoqdalar. Bu esa biz qurayotgan jamiyatda demokratik jarayonlarning rivojlanib borishiga fuqarolik jamiyati qurishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki: "Konstitutsiyaviy me'yorlar va qonunlarning uctuvorligi, ularning inson manfaatlarini ko'zlab ish tutishga va shu doirada ijtimoiy o'zaro munosabatlarni maqbul holga keltirishga yo'naltirilganligi mamlakatda barqarorlikni huquqiy jihatdan ta'minlashning, fuqarolik jamiyati, asoslarini qaror toptirishning asosiy omilidir".¹

3-§. Xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari. Viloyat, tuman, shahar byudjeti va byudjetdan tashqari fondlari

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida "Hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash" belgilangan². Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining bu vakolatlarini amalga oshirish uchun Kengash vakolati muddatiga tuziladigan istiqbolli rejalarning loyihalari qurilish va byudjet bilan muvofiqlashtirish uchun mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi. Bu rejalar Kengash faoliyatini samarali tashkil etish, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash va nazorat qilishga ko'maklashadi. Kengash tomonidan to'liq qamrab olingan istiqbolli rejalashtirish uning barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, hududni har tomonlama rivojlantirishni aholining manfaatlariga moslashtiradi. Istiqbolli kompleks rejalashtirish tizimining yutuqlari barcha bo'g'indagi boshqa Kengashlar va doimiy komissiyalar faoliyatida ham qo'llaniladi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida Xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari: "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi viloyat, tuman, shahar byudjeti va uning ijrosiga doir hisobotlarni tasdiqlaydi.

Viloyat, tuman, shahar byudjeti loyihalarini tayyorlash, uning ijrosini hokim amalga oshiradi. Byudjet loyihasi hokim tomonidan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlari ko'rsatilgan holda taqdim etiladi. Ijroiya

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -T.: O'zbekiston. 1998.-B.151.

² O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» 1993-yil 2-sentabr Qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1993-yil, 9-son, 320-modda.

organlarini pul bilan ta'minlash byudjetda nazarda tutilgan miqdorlarda amalga oshiriladi. Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari tegishincha tumanga bo'ysunuvchi shahar hamda shahardagi tuman byudjetini va uning ijrosiga doir hisobotlarni ham tasdiqlaydilar" deb belgilangan.

Xalq deputatlari kengashlari "Doimiy komissiyalari to'g'risida"gi Nizomning 29-moddasiga binoan quyidagi vakolatlarini o'z tashabbusi yoki Kengash topshirig'iga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish dasturlari loyihalarini, byudjet va dasturlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni o'rganadi; xalq xo'jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qurilishning tegishli sohalarining rivojlanish talablarini o'rganish va haqdagi xulosalarni Kengash sessiyasi muxokamasiga tayyorlash va boshqa vakolatlarini amalga oshiradi. Bu qoida doimiy komissiyalar funksiyalarini samarali amalga oshirish va bunga zarur bo'lgan huquqlarni belgilash imkonini beradi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 13-moddasida viloyat, tuman, shahar byudjetining daromadlari va sarf-xarajatlari belgilangan.

Viloyat, tuman, shahar byudjeti daromadlariga:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar;

- viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulki ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar;

- qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarining muayyan qismi;

- O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

Doimiy komissiyalar mahalliy byudjetga doir Kengash qarorlari loyihalarini ishlab chiqishda katta rol o'ynaydilar. Masalalarni o'rganish va ular yuzasidan qaror loyihalarini tayyorlash, ko'pincha, doimiy komissiyalar bilan ijro organlari yoki ularning maxsus komissiyalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Shu tarzda joylardagi boshqaruv samaradorligini oshirishga erishiladi. Bu holatni Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi misolida ko'rib chiqish mumkin. Komissiyaning ish rejasiga ko'ra, 2005-yilning birinchi choragida byudjetga qarzdorlikni

qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar o'rganilgan¹. Deputatlar bu ishda shahar davlat soliq boshqarmasi va Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiya a'zolarining ishtiroki masalaning chuqurroq o'rganilishini ta'minlaydi, degan xulosaga kelishgan. Shuning uchun hamkorlikda faoliyat yuritish to'g'risida kelishib olingan, alohida e'tiborni taqozo etayotgan masalalar birgalikda belgilab olingan. Har bir korxonaga bir guruh deputatlar bilan birgalikda shahar davlat soliq boshqarmasi hamda Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha komissiyaning a'zolari birlashtirilgan.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari belgilangan bo'lib, "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi:

- fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan;

- byudjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan byudjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin.

Byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari bankdagi maxsus shotlarda turadi, ularni olib qo'yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi".

2005-yilning birinchi choragida byudjetga qarzdorlikni qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar o'rganilganda² tekshiruvlar jarayonida boqimandalik odatlaridan xalos bo'la olmayotgan qarzdor korxonalardan qarzini korxonaga mulki hisobidan undirishi mo'ljallangan va vaqtincha to'xtatilgan, jinoyat ishlari olib borilayotgan va bankrot bo'lgan korxonalar alohida o'rganildi. Natijada, boqimanda qarzi bo'lgan korxonalarining moliyaviy faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatish va ushbu korxonalarining rahbarlarini ma'muriy javobgarlikka tortish choralari ko'rish, tijorat banklariga boqimanda qarzdorlikni qoplash uchun qo'yilgan inkassa talablarining bajarilishini kuchaytirish va boshqa vazifalar Kengashga taqdim etilgan qaror loyihasida soliq inspeksiyalariga yuklatildi. Masalaning chuqur o'rganilishi Kengashga to'g'ri qaror qabul qilish imkonini

¹ Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi mahalliy budjeti shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi majlisining 2005-yil 19-iyundagi bayonnomasi.

² Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi mahalliy budjeti shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi majlisining 2005-yil 19-iyundagi bayonnomasi.

beradi. Qabul qilingan qaror deputatlar tomonidan nazoratga olinadi. Natijada boqimanda qarzlari bor barcha korxonalarining byudjetga bo'lgan qarzlari sezilarli miqdorda kamaydi. Turli muassasalar va tashkilotlar, korxonalar faoliyati doimiy komissiyalarning nazorat obyekti hisoblanadi. Doimiy komissiyalarning nazorat faoliyati Kengash vakolati doirasidagi mahalliy hokimiyat organlariga bo'ysunuvchi organlarni ham, bo'ysunmaydigan organlarni ham qamrab oladi. Bu qoida qonunda mustahkamlangan bo'lib, doimiy komissiyalarning Kengash nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi organi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunning 15-moddasida viloyat, Toshkent shahar valuta fondlarining huquqiy asoslari belgilangan. Unga ko'ra, “Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq viloyat, shahar valuta fondi tashkil etish va ulardan xalq deputatlari Kengashining qarorlariga binoan foydalanishga haqlidir”lar.

Xalq deputatlari Kengashi mahalliy hokimiyat organi sifatida hududni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlantirish masalalarini hal qilish bilan bog'liq faoliyatining shakllari takomillashtirilib bormoqda. Xalq deputatlari kengashlarini mahalliy ijro organlari, boshqa muassasalar, tashkilotlar faoliyatini boshqarmasa ham, ularning ishini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqadi. Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilishini nazorat qiladi. Eng asosiysi, fuqarolar ehtiyojining to'laroq qondirilishini ta'minlaydi.

Xalq deputatlari Kengashining qonuniylikni ta'minlashga doir vakolatlarini amalga oshirishda doimiy komissiyalar va hokimliklar huzuridagi komissiyalar muhim nazorat funksiyasi bilan katta yordam beradi. Bunda doimiy komissiyalar Kengashning tegishli hududdagi davlat organi, muassasa va tashkilotning qonunga zid aktlarini bekor qilish, Kengash talablarini bajarmayotgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, ularni egallab turgan mansablaridan ozod qilishga doir ishlarida faol ishtirok etmoqda.

Mahalliy hududning byudjetining daromadlari va sarf-xarajatlari, byudjetidan tashqari fondlari, qurilish, maishiy xizmat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalaridagi ayniqsa, shu sohalaridagi rahbar kadrlarni tanlashda deputatlarning faoliyatini tashkil etish katta ahamiyatga egadir. Maktablar, bog'chalar, kommunal va boshqa maishiy ob'yektlar tarmog'ini qurish masalalari ayniqsa muhimdir. Ushbu masalalarni hal qilishda deputatlarning komissiyalar faoliyatidagi ishtiroki aholi manfaatlarini to'liq aks etishiga yordam beradi. Bu masalalar albatta doimiy komis-

siyalarning Kengash sessiyalarini tayyorlashdagi ishtiroki bilan bog`liq bo`lib, ularning boshqa funksiyalarini amalga oshirishda muhim bo`lib hisoblanadi. Lekin ma`lum sohada holatning chuqur o`rganilishi va Kengash muhokamasiga taqdim etiladigan materiallarning to`liq va obyektivligi doimiy komissiyalar faoliyatining tayyorgarlik masalalarini to`g`ri tashkil etilishiga bog`liq. Chunki ma`lum masalani tayyorlash jarayonida doimiy komissiyalar o`rganilayotgan sohada vujudga kelgan holatdan xabardor bo`ladilar, uni tahlil qiladilar, kamchiliklarni bartaraf qilishning vosita va yo`llari, shuningdek, tegishli sohani rivojlantirish imkoniyatlarini belgilaydilar. Bu esa, Kengash oldida turgan masalalarni hal qilishni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bugungi kunda doimiy komissiyalar faoliyatini takomillashtirish masalalari ularning tashkiliy va tayyorlash funksiyalari ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi qonunning 19-moddasida "Sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini ro`yobga chiqarish uchun ko`maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o`rnatish maqsadida xalq deputatlari Kengashi o`z vakolati muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi. Komissiyalar to`g`risidagi Nizom tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi" deb belgilangan.

Ushbu qonunning moddasida, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini ro`yobga chiqarish uchun ko`maklashish doimiy komissiyalar faoliyatining asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib, uni bajarish mexanizmi doimiy komissiyalar to`g`risidagi nizomlarda ham, Kenagash Ish tartibida ham belgilanmagan. Vaholanki, doimiy komissiyalar normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta`minlash bilan bog`liq tashkiliy faoliyati Kengash vazifalarini bajarishda katta yordam berishi mumkin.

Qonunlar, Kengash va hokim qarorlarini bajarilishini tashkil etishda hokim mahkamasi va uning komissiyalari yetakchi o`rin tutsa ham, ba'zi tadbirlarni o`tkazishda doimiy komissiyalar bosh rolni o`ynadi. Ayniqsa, qarorning ijrosi omma kuchi bilan amalga oshiriladigan holatlarda bu yaqqol ko`rinadi. Masalan, shaxsiy uy-joylarda, ko`p qavatli uylardagi xonadonlarda gaz, sovuq va issiq suv hisoblagichlarini o`rnatishni¹ tashkil etishda kommunal xo`jalik va atrof muhitni muhofaza qilish bo`yicha doimiy komissiyaning ishtiroki kengroq bo`ldi. Chunki komissiya o`z

¹ Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining «Toshkent shahrining 2002-yil iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida kutilayotgan yakunlar hamda 2003-yilda islohotlarni chuqurlashtirish to`g`risida»gi № 145/11-2-sonli 27-dekabr 2002-yilgi qarorining 3.3.-bandi.

faollari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa nodavlat tashkilotlar orqali qarorning ahamiyatini tushuntirib, uni bajarishdagi muammolarning yechimini topishga yordam berdi. Bunday tadbirlar mahalliy byudjetni shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, doimiy komissiya aholi o'rtasida ishini tashkil qilish jarayonida Kengash, hokim qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlar mohiyatini targ'ib qiladi. Ushbu maqsad bilan doimiy komissiya nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'magida aholi bilan uchrashuvlar o'tkazadi, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar uyushtiradi. Lozim bo'lganda, aholi oldida ma'ruzalar uyushtiradi, ular bilan dolzarb masalalarni hal qilish chora-tadbirlarini muhokama qiladi. Shunday qilib, doimiy komissiya omma diqqatini dolzarb masalalarga qaratadi. O'zining nazorat va tashkiliy faoliyati jarayonida doimiy komissiya ishlab chiqarish, ijtimoiy-madaniy qurilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, mulk va byudjetni shakllantirish, umuman olganda, maishiy hayotni yaxshilashga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qiladi.

Doimiy komissiyalar tashkiliy faoliyatining muhim uslublaridan biri – bu qabul qilingan qarorlarni aholiga to'g'ri yetkazish, uning bajarilishiga doir fuqarolar tashabbusini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ko'radi yani oldindan rejalashtirib oladi. Shu o'rinda deputatlarning faolligi va tashabbuskorligi, hayotiy tajribasi va ishga ijodiy yondashuvi, shaxsiy tashkilotchilik qobiliyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham muayyan hududni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlantirish bo'yicha Kengash qarorlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda saylovchilar ehtiyojlarini ta'minlash deputatlardan qator tashkiliy ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Doimiy komissiyalar vakolatining kengaytirilishida ularning Kengash organi ekani hamda tashkiliy, nazorat va tayyorgarlik funksiyalarini amalga oshirishidan kelib chiqadi. Doimiy komissiyalariga tegishli normativ aktlarni ijro etishga doir masalalar yuzasidan majburiy kuchga ega bo'lgan tavsiyaviy xarakterdagi qarorlar qabul qilishi mumkin. Byudjetga o'zgartirishlar kiritish va tabiiy resurslarni taqsimlash masalalarigina bundan mustasno. Doimiy komissiyalarning byudjet, moddiy resurslarni taqsimlash, mulkchilik bilan bog'liq faoliyati ham chegaralangan. Chunki mazkur sohalar mahalliy boshqaruvning barcha tomonlarini hisobga olishni taqozo etadi. Bu esa hokimiyatning boshqaruv organlari vakolatlariga kiradi.

Lekin yuqorida ko`rsatib o`tilgan masalalar yuzasidan hokimlikning bo`lim va boshqarma rahbarlariga komissiyalar o`z taklif va xulosalarini berishlari va uni vaqtda ko`rib chiqilishini talab qilishlari mumkin. Qoida tariqasida mahalliy vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalar tavsiyalari tegishli manfaatdor organlarga komissiya majlisi bayonnomasi shaklida, ko`chirma qilib yuboriladi, ko`pgina hollarda qo`shma shaklda majlislar ham o`tkazadilar.¹ Masalan, Kengashning mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalari doimiy komissiyasi; hokimlikning yonilg`i energetika resurslaridan foydalanish komissiyasi, hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to`lovlar imtizomini mustahkamlash bo`yicha komissiyasi o`zaro hamkorlikni taqozo etadi. Komissiyalarning birgalikdagi faoliyat maqsadi tegishli masalani hokim va Kengashning umumiy majlisleri kun tartibini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyi turuvchi mahalliy vakillik va hokimlikning komissiyalari yuqori turuvchi komissiyalari ko`rsatmalariga amal qiladi va unga bo`ysunadi hamda ular o`z faoliyatlarini o`zaro hamkorlik asosida tashkil etadilar.

O`zbekiston Respublikasi mahalliy vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalari faoliyatining ish tajribasida hamkorlikni quyidagi shakllari mavjud; tuman va shahar tegishli vakillik va hokimliklar huzuridagi komissiyalari o`tkazadigan tadbirlarida ishtirok etadilar hamda komissiyalar o`z ish rejalarini bir-biriga muvofiqlashtirib oladilar (quyidan, yuqoriga) hamda o`z faoliyat uslublarini takomillashtirish maqsadida tajriba almashadilar. Shuningdek, ushbu komissiyalar o`zlariga tegishli hududlarda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda hokim ko`rib chiqishi uchun takliflarni ishlab chiqadilar.

¹ To`laganov A.T. Davlat hokimiyatini vakillik va o`zini-o`zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etish. O`quv qo`llanma. -T.: Universitet, 1996. - B.117.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.1. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. T1.– T.: O`zbekiston, 1996. - 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.T2.–T.:O`zbekiston, 1996. -380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T3.–T.: O`zbekiston, 1996. - 338 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T4.–T.: O`zbekiston, 1996. -349 b.
5. Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash davr talabi. T.5 – T.: O`zbekiston, 1997. – 384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida.T6. – T.: O`zbekiston, 1998. – 429 b.
7. Karimov I.A Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.T7. – T.: O`zbekiston, 1999.- 410 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.T 8.–T.: O`zbekiston, 2000.- 528 b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz.T9.- T.: O`zbekiston, 2001.- 432 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T10. - T.: O`zbekiston, 2002.- 432b
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li.T11.- T.: O`zbekiston, 2003.- 320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog`liq.T12. - T.: O`zbekiston, 2004.-400 b.
13. Karimov I.A. O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi.T.13.- T.: O`zbekiston, 2005.- 448 b.
14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O`zbekiston, 2005.- 96b.
15. Karimov I.A. «Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi». - T., “O`zbekiston” NMIU. 2005.-64b.
16. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`lim jazosini bekor qilish to`g`risida»gi Farmoni. - “Xalq so`zi”, 2005-yil 2-avgust soni.
17. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o`tkazish to`g`risida»gi Farmoni. - “Xalq so`zi”, 2005-yil. 9-avgust soni.

18. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – T.: O`zbekiston, 2005-yil. - 47 b.
19. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo`lishi dardkor. - O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisida 2006-yil 24-fevral kuni so`zlagan nutqi. – “Xalq so`zi”, 2006-yil 25-fevral soni.

1.2. Normativ-huquqiy aktlar

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O`zbekiston, 2003.
2. Qaraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Nukus “Qoraqalpog`iston”, 1998.
3. O`zbekiston Respublikasining “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to`g`risida”gi (04.04.2002) konstitutsiyaviy Qonun. // *O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002. № 4-5. 60-modda.*
4. “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida”gi (12.12.2002) Qonuni. // *O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002.№12. 213-modda // O`zbekiston Respublikasi 25.04.2003. 482-II-sonli Qonun bilan o`zgartirishlar kiritilgan // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002.№5. 67-modda.*
5. “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to`g`risida”gi 12.12.2002. Qonuni. // *O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002.№12. 215-modda // O`zbekiston Respublikasi 25.04.2003. 482-II-sonli Qonun bilan o`zgartirishlar kiritilgan // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002.№5. 67-modda.*
6. «O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi 2.09.1993. Qonuni. O`zbekistonning yangi qonunlari, 9-son.–T.: Adolat, 1994.
7. “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”gi (Yangi tahriri) 29.08.2003. Qonuni. // *O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003.№ 9-10, 132-modda.*
8. O`zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to`g`risida”gi Qonuniga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish haqida”gi 29.08.2003. 520-II son Qonuni bilan tasdiqlangan. // *O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003.№9-10, 134-modda.*
9. O`zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to`g`risida»gi Qonuni. // O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000-317b.

10. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 02.12.2004. 704-II Qonuni bilan tasdiqlangan // *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004.№12.*
11. "Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonunlar to'plami, 2005. №8-9.- 64 b.
12. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi 02.12.2004. Qonuni. // *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004.№12.*

1.3. Darsliklar

1. To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. (Darslik). -T.: TDYI, 2002.- 194 b.

1.4. O'quv qo'llanmalar

1. To'laganov A.T. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish (O'quv qo'llanma).- T.: Universitet, 1996.- 186 b.
2. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari (O'quv qo'llanma).-T.:Universitet, 1994.-147 b.
3. Husanov O.T.Mustaqillik va mahalliy hokimiyat (huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar).- T.: Sharq, 1996. – 158 b.
4. Jalilov SH. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti, tajriba va muammolar.- T.: O'zbekiston, 1994.-197 b.

1.5. O'quv-uslubiy qo'llanmalar

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma/ So'z boshi A.A.Azizxo'jayev; Tuzuvchilar: O.Xusanov, X.Azizov va boshq. -T.: Sharq, 2001. –128 b.
2. Chuliyev A.B. "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish" fanidan ma'ruza matnlari. - TDYI Kutubxonasi, 2006.- 246 b.
3. Chuliyev A.B. O'zbekiston Respublikasining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish(o'quv uslubiy ko'rsatma).- T.: TDYI, 2003.- 45 b.

1.6. WEB resurslar

1. www.superbaza.ru
2. www.search.uz/uzbekistan/constitution/constitutionlaw_one.php
3. <http://search.i5.ru/tov/osnovi-konstitutsionnogo-prava-rf-uchebnoe-posobie>
4. <http://2004.press-service.uz/rus/documents/documents.htm>
5. <http://2004.press-service.uz/rus/konstitutsiya/konstitutsiya.htm>
6. <http://2004.press-service.uz/rus/prensa/p12032001.htm>

1.7. Qo`shimcha adabiyotlar

- Ковешников Е.М. Государство и местное самоуправление в России: теоретико-правовые взаимодействия.- М.: Издательство НОРМА, 2001.- 272 с.
1. Масленникова С.В. Народное представительство и права граждан в Российской Федерации.- М.: ООО «Городец-издат», 2001.- 176 с.
 2. Адилкариев Х.Т. Законотворческий процесс в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики- Ташкент, 1995.
 3. Husanov O.T. "O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida" gi Qonuniga sharhlar.- T.: Adolat, 1995.-135 b.
 4. M.Boydadayev. O`zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi va boshqaruv tizimining shakllanishi hamda takomillashuvining huquqiy asoslari. Yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2001.- 28 b.
 5. Абдуллаев Ш.Ю. Контрольная деятельность хокимов и областных Советов народных депутатов (в условиях Республики Узбекистан)- Ташкент, 1995.-20 с.
 - 6.

KIRISH	3
I BOB. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining tushunchasi, predmeti, tizimi va o`rganish uslublari	
1-§. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining tushunchasi va predmeti	4
2-§. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining manbalari va boshqa fanlar bilan o`zaro munosabati.....	6
3-§. “Davlat hokimiyati vakillik organlari” fanining tizimi va o`rganish uslublari.....	8
II BOB. O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlari	
1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy asoslari	10
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining turlari va tizimi.....	11
3-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari tizimida vakolatlarining taqsimlanishi	12
4-§. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati.....	13
5-§. Xalq deputatlari viloyat Kengashlari, shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman xalq deputatlari Kengashlari va ularning o`zaro munosabatlari.....	16
6-§. Davlat organlari tizimida davlat hokimiyati vakillik organlarining tutgan o`mi.....	18
III BOB. Bevosita demokratiya shakllari	
1-§. Bevosita demokratiya tushunchasi va turlari.....	20
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari vazifalarini amalga oshirilishida jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlar.....	26
3-§. Vakillik organlari tomonidan jamoatchilik fikrini o`rganish shakllari.....	28
IV BOB O`zbekiston Respublikasida zamonaviy davlat hokimiyati vakillik organlarining tarixi va rivojlanish bosqichlari	
1-§. Totalitar tuzum davrida davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati.....	29
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari rivojlanishida dastlabki bosqich (1991-1995-yillar).....	29
3-§. Bir palatali parlament tizimida davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati (1995-2004-yillar)	31
4-§. Parlament islohotlarining ijtimoiy zaruriyati. Ikki palatali parlament tizimining o`ziga hos hususiyatlari	37
5-§. Parlament islohotlari jarayonida I.A.Karimovning jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish g`oyalarning ahamiyati.....	38

V BOB. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining asosiy prinsiplari

✓ 1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining prinsiplari tushunchasi va ahamiyati	41
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining asosiy prinsiplari tavsifi	43

VI BOB. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari tushunchasi	54
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalari	55
3-§. Davlat hokimiyati vakillik organlarining funksiyalarini ta'minlash vositalari	60

VII BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishning huquqiy asoslari

1-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini shakllantirishdagi umumiy prinsiplar	64
2-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	71
3-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi jarayonini tashkil etish tartibi	75
4-§. Senatning tashkiliy tuzilmasi va uning rahbar organlari hamda mansabdor shaxslarini shakllantirish tartibi	85

VIII BOB. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarini shakllantirish.

1-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining huquqiy maqomi	89
2-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi shakllanishi tartibi	92
3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining funksiyalari	109
4-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari	113

IX BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy shakllari va Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari va doimiy komissiyalari.

1-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakllari	121
2-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatining tashkiliy shakllari	124
3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari va doimiy komissiyalari	126

X BOB. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo`mita va komissiyalari hamda Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari.

1-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo`mita va komissiyalarini shakllantirish tartibi.....	131
2-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi doimiy komissiyalarining faoliyatining tashkil etish va ularning vakolatlari.....	139
3-§. Hokim – xalq deputatlari viloyat Kengashining rahbari.....	146

XI BOB. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosining hamda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi.

1-§. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosining huquqiy maqomi.....	153
2-§. O'zbekiston Respublikasida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi faoliyatining kafolatlari.....	169
3-§. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi.....	173
4-§. Deputat va Senat a'zosini chaqirib olish asoslari va tartibi.....	178

XII BOB. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat tarkibiy tuzilmalari.

1-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining tarkibi va ular faoliyatini tashkil etish.....	184
2-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisining saylanish tartibi hamda ularning vakolatlari.....	187
3-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi siyosiy partiya fraksiyalari va deputatlar guruhi.....	191
4-§. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat devoni.....	196

XIII BOB. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublari.

1-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublari tushunchasi va ahamiyati.....	198
2-§. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining tashkiliy uslublarini amalga oshirish.....	199

XIV BOB. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tizimi va ish faoliyatining shakllari.

1-§. O'zbekiston Respublikasi mahalliy xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari tizimi.....	209
2-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga saylovlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi.....	213
3-§. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining asosiy prinsiplari va vakolatlari.....	229

4-§. Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining funksiyalari. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining “Ish tartibi” va uning tuzilish asoslari.	240
5-§. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari.....	245

XV BOB. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari sessiyalarini tashkil etish va o`tkazish tartibi.

1-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining sessiyasi tushunchasi va saylovdan keyin birinchi sessiyasini o`tkazilish prinsiplari. Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarini chaqirish va o`tkazish tartibi. Xalq xalq deputatlari Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish tartibi.....	249
2-§. Xalq xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalarini chaqirish va o`tkazilishida hokimning vazifalari. Xalq xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari kun tartibi loyihasini tayyorlash va uni hokim tasdig`iga kiritish tartibi.....	254
3-§. Mahalliy xalq deputatlari Kengashi deputatining sessiyalarga tayyorgarlik ko`rish, uni o`tkazilishida o`z saylovchilari va siyosiy partiyalar bilan o`zaro munosabatlari.....	267

XVI BOB. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari komissiyalari ish faoliyatini tashkil etish.

1-§. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari doimiy komissiyalari faoliyatini tashkil etilishining huquqiy asoslari	272
2-§. Komissiyalarni tegishligiga qarab, tuzilish tartibi, vazifalari va rahbarlik masalalarini tashkil etilish tartibi	279
3-§. Komissiyalar faoliyatining tashkiliy shakl va uslublari.....	285
4-§. Komissiyalar vazifalarining amalga oshirish prinsiplari	296
5-§. Komissiyalar faoliyatida davlat hokimiyatining amalga oshirilishini nazorat etish prinsiplari va muvofiqlashtirilishi.....	303

XVII BOB. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy va moliyaviy asoslari.

1-§. O`zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllarining huquqiy asoslari.	309
2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining moliyaviy huquqiy asoslari. Viloyat, tuman, shahar mulki va moliyaviy resurslari.....	317
3-§. Xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari. Viloyat, tuman, shahar byudjeti va byudjetdan tashqari fondlari	322
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.....	329

DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI

Oliy o`quv yurtlarining huquqshunoslik
mutaxassisligi bo`yicha ta'lim olayotgan
talabalar uchun

DARSLIK

Muharrir: *S.Usmonov.*

Texnik muharrir: *J.Abdujalilov.*

Kompyuterda sahifalovchi: *A.Xudaybergenova.*

Bosishga ruxsat etildi: 14.08.2006.

Hajmi: 21,1 b.t. Adadi: 500. Buyurtma № 865.

TDYI kichik bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Sayilgoh, 35.

|||
DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI
|||